O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ARTIKOVA SHOXIDA ILYASOVNA
ULUG‘MURODOV FARXOD FAXRIDDINOVICH
AMRIYEVA SHAXZODA SHUXRATOVNA

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA GLOBALLASHUV

O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND – 2025

UO‘K: 339.24
KBK: 65.5.2

Sh.I.Artikova, F.F.Ulug‘murodov, Sh.Sh.Amriyeva.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv [Matn]: **o‘quv qo‘llanma** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 – 428 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdoga asoslangan holda jahon iqtisodi globallashuvi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyasining muhim nazariy va amaliy jihatlari, ularning mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, global va hududiy integratsiyalashuv shakllari, rivojlanish tendensiyalari, xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

O‘quv qo‘llanma 60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavrlarga mo‘ljallangan. Undan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, talabalar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, soha rahbarlari va mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Ulug‘murodova N.B.- SamDU dotsenti
Isxakova S.A. - SamISI dotsenti.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025 - yil ___ avgustdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (__-sonli majlis bayoni).

.

MUNDARIJA

	KIRISH	6
I BOB	**XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA GLOBALLASHUVNING NAZARIY ASOSLARI.....**	9
1.1.	Globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon iqtisodiyot baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida	9
1.2.	Integratsiya va globallashuv jarayonlarining mohiyati	16
1.3.	Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri	19
II BOB	**JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI**	34
2.1.	Jahon iqtisodiyotini globallashuv: tushuncha va asosiy tamoyillar	34
2.2.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari va asosiy omillar	34
2.3.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonining ijobiy va salbiy natijalari	44
III BOB	**HOZIRGI ZAMONNING GLOBAL MUAMMOLARI**	48
3.1.	Global muammolarning mohiyati va asosiy turlari	48
3.2.	O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi iqtisodiy holatlar	63
3.3.	Sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy muammolar	68
IV BOB	**GLOBAL VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYANING MOHIYATI**	75
4.1.	Mintaqaviy integratsiya shart-sharoitlari va maqsadlari	75
4.2.	Xalqaro integratsiya jarayonining asosiy xususiyatlari hamda uni shakllantiruvchi omillar	78
4.3.	Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy turlari va rivojlanish bosqichlari	87

V BOB	**PUL-VALYUTA INTEGRATSIYANING IQTISODIY ASOSLARI**	95
5.1.	Pul-valyuta integratsiya mazmun-mohiyati	95
5.2.	Yevropada pul-valyuta integratsiyasi	98
5.3.	Pul-valyuta integratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari	102
VI BOB	**YEVROPA ITTIFOQI: INTEGRATSIYANING XUSUSIYATLARI VA UNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI**	106
6.1.	Yevropada integratsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi	106
6.2.	Yevropa Ittifoqining tashkil topishi va asosiy shartnomalar — Yagona Yevropa Akti, Maastricht va Amsterdam shartnomalari	111
6.3.	Yevropa Ittifoqining kengayish istiqbollari va imkoniyatlari	115
VII BOB	**SHIMOLIY AMERIKA MINTAQASIDA INTEGRATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**	120
7.1.	Shimoliy Amerikadagi integratsiyaning boshqa mintaqalardagi modellarga taqqoslanishi	120
7.2.	Shimoliy Amerika Erkin savdo kelishuvi (NAFTA)ning asosiy tamoyillari	128
7.3.	NAFTAning ijobiy va salbiy ta’sirlari	137
VIII BOB	**OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASIDA IQTISODIY INTEGRATSION JARAYONLAR**	143
8.1.	Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (OTOIH): faoliyat maqsadlari va yo‘nalishlari. Uning tashkiliy tuzilmasi	143
8.2.	OTOIH Forumi sammitlarida qabul qilingan muhim qarorlar	151
8.3.	OTOIHda savdo va investitsion erkinlashtirish	158
8.4.	Osiyo-Tinch okean mintaqasida integratsion	161

	jarayonlar xususiyatlari va strategiyasi	
IX BOB	**AFRIKA KONTINENTIDAGI INTEGRATSION JARAYONLAR**	169
9.1.	G‘arbiy Afrikadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari va Iqtisodiy G‘arbiy Afrika Davlatlari Jamiyati (ECOWAS)	169
9.2.	Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida valyuta birligi va iqtisodiy hamkorlik aloqalari	176
9.3.	Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida valyuta birligi va iqtisodiy hamkorlik aloqalari	181
X BOB	**MDH MAMLAKATLARI MIQYOSIDAGI INTEGRATSION RIVOJLANISH**	185
10.1.	MDH davlatlarining global iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati	185
10.2.	MDH doirasidagi integratsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar va kelajak istiqbollari	193
10.3.	O‘zbekiston bilan MDH mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion aloqalarning rivojlanish jarayoni	197
XI BOB	**MARKAZIY OSIYO MUSTAQIL DAVLATLARI GLOBAL IQTISODIYOTGA INTEGRATSIYASI**	204
11.1.	Integratsiya- mintaqaviy barqarorlikning garovi	204
11.2.	Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti	211
11.3.	Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati	214
XII BOB	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI**	220
12.1.	O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtiroki	220
12.2.	Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik	225
12.3.	Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida Shanxay mintaqaviy xalqaro tashkilotining o‘rni	241
XIII	**BUTUN JAHON SAVDO TASHKILOTINING**	247

BOB	**HAMKORLIK SIYOSATI**	
13.1.	Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo‘lishda chet el tajribasi	247
13.2.	JSTning tarkibi va vazifalari	251
13.3.	O‘zbekiston JSTga integratsiyalashuv yo‘lida	256
XIV BOB	**O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI**	265
14.1.	O‘zbekistonning savdo va investitsiya salohiyati	265
14.2.	Xalqaro kapital bozorida O‘zbekistonning ishtiroki	270
14.3.	Eksport salmog‘ining o‘sishi	273
	TESTLAR	278
	GLOSSARIY	319
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	326

KIRISH

“Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun
beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan
muammolarni ham keltirib chiqarmoqda”
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

XXI asr global iqtisodiy tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, texnologik yutuqlar, transport va aloqa vositalarining jadallik bilan rivojlanishi natijasida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar misli ko‘rilmagan darajada kengaymoqda. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon bozoridagi raqobatni kuchaytirib, davlatlarning iqtisodiy siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotida yangi globallashuv bosqichiga kirgan bo‘lib, bu bosqichda davlatlar o‘zaro aloqalarni yanada jadallashtirishga intilmoqda. Bu o‘z navbatida xalqaro miqyosda iqtisodiy faoliyat yuritish, investitsiyalar jalb etish, savdo-sotiq hajmini kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash kabi dolzarb masalalarni ilgari surmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishganidan buyon xalqaro maydonda o‘zining teng huquqli hamkor sifatidagi maqomini mustahkamlab, jahon xo‘jaligiga integratsiyalashish yo‘lida izchil qadamlar tashlamoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz xalqaro iqtisodiy makonda o‘z o‘rnini topa oldi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda erishilgan iqtisodiy yutuqlar xalqaro moliya institutlari — jumladan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi,

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Xususan, iqtisodiy ochiqlik, tashqi savdo erkinligi, investitsion muhitning yaxshilanishi, moliyaviy tizimning modernizatsiya qilinishi va xususiy sektor faolligining oshishi O‘zbekistonni global iqtisodiy tizimning faol ishtirokchisiga aylantirdi. Shu bois, global iqtisodiy jarayonlarning tezkor va murakkab xususiyati, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi, mintaqaviy hamda global integratsion birliklar faoliyatining kengayib borishi ushbu sohani chuqur o‘rganishni zaruratga aylantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida iqtisodiy integratsiyaning O‘zbekiston uchun muhimligini quyidagicha ta’kidlagan: *“Nima uchun bizga iqtisodiy integratsiya kerak! Bizning tashqi savdoga chiqadigan yuklarimizning 80 foizi Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiyaning tranzit yo‘laklari orqali o‘tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo‘yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hissasiga to‘g‘ri keladi*[1]*”.*

Bu fikrlar O‘zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiy xavfsizlik, eksport salohiyatini kengaytirish, texnologik modernizatsiya va raqobatbardoshlikni ta’minlashda global integratsiya asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv” nomli fan aynan shu maqsadlarga xizmat qilgan holda, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va jahon iqtisodiy tizimiga samarali integratsiyalashuvni ta’minlashda yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyaga asoslangan holda jahon iqtisodiy globallashuvi va iqtisodiy integratsiyaning nazariy hamda amaliy asoslarini yoritadi. Ushbu fan talabalarni integratsion jarayonlarning bosqichlari, shakllari va yo‘nalishlari bilan tanishtiradi hamda Yevropa Ittifoqi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) kabi tashkilotlar faoliyatini o‘rganish imkonini yaratadi.

Shuningdek, fanda globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar uchun keltirayotgan imkoniyatlar va xatarlar, global iqtisodiy muammolar — masalan, iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy tengsizlik, moliyaviy inqirozlar tahlil qilinadi.

Kursning asosiy maqsadi — jahon iqtisodiy integratsiyasi va globallashuv jarayonlarining qonuniyatlari va tendensiyalarini o‘rganish orqali O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv omillari va istiqbollarini aniqlashdir. Jahonning turli mintaqalarida shakllangan integratsion tajribalarni tahlil qilish Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

I- BOB. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuvning nazariy asoslari

1.1. Globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon iqtisodiyot baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida
1.2. Integratsiya va globallashuv jarayonlarining mohiyati.
1.3. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri

Tayanch iboralar: drayver, baynalmilallashuv, integratsiya, globallashuv, ishlab chiqarish omillari, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro kapital migratsiyasi, erkin savdo, xususiylashtirish, kichik va o‘rta biznes, monetar siyosat, fiskal siyosat, investitsiya siyosati.

1. Globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon iqtisodiyot baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida

Globallashuv zamonaviy jahon xo‘jaligining shakllanishida asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. U iqtisodiy hayotning baynalmilallashuv darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon milliy iqtisodiyotlarning tobora bir-biri bilan bog‘lanib, yagona global iqtisodiy tizim shakllanishiga olib keladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti, transchegaraviy ishlab chiqarish kooperatsiyasi, tashqi savdo va moliyaviy oqimlar kabi omillar natijasida milliy iqtisodiyotlar o‘zaro integratsiyalashib, ular mustahkam aloqadorlikka ega bo‘lmoqda. Bugungi kunda hech bir mamlakat tashqi omillarni e’tibordan chetda qoldirgan holda iqtisodiy taraqqiyotga erisha olmaydi.

Ma’lumki, mamlakatlar iqtisodiyotlarining bir-biriga bog'liqligi kuchayishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy iqtisodiyotlarga ta’sirining ortishi, katta-kichik davlatlarning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki faollashuvi xo‘jalik faoliyatining baynalminallashuvidir. Iqtisodiyot baynalminallashuvi bir qator bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, dastlabkisi xalqaro iqtisodiy hamkorlik hisoblanadi va bunda tashqi savdoning roli g‘oyat muhimdir. Davlatlar o‘rtasidagi xalqaro xo‘jalik aloqalarining me’yoriy-huquqiy ta’minlanishi, qayta ishlab chiqarish jarayonlarining milliy chegaralardan tashqariga chiqishi xalqaro iqtisodiy hamkorlikdir.

Baynalminallashuvning keyingi bosqichi «xalqaro iqtisodiy integratsiya» atamasi bilan bog'liq. Bu davr xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapital harakati jo‘shqinligining kuchayishi, ilmiy-texnik rivojlanish umumbashariy xarakterga ega bo‘lganligi, milliy iqtisodiyotning ochiqligi va erkin savdo darajasi ortishi bilan izohlanadi[2].

Integratsiya atamasi lotincha integratio — “birlashish”, “yakunlash” ma’nolaridan olingan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan u davlatlararo iqtisodiy tizimlarning muvofiqlashuvi, yagona bozorlar tashkil etilishi va tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakati erkinligiga asoslangan tizimni anglatadi.

Mintaqaviy integratsiya doirasida iqtisodiyotlar o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyat kasb etadi va bu ular orasida yagona strategik rivojlanish modelining shakllanishiga olib keladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya esa ko‘p hollarda mehnat taqsimoti, kapital harakati va texnologik uzviylik

[2] A.M.Alimov. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. -T.: «Fan va tcxnologiya», 2016, 276 bet.

negizida yuzaga keladi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi va ayni paytda murakkab bosqichi bo‘lib, jahon xo‘jaligining yuksak, samarali va istiqbolli rivojlanishi bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda nafaqat turli milliy xo‘jaliklar o‘zaro integratsiyalashadi, balki yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etish mexanizmlari ham shakllanadi Shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy integratsiya har qanday davlatlarni hamkorlikda birlashib faoliyat yuritishga yo‘naltiruvchi jarayon bo‘lib, quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Milliy iqtisodiyotlar o‘rtasida tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi harakatiga bo‘lgan to‘siqlarning bosqichma-bosqich kamaytirilishi;
- Turli davlatlar iqtisodiy siyosatlarining uyg‘unlashtirilishi va muvofiqlashtirilishi;
- Mamlakatlar iqtisodiy siyosatlarining uyg‘unlashtirilishi va muvofiqlashtirilishi;
- Har xil davlatlarga tegishli xo‘jalik subyektlari orasidagi tafovutlarning bosqichma-bosqich yo‘q qilinishi;
- Mamlakatlar o‘rtasida transchegaraviy korporativ hamkorlikning rivojlanishi.

Iqtisodiy integratsiya turli shakllarda: ikki davlat o‘rtasida, ko‘p davlatlar o‘rtasida hamda hududlar kesimida amalga oshirilishi mumkin. *Ikki davlat o‘rtasida* (ikki tomonlama) *integratsiya* ikki davlat o‘rtasida tuziladigan iqtisodiy bitimlar va hamkorlik shakllarini o‘z ichiga oladi. Masalan: Xitoy va Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik kelishuvlari, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik loyihalari.

Koʻp davlatlar oʻrtasida (koʻp tomonlama) *integratsiya* - bu bir nechta davlatlar oʻrtasida tuziladigan iqtisodiy hamkorlik kelishuvlarini oʻz ichiga oladi. Masalan: barcha Afrika davlatlarini birlashtiruvchi Afrika Ittifoqi (AU), Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) yoki Lotin Amerikasi mamlakatlari umumiy bozori (MERCOSUR). *Hududlar kesimida* (hududlararo) *integratsiya* - bu mintaqaviy birliklar oʻrtasidagi oʻzaro iqtisodiy uygʻunlashuv. Masalan: Jahon Savdo Tashkiloti (JST), Trans-Tinch okeani hamkorligi (CPTPP).

Zamonaviy sharoitda integratsion ittifoqlarning asosiy vazifalaridan biri ularning mintaqaviy darajada barqaror rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Buning uchun, odatda, davlatlararo boshqaruv mexanizmlari joriy etilib, yagona mintaqaviy iqtisodiy makon shakllantiriladi. Ayni paytda xalqaro munosabatlar tizimining barcha yoʻnalishlarida muhim va ketma-ket oʻzgarishlar yuz bermoqda. Ushbu jarayonlarning asosiy qismi iqtisodiy globallashuvning kengayib borishi bilan chambarchas bogʻliq. Baynalminallashuv jarayonining bosqichlari esa 1.1-rasmda koʻrsatilgan.

Globallashuv – baynalmilallashuvning eng yuksak bosqichi boʻlib, bu jarayon nafaqat insonlar va tovarlar erkin harakatining kuchayishi, balki bilim va axborot almashinuvi asosida shakllanayotgan keng qamrovli hodisa sifatida namoyon boʻladi. Globallashuvga keng qamrovli ta’rif beriladigan boʻlsa, u odamlarning erkin migratsiyasi, tovar va xizmatlar, texnologiyalar hamda axborot oqimining davlat chegaralaridan toʻsiqlarsiz oʻtishi, xorijiy sarmoya hajmining ortishi, mintaqaviy va ixtisoslashgan bozorlarning oʻzaro uygʻunlashuvi,

shuningdek, ekologik va demografik muammolarning butun insoniyat oldidagi umumiy masalaga aylanishini o‘z ichiga oladi.



1.1-rasm. Baynalminallashuv jarayonining bosqichlari

Ko‘plab mutaxassislarning fikricha, jamiyatdagi hech bir soha – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yoki huquqiy faoliyat – globallashuv jarayonlaridan mustasno holda tahlil etilishi mumkin emas. Yuqorida qayd etilganidek, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jamiyatning turli jabhalarida faoliyat yuritayotgan sohalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning tobora kuchayib borayotganini ifodalaydi.

Umuman olganda globallashuv – bu jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi murakkab, ko‘p qirrali bosqichdir. Bu jarayon ilk bosqichlaridanoq barqarorlikka xavf tug‘diruvchi yangi tahdidlarni yuzaga chiqardi. Avvaliga ular G‘arb mamlakatlaridan tashqaridagi hududlar uchun dolzarbdek ko‘ringan bo‘lsa-da, amalda bu chaqiriqlar butun insoniyatga taalluqlidir. Shu bois, global miqyosda kechayotgan barcha voqea-hodisalar, shuningdek, jahon tizimining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslarda barcha mamlakatlarning o‘zaro hamkorligi va javobgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayoni jahon xo‘jaligini qamrab olib, har bir mintaqa va sohani o‘z ta’siri ostiga tortmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotlar rivojlanishida ichki va tashqi omillar o‘rtasidagi muvozanatni ko‘proq tashqi omillar foydasiga siljishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy davrda ishlab chiqarish omillariga, xususan texnologiyalar va moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj doimiy ravishda ortib bormoqda. Shu sababli, hech bir davlat — u iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra yirik, o‘rta yoki kichik bo‘lishidan qat’i nazar, shuningdek, rivojlanish darajasi rivojlangan, rivojlanayotgan yoki o‘tish davridagi mamlakat bo‘lishidan qat’iy nazar — o‘zini to‘liq va mustaqil ta’minlay olishini da’vo qila olmaydi. Jahon xo‘jaligidagi asosiy ishtirokchilar tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va harakatlarni inobatga olmagan holda, hech bir davlat o‘zining iqtisodiy rivojlanish strategiyasini samarali rejalashtirib, muvaffaqiyatli amalga oshirolmaydi.

“Globallashuv” tushunchasi ko‘plab iqtisodiy manbalarda uchraydi, biroq mavjud adabiyotlarda ushbu atamaga yagona va aniq ta’rif berilmagan. Turli mualliflar ushbu fenomenni o‘zlarining ilmiy qarashlari asosida izohlashadi. Masalan, AQShdagi Kaliforniya universitetining sotsiologi, professor M. Kastels globallashuvni “yangi kapitalistik iqtisodiyot” sifatida ta’riflab, uning asosiy jihatlari sifatida axborot, bilim va raqobatbardosh texnologiyalar ishlab chiqarish darajasini ko‘rsatadi[3].

Boshqa tadqiqotchilar esa globallashuvni ancha tor doirada, ya’ni butun dunyo bo‘ylab iste’molchilarning talab va didi o‘xshashlashganligi, shuningdek, mahsulotlar taklifining umumiylashuvi natijasida global tovarlar milliy mahsulotlarni bozorlardan siqib chiqarmoqda, degan nuqtayi nazardan baholaydilar[4]. Ushbu kurs doirasida biz globallashuvni quyidagicha tushunamiz: **globallashuv — bu jahon miqyosida turli mamlakatlar, mintaqalar, tarmoqlar va sohalar o‘rtasida yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib, natijada dunyo xo‘jaligining yagona tovar, xizmat, kapital, ishchi kuchi, bilim va axborot bozori shakliga kirib borayotgan kompleks jarayonidir**.

Globallashuv bugungi kunda jahon iqtisodiyotining deyarli barcha soha va jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyida ushbu jarayonning asosiy ko‘rinishlari keltirilgan:

- **Tovar va xizmatlar, intellektual mulk obyektlari hamda texnologiyalar**ning milliy darajada, xalqaro miqyosda va butunjahon savdo tizimi orqali erkin harakatlanishi;

[3] Postindustrial dunyo va globallashuv jarayoni. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro mimosabatlar M .2000 - 91 bet.
[4] Р.Кох Менежмент и финансы от Л до Я - СПб «Питер» 1999 г. - С 65

- **Ishlab chiqarish omillari** – tabiiy resurslar, ishchi kuchi, sarmoya va ilg‘or texnologiyalarning davlatlararo erkin harakati;
- **Xalqaro moliyaviy operatsiyalar:** beg‘araz yordam va moliyaviy ko‘mak, kredit va qarz ajratish, qimmatli qog‘ozlar bozori, shuningdek maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi;
- **Ilmiy-texnik, texnologik va axborot sohasidagi hamkorlik**ning tobora chuqurlashuvi;
- **Tovar ayirboshlashdan ishlab chiqarishning baynalmilallashuviga o‘tish:** ya’ni, bir necha davlatdan bo‘lgan ishlab chiqaruvchilar bir mahsulot yaratish jarayonida turli bosqichlarda ishtirok etib, transmilliy korporatsiyalar shakllanishiga zamin yaratmoqda;
- **Kapitalning xalqaro miqyosda harakatlanishi**, ya’ni xorijiy sarmoyalarning tashqi savdo va ishlab chiqarish sohasidagi ulushining tez o‘sishi, fond bozorlarining rivojlanib borishi;
- **Texnologik bilimlar, ilmiy-texnik yutuqlar va ishlab chiqarish vositalari almashinuvi**ning xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya doirasida faollashuvi;
- **Global infratuzilmaning shakllanishi** – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan moddiy, informatsion, tashkiliy va iqtisodiy asoslarning yaratilishi;
- **Xalqaro savdo tizimida sifat va ko‘lam jihatidan yangi standartlarning shakllanishi**, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xizmatlar sohasining ishlab chiqarishga nisbatan jadal rivojlanishi;

- **Ishlab chiqarish va iste’mol faoliyatining ekologiyaga ta’siri,** bu borada xalqaro darajadagi muvofiqlashtirilgan hamkorlikning kengayishi;
- **Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining sezilarli kengayishi**, ya’ni ishchi kuchining global harakati tobora faollashib bormoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan kelayotgan ishchi kuchi, odatda, rivojlangan davlatlarda yuqori malaka talab qilinmaydigan yoki umuman malakasiz mehnat faoliyatlariga jalb etilmoqda. Ayni paytda, ushbu davlatlar arzon ishchi kuchi talab etiladigan sohalarda mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish maqsadida xorijiy migrantlardan foydalanmoqda, ammo bu jarayonni nazorat ostida saqlashga, ya’ni immigratsiya miqyosini muvozanatli darajada ushlab turishga harakat qilmoqda.

Zamonaviy telekommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi esa immigratsiya jarayonlariga yangi yo‘nalish va imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Masalan, hozirda Yevropa, Shimoliy Amerika yoki Yaponiya kabi ilg‘or davlatlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar istalgan nuqtadagi axborot texnologiyalari mutaxassisi bilan masofadan turib hamkorlik qila olishmoqda. Ular masofaviy ish orqali xorijlik dasturchilarga muayyan loyihalarni bajarish bo‘yicha topshiriqlarni o‘z ofisidan turib yuborish imkoniyatiga egadirlar.

1.2. Integratsiya va globallashuv jarayonlarining mohiyati

Iqtisodiy integratsiya deb odatda o‘zaro manfaatli qo‘shma xo‘jalik majmuasini yaratish to‘g‘risidagi bitim asosida ikki yoki undan ortiq

davlatlarning ittifoqi ataladi. Guruh a’zolari o‘zlarining milliy tuzilmalari o‘rtasidagi iqtisodiy o‘zaro ta’sir va alohida mamlakatlarning iqtisodiy mexanizmlarini yaqinlashtirish jarayonini tartibga solishga kirishadilar. Bunday kelishuvlarda integratsiya jarayonining maqsadlari, bosqichlari va asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, kelishilgan turli harakatlarni amalga oshirish mexanizmlari va usullari belgilab berilgan.

Bir qator mualliflar iqtisodiy integratsiyani kelishilgan davlatlararo siyosat asosida milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashishi, o‘zaro moslashuvi va hatto qo‘shilish jarayoni sifatida ta’riflaydilar. Iqtisodiy integratsiya ishtirokchi mamlakatlarda ishlab chiqarishni baynalmilallashtirishni tezlashtirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy parametrlarini tenglashtirish uchun sharoit yaratadi.

Yagona iqtisodiy makonning shakllanishi natijasida raqobatdosh firmalar soni ko‘paymoqda. Ushbu jarayonning salbiy tomonlari yirik transmilliy kompaniyalar bilan raqobatga dosh bera olmaydigan milliy ishlab chiqaruvchilarning ta'sirining zaiflashishi va hatto halokatga olib kelishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan resurslarning (ishlab chiqarish omillarining) chiqib ketishi ko‘pincha tezlashadi.

XX-XXI asrlarda dunyoda integratsiya jarayonlarining tezlashishi ishlab chiqarish ko‘lamining sezilarli darajada oshishi bilan bog'liq bo‘lib, bu korxonalarni o‘z faoliyati uchun maqbul sharoitlarni ta'minlash uchun milliy chegaralardan tashqariga chiqishga majbur qildi.

Mustamlakachilik tizimining yemirilishi va sovuq urushning tugashi jahon hamjamiyatini iqtisodiy jihatdan sezilarli darajada birlashtirish va mustahkamlash imkonini berdi. Xalqaro transport

tarmog'ining paydo bo‘lishi va aloqa sohasidagi sezilarli yutuqlar yuklarni tashish jarayonida iqtisodiy xavf va xarajatlar darajasini sezilarli darajada kamaytirdi; jahon miqyosida mehnat, texnologiya va kapitalning real harakati uchun asos vujudga keldi. Bir necha mamlakatlar guruhlari globallashayotgan iqtisodiyotda boshqa kuchli raqiblar bilan raqobatlashishni osonlashtirdi.

Globallashuv va integratsiyalashuv – bu ko‘p bosqichli va murakkab xarakterga ega jarayonlar bo‘lib, ular quyidagi darajalarda namoyon bo‘ladi:

Makrodaraja: butun mintaqalar va davlatlar miqyosida;

Mezodaraja: tovarlar, kapital, ishchi kuchi hamda valyuta bozorlarida;

Mikrodaraja: alohida kompaniya va transmilliy korporatsiyalar doirasida.

Makroiqtisodiy darajada esa mamlakatlar va ularning ishtirokidagi mintaqaviy integratsion tuzilmalar iqtisodiy faollik doirasini kengaytirishga intilmoqda. Bunda ular savdo to‘siqlarini kamaytirish, investitsiyalar va mehnat migratsiyasiga oid cheklovlarni yumshatish orqali erkin savdo hududi yoki yagona bozorni shakllantirishga qaratilgan siyosat yuritmoqdalar.

Globallashuv jarayoni mikroiqtisodiy darajada ham o‘z aksini topmoqda. Kompaniyalar o‘z faoliyat doirasini ichki bozor chegarasidan chiqarib, xalqaro miqyosga kengaytirgan sari, ular global iqtisodiy maydonning faol ishtirokchisiga aylanmoqdalar. Ayniqsa, yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) bugungi kunda global talab va taklif muvozanatini belgilovchi asosiy subyektlar bo‘lib chiqmoqda. Ular

milliy chegaralardan qat’i nazar, iste’molchilarning talabini qondirishga harakat qiladi va bu orqali strategik bozorlarda ustunlikni qo‘lga kiritadi.

Global bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar turli mamlakatlarda mavjud iste’molchilarning ehtiyojlarini, ishlab chiqarish xarajatlari, texnologik imkoniyatlar, mehnat bozori va raqobat muhiti kabi omillarni chuqur o‘rganishga majbur bo‘ladilar. Shu asosda ular o‘zining ishlab chiqarish, yig‘uv va sotuv bo‘linmalarini turli mamlakatlarda joylashtirish orqali ishlab chiqarish zanjirini optimallashtiradi. Bu esa kompaniyalarga resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va bozor ehtiyojlariga tez javob berish imkonini yaratadi.

TMKlarning jadal rivojlanishi, bir tomondan, ularning texnologik qudrati, moliyaviy salohiyati va boshqaruv tajribasiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular duch kelayotgan iqtisodiy, soliq, bojxona va me’yoriy to‘siqlarni yengib o‘tishdagi moslashuvchan strategiyalar bilan ham izohlanadi. Masalan, ular transfer narxlar tizimidan foydalanib foydani maksimal darajada taqsimlaydi, mahalliy bozorning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib moslashuvchan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi, hamda qo‘shimcha daromad olishga yo‘naltirilgan sarmoyaviy faoliyat olib boradi.

Zamonaviy bosqichda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri – samarali va erkin tadbirkorlik muhitini shakllantirish, milliy xo‘jaliklarni global tovar, xizmat, kapital va mehnat bozorlariga to‘laqonli ishtirokchi sifatida integratsiyalashuvini ta’minlashdan iboratdir. Bunday sharoitda iqtisodiy, huquqiy,

informatsion va madaniy muhitning yagona tamoyillar asosida shakllanishi jahon xo‘jaligini uyg‘un tizimga aylantiradi.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda xo‘jalik muhitining xilma-xilligi globallashuv jarayonlarining yanada avj olishiga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biridir.

Transmilliy kompaniyalar globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, o‘zlarining tashqi iqtisodiy faoliyatiga ichki bozorga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratmoqdalar. Ular nafaqat mahsulot va xizmatlar eksportchisi, balki investitsiya va innovatsiyalar tashuvchisi sifatida ham faoliyat yuritib, globallashuvning moddiy bazasini mustahkamlamoqda.

Biroq, turli mamlakatlar iqtisodiy muhitining farqliligi globallashuv jarayonining to‘liq va to‘sqinliksiz amalga oshishiga ma’lum darajada halaqit bermoqda. Iqtisodiy tizimlar o‘rtasida muvofiqlik yetarli darajada shakllanmaganligi, ijtimoiy va texnologik tafovutlar, boshqaruv yondashuvlarining xilma-xilligi jahon bozoridagi integratsiyani cheklab turuvchi omillardandir.

Kapital oqimlarining tezlashuvi, savdo jarayonlarining umumiylashuvi, transchegaraviy ishlab chiqarish tizimlarining ko‘payishi natijasida global xo‘jalik muhiti shakllanmoqda. Shunga qaramay, jahon iqtisodiy makonini tashkil etuvchi 200 dan ortiq mamlakatning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlari barqaror emas. Bu esa global iqtisodiy rivojlanishga notekislik olib kelmoqda.

Texnologik rivojlanish darajasidagi tafovutlar bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar 4–5-avlod

texnologiyalaridan foydalanayotgan bir paytda, rivojlanayotgan yoki o‘tish davridagi davlatlar hamon 2–3-avlod, hattoki industrial bosqich boshidagi texnologiyalarni qo‘llamoqda. Natijada, yuqori texnologiyali tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqara oladigan mamlakatlar bu mahsulotlarni kam rivojlangan mamlakatlarga eksport qilib, katta foyda olishmoqda.

Globallashuvning zamonaviy iqtisodiyotdagi asosiy ziddiyatli jihatlaridan biri – integratsiya va avtonomizatsiya jarayonlarining bir vaqtning o‘zida kechishidir. Mashhur amerikalik futurolog Jyons Naysbittning ta’kidlashicha, globallashuv bir tomondan siyosiy suverenitet, milliylik va avtonomiya uchun harakatlarni kuchaytirayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan iqtisodiy hamkorlik, iqtisodiy bloklar va integratsion tuzilmalar orqali birlashuv jarayonlarini ham jadallashtirmoqda. Bu esa “Naysbitt paradoksi” deb ataladigan murakkab holatni yuzaga keltiradi.

Demak, milliy iqtisodiyotlar qanchalik barqaror va samarali faoliyat yuritsa, ularning global bozorga moslashuvi, integratsion aloqalardan foydalana olish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Resurslar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish esa milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir.

1.3. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining integratsiyalashuvi jarayonida resurslar, texnologiyalar va bilimlarning erkin aylanishi milliy xo‘jaliklar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar uchun bu jarayon ikki tomonlama ta'sir

koʻrsatadi: bir tomondan iqtisodiy oʻsish uchun qoʻshimcha imkoniyatlar ochilsa, ikkinchi tomondan notoʻg'ri siyosat olib borilganda salbiy natijalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Xalqaro kapital migratsiyasi. Zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti tufayli moliyaviy resurslarning mamlakatlar oʻrtasidagi harakati sezilarli tezlashdi. Bu jarayonda toʻg'ridan-toʻg'ri investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi sarmoyalar va bank kreditlari muhim rol oʻynaydi. Diqqatga sazovor jihat shundaki, moliya oqimlarining oʻsish sur'ati jahon savdo hajmining kengayish sur'atidan ancha yuqori koʻrsatkichlarni namoyish etmoqda. Xalqaro kapital aylanishi barcha ishtirokchi tomonlar uchun foydali natidjalar beradi. Xorijiy sarmoyadorlar turli bozorlar orqali oʻz riskini taqsimlash va global darajada yuqori daromad olish imkoniga ega boʻladilar. Odatda, sarmoya qabul qiluvchi mamlakatlarda foiz stavkalari nisbatan baland boʻlganligi sababli, investorlar oʻz kapitallarini koʻproq foyda keltiradigan hududlarga yoʻnaltiradilar.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtayotgan davlatlar oldida xoʻjalik tuzumini takomillashtirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish kabi muhim vazifalar turadi. Mavjud sohalarni rivojlantirish va yangi yoʻnalishlarni yaratish zarurati mavjud. Biroq, koʻpchilik bunday mamlakatlar ichki moliyaviy manbalarning yetishmasligi muammosiga duch kelmoqdalar.

Bunday vaziyatda jahon moliya bozorlariga chuqur integratsiyalashuv quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun qoʻshimcha moliyaviy imkoniyatlar

- O‘sish sur'atlarining tezlashishi
- Moliyaviy tizimni barqarorlashtirish
- Milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash.

Sarmoyalarni jalb etish orqali iqtisodiy rivojlanish sur'atini tezlashtirish jarayonida moliyaviy resurslarning qanday ko‘rinishda olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalani tahlil qilganda, ko‘pincha to‘g'ridan-to‘g'ri xorijiy sarmoyalarning boshqa turlarga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega ekanligi ma'lum bo‘ladi. To‘g'ridan-to‘g'ri xorijiy investitsiyalar shaklida xalqaro moliya aylanishida qatnashishning afzallik tomoni shundaki, transmilliy korporatsiyalar o‘zlarining zamonaviy texnologiyalarini ochiq savdo orqali sotmaydilar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichidagi davlatlar bunday ilg'or texnologiyalarga faqat bevosita sarmoya jalb qilish yo‘li bilan kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlar uchun muhim ustunliklar yaratadi. Xususan, transmilliy kompaniyalar bilan hamkorlik ularga xomashyo ta’minoti, tayyor mahsulotni sotish tarmoqlari, xalqaro bozordagi marketing tadqiqotlari, zamonaviy boshqaruv tajribasi, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari va malakali kadrlar tayyorlash dasturlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu kabi imkoniyatlar esa mamlakat iqtisodiyoti samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi korxonalar faoliyati, odatda, erkin raqobat muhiti shakllanishiga yordam beradi, bu esa tovar va xizmatlar sifatining oshishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining

kamayishiga hamda ilgari ichki bozorni egallab turgan korxonalarda sifat standartlarining oshishiga olib keladi.

Tovar va xizmatlarning erkin harakati — globallashuvning asosiy xususiyatlaridan biridir. Milliy iqtisodiyotning nisbiy ustunliklarga ega bo‘lgan sohalariga ixtisoslashuvi va xalqaro savdodagi faolligi esa aholining daromad va turmush darajasining o‘sishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ilm-fan va texnika sohasidagi yutuqlar xalqaro savdo vositasida boshqa davlatlarga ham yoyiladi. Bu jarayon to‘g‘ridan-to‘g‘ri – ilg‘or texnologiyalarni boshqa mamlakatlar sotib olganida, yoki bilvosita – yangi texnologiyalar joriy etilgan mamlakat eksport salohiyatining kuchayishi orqali amalga oshadi.

Erkin savdo sharoitlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlari sifatini oshirish orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashishiga xizmat qiladi. Bunday raqobat muhiti, ayniqsa, ishlab chiqaruvchilar kam yoki xorijiy mahsulotlar bilan raqobatlasha olmaydigan tarmoqlarda sezilarli bo‘ladi. Raqobat natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va narxlar tushadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini ta’minlash uchun ham sifatni oshirish va tannarxni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv sharoitida raqobatning kuchayishi natijasida mehnat resurslarining malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi, boshqaruv tizimlari, ilmiy-texnik rivojlanish va zamonaviy infratuzilmaga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ushbu sharoitda iqtisodiy ustunliklarni saqlab qolish uchun ishlab chiqarish resurslari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish, samarali axborot

almashinuvini tashkil etish, infratuzilmani rivojlantirish va strategik qarorlarni vaqtida yangilab borish zarur.

Globallashuv jarayoni narxlar va mahsulot sifati bo‘yicha yagona standartlarning shakllanishini tezlashtiradi. Global raqobat esa doimiy takomillashuvni talab qiladi. Proteksionistik siyosat va iqtisodiy yopiqlik esa xalqaro bozorning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini cheklab, resurslardan optimal foydalanishga to‘sqinlik qiladi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini susaytiradi.

Shuningdek, globallashuv inson kapitalining rivojlanishiga katta turtki bo‘lmoqda. Bu jarayon ilmiy tadqiqotlar, ta’lim va kasbiy malaka oshirish, qo‘shma loyihalarda ishtirok etish va xorijda tajriba orttirish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kengayishi xo‘jalik subyektlariga tezkor va arzon axborot olish imkonini beradi. Ular boshqaruv sifatini oshirib, iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish salohiyatini kengaytirmoqda hamda bozor talablariga mos qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

Jahon xo‘jaligidagi har bir ishtirokchi globallashuvdan bevosita yoki bilvosita ta’sirlanadi. Harakatdagi subyektlar o‘z manfaatlarini ilgari surish orqali zanjirsimon ta’sir mexanizmini shakllantiradi. Bu esa ularning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradi. G. Fisher fikriga ko‘ra, global iqtisodiy o‘zgarishlarning tarqalishida o‘ziga xos mexanizm mavjud. Masalan, “Buyuk turg‘unlik” davrida iqtisodiy inqiroz bir mamlakatdan boshqasiga talabning pasayishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, savdo cheklovlari va natijaviy eksportning kamayishi orqali tarqalgan.

Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari global darajadagi biznes yuritish uslublarini yangidan shakllantirmoqda. Ular o‘zlarining

tashkiliy va texnologik tarmoqlarini kengaytirmoqda. Bunday tarmoqlarga transmilliy korporatsiyalar, diasporalar, mafioz guruhlar, diniy va shahar markazlari asosidagi tarmoqlar kiradi. Bu tarmoqlar global tarmoq bog‘liqligi va transmilliylashuv jarayonini yanada kuchaytirmoqda.

Natijada, davlatlar xalqaro maydondagi funksiyalarini qayta ko‘rib chiqmoqda. Xususan, nodavlat tashkilotlarning xalqaro siyosatga faol aralashuvi hukumatlarning monopol mavqeini zaiflashtirib, ularni jamiyat bilan hisoblashishga majbur qilmoqda.

Globallashuvning o‘ziga xos ta’sirlari mavjud bo‘lib, o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar bunday vaziyatda ehtiyotkor va samarali iqtisodiy siyosat yuritishi zarur. Milliy iqtisodiy strategiya nafaqat global bozor imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishni, balki u bilan bog‘liq xavf-xatarlarni minimallashtirishni ham ko‘zda tutishi kerak.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlar ham globallashuv sharoitida milliy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqib, ularni amalga oshirishda bozor mexanizmlariga sodiq qolmoqda.

Xususiylashtirish. Globallashuvning kuchayib borayotgan zamonaviy bosqichida xususiylashtirish jarayoni va unga asos bo‘luvchi mulkchilik shakllarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishi, ayniqsa, o‘z daromadini oshirishdan manfaatdor bo‘lgan subyektlar sifatida, raqobat muhitining rivojlanishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi, ishlab

chiqarish tannarxining kamayishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi omil sanaladi.

Barqaror iqtisodiy muhitda xususiy mulkchilik subyektlari bozor talablariga mos va tezkor javob bera olish xususiyatiga ega bo‘lib, raqobatdosh ustunliklarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayon iqtisodiyotni tarkibiy qayta tuzish, uni moslashuvchan va samarador tizimga aylantirish hamda ilmiy-texnik rivojlanishni tezlashtirish imkonini beradi.

Xususiy korxonalarni boshqarayotgan rahbarlar ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xavf-xatarlarga nisbatan yuqori mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ular ichki imkoniyatlarni real baholagan holda, aniq va puxta strategiya tuzish, faoliyat yo‘nalishini belgilashda tashabbus ko‘rsatadi. Bu esa korxonaning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytiradi va uning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Xususiylashtirish sharoitida resurslarning maqbul taqsimlanishi va ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalanish muhim ustunliklardan biridir. Aynan xususiy sektor vakillari innovatsion yondashuvlar, xarajatlarni tejash, samaradorlikni oshirish orqali bozor talablariga javob beradigan moslashuvchan iqtisodiy tizimni shakllantiradi. Shu bois, globallashuv sharoitida xususiylashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishning vositasi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Global raqobat sharoitida xususiylashtirish jarayoni faqat mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bilangina emas, balki korxonalarni

modernizatsiya qilish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, boshqaruv va texnologiyalarni yangilash, ishchi kuchining malakasini oshirish kabi kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi zarur. Aks holda, xususiy sektor o‘z imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalana olmaydi va raqobatbardosh muhitda zaif holatda qoladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, xususiylashtirish jarayoni xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratadi. Chet ellik investorlar, odatda, mulk huquqi kafolatlangan, qonunchilik barqaror, iqtisodiy infratuzilma rivojlangan mamlakatlarga sarmoya kiritishni afzal biladilar. Demak, xususiy sektorni mustahkamlash orqali davlat iqtisodiyotga bevosita emas, balki tartibga soluvchi va yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etib, iqtisodiy samaradorlikka erishadi.

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida mamlakatlar chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun xususiylashtirish dasturlarini amalga oshiradilar. Xususiylashtirish orqali davlat iqtisodiyoti ochiqlashadi, bu esa uni xalqaro bozorga olib chiqadi. Xususiy sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni ochishga harakat qiladilar. Qolaversa, Jahon savdo tashkiloti (WTO) va xalqaro moliya institutlari (Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon Banki) tavsiyalariga ko‘ra, davlat iqtisodiyotini liberallashtirish va xususiylashtirish zarurati tug‘iladi. Texnologiya va menejmentni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan xususiy sektor ko‘proq innovatsion va samarali boshqaruv usullarini joriy qiladi, bu esa globallashuv davrida muvaffaqiyatli raqobatbardoshlik kalitidir.

Globallashuv sharoitida xususiylashtirishning bir qator afzalliklari mavjud:

- Kapital oqimini ko‘paytiradi.

- Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
- Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qiladi.
- Mehnat unumdorligini oshiradi.
- Davlat byudjetiga daromad keltiradi.

Bundan tashqari, transmilliy kompaniyalar xususiylashtirilgan resurslar asosida global miqyosda savdo-sotiq qilishga o‘tadilar, ya’ni, xalqaro bozorga chiqadilar.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish. Hozirgi davrda xususiy tadbirkorlikni kengaytirish yo‘lida duch kelinayotgan asosiy muammolardan biri moliyaviy tizimga bo‘lgan ishonchning yetarli emasligidir. Bu holat, o‘z navbatida, fond bozorining to‘liq shakllanmasligiga, korxonalar rentabellik darajasining pastligiga hamda qimmatli qog‘oz egalari orasida chinakam mulkdorlik hissining yetishmasligiga olib kelmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo‘lidagi ijobiy siljishlar — byudjet taqchilligini kamaytirish, real foiz stavkalarining o‘sishi, inflyatsiyaning pasayishi, ishlab chiqarish vositalarining likvidligi oshishi kabi ko‘rsatkichlar — sohalar kesimida tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga zamin yaratadi. Bularning barchasi korxonalarning moliyaviy salohiyatini yaxshilab, investitsiyalar samaradorligini oshirish orqali, xususiy sektorning rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va mamlakat xo‘jaligining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi doirasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ichki moliyaviy manbalar cheklangani hamda tashqi qarz yuki muayyan

me’yor doirasida saqlanishi lozimligi — bu holat sanoat siyosatini aniq va samarali yo‘naltirishni talab qiladi. Xususan, tashqi savdo erkinlashuvi sharoitida barcha tarmoqlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yo‘q. Shu sababli har bir tarmoqning raqobatbardoshligini baholash, qaysi sohalarga davlat subsidiyalari zarur, qaysilarini esa faqat ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash kifoya ekanligini aniqlashtirish muhim masalaga aylanadi.

Bundan tashqari, xalqaro raqobat kuchayib borayotgan va global mehnat taqsimoti chuqurlashayotgan bir sharoitda milliy iqtisodiyotning moslashuvchanlik darajasi tarkibiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Bu esa mavjud iqtisodiy tuzilmalarning qayta ko‘rib chiqilishi va davlat tomonidan strategik ahamiyatga ega loyihalarga maqsadli ko‘mak ko‘rsatishni zarur qiladi. Umuman olganda, xususiy sektor faoliyatini rivojlantirish uchun davlat aralashuvining minimal darajaga tushirilishi muhimdir. Globallashuv davrida davlat o‘zining bevosita mulkdorlik pozitsiyasidan voz kechib, samarali iqtisodiy siyosat yuritishi, tadbirkorlik subyektlari uchun aniq va barqaror huquqiy maydon yaratishi lozim.

Innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish, startap loyihalarini moliyalashtirish, inkubator va texnoparklar faoliyatini kuchaytirish orqali xususiy sektorning zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga erishish mumkin. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o‘rta korxonalar uchun elektron savdo maydonchalari, moliyaviy texnologiyalar (fintech), onlayn xizmatlar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o‘rta biznes milliy iqtisodiyotning o‘sishi, bandlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, kichik va o‘rta biznesning bir qator afzalliklari mavjud: ular tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslasha oladi, yangi g‘oyalarni joriy etishda tezroq harakat qiladi, ko‘plab ish o‘rinlari yaratadi. Dunyo tajribasida ushbu sektor umumiy bandlikning 60-70 foizini tashkil qiladi. Kichik va o‘rta biznes korxonalari o‘z resurslariga asoslanib, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradi va hududiy iqtisodiyotni jonlantiradi, bu bilan globallashuv jarayonida milliy iqtisdoiyotning raqobarbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari ular davlat budjetiga muntazam ravishda soliq to‘laydi va mahalliy daromadlarni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Monetar siyosat. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-moliya tizimini tartibga solish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda monetar siyosat muhim rol o‘ynaydi. *Monetar siyosat* – bu markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan, pul massasi, foiz stavkalari va kredit hajmini nazorat qilish orqali iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish vositasidir. U inflyatsiyani jilovlash, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va valyuta barqarorligini saqlash orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon globallashuv bosqichida pul-kredit (monetar) siyosati har bir davlatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida markaziy o‘rin tutadi. Asosli va puxta ishlab chiqilgan monetar siyosat — makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash, bank tizimiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish, moliya bozorlarini rivojlantirish hamda barqaror va jozibador investitsion muhitni yaratish uchun mustahkam poydevor

bo‘lib xizmat qiladi. Bu omillar o‘z navbatida xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratar ekan, mamlakatda iqtisodiy islohotlarning jadallashuviga, xo‘jalik tizimining raqobatbardoshligini oshishiga va global iqtisodiy jarayonlarga faol integratsiyalashuviga zamin hozirlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, pul bozori barqarorligi — ayniqsa globallashuv kuchaygan davrda — markaziy banklar tomonidan yuritilayotgan ehtiyotkor, ishonchli va moslashuvchan monetar siyosatga bevosita bog‘liqdir. Foiz stavkalari, valyuta kursini tartibga solish kabi vositalar orqali iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatiladi. Masalan, foiz stavkalarining haddan ortiq ko‘tarilishi natijasida banklar daromadi qisqarib, kreditlash hajmi kamayadi, bu esa xususiy sektor faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xuddi shuningdek, valyuta siyosatining keskinligi tufayli ichki aktivlar narxlari barqaror saqlansa-da, uzoq muddatda milliy valyutaning qadrsizlanishi (devalvatsiyasi) tashqi qarz yukining ortishiga sabab bo‘ladi. Bu holat esa iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida samarali monetar siyosat nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda, balki milliy iqtisodiyotning xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy, savdo va valyuta oqimlarining keskin ortishiga olib keldi. Bunday sharoitda har bir mamlakat o‘zining ichki pul-kredit siyosatini (monetar siyosatini) tashqi iqtisodiy ta’sirlar bilan muvofiqlashtirish zaruratida qolmoqda. Globallashuv davrida samarali monetar siyosat

yuritish nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni, balki xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Bunda monetar siyosat xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilish, davlat qarzini boshqarishda puxta strategiyalarni ishlab chiqish, pul-kredit siyosatini yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy sektorni isloh qilish. Rivojlangan va muvozanatli moliyaviy tizim globallashuv sharoitida iqtisodiy tizimning tarkibiy transformatsiyasi, milliy xo‘jalikning raqobatbardoshligi oshishi hamda iqtisodiy o‘sish salohiyatining kengayishiga xizmat qiladi. U jamg‘armalarni samarali investitsiyalarga aylantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayoni, avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional islohotlarning izchilligi hamda umumiy iqtisodiy muhitning barqaror bo‘lishiga bog‘liq. Biroq, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida islohotlar amalga oshirilmasdan turib moliyaviy tizimni liberallashtirish xatarli bo‘lishi mumkin. Aks holda, noto‘g‘ri yo‘naltirilgan kapital oqimi, foiz stavkalarining izsiz oshishi va moliyaviy institutlarning beqarorlikka yuz tutishi kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Global iqtisodiy maydonda raqobat kuchaygan bir sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi asosan moliyaviy siyosatning sifatiga bog‘liq bo‘lib, unda moslashuvchan va ehtiyotkor valyuta siyosatining tutgan o‘rni alohida. Marshal-Lerner shartiga muvofiq, tashqi savdo muvozanati va qarz xizmatlari samaradorligini ta’minlashda optimal valyuta kursini tanlash zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, yirik mamlakat va mintaqalarda yuz berayotgan moliyaviy

o‘zgarishlarni tizimli o‘rganish va tahlil qilish, milliy moliyaviy tizimni boshqaruvchi organlar zimmasiga yuklangan muhim vazifadir.

Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayonida to‘lovga layoqatsiz bank va korxonalarda restrukturizatsiya olib borish, raqobatbardosh va huquqiy muhitni yaratish, shuningdek, moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati ta’minlanadi.

Bir nechta valyuta kurslarining mavjudligi esa monetar siyosat yuritishda qator murakkabliklar keltirib chiqaradi. Bu holat tashqi savdo operatsiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va kapital oqimining chetga chiqib ketish xavfini kuchaytirishi mumkin. Turli valyuta kurslari iqtisodiy subyektlarga noto‘g‘ri axborot yetkazib, resurslar samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. Masalan, bu holat iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishning ortishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Valyuta kursining yagona tizim asosida belgilanishi (unifikatsiyasi) tashqi savdo siyosati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Milliy valyutaning devalvatsiyasi eksport hajmini sun’iy tarzda oshirsa-da, import hajmini qisqartiradi. Aksincha, valyuta kursining haddan tashqari yuqoriligi eksport mahsulotlarining narxini oshirib, ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kamaytiradi. Natijada tashqi savdo balansida manfiy tafovut vujudga keladi, bu esa makroiqtisodiy muvozanatga tahdid soladi.

Fiskal siyosat— bu davlat tomonidan soliq tushumlari va budjet xarajatlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish vositasi bo‘lib, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va

iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu siyosat turli iqtisodiy sharoitlarda davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish orqali bozor iqtisodiyotiga ta’sir qilish imkonini beradi. Fiskal siyosatning asosiy maqsadi — iqtisodiy sikllarni yumshatish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va moliyaviy barqarorlikni saqlashdir. Bu siyosat iqtisodiyotni tartibga solishda muhim davlat instrumentidir. To‘g‘ri olib borilgan fiskal siyosat orqali iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilish mumkin.

Globallashuv sharoitida soliq yuki yuqoriligi bir qator iqtisodiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bu, avvalo, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshlik salohiyatining pasayishiga, daromadlarni yashirish holatlarining ko‘payishiga va norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga olib keladi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish va eksportning tarkibiy diversifikatsiyasi sekinlashadi, natijada kapital va yuqori malakali ishchi kuchining chet elga oqib chiqishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi.

Bu muammolarni samarali hal etish fiskal siyosatning qanchalik moslashuvchan va maqbul olib borilishiga bog‘liq. Zamonaviy iqtisodiyotda soliq tizimi nafaqat byudjetni to‘ldirish vositasi, balki iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi strategik instrument sifatida ko‘riladi. Soliq to‘lovlari va imtiyozlar yordamida muayyan sohalarni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishni faollashtirish imkoniyati mavjud.

Barqaror raqobat muhiti va huquqiy asoslangan xo‘jalik yuritish tizimini shakllantirish uchun soliq yuki tarmoqlar kesimida adolatli va

mutanosib taqsimlanishi zarur. Buning uchun tarmoqlararo solishtirma tahlil o‘tkazilib, qaysi sohalarda soliq yukini biroz oshirish evaziga boshqa tarmoqlarga imtiyozlar berish iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo‘lishi aniqlanadi.

Shunday qilib, globallashuv jarayonlarining kuchayib borayotgan ta’siri ostida soliq tizimi an’anaviy fiskal siyosat vositasi bo‘lish bilan birga, rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida ham faol ishlashi zarur. Bu esa soliqqa tortish jarayonini soddalashtirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qo‘shimcha yengilliklar yaratish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiya siyosati — bu davlat tomonidan mamlakatga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish, ularni himoya qilish va samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, raqobatbardosh sanoatni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy qilish va texnologik yangilanishga erishish.

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalar iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalarni joriy etish va bandlik darajasini oshirishning muhim manbai hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari esa kapital harakati erkinligini ta’minlab, mamlakatlar o‘rtasidagi investitsion aloqalarni yanada faollashtirdi. Shu sababli, har bir davlat o‘zining investitsiya siyosatini puxta va raqobatbardosh tarzda yuritishi zarur. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) jalb etish iqtisodiy taraqqiyotning strategik omiliga aylanmoqda.

Globallashuv jarayonida mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ishlab chiqarish va eksportni diversifikatsiyalash orqali jahon xom ashyo bozorining noaniq va o‘zgaruvchan sharoitlariga qaramlik darajasini kamaytirish hamda aholining daromadlarini oshirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqsadlarga erishishda faol investitsiya siyosati olib borish va investorlar uchun qulay biznes-muhit yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jamg‘arish va investitsiyalarning ma’qul darajasi milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. Shu bois ularning roli va ahamiyatini aniq belgilash juda muhimdir. Investitsiya siyosati iqtisodiy siyosat turlari orasida eng murakkab hisoblanib, uning samarali amalga oshirilishi mavjud resurslar va ularning sifatiga chambarchas bog‘liqdir.

O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investitsiyalarga talab yuqori bo‘lib, ularni iqtisodiy taraqqiyot mezoni sifatida qabul qilishadi. Investitsiya siyosati, ayniqsa, mamlakatning qiyosiy ustunliklarga ega bo‘lishi yoki afzalliklarini oshirishi mumkin bo‘lgan tarmoq va sohalarga yo‘naltirilishi lozim. Bundan tashqari, qulay investitsiyaviy muhit yaratish va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu esa iqtisodiyotning turli sohalarida – soliq-byudjet, pul-kredit va tashqi iqtisodiy faoliyatda muvofiq dasturiy yechimlar amalga oshirilishini talab qiladi.

Tashqi savdo siyosati — davlat tomonidan xalqaro savdo munosabatlarini boshqarish, milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya

qilish hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan turli chora-tadbirlar va mexanizmlar majmuasidir. U iqtisodiy rivojlanish, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi.

Tashqi savdo siyosatining asosiy maqsadi — milliy iqtisodiyotning xalqaro bozor bilan samarali integratsiyasini ta’minlashdir. U quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘ladi: eksportni rag‘batlantirish, importni samarali tartibga solish, to‘lov balansini barqarorlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish, xalqaro savdo tashkilotlari bilan integratsiyani rivojlantirish.

Globallashuv jarayonlari mamlakatning tashqi savdo sharoitlari va rivojlanish istiqbollariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirlarni maksimal darajada ijobiy tomonga yo‘naltirish va xavf-xatarlarni kamaytirish uchun milliy iqtisodiyotning turli sohalarida birgalikda amalga oshiriladigan kompleks islohotlar katta ahamiyatga ega. Masalan, valyuta bozorining erkinlashtirilishi eksport va import faoliyatini rag‘batlantiradi, shuningdek, raqobatbardosh muhitni shakllantirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish natijasida tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni kuchayadi.

Tashqi savdo siyosati mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilovchi asosiy omillardan biridir. To‘g‘ri va muvozanatli tashqi savdo siyosati yordamida iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, eksportni ko‘paytirish hamda milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini samarali himoya qilish mumkin.

Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy ko‘rsatkichlari qaysilar?

2. Baynalminallashuv jarayonining rivojlanish bosqichlari qanday ko‘rinishda kechadi?

3. Nega globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning murakkab va muhim bosqichi sifatida qaraladi?

4. Jahon iqtisodiyotida globallashuv qaysi sohalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda?

5. Globallashuv va integratsiya darajalarini qanday tavsiflash mumkin?

6. Globallashuv jarayonining yanada rivojlanishiga qanday omillar to‘sqinlik qilmoqda?

7. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining milliy iqtisodiyotlarga ta’siri qanday yo‘nalishlarda amalga oshadi?

8. Globallashuvning iqtisodiy-tashkiliy, texnologik, ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy jihatlarini tushuntiring.

II- BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI



2.1. Jahon iqtisodiyotini globallashuv : tushuncha va asosiy tamoyillar.

2.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari va asosiy omillar.

2.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonining ijobiy va salbiy natijalari**.**

Tayanch iboralar: globallashtirish, liberallashuv, raqamli taraqqiyot, mehnat harakatchanligi, raqobat, moliyaviy bozor, xalqaro investitsiyalar, transmilliy banklar, nodavlat tashkilot, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar**.**

2.1. Jahon iqtisodiyotini globallashuv: tushuncha va asosiy tamoyillar

Jahon xo‘jaligini globallashtirish tushunchasi — bu atama nisbatan yangi bo‘lib, XX asrning 1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshida keng ilmiy doiralarda joriy qilingan. Ushbu davrgacha “globallashtirish” tushunchasi asosan yirik xalqaro kompaniyalar mahsulotlari alohida savdo bozorlarini yoki milliy va xorijiy bozorlarning o‘ziga xos

segmentlarini egallashiga qaratilgan emas, balki korporativ strategiyalarni global miqyosda bozorlarni qamrab olishga yo‘naltirish kabi maxsus hodisani ifodalash uchun ishlatilgan. Taxminan 40 yil oldin, amerikalik olim T. Levitt 1983-yilda “Harvard Business Review” jurnalida e’lon qilingan “Bozorlarning globallashuvi” nomli maqolasida transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan turli mahsulotlar bozorlarining birlashuvi haqida fikr yuritgan[5]. Levittning ta’kidlashicha, ilgari kompaniyalar har bir mamlakat yoki mintaqaga moslashtirilgan, "mahalliylashtirilgan" mahsulotlar ishlab chiqarar edi. Lekin globallashuv sharoitida bu yondashuv o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlagan. Transmilliy korporatsiyalar endi har xil hududlar uchun alohida mahsulotlar emas, balki yagona, jahon bozoriga mo‘ljallangan universal mahsulotlar ishlab chiqarishni afzal ko‘rmoqda. Levitt o‘z maqolasida **Coca-Cola, McDonald’s, Sony** kabi kompaniyalarni global standartlashtirilgan mahsulotlar siyosatini yuritayotgan ilg‘or namuna sifatida keltirgan. Ular har xil madaniyatlarga ega davlatlarda bir xil mahsulotlar orqali muvaffaqiyatga erishayotgan edi.

1980–1990-yillar boshi “globallashtirish” tushunchasiga yangi mazmun va talqin olib kirdi. Aslida, bu atama dastlab yaponiyalik, keyinchalik amerikalik taniqli iqtisodchi K. Ome tomonidan aniqlangan bo‘lib, uning tushuncha shakli jahon xo‘jaligining yangi rivojlanish yo‘nalishlari va hozirgi zamon holatini ifodalashda keng qo‘llanila boshlandi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan murakkab va ko‘p qirrali jarayonlar tufayli 1990-yillargacha globallashtirishning yagona, aniq

[5] T. Levitt. “Bozorlarning globallashuvi” // Harvard Business Review, 1983, №3, B. 92–102.

ta’rif va tushunchasi shakllanmadi. Turli olimlar va ekspertlar globallashtirishga har xil nuqtai nazardan yondashib, uning mazmuni va chegaralarini boshqacha talqin qilishadi. Masalan, globallashtirish jarayonlari tarixan qadim zamonlardan boshlangan yoki xalqaro bozorlarning ilk shakllanishidan rivojlanib kelayotganligi ta’kidlanadi.

Xalqaro iqtisodiyotda globallashtirish — bu asosan XVIII asr boshlaridan boshlangan jarayon, degan fikrlar ham mavjud (masalan, V. Fedorovning ta’kidlashicha). Biroq, globallashtirish va internatsionallashtirish atamalari ko‘pincha bir-biriga aralashib, farqlanishi noaniq bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining globallashtirilishi — bu zamonaviy butunjahon iqtisodiy tizimining rivojlanish bosqichi bo‘lib, u jahon xo‘jaligining yangi sifatli xususiyatlarini namoyon etadi. Jumladan, jahon iqtisodiy tizimining yaxlitligi oshishi, ko‘plab davlatlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchayishi, ilgari yopiq bo‘lgan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy jarayonlarga jalb qilinishi, global tovar va moliya bozorlarining shakllanishi kabi jarayonlar globallashtirishning asosiy belgilaridir.

Y.V.Shishkov ta’rificha, jahon xo‘jaligi endi xalqaro mehnat taqsimotidan tashqari butunjahon ishlab chiqarish va savdo tizimlari, global moliyaviy tizim hamda axborot tarmoqlari bilan birlashgan yagona iqtisodiy struktura hisoblanadi. Ishlab chiqarish resurslari joylashuvi va investitsiyalarning taqsimoti global iqtisodiy holatga mos ravishda amalga oshiriladi, iqtisodiy o‘sish va inqirozlar butunjahon miqyosida kuzatiladi.

V.P.Kolesova tahriridagi monografiyada globallashtirish internatsionallashtirishning eng yuqori bosqichi sifatida ta’riflanadi.

Xalqaro Valyuta Fondining ta’rifiga ko‘ra, *globallashtirish — bu tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlarining hajmi va xilma-xilligi oshishi, shuningdek, texnologiyalarning tez va keng tarqalishi natijasida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik kuchayishidir*.

Proffesor A. Katsovich globallashtirish jarayonini tasvirli yoritilishi va jahon xo‘jaligining yangi tavsiflari yuzaga kelishi: “Globallashtirish chegaralar orqali iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni intensifikatsiya qilish orqali aniqlanishi mumkin. Globallashtirish – bu erkin savdo to‘g‘risidagi bitimlar uyg‘unligi, jahonni yagona va o‘ta raqobatli bozorga aylantirgan Internet hamda moliyaviy bozorlarning birlashishidir”, degan taklifni kiritadi.

Umuman globallashtirish jarayonlarini tushunishga yondashuv asosida Butunjahon banki Prezidenti Dj. Vulfensonning jahon xo‘jaligi va jahon sotsiumi zamonaviy holati to‘g‘risidagi quyidagi mulohazalari joy olgan:

“Globallashtirish jahonni yagona global tarkibga aylantiradi, milliy va internatsional birliklar esa bir-biriga qo‘shilib ketadi. So‘nggi moliyaviy inqiroz, OITS, global isib ketishlarni eslang. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi yashash tarzimiz va biznes uslubimizni o‘zgartiradi. Xususiy sektor – xususiy kapital oqimlarining masalan rivojlanayotgan mamlakatlar hozirga kelib, ushbu mamlakatlarning G‘arbiy moliyalashtirish hukumat manbalaridan besh marotaba ortib ketayotgani, misli ko‘rilmagan darajada taraqqiy etib ketdi. Qashshoq mamlakatlarda tezkor urbanizatsiya yuz berib, fuqarolik

jamiyati vujudga kelmoqda, demokratiya rivojlanmoqda – hukumat ham markaziy hokimiyatdan mahalliy darajaga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Ushbu yo‘nalishlardan foydalana oladigan mamlakatlar misli ko‘rilmagan darajada ilgariga sakramoqdalar. Integratsiyadan ortda qolayotgan mamlakatlar degradatsiyalanadi. Ularning qoloqlik darajalari ortib borib, boshqa mamlakatlarga nisbatan teng huquqliligi murakkablashib boradi”.

Globallashtirishning muhim elementlaridan biri sifatida yerdagi deyarli har qanday nuqtadan moliyaviy muassasalarga katta miqdordagi mablag‘larni tez va oson o‘tkazish imkonini beruvchi global axborot maydoni va tarmog‘i — global moliya bozori shakllantirilgani qayd etiladi. Bu bozorda milliy moliya bozorlarining (masalan, yevrobozorlar) va offshor moliya markazlarining ahamiyati oshmoqda. Globallashtirish jarayonida moliyaviy bozorlardagi ba’zi inqirozlar natijasida, ayniqsa ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda, moliyaviy kapitalning davlatlararo harakati tezlashib, u mamlakat iqtisodiyotlariga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli moliyaviy kapital milliy iqtisodiyot chegaralarini buzib o‘tuvchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi.

Globallashuvning asosiy tamoyillari — ushbu jarayonni belgilovchi, uni yo‘naltiruvchi va iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarda namoyon bo‘ladigan muhim qoidalar yoki yo‘nalishlardir.

Globallashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Bozorlarning ochiqligi (liberallashuv)- davlatlarning o‘z milliy bozorlarini boshqa mamlakatlar uchun ochishi, bunda: bojxona to‘siqlari kamayadi, tashqi savdo va investitsiyalar erkinlashadi, milliy

kompaniyalar global raqobatda ishtirok eta boshlaydi, bu esa sifat va samaradorlikni oshiradi. Investitsiyalar bir mamlakatdan boshqasiga oson kirib boradi. Tashqi investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, ochiq bozorlar yangi texnologiyalar va bilimlarning tez tarqalishiga yordam beradi.

2. Erkin savdo va investitsiyalar harakati- bu davlatlar o‘rtasida tovar va xizmatlar hamda investitsiyalar almashinuvi jarayonida tariflar (bojxona solig‘i), kvotalar va boshqa to‘siqlarning mavjud emasligi yoki kamaytirilgan holatidir. Ushbu jarayon mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradi va milliy iqtisodiyotlarni jahon bozoriga yanada yaqinlashtiradi. Bunda: **t**ovarlar, xizmatlar va kapital harakati chegaralardan erkin o‘tadi, xorijiy investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratiladi va Jahon savdo tashkiloti (WTO) kabi institutlar bu tamoyilni tartibga soladi.

3. Texnologik integratsiya va raqamli taraqqiyot — bu turli davlatlar, kompaniyalar yoki institutlar o‘rtasida texnologiyalarni birgalikda yaratish, ularni almashish yoki uzatish, hamkorlikda tadbiq qilish jarayonidir. Ushbu integratsiya ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ilg‘or texnologiyalarning tezkor tarqalishini ta’minlaydi. Natijada texnologiyalar global darajada tarqaladi, internet, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot globallashuvning asosiy vositasiga aylanadi, axborot almashinuvi tezlashadi. Misol: Xitoyda ishlab chiqarilgan elektron komponentlar AQShda yig‘ilib, Yevropada sotilishi.

4. Mehnat va bilim resurslarining harakatchanligi - bu ishchi kuchining, jumladan, olimlar, muhandislar, IT mutaxassislari,

tadqiqotchilar, talabalar kabi intellektual salohiyat egalarining xalqaro harakatlanishi. Bu hodisa zamonaviy jahon iqtisodiyotining rivojida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon xorijda o‘qish, ishlash imkoniyatlarini oshiradi va global bilim almashinuvini rivojlantiradi.

5. Raqobatning kuchayishi— bu globallashuv sharoitida kompaniyalar, sanoat tarmoqlari va butun mamlakatlar o‘rtasida bozor ulushi, resurslar, iste’molchilar va innovatsiyalar uchun kurashning keskinlashuvini anglatadi. Bu hodisa iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omillaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish sifati, mahsulot narxi va xizmatlar darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Raqobatning kuchayishi natijasida Global bozorlar ochiladi, innovatsiyalarni jadallashtiradi. kompaniyalar xaridorni jalb qilish uchun mahsulot sifatini oshiradi va narxni pasaytiradi.

2.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari va asosiy omillar

Globallashuv jarayonlarini tahlil qilishning keyingi bosqichi — bu globallashuvga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va uni harakatga keltiruvchi kuchlarni o‘rganishdir. Bu jarayonda jahon iqtisodiyotida kapitalning markazlashuvi va ko‘payishi, shuningdek, yirik transmilliy kompaniyalar va moliyaviy guruhlarning faoliyati hamda rivojlanishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy globallashuvda kuchli ta’sir etuvchi omil sifatida nafaqat milliy, balki global bozorlarda yuzaga kelayotgan raqobatni ko‘rsatish mumkin. Ushbu raqobatning asosiy vositalari — xarajatlarni kamaytirish, mahsulot va xizmatlarning sifatini

yaxshilash hamda ularning turini kengaytirish bo‘lib, aynan shu omillar globallashuv jarayonining asosiy dvigateli hisoblanadi.

Globallashuvning muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ilmiy va texnik taraqqiyot hamda texnologik innovatsiyalardir. Bu taraqqiyot transport, aloqa, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishida aniq aks etadi va tovarlar, xizmatlar, moliyaviy vositalar, g‘oyalar hamda axborot mahsulotlarini tez va arzon narxlarda chegaralararo yetkazib berishni ta’minlaydigan yangi imkoniyatlar yaratadi. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo‘lishi, masalan, yuqori tezlikda ishlaydigan kompyuterlar, optik tolali signal uzatish tizimlari, sun’iy yo‘ldosh va mobil aloqa, kibernetika, tarmoq texnologiyalari, ixcham elektron qurilmalar hamda Internetning global tarmog‘i shakllanishi kabi yutuqlar globallashuv jarayonini sezilarli darajada tezlashtirdi. Bu texnik yutuqlar asosida axborot va kommunikatsiya sohasidagi innovatsiyalar, ya’ni bilimga asoslangan (knowledge-based) inqilobiy o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, so‘nggi 5-10 yil ichida dunyodagi axborot hajmi har 6 oyda ikki barobar oshib bormoqda, bu esa “Mur qonuni” nomi bilan mashhur bo‘lgan tendentsiyadir (bu tendentsiyani ilk bor topgan kishi nomi sharafiga).

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amerika tadqiqotchisi Dj.Garret jahon iqtisodiyoti globallashuvining uch asosiy mexanizmini ajratib ko‘rsatadi, ularga quyidagilar kiradi:

1) jahon savdosida o‘sib borayotgan raqobat;

2)ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish quvvatlarini boshqa mamlakatlarga joylashtirish hisobiga shaxsiy daromadlarini oshirishga

intilishlari natijasida ishlab chiqarishning ko‘p millatli xarakterini o‘rnatish;

3) moliyaviy bozorlarning xalqaro integratsiyasi[6].

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida transmilliylashtirish jarayonlari asosan real sektor va moliyaviy sohalarda transmilliy korporatsiyalar (TMK) shakllanishi va ularning keng qamrovli faoliyatida namoyon bo‘lmoqda. Ko‘plab G‘arb olimlarining tadqiqotlarida iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi bunday yirik subyektlar “transmilliy”, “xalqaro”, “multimilliy”, “global” yoki “supermilliy” kompaniyalar deb nomlanadi. Transmilliy korporatsiyalar deganda, odatda, yirik moliyaviy va ishlab chiqarish tuzilmalari nazarda tutiladi. Ular o‘z faoliyatlarini nafaqat milliy, balki turli xorijiy davlatlarda ham bevosita tashkil etib, ishlab chiqaruvchilik, bank ishi, investitsiya, marketing va reklama, ilmiy-tadqiqot, kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarni qamrab olgan kompleks va murakkab tashkiliy strukturalarga ega bo‘ladi.

TMKlarning zamonaviy ajralib turadigan jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Bozorlarni reja asosida yuritish va jahon miqyosida raqobatni amalga oshirish (ayrim xorijiy ekspertlar global raqobatning zamonaviy atamasi uchun yangi so‘z “giperraqobat” so‘zini ishlatadilar);
- Jahon bozorlarini shunday global korporatsiyalar bilan ajratish;
- Yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘z bo‘limlari faoliyatini kuzatish;

[6] Garrett, G. (1998). *Global Markets and National Politics: Collision Course or Virtuous Circle?* International Organization, 52(4), 787–824. https://doi.org/10.1162/002081898550699

- Korporatsiyalar tuzilmasining moslashuvchanligi;
- O‘z bo‘limlari, zavodlari va qo‘shma korxonalarini yagona xalqaro boshqaruv tarmog‘iga birlashtirish;
- TMK faoliyat yuritayotgan davlatga iqtisodiy va siyosiy ta'sir ko‘rsatish.

Har qanday mamlakat uchun iqtisodiy rivojlanishning dastlabki va muhim bosqichi sifatida ichki bozor muhim rol o‘ynaydi. Katta hududga ega bo‘lgan mamlakatlar bu borada sezilarli ustunliklarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, transmilliylashuv jarayonlarining kuchayib borishi zamonaviy rivojlanish mezonlarini o‘zgartirib yubordi: endilikda global bozorda zamonaviy mahsulotlar bilan ishtirok etish va ushbu bozorda o‘z pozitsiyasini mustahkamlash eng muhim rivojlanish omiliga aylanmoqda. Bu borada transmilliy korporatsiyalar (TMK) to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXI) asosiy qismini amalga oshiruvchi asosiy xo‘jalik subyektlari sifatida maydonga chiqmoqda.

So‘nggi yillardagi statistik ko‘rsatkichlar bu jarayonning naqadar tez sur’atlarda kechayotganini ko‘rsatadi. 2002-yilda e’lon qilingan Xalqaro investitsiyalar bo‘yicha hisobotga ko‘ra, TXI o‘sish sur’ati 1990-yillarning birinchi yarmida yillik o‘rtacha 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi yarmida bu ko‘rsatkich 40,1 foizgacha yetgan. Jahon investitsiyalarining umumiy hajmida TXI ulushi esa 1980-yillardagi 2,0–2,4 foizdan, 1990-yillarning oxiriga kelib, 6–8 foizgacha o‘sgan.

Globallashuv va regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik doimo bir xil yo‘nalishda bo‘lavermaydi. Haqiqat shundan iboratki, zamonaviy globallashayotgan jahon iqtisodiyotining asosiy tendensiyalaridan biri bu — ko‘plab iqtisodiy

hududiy bloklarning shakllanishidir. Regional integratsiya (yoki iqtisodiy hududiylashuv) bilan globallashuv o‘rtasidagi munosabatlar ba'zida bir-biriga qarama-qarshi sifatida talqin qilinadi. Ayrim nuqtai nazarlarda, xalqaro regionalizatsiya globallashuvning dialektik inkori sifatida tasvirlanadi, chunki mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar faqat ayrim mamlakatlar doirasida chegaralanadi va global qamrovga ega emas.

Rossiyalik taniqli olim, professor Yu.V.Shishkovning fikricha, globallashuv — bu xo‘jalik faoliyatining baynalminallashtirilishi jarayonining kengayishi bilan birga, muayyan mintaqada iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon, bir tomondan, butun hudud bo‘ylab ichki iqtisodiy aloqalarni xalqaro darajaga olib chiqsa, ikkinchi tomondan, integratsiyalashgan hududlar doirasida globallashuv unsurlarining yanada intensiv va sifatli rivojlanishini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mintaqaviy integratsiya globallashuvga yo‘l ochuvchi bosqich bo‘lib, u global iqtisodiy tuzilmalarning chuqurlashuvi uchun zarur asosni yaratadi.

Globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya masalasi chuqurlashib borayotgan sharoitda oliy ta’lim tizimi tobora ko‘proq global iqtisodiy makonni shakllantirishda faol ishtirokchiga aylanib bormoqda. Oliy ta’lim nafaqat kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy funktsiyalarni bajarishi, balki xalqaro ta’lim, ilm-fan va innovatsion tarmoqlar bo‘g‘inlari drayverlariga aylanmoqda. Mazkur nuqtai nazar, raqamli tizimda oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ajralmas qismi sifatida qaralishi kerak va oliy ta’lim muassasasi raqamli ekotizimining shakllanishi va rivojlanishi

global iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilishning institutsional mexanizmi sifatida qaralishi kerak.

Raqamli muhitda oliy ta’lim muassasasi ekotizimi ta’lim tashkilotlari, tadqiqot markazlari, biznes, davlat muassasalari va xalqaro hamkorlar o‘rtasidagi ochiq, ko‘p darajali o‘zaro ta’sir tizimi bo‘lib, raqamli platformalar va tarmoqni muvofiqlashtiruvchi mexanizmlari asosida ishlaydi[7].

Globallashuv sharoitida oliy ta’lim muassasasi ekotizimini shakllantirish o‘zaro bog‘liq komponentlarni, ya’ni: raqamli infratuzilma, institutsional boshqaruv mexanizmlari, inson va intellektual salohiyat, innovatsion sheriklik va xalqaro kommunikatsiya muhitini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu komponentlarning izchilligi muhimdir, chunki raqamlashtirish darajasi, institutsional moslashuvchanlik va xalqaro faoliyat o‘rtasidagi nomutanosiblik global ta’lim va iqtisodiy makonga to‘liq integratsiyalashish imkoniyatlariga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Oliy ta’limda xalqaro integratsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari institutsional, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Institutsional omillar milliy oliy ta’limni tartibga solish modellaridagi farqlar, oliy ta’lim muassasasi avtonomiyasi darajasi va ta’lim xizmatlarini transchegaraviy taqdim etishning me’yoriy asoslari bilan bog‘liq. Texnologik omillar esa raqamli yetuklik darajasini, raqamli platformalarning mosligini va xalqaro tadqiqot infratuzilmalariga kirishni aks ettiradi. Iqtisodiy omillar oliy ta’lim muassasalarining xalqaro grant dasturlarida ishtirok etishi,

[7] Мурадова Н.У. Вопросы исследования конкурентоспособности вузов в цифровой среде: современные научные тенденции // Маркетинг в России и за рубежом. - №5 (163). – 2024. – С. 57-64.

moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va intellektual mulkni tijoratlashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Shunungdek, ijtimoiy-madaniy omillarga til siyosati, akademik madaniyat va raqamli ta’lim va xalqaro ta’lim takliflariga bo‘lgan ishonch darajasi kiradi.

Globallashuvni harakatga keltiruvchi asosiy omillar globallashuv jarayonining tarkibiy bosqichlarida aniq ifodasini topadi. Jahon xo‘jaligining globallashuvi va uning bosqichma-bosqich shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadigan omillar orasida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi natijasida hozirgi kunda birorta davlat ham o‘z rivojlanishini global iqtisodiy jarayonlardan alohida tarzda davom ettira olmaydi. Aksincha, jahon iqtisodiy hamkorligiga faol qo‘shilishga intilish kuzatilmoqda. Bu esa deyarli barcha davlatlarning iqtisodiy ochiqlik darajasining oshishiga olib keldi.

2. Tayyor mahsulotlar bo‘yicha xalqaro savdoning salmog‘i ortib borayotgan bir vaqtda, agrar va xom ashyo tovarlarining ham mamlakatlararo almashinuvi kuchaymoqda. Bu holat xalqaro mehnat taqsimotining yangi sifat jihatlarini shakllantiradi va ichki tarmoq savdosining ahamiyati ortishiga olib kelmoqda.

3. Xalqaro moliyaviy tizimlar yanada integratsiyalashib, milliy moliyaviy segmentlar o‘rtasidagi aloqalar tobora kuchaymoqda. Bu global moliyaviy bozorning shakllanishini tezlashtirmoqda.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi turli hududlarda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi va hamkorlikni ta’minlaydigan zamonaviy infratuzilmani shakllantirdi.

5. Kuchli texnologik, investitsiyaviy va moliyaviy salohiyatga ega transmilliy korporatsiyalar o‘z ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini butun dunyo bo‘ylab joylashtirib, mahalliy bozorlarning afzalliklaridan strategik foydalanishga erishmoqda.

6. Rivojlanayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy aloqalarga, xususan, savdo, kredit va investitsiya oqimlariga keng jalb qilinishi, shuningdek, xalqaro mehnat migratsiyasining o‘sishi globallashuvni jadallashtirmoqda.

7. Jahon iqtisodiyoti subyektlari tizimi murakkablashib, unda nafaqat suveren davlatlar yoki milliy kompaniyalar, balki transmilliy kompaniyalar (TMK), transmilliy banklar (TMB), xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar, global shaharlardan tortib, alohida shaxslar (olimlar, madaniyat vakillari, tadbirkorlar kabi) ham faol ishtirok etayotgan zamonaviy tizim yuzaga keldi.

Globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlarini bir nechta muhim omillar orqali aniqlash mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

Xalqaro mehnat taqsimotidagi sifat o‘zgarishlari. Jahon bozorida mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari tobora ko‘proq mamlakatlararo kooperatsiya va ixtisoslashuv asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish zanjirlarining kengayishiga olib kelmoqda.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyatining geografik kengayishi va ta’sir kuchining ortishi. Bunday korporatsiyalar global iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi subyektlariga aylanib, turli

davlatlarda ishlab chiqarish, investitsiya va xizmat ko‘rsatish tizimlarini yo‘lga qo‘ymoqda.

Iqtisodiy boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar. Milliy va xalqaro darajada iqtisodiy siyosatni global jarayonlarga muvofiqlashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu esa iqtisodiy boshqaruvning tuzilmasi va funksiyalarini yangilashni talab etmoqda.

Davlatlararo va xalqaro nodavlat tashkilotlarning roli va vazifalari transformatsiyasi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (JTT, XMB, JST, va boshqalar) hamda mintaqaviy birlashmalar tobora ko‘proq iqtisodiy tartibni saqlash, siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash kabi vazifalarni zimmasiga olmoqda.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvi. Xalqaro savdo, investitsiyalar, moliyaviy oqimlar, texnologiyalar almashinuvi kabi ko‘plab sohalar milliy iqtisodiyotlarning global tizim bilan uzviy bog‘lanishiga sabab bo‘lmoqda.

Natijada, hech bir mamlakat — hatto iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan eng rivojlangan davlatlar ham — tashqi iqtisodiy aloqalarsiz, ya’ni xalqaro xo‘jalikdan ajralgan holda barqaror va mustaqil taraqqiyotga erisha olmaydi. Globallashuv sharoitida iqtisodiy yakkalanish amalda imkonsizdir.

2.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonining ijobiy va salbiy natijalari

Iqtisodiy globallashuvning natijalari nafaqat alohida mamlakatlar, balki jahon hamjamiyatining mamlakatlar guruhi uchun ham muhim masala hisoblanadi. Bir tomondan, xalqaro iqtisodiyot nazariyasi

globallashuvni xorijiy raqobatchilar uchun bozorlarni ochish, xalqaro savdoning kengayishi, moliyaviy resurslar va investitsiyalarning mamlakatlararo oqimini ta’minlash, shuningdek, xalqaro ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish sifatida baholaydi. Shu tariqa, globallashuv jarayonida ishtirok etuvchi davlatlar uchun katta yutuqlar yuzaga keladi.

Biroq, globallashuvning neoliberal modeli doirasida iqtisodiy hayotning keng ko‘lamli liberallashtirilishi global tovar va moliyaviy bozorlardagi raqobatni kuchaytiradi. Bu esa kuchli kompaniyalar va mamlakatlar uchun yangi raqobat risklari, shu jumladan, raqobat kurashida yon bosish kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlar uchun globallashuvning foydalari ancha yuqori, chunki ularning kuchli kompaniyalari, ilmiy-texnik salohiyati va asosiy moliyaviy resurslari aynan shu davlatlarda jamlangan. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni qisqartirish va ijtimoiy tengsizlikning oshishi kabi salbiy oqibatlar davlat siyosati orqali qisman bartaraf etiladi.

Kam rivojlangan mamlakatlar uchun esa global moliyaviy kapitalning nazoratsiz kirib-ketishi eng katta xavf hisoblanadi. 1990-yillarning oxiridagi xalqaro moliyaviy inqirozlar (Meksika inqirozi 1994-1995, Osiyo moliyaviy inqirozi 1997, shuningdek Rossiya, Braziliya va Argentina inqirozlari) rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy va jamg‘arma bozorlariga jiddiy zarar yetkazdi, milliy valyutalarning barqarorligini pasaytirdi va real sektor faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib, globallashuv ko‘pincha rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirsa, rivojlanayotgan va o‘tish

davridagi mamlakatlar o‘z o‘rnini yo‘qotish xavfi bilan yuzlashadi. Ularning rivojlanishiga texnologik jihatdan bog‘liqlik ta’sir qiladi, chunki murakkab zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish xarajatlari yuqori bo‘lishi va mavjud texnologiyalar esa yetarli malakali kadrlar va qo‘shimcha omillar yetishmasligi sababli samarali ishlamasligi mumkin.

2.1-jadval

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlarining ijobiy va salbiy natijalari

Ijobiy natijalar	Salbiy natijalar
Savdo hajmining oshishi – davlatlar o‘rtasida tovar va xizmatlar ayirboshlashi kuchaydi.	*Ishsizlik* - ishlab chiqarishning arzon ishchi kuchiga ega mamlakatlarga ko‘chishi rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikka sabab bo‘ladi.
Investitsiyalar oqimining ko‘payishi – xorijiy sarmoya orqali iqtisodiy o‘sish tezlashadi.	*Milliy ishlab chiqaruvchilarga bosim* – Mahalliy korxonalar kuchli xalqaro raqobatga bardosh bera olmasligi mumkin.
Texnologiya va bilimlar almashinuvi – ilg‘or yutuqlar tez tarqaladi.	*Madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qolish xavfi* – g‘arbona madaniyatning hukmronligi.
Narxning pasayishi va tanlovning ortishi – iste’molchilar uchun foyda.	*Atrof-muhitga zarar* – ifloslanish va tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi.
Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi – ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda.	*Iqtisodiy beqarorlik xavfi* - moliyaviy inqirozlarning global tarqalishi –.
Madaniy almashinuv – dunyoqarash kengayadi, turli xalqlar yaqinlashadi.	*Ijtimoiy tengsizlikning ortishi* – daromadlar tafovuti chuqurlashadi.

Globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi tengsizliklarni yo‘q qilmaydi, aksincha rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi bozor egallash uchun keskin raqobatni yanada kuchaytiradi. Buyuk britaniyalik olim D. Marshall fikricha, mamlakatlararo shafqatsiz raqobat tizimi, yetakchi davlatlarning global maydondagi yetakchilik uchun kurashi, markazlashgan va pereferiy mamlakatlarga bo‘linish kabi tizim xususiyatlari o‘zgarmasdan qolmoqda. U ta’kidlaganidek, jahon kapitalizmi barcha davlatlarga teng imkoniyatlar bermaydi va bu holat kelajakda ham davom etadi. Jahon iqtisodiyoti esa barqaror emas, notekis rivojlanishda davom etmoqda.

Bugungi kunda dunyodagi uch yirik iqtisodiy kuch — AQSh, G‘arbiy Yevropa (xususan Yevropa Ittifoqi) va Yaponiya o‘rtasidagi raqobat asosan yuqori texnologiyalar sohasida, ya’ni mikroelektronika, biotexnologiya va yangi materiallar ishlab chiqarishda kechmoqda.

Jahon bankining 2000-2001 yillardagi rivojlanish haqidagi hisobotiga ko‘ra, dunyoning eng boy 20 davlati aholisining o‘rtacha daromadi eng kambag‘al 20 mamlakatdagidan 37 barobar yuqori. So‘nggi 40 yil ichida bu farq ikki barobarga oshgan. 1990 yilda boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi daromad nisbati 60:1 bo‘lsa, 1997 yilda u 74:1 ga yetgan.

Finlandiyalik ekspert K. Kilyunen fikriga ko‘ra, iqtisodiy tizimda dunyoning eng boy 225 kishisi jami boyligi 1 trillion dollarni oshib, dunyo aholisi 47 foizini tashkil qiluvchi 2,5 milliard kambag‘al odamlarning yillik daromadiga tenglashgan. Uch eng boy insonning boyligi 48 rivojlangan mamlakatning umumiy yalpi ichki mahsulotidan ko‘proqdir.

Rivojlangan va rivojlanmagan davlatlar o‘rtasidagi farq faqat qat’iy chegaralar bilan belgilanmaydi, chunki oldin jahon hamjamiyatining muhim qismi bo‘lgan ayrim davlatlar hozirda kam rivojlangan davlatlar toifasiga kirgan.

AQSh esa o‘zining jahon iqtisodiyotidagi yirik yetakchiligini saqlab qolish va kuchaytirish uchun neoliberal globallashuv modelidan foydalanadi. Uning moliyaviy foydalari o‘z hududida tashkil etilgan va soliqdan ozod qilingan offshor zonalar orqali amalga oshiriladi. 1960-1970-yillardan beri shakllangan bu offshor zonalar to‘rtta asosiy hududiy guruhni o‘z ichiga oladi: Karib havzasidagi offshor hududlari Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlariga, Fors ko‘rfazi mamlakatlaridagi zonalar Yaqin Sharq davlatlariga, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi (masalan, Singapur, Gonkong, Vanuatu, Nauru) hududlar esa Tokio va uning atrofidagi mamlakatlarning moliyaviy kapitaliga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan Yaponiya ushbu jarayonda faol ishtirok etib, globallashuv natijalarini yaqqol his qilgan mamlakatlardan biridir. Yaponiya globallashuv tufayli eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga aylangan. Avtomobil, elektronika, robototexnika sohalarida dunyo bozorida yetakchilik qilmoqda. Toyota, Sony, Panasonic kabi kompaniyalar global miqyosda ishlab chiqarish va savdo tarmoqlariga ega. Shu bilan birga, Yaponiya xorijiy davlatlarga sarmoya kiritish (FDI) bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarda turadi. Yaponiya nafaqat texnologiya eksportchisi, balki globallashuv tufayli boshqa rivojlangan davlatlar bilan ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirdi. AQSh, Yevropa va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda yuqori

texnologiyalar sohasida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. oshi katta aholining ko‘pligi, yoshlar orasida xorijga chiqishga intilish va ayrim sohalarda ishchi kuchi tanqisligi yuzaga keldi. Bu esa hukumatni chet ellik ishchilarni jalb qilish siyosatini olib borishga majbur qilmoqda – ilgari Yaponiya uchun bu odatiy hol emas edi.

Nazorat savollari

1. Transmilliy korporatsiyalar (TMK) globallashtirish jarayonlarida qanday o‘rin tutadi?

2. Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning kuchayishi globallashtirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Globallashtirish jarayonining rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ta’siri qanday farq qiladi?

4. Globallashtirish jarayonida moliyaviy bozorlarning roli qanday ahamiyatga ega?

5. Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi raqobat qanday yo‘nalishlarda kechadi?

6. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy tengsizlik va risklar qanday muammolarni yuzaga keltiradi?

III- BOB. HOZIRGI ZAMONNING GLOBAL MUAMMOLARI





3.1. Global muammolarning mohiyati va asosiy turlari.

3.2. O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi iqtisodiy holatlar.

3.3. Sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy muammolar.

Tayanch iboralar: global muammolar, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik muammolar, pandemiya, suv tanqisligi, xalqaro munosabatlar tizimi, savdo siyosati, proteksionizm siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy notekislik.

3.1. Global muammolarning mohiyati va asosiy turlari.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi — bu murakkab va ko‘p qirralik jarayon bo‘lib, unga yagona va oddiy ta’rif berish qiyin. Xalqaro iqtisodiy siyosatlarning evolyutsion yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilish uchun global muammolarni o‘rganish zarur. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotning taraqqiyoti global muammolarning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, dunyo xo‘jaligining rivojlanish bosqichi global va milliy manfaatlarning yanada o‘zaro bog‘liq bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida iqtisodiy faoliyatni xalqaro darajada

rivojlantirish, shuningdek, tashqi iqtisodiyotning umumiy iqtisodiy o‘sishga ta’sirini oshirish tendensiyalari yuzaga kelmoqda.

Global muammolar - u yoki bu darajada har qanday mamlakat iqtisodiyoti va aholisi hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi, davlatlarning alohida harakati bilan emas, balki barcha mamlakatlar hamkorligi asosida hal qilinadigan muammolardir. Global muammolar butun insoniyatga taalluqli bo‘lib, ular barcha davlatlar, millatlar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari hamda kelajagiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu muammolar iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta zararlar keltirib chiqarishi mumkin, hatto ba’zi holatlarda insoniyat madaniyati va sivilizatsiyasiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shuning uchun bunday muammolarni hal etishda butun dunyo bo‘ylab hamkorlik qilish, barcha mamlakatlar va xalqlarning birgalikda harakat qilishi zarur.

Asosiy global muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: tinchlik va urush xavflari, atrof-muhit muammolari, demografik o‘zgarishlar, energiya manbalari, xom ashyo ta’minoti, oziq-ovqat xavfsizligi, jahon okeanlarining resurslari, shuningdek, kosmik makonni boshqarish kabi masalalar.

Global muammolarning paydo bo‘lishi, birinchi navbatda, XX asrdagi iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Bu davrda ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, ko‘mir, neft kabi tabiiy resurslardan keng foydalanila boshlandi va bu resurslar cheklanganlik muammosini keltirib chiqardi. Yoki bo‘lmasa, sanoatlashuv tufayli ekologik muammolar, havoning ifloslanishi ilk bor sezila boshlaydi.

Birinchi marta siyosatchilar va iqtisodchilar global muammolar haqida XX asrning 60-70-yillarda gapira boshladilar. Aynan shu

davrdan boshlab globalistika atamasi ilmiy tadqiqotning maxsus yo‘nalishi sifatida ilmiy qo‘llanila boshlandi.

Masalan, 1968-yilda Yevropa olimlari va siyosatchilari tomonidan "Rim klubi" tashkil etildi va ushbu mustaqil guruh global muammolarni tahlil qilishni boshladi. Rim klubi topshirig‘iga binoan yozilgan mashhur **“The Limits to Growth”** (“O‘sish chegaralari”) hisobotining bosh muallifi, amerikalik olim, tizimli modellashtirish bo‘yicha mutaxassis Dennis Meadows: "Yer sayyorasining tabiiy resurslari chegaralangan va ularni cheksiz o‘sish yo‘lida ishlatish – ekologik inqirozga va insoniyat taraqqiyotining izdan chiqishiga olib keladi[8]" deb yozgan. Ushbu hisobot 1972-yilda chop etilgan va global muammolar haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlarning asoschisi bo‘lib hisoblanadi.

Global muammolar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, masalan, energiya va xom ashyo bilan bog‘liq muammolar ekologik vaziyatga ta’sir ko‘rsatadi, ekologik muammolar esa demografik o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, demografik omillar oziq-ovqat xavfsizligiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Global muammolarning asosiy xususiyatlari – bu butun insoniyat taqdiriga ta’sir qiluvchi, xalqaro miqyosda hamkorlikni talab qiladigan murakkab va keng ko‘lamli muammolar ekanligida. Ular alohida bir mamlakat doirasida hal etilishi mumkin bo‘lmay, global darajada yondashuvni taqozo etadi. Ushbu muammolarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Butun insoniyatga daxldorlik. Global muammolar birgina davlat yoki mintaqani emas, balki barcha davlatlar va xalqlar hayotiga ta’sir

[8] Meadows, Donella H; Meadows, Dennis L; Randers, Jørgen; Behrens III, William W (1972). The Limits to Growth (O‘sish chegaralari); A Report for the Club of Rome's Project on the Predicament of Mankind

qiladi. *Masalan,* iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, terrorizm. Bangladeshda dengiz sathining ko‘tarilishi tufayli minglab odamlar uyini tark etmoqda. Bu holat global harorat ko‘tarilishi bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa davlatlar (masalan, AQSh, Xitoy) tomonidan chiqarilgan issiqxona gazlari bunga sabab bo‘lmoqda.

Keng ko‘lamlilik va murakkablik. Bu muammolar ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan chambarchas bog‘langan. *Masalan,* COVID-19 pandemiyasi nafaqat sog‘liqni saqlash tizimini, balki ta’lim, iqtisodiyot va siyosiy jarayonlarga ham ta’sir qildi.

Transmilliy xarakterga ega. Global muammolar davlat chegaralarini tan olmaydi. Masalan, atmosfera ifloslanishi yoki migratsiya bir hududda yuzaga kelib, boshqa joylarga ham ta’sir qiladi. Xitoy sanoat markazlaridagi chiqindilar nafaqat o‘z hududida havo ifloslanishiga, balki Janubiy Koreya, Yaponiya va Tinch okeani orqali AQShga ham yetib boradi.

Hamkorlikni talab qilishi. Ularni hal etish uchun xalqaro tashkilotlar, davlatlar va fuqarolik jamiyatlari o‘rtasida uzviy hamkorlik zarur. *Masalan,* Eronning yadroviy faoliyati dunyo hamjamiyatini xavotirga solmoqda. AQSh, Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi ushbu muammoni BMT orqali diplomatik yo‘l bilan hal qilishga harakat qilmoqda.

Kechiktirib bo‘lmaslik (dolzarblik). Global muammolarni vaqtida hal qilmaslik yanada katta xavflarni yuzaga keltiradi. Masalan, ekologik inqiroz yoki qurolli mojarolar. *Misol:* Afrika mamlakatlari – suv tanqisligi. Efiopiya, Sudan va Misr o‘rtasida Nil daryosi ustidan

kelishmovchiliklar bor. Nil ustida qurilgan "Buyuk Efiopiya to‘g‘oni" boshqa davlatlarga suv oqimini kamaytirishi mumkin. Suv resurslari bo‘yicha zudlik bilan xalqaro kelishuvlar zarur.

Resurs va bilim talabchanligi. Bu muammolarni hal etish katta moliyaviy, ilmiy va texnologik resurslarni talab qiladi. Yaponiya – Fukusima AES avariyasi. 2011-yilda bo‘lib o‘tgan zilzila va sunami natijasida Fukusima atom elektr stansiyasi portladi. Buni bartaraf etish uchun milliardlab dollar va yuqori texnologiyali mutaxassislar kerak bo‘ldi.

Uzoq muddatli oqibatlar. Ularning salbiy ta’siri uzoq yillarga cho‘zilishi mumkin. Masalan, yadroviy qurollar tarqalishi yoki suv resurslarining kamayishi. *Misol:* Braziliya – Amazon o‘rmonlarining kesilishi. Amazon o‘rmonlari global kislorod ishlab chiqarish markazi hisoblanadi. Braziliyada o‘rmonlarning noqonuniy kesilishi iqlim muvozanatini buzmoqda va bu butun dunyoga ta’sir qiladi.

Bir necha yil ilgari global muammolar asosan kapitalizm ziddiyatlari natijasi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu jarayonlar zamonaviy xalqaro sivilizatsiya va turli hududiy hamda subhududiy sivilizatsiyalar asosida tushuntirilmoqda. Shu sababli, 1990-yillarda global muammolar tasnifida yangi jarayonlar va omillar paydo bo‘lgan. Hozirgi vaqtda olimlar quyidagi asosiy muammolar guruhini aniqlashgan:

- Siyosiy va siyosiy-iqtisodiy masalalar, jumladan yadro urushining oldini olish hamda xalqaro hamjamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlash kabi muammolar;

- Tabiiy resurslar va iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq muammolar, masalan ekologiya, energiya, xom-ashyo ta’minoti, oziq-ovqat xavfsizligi hamda jahon okeanlarining holati;
- Ijtimoiy sohadagi qiyinchiliklar, xususan demografik o‘zgarishlar, millatlararo munosabatlar, madaniyat va sog‘liqni saqlashga doir masalalar;
- Aralash va murakkab muammolar, ular hal etilmagan taqdirda insoniyatning ommaviy qirg‘iniga sabab bo‘lishi mumkin, jumladan urushlar, hududiy nizolar, jinoyatchilik, texnologik falokatlar hamda tabiiy ofatlar va qashshoqlik;
- Ilm-fan sohasidagi dolzarb masalalar, xususan kosmik makonni o‘zlashtirish va turli sohalarda uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqish.

Shu bois, bugungi kunda global muammolarga yondashuv, ularni tasniflash va ustuvorlik darajasini belgilash borasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar hanuzgacha yadro urushining oldini olishni eng muhim masala deb bilsalar, boshqalar ekologik inqirozni birinchi darajali muammo sifatida ko‘rsatmoqdalar. Yana bir guruh olimlar esa demografik o‘zgarishlar, oziq-ovqat taqchilligi yoki ayrim mamlakatlarning rivojlanishdan ortda qolish xavfini asosiy tahdid deb baholaydilar. Aslida, bu muammolarning barchasi ustuvor ahamiyatga ega, chunki ularning barchasi insoniyat hayotiga bevosita taalluqlidir. Ushbu global muammolar turli omillar natijasida vujudga kelgan bo‘lib, ulardan eng asosiy sabab sifatida xo‘jalik faoliyatining xalqaro darajada integratsiyalashuvi ko‘rsatiladi. Qaysi biri ustun turishidan qat’iy nazar, bu muammolar zamonaviy

xorijiy kompaniyalar faoliyatiga va xalqaro iqtisodiy tizimning barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro hamjamiyat global miqyosdagi muammolarni bartaraf etishga faol harakat qilmoqda. Bunday muammolar hozirgi davrda iqtisodiyot, sotsiologiya, huquqshunoslik, biologiya, geografiya, ekologiya, okeanologiya kabi ko‘plab fan yo‘nalishlarining asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, geoglobalistika nomi bilan tanilgan yangi ilmiy yo‘nalish shakllanib bormoqda, u global, mintaqaviy va milliy darajadagi muammolarni tizimli o‘rganishni taklif etadi.

Insoniyat uchun umumiy bo‘lgan global muammolarning keskinlashuvi, ularni hal etishda davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish, optimal rivojlanish yo‘llarini birgalikda izlash zaruratini yanada oshiradi. Xalqaro darajada kuch va resurslarni birlashtirish orqaligina bunday muammolarga samarali yechim topish mumkin. Bu esa mavjud xalqaro munosabatlar tizimini takomillashtirish va uni yangi sharoitlarga moslashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy tizimni yagona kompleks asosida shakllantirish, iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish, hamda umumiy bozor makonini yaratish bo‘yicha tendensiyalar kuchaymoqda. Shu bilan birga, bu jarayon dunyo iqtisodiyotining hududiy asosda qayta tashkil etilishi, xalqaro xo‘jalikdagi alohida davlatlar va ularning ittifoqlari o‘rnining qayta taqsimlanishi kabi ko‘p qirrali va ba’zan qarama-qarshi jarayonlar bilan birga olib borilmoqda.

Global miqyosdagi muammolarni samarali hal etish katta hajmdagi moliyaviy va iqtisodiy resurslarni talab etadi. Ba’zi tahlillarga ko‘ra,

bunday muammolarni bartaraf etish uchun yillik xarajatlar hajmi 1 trillion AQSh dollarini tashkil qilishi mumkin. Bunday yirik mablag‘larni topish bugungi sharoitda nihoyatda murakkab, chunki, masalan, 1990-yillarda butun dunyo yalpi mahsuloti atigi 13 trillion dollar atrofida baholangan edi.

Shu sababli, mavjud moliyaviy resurslar doirasida global muammolarni hal qilish masalasi ularning ustuvorligini aniqlash va mablag‘larni oqilona taqsimlash bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayon esa alohida yondashuv va chuqur tahlilni talab qiladigan dolzarb masalalardan biridir.

Yer yuzida barqaror tinchlikni saqlab qolish, harbiy mojarolar va urushlarning oldini olish insoniyatning yashab qolishiga zamin yaratadigan muhim omillardan biridir. Bugungi kunda yirik harbiy-sanoat komplekslari qurol-yarog‘ ishlab chiqarish va bu sohadagi ilmiy izlanishlarga ulkan moliyaviy resurslar sarflamoqda. Garchi harbiy texnologiyalar ayrim holatlarda fuqaro sohasida — ayniqsa aviatsiya, hisoblash texnikasi va boshqa tarmoqlarda — qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa-da, ularni ilm-fan taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholash mantiqan to‘g‘ri emas.

Aksincha, harbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi ko‘pincha xavfsizlikka tahdid soladi hamda mavjud global muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, qurollanish poygasini cheklash va harbiy byudjetlar o‘rniga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohalariga e’tibor qaratish insoniyat kelajagi uchun muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qurol savdosi hajmi bir necha marotaba qisqarganiga qaramay, u hanuzgacha xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, global qurol savdosida AQSh eng yirik ulushga ega bo‘lib, bu bozordagi operatsiyalarning qariyb yarmiga to‘g‘ri keladi.

Kimyoviy qurol ishlab chiqarish ta'qiqlangan, uni ishlab chiqarish Buyuk Britaniyada 1950-yillarning o‘rtalarida, Frantsiyada 1970-yillarda, bizning mamlakatimizda 1987-yilda, AQShda 1990- yillarda to‘xtatilgan. 1992-yil yanvarda ximik qurollarni ishlab chiqish, sotib olish va qo‘llashni ta'qiqlash haqida Xalqaro konventsiya qabul qilindi.

Ekologik muammolar esa bugungi kundagi eng dolzarb global tahdidlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Insoniyat va tabiat o‘rtasidagi ziddiyatli holat tobora chuqurlashib bormoqda, bu esa ishlab chiqarish kuchlari hamda iqtisodiy munosabatlar bilan biosferaning resurs va biologik imkoniyatlari o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur inqirozning asosiy xususiyatlaridan biri — insonning tabiatga bo‘lgan ta’sir kuchining ortib borayotgani va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida tabiiy muhitga faol aralashuvi kengayib borayotganidadir.

Ekologik muammolar atrof-muhitning yomonlashuvi, uning chiqindilar bilan ifloslanishi va buning oqibatida inson salomatligiga va butun insoniyat hayotiga xavf tug‘ilishi bilan namoyon bo‘ladi. Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha xalqaro komissiya bu borada ekologik vaziyatni yaxshilash va muhit sifatini oshirishga qaratilgan strategik dastur ishlab chiqqan. Ushbu komissiya hamda boshqa xalqaro

tashkilotlar tomonidan ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha qator muhim hujjatlar qabul qilinmoqda.

Bu hujjatlarda, asosan, harbiy xarajatlarni qisqartirish hamda konversiyadan bo‘shagan resurslarni ekologik ehtiyojlar uchun yo‘naltirish zarurati asoslab berilgan. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 1,7 foizi ekologik sohalarga sarflanmoqda. Biroq, bu ko‘rsatkich yetarli emas, chunki atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar hajmi yiliga YaIMning taxminan 6 foiziga teng deb baholanmoqda. 2000-yilga kelib, tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi 250 milliard AQSh dollariga yetgan bo‘lib, bu 1970-yillardagi ko‘rsatkichdan olti barobar ko‘pdir. Bu esa global ekologik muammolarning ahamiyati ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda hududlararo hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan hujjatlarda ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida hududiy strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish zarurati bir necha bor ta’kidlangan. Yevropa ekologik inqiroz nuqtai nazaridan eng zaif qit’alardan biri hisoblanganligi sababli, uning tabiiy resurslaridan uzoq muddatli istiqbolda oqilona foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, YeI soliqqa tortish tizimi ham tabiatni asrashni rag‘batlantiruvchi tamoyillar asosida tashkil etilgan bo‘lib, ekologik barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Global muammolar orasida demografik inqiroz ham alohida o‘rin egallaydi. Bu boradagi muhim xalqaro tashabbuslardan biri — 1994-yil sentabr oyida Qohirada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan

o‘tkazilgan Aholi bo‘yicha V Xalqaro konferensiya bo‘ldi. Ushbu anjumanda 2015-yilgacha mo‘ljallangan "Harakatlar dasturi" qabul qilinib, unda global aholi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilanib olindi. Mazkur dastur doirasida quyidagi masalalar ko‘rib chiqilgan: aholi sonining o‘sishi, uning tarkibiy tuzilmasi, xalqaro migratsiya jarayonlari, shuningdek, demografik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Bu maqsadlar uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar taxminan 17 milliard AQSh dollari miqdorida baholangan.

Shu bilan bir qatorda, BMTning Aholi bo‘yicha fondi (UNFPA) global miqyosda demografik o‘sishni nazorat qilish zarurligini ilgari surgan. Bu tashabbus ba’zi diniy institutlar, xususan, Vatikan va ayrim islomiy fundamentalist guruhlarning qarama-qarshi pozitsiyalariga qaramay, amalga oshirilgan. Ushbu fond tomonidan yer yuzidagi demografik rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi strategik rejalar ishlab chiqilgan.

Demografik holat, uning o‘zgarish dinamikasi va yuzaga kelayotgan muammolar zamonaviy xorijiy kompaniyalar uchun, ayniqsa, marketing strategiyalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sababi, aholi soni va uning tarkibiy xususiyatlari bozorlardagi asosiy iste’molchilar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Shu bois, aholining son jihatidan ko‘payishi, yosh tarkibining o‘zgarishi, aholi zichligi va boshqa demografik ko‘rsatkichlar tovar va xizmatlarga bo‘lgan potentsial talabni tahlil qilishda muhim omil sifatida qaraladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasini alohida e’tirof etish lozim. Tadqiqotchilarning fikricha, global miqyosda ocharchilikka barham berish uchun mavjud oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini uch barobar

oshirish talab etiladi. Biroq bu ko‘rsatkich hozirgi iqtisodiy va texnologik sharoitlarda real bo‘lib ko‘rinmaydi. Shu bois, oziq-ovqat muammosini hal etish bir qator tizimli choralarni amalga oshirishni talab qiladi.

Jumladan, bu borada biotexnologiyalarni jadal rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy agrar munosabatlar va samarali ishlab chiqarish shakllarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli moliyaviy ko‘mak – xususan, past foizli kreditlar – ko‘lamini kengaytirish zarur. Xalqaro miqyosda esa BMT homiyligida faoliyat yurituvchi oziq-ovqat dasturlari doirasida Favqulodda yordam fondlarining vakolat va resurslarini kuchaytirish asosiy vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi asosiy tashkilotlardan biri — BMTning ixtisoslashgan agentligi hisoblangan Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hisoblanadi. Ushbu tashkilot ochlik va oziq-ovqat tanqisligi muammolariga qarshi kurashish maqsadida global tashabbuslarni muvofiqlashtirib kelmoqda. 1974 yilda FAO tomonidan o‘tkazilgan ilk xalqaro anjumanda jahon miqyosidagi oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini kelgusi o‘n yil ichida hal etish rejasi ilgari surilgan edi. Biroq, oradan o‘tgan o‘n yilliklar davomida ma'lum natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, ochlik muammosi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Agar o‘tgan asrning 70-yillarida dunyo aholisining uchdan bir qismi yetarli ovqatlanmagan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bu ko‘rsatkich 20 foiz atrofida saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi

mahsulotlarining jahon savdosidagi ulushi uch baravar oshgan bo‘lsa-da, so‘nggi o‘n yillikda ushbu tarmoqdagi yillik o‘sish sur’ati 3 foizdan 1,6 foizgacha pasaygan. Ahamiyatli jihati shundaki, bu pasayish 90 ga yaqin mamlakat, jumladan 44 ta Afrika davlati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi miqyosining qisqarishiga olib kelgan. Bunday vaziyat esa yiliga 90-100 million kishiga ortib borayotgan dunyo aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini ta’minlashda jiddiy muammolar tug‘dirmoqda. Bugungi kunda 795 milliondan ortiq inson to‘yib ovqatlana olmayotganligi — bu boradagi dolzarb muammolarni yana bir bor tasdiqlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi darajasi dunyo mamlakatlarida bir xilda emas. Masalan, Shimoliy Amerikada yashovchi aholining bir kunga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha energiya ehtiyoji 2400 kilokalorini tashkil etsa, Afrikada bu ko‘rsatkich 2150 kilokaloriga teng. Bu esa mintaqalar o‘rtasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan kirish imkoniyati va iste’mol darajasidagi farqlarni ko‘rsatib beradi.

Dunyo davlatlarida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish bevosita qishloq xo‘jaligi siyosati, oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimi, hamda ichki va tashqi savdo strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog‘liq. Shu sababli har bir mamlakat o‘zining agrar salohiyati, iqlim sharoiti va iqtisodiy imkoniyatlariga mos holda oziq-ovqat siyosatini shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni to‘rtta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash siyosati;
2. Savdo siyosati;
3. Iste’molni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari;

4. Ozuqa moddalar ta’minoti dasturlari.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan dasturlar ko‘plab mamlakatlarda bir vaqtning o‘zida joriy etilgan bo‘lib, ular bir-birini cheklab qo‘ymagan, balki o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilgan. Bunday yondashuv natijasida turli mintaqalarda o‘ziga xos strategik yo‘nalishlar shakllandi.

XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash siyosati dunyo miqyosida “Yashil inqilob” nomi bilan tanilgan bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini keskin oshirish imkonini berdi. Ilg‘or agrotexnologiyalar, mahsuldor navlar va zamonaviy o‘g‘itlardan foydalanish evaziga oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi va bu holat dunyoning ko‘plab mintaqalarida ochlik xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynadi.

Turli mamlakatlarda savdo siyosati oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qilishda ikkita asosiy yo‘nalishda – savdoni cheklovchi va erkinlashtiruvchi yondashuvlar orqali amalga oshirilmoqda. Garchi global oziq-ovqat savdosi yildan-yilga o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, jahon miqyosida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 90 foizi mahalliy ichki bozorlar doirasida iste’mol qilinadi.

Ushbu yuqori ko‘rsatkich, asosan, ko‘plab mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida importga nisbatan joriy qilgan turli cheklovlar bilan izohlanadi. Bunday cheklovlar, odatda, mahsulot importini lisenziyalash, yuqori bojxona tariflari va soliq to‘lovlarini belgilash orqali amalga oshiriladi. Bu chora-tadbirlar milliy ishlab chiqaruvchilarni raqobatdan himoya qilish va o‘z mamlakatini oziq-ovqat bilan mustaqil ta’minlashni rag‘batlantirishga qaratilgan.

O‘zini o‘zi oziq-ovqat bilan ta’minlashga qaratilgan dasturlar, odatda, aholi uchun eng zarur bo‘lgan mahsulotlar – xususan, bug‘doy, guruch va boshqa donli ekinlar yetishtirishni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Bunday dasturlar mamlakatdan mamlakatga farqlanadi, ammo ularning asosiy elementi ishlab chiqaruvchilarga ko‘maklashish va mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan siyosat choralaridir.

Xususan, ko‘plab davlatlar yonilg‘i va moylash materiallari, mineral o‘g‘itlar hamda pestitsidlar uchun subsidiya ajratadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmini nazorat qilish, tayyor mahsulotlar uchun ichki narxlarni belgilash, oziq-ovqat mahsulotlarini markazlashtirilgan tartibda xarid qilish amaliyoti ham mavjud.

Oziq-ovqat importini cheklash orqali mamlakatlar o‘z ishlab chiqaruvchilarini himoya qiladi, ular uchun raqobat sharoitlarini yumshatadi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Natijada, ichki bozorni muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish imkoniyati oshadi hamda oziq-ovqat xavfsizligi darajasi mustahkamlanadi.

Importga nisbatan joriy qilinadigan cheklovlardan tashqari, ba’zi mamlakatlar oziq-ovqat mahsulotlarining eksportini ham cheklash choralarini qo‘llaydilar. Bunday eksport cheklovlari, odatda, ichki bozorni barqarorlashtirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga kirish imkoniyatini ta’minlash va narxlarning haddan tashqari oshib ketishining oldini olishga qaratilgan.

Xususan, don mahsulotlari eksportiga vaqtincha cheklovlar hosildorlik past bo‘lgan yillarda keng qo‘llaniladi. Bu orqali davlatlar ichki ehtiyojlarni qoplashni ustuvor vazifa sifatida belgilab, oziq-ovqat

xavfsizligini ta’minlashga intiladilar. Masalan, Ukraina kabi mamlakatlar yirik don eksportchilari bo‘lishiga qaramay, muayyan favqulodda sharoitlarda eksportni cheklab, ichki bozorni to‘liq ta’minlash strategiyasini amalga oshiradi.

Eksport cheklovlari, ayni paytda, aholining iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga kirish imkonini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa oziq-ovqat resurslarini ichki bozorda muvofiqlashtirish vositasi sifatida qaraladi.

Savdoni, xususan tashqi savdoni erkinlashtirish ko‘plab mamlakatlarda umumiy iqtisodiy islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Shu sababli, savdoning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sirini boshqa makroiqtisodiy o‘zgarishlardan mustaqil holda baholash ko‘pincha murakkabdir.

Bozor iqtisodiyotida tovarlar va resurslarni taqsimlashning eng samarali vositasi sifatida erkin savdo muhim ahamiyat kasb etadi. Ochiq savdo tizimi oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqaruvchilardan iste’molchilarga tejamkor va samarali yo‘l bilan yetib borishini ta’minlaydi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarga o‘z mahsulotlarini eng qulay xarajatlar asosida narxlash imkonini beradi.

Bundan farqli o‘laroq, bozor to‘siqlari — masalan, bojxona tariflari, kvotalar yoki qishloq xo‘jaligi subsidiyalari — resurslarning optimal taqsimlanishiga to‘sqinlik qiladi va oziq-ovqat zanjirida samaradorlikni pasaytiradi. Erkin savdo shuningdek, har bir mamlakatga o‘z iqtisodiyotining ma’lum tarmoqlarida qiyosiy ustunliklardan foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa global oziq-ovqat ta’minot tizimining barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, savdoni erkinlashtirish va xalqaro bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish orqali qator ustunliklarga erishish mumkin. Xususan, past narxlar, mahsulotlarning keng assortimenti va bozor tanlovining kengayishi bu jarayonning asosiy afzalliklaridan hisoblanadi.

Xalqaro savdo, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish hajmi talabga nisbatan ortiqcha yoki yetarli darajada bo‘lmaganda, ichki bozorni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bozorlararo muvozanatni ta’minlash orqali mamlakatlar oziq-ovqat ta’minotidagi mavsumiy yoki strukturaviy uzilishlarning oldini oladi.Bundan tashqari, global savdo tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda umumiy rentabellikni ko‘tarish imkonini beradi. Natijada, ba’zi davlatlar uchun savdoni erkinlashtirish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim vositaga aylangan.

Xalqaro bozorlarda qatnashish imkoniyati ichki bozorda hosildorlik past bo‘lgan yillarda taqchillikni yumshatish va narxlarning keskin o‘zgarishini jilovlashga yordam beradi. Masalan, Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat importining o‘sishi ichki narxlar barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynagan.

Bundan tashqari, xalqaro savdoning ochiqligi mahsulot ishlab chiqaruvchilarini samaradorlikka undaydi, raqobatni kuchaytiradi va resurslardan yanada oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari — masalan, Vyetnam, Tailand va

Indoneziya — oziq-ovqat mahsulotlarining erkin savdosi orqali eksport salohiyatini kuchaytirgan va bir vaqtning o‘zida ichki ta’minotni barqaror ushlab turgan.

Shunday qilib, global oziq-ovqat muammosi faqatgina ocharchilik va ovqatlanish yetishmovchiligi bilan cheklanmaydi. U ayni paytda murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimida ham o‘z aksini topadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun faqat ochlikni yo‘qotish emas, balki agrar bozorni barqarorlashtirish, iqtisodiy, demografik, texnologik va resurslarga oid muammolarni hal etish bo‘yicha xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Shu bilan birga, xalqaro okean muammolari va dengiz xo‘jaligining shakllanishi ham dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Bunda dengiz energetikasi va biologik resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, dengiz muhitining ifloslanishini oldini olish asosiy yo‘nalishlardandir. Energiya manbai sifatida dengiz to‘lqinlari, energiya chiqindilari va dengizda joylashgan issiqlik elektr stansiyalaridan foydalanish iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Xalqaro darajada ilgari surilgan “Okean issiqlik energiyasini qayta tiklash” dasturiga muvofiq, dunyo energetik ehtiyojining taxminan 20 foizini dengiz resurslari hisobidan qoplash mumkin. Bu esa dengiz resurslarini barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1982-yilda o‘tkazilgan XI ishchi sessiyada qabul qilingan dengiz huquqi bo‘yicha konvensiya, dunyo okeanlari bilan bog‘liq global muammolarni tartibga solishda muhim xalqaro hujjat sifatida tan olingan.

Bugungi kunda, xalqaro dengiz tashkilotlari va Shimoliy dengiz davlatlari konfederatsiyasi kabi xalqaro tashkilotlar, kimyoviy va sanoat chiqindilarining xalqaro okeanni ifloslantirishini kamaytirishga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqish va tabiatni muhofaza qilish sohasida faoliyatlarini kengaytirmoqdalar.

Shunday qilib, global muammolarni tez va faqat bitta mamlakat yoki kompaniya darajasida hal qilish mumkin emas. Ularni hal etish, boshqarish hamda xalqaro huquq va iqtisodiy normalarni belgilash uchun yagona xalqaro mexanizm talab etiladi. Global muammolarni yechishda xalqaro kuchlarni muvofiqlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda keng tajribaga ega bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XMF), Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi hududiy va tarmoq tashkilotlariga katta umid bog‘lanmoqda.

Yuqorida ta’kidlangan global muammolarning ahamiyati va jiddiyligi sababli, xorijiy kompaniyalarning iqtisodiy siyosati ham doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Ularning faoliyatiga demografik o‘zgarishlar, iste’molchilar sonining ko‘payishi, ularning ijtimoiy holati, shuningdek urush xavfi kabi omillar ta’sir qiladi. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan yangi marketing strategiyalari va ekologik muammolar ham kompaniyalarning yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro okeanlar va kosmik makonni egallash bilan bog‘liq masalalar ham bunday ta’sirlar qatoriga kiradi. Shuningdek, global axborot tarmoqlari va ularning moliyaviy sohalari kompaniyalarni bozorlarni chuqur o‘rganish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga undaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy siyosat xalqaro iqtisodiyotning zamonaviy yo‘nalishlarini aks ettirib, ularni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, doimiy o‘zgarishlarga moslashadi va xalqaro marketing siyosati rivojlanadi. Global muammolardan tashqari, xorijiy kompaniyalarning xalqaro marketing siyosatiga quyidagi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi: innovatsiyalarni tezlashtirish, axborot oqimlarini kengaytirish va xalqaro miqyosda raqobatning kuchayishi. Ana shunday sabablar tufayli, xalqaro marketing siyosati butun dunyoni amaliy jihatdan yagona bozor sifatida ko‘rishga yo‘naltirilgan globallashuv tendensiyalarini namoyon etmoqda.

3.2. O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi iqtisodiy holatlar

O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, odatda, iqtisodiy tizimini markazlashtirilgan rejalashtirishdan bozor tamoyillariga o‘zgartirishga harakat qilayotgan davlatlardir. Bunday o‘zgarishlar ko‘pincha sobiq sovet yoki sosialistik tizimlardan, bozor iqtisodiyotiga o‘tishni anglatadi. Ushbu davlatlar uzoq davom etgan yakkalanishdan so‘ng jahon bozoriga chiqib, integratsiyadan katta foyda ko‘rmoqda va islohot jarayonidagi boshqa davlatlarga nisbatan ko‘proq yutuqlarga erishmoqda. Umumjahon savdoning foydasi ichki bozordagi kelishmovchiliklarga bog‘liq iqtisodiy ustunliklardan ancha yuqori darajada hisoblanadi. Mamlakatlar o‘rtasida kapital, tovar va g‘oyalar oqimi yagona markaziy boshqaruv o‘rniga, ehtiyoj va taklifga asoslangan tarzda tartibga solinmoqda. Bu esa ishlab chiqarish hajmini, savdo ko‘lamini va milliy daromadni doimiy ravishda oshirishga olib keladi. Shuningdek,

davlatlarning o‘zaro integratsiyasi ularni ochiq savdo siyosatiga olib chiqadi, xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish esa ichki institutlarni rivojlantirishga turtki bo‘ladi.

Ochiq savdo siyosati va chet el investitsiyalarini jalb qilish masalalari doimiy ravishda muhokama qilinishi zarur. Asosan, bu jarayon tashqi dunyo bilan faol aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ya'ni tijorat oqimlarining global savdo tizimiga ta'siri, tezkor tarzda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish va unga to‘laqonli a’zolikni ta’minlash, shuningdek, mintaqaviy savdo kelishuvlarini tuzish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, yangi iqtisodiyot yo‘liga kirgan davlatlarga kapital oqimining kirib kelishi va ularning boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘rsatadigan ta’siri ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu davlatlarning xalqaro integratsiyaga kirishishdagi asosiy to‘siqlarda biri bu ularning aksariyati olib borayotgan proteksionizm siyosati bo‘lmoqda.

Proteksionizm siyosati— ichki bozorni turli xil iqtisodiy cheklovlar yordamida tashqi bozordan himoyalash siyosati. Proteksionizm siyosati olib borilganda, erkin savdo yo‘lida juda ko‘p to‘siqlar mavjud bo‘ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Boj to‘lovlari. Boj to‘lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;

2. Import kvotalari. Import kvotalari yordamida ma’lum bir vaqt oralig‘ida import qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlarning maksimal hajmi o‘rnatiladi;

3. Tarifsiz to‘siqlar. Ta’rifsiz to‘siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo‘yish yoki oddiy ma’muriy taqiqlashlar tushuniladi;

4. Eksportni ixtiyoriy cheklash. Eksportni ixtiyoriy cheklash savdo to‘siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o‘zlarining ma’lum mamlakatga eksportini ixtiyoriy ravishda cheklaydi.

Dunyo yuzining chorak qismiga va butun aholisining uchdan biriga yaqin qismiga egalik qiluvchi mamlakatlarning muvaffaqiyatli integratsiyasi global iqtisodiy tizimga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, ilgari o‘ziga xos iqtisodiy yo‘nalishga ega bo‘lgan davlatlarning umumjahon bozoriga kirib borishi natijasida, ba’zi mamlakatlar manfaatlari cheklanib qolishi mumkinligi haqidagi xavotirlar keng tarqalgan va bu xavotirlar o‘rinli hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilish nafaqat yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi, balki o‘tish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘plab mamlakatlar o‘tish davrida yuzaga keladigan xarajatlardan qochib qutula olmaydilar, ammo mavjud ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, keng va raqobatbardosh global bozorga kirish barcha xarajatlarni ortiqcha darajada qoplaydi. Shuningdek, iqtisodiy o‘tishni boshidan kechirgan davlatlarning tashqi savdodagi o‘rni aniq seziladi. Masalan, Xitoy 1978—1994 yillar orasida yirik eksportyor davlatlar ro‘yxatida 32-o‘rindan 3-o‘ringa ko‘tarildi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari hamda Yangi Mustaqil Davlatlar (YaMD) hozirgi kunda eksport va importda teng darajada manfaatdor. Ammo, ularning savdo hajmi qanday bo‘lishi va kimlar

bilan savdo qilinishi savollari hali ham dolzarb. Ishonchli rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, agar yangi Mustaqil Davlatlar bozor tamoyillariga qat’iy rioya qilsa, savdo-sotiq jarayonlarida umumiy barqarorlikka erishishlari mumkin.

O‘tish iqtisodiyotida quyidagi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi:

1. **Bozor iqtisodiyotiga o‘tish**: Bu mamlakatlar, davlat tomonidan qattiq boshqarilgan iqtisodiyotdan bozor tamoyillariga asoslangan tizimga o‘tishga harakat qilmoqda. Bu o‘zgarishlar ko‘pincha narxlar liberallashtirilishi, davlat mulkini xususiylashtirish, va korporativ sektorni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

2. **Inflatsiya va ishsizlik**: O‘tish davrida, bozor iqtisodiyotiga o‘tish ko‘pincha inflatsiya va ishsizlik darajalarining o‘sishiga olib keladi. Bular, yangi bozor mexanizmlariga moslashishning qiyinchiliklaridan kelib chiqadi.

3. **Xususiylashtirish va liberalizatsiya**: O‘tish iqtisodiyotida davlatning iqtisodiy roli kamaytiriladi, va davlat mulkini xususiy sektorga sotish (xususiylashtirish) kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, yangi biznes va investitsiyalarning rivojlanishiga imkon beradi, lekin bu jarayonlar ham o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatadigan guruhlar tomonidan qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

4. **Ijtimoiy-iqtisodiy notekislik**: O‘tish davrida mamlakatlarda iqtisodiy farqlanishlar kuchayishi mumkin. Yangi bozor iqtisodiyoti ba'zi qatlamlarni iqtisodiy jihatdan foydali holatga olib chiqsa, boshqa qatlamlar esa kambag'alroq va muammolarga duch kelishlari mumkin.

5. **Xalqaro integratsiya**: Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ko‘plab o‘tish mamlakatlari xalqaro iqtisodiyotga integratsiya qilishga harakat qiladi. Bu, asosan, Yevropa Ittifoqi yoki Jahon Savdo Tashkilotiga (WTO) a'zo bo‘lishga intilishlarni o‘z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonidagi mamlakatlar global iqtisodiyot uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadilar. Ishlab chiqaruvchilar yangi bozorlarni kashf etish imkoniyatiga ega bo‘lsa, iste’molchilar esa yanada ko‘proq tovarlarga ega bo‘ladilar.

Iqtisodiy samaradorlikning oshishi va resurslarning faol jalb qilinishi o‘tish davridagi davlatlarda taqdim etilayotgan tovar va xizmatlarning global miqyosda ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Integratsiya jarayonida, xuddi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida kuzatilganidek, kam va ichki savdoning o‘sishi, tovar turlarining ko‘payishi va ishlab chiqarishning optimallashtirilishi, shuningdek ishlab chiqarish hajmlarining oshishi natijasida tarmoqlarda tejamkorlik yuzaga keladi, bu esa dunyo miqyosida farovonlikning ortishiga olib keladi. Farovonlik quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topadi:

Barcha mamlakatlar eksport hajmi (Jahon savdo tashkiloti (WTO) va BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlari): 1980 yilda – 1,9 trln. dollar, 1990 yilda – 3,3 trln. dollar, 2000 yilda – 6,4 trln. dollar, 2020 yilda – 17,6 trln. dollarni tashkil etdi. Dunyo eksporti 1980 yildan 2020 yilgacha taxminan 9 barobar oshganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 1990-yillardan boshlab globallashuv jarayonlari tezlashishi, savdo to‘siqlarining kamayishi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mustahkamlanishi natijasida eksport hajmi sezilarli darajada oshdi.

1985 yildan 2007 yilgacha bo‘lgan 22 yil davomida G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarining umumiy eksporti 3,5 barobarga, import esa 3,8 barobarga oshdi. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarning yalpi milliy mahsuloti atigi 2,5 barobarga ko‘paydi.

Rivojlanayotgan davlatlarning tashqi savdo hajmining yalpi milliy mahsulotdagi ulushi 1980-yillarda 33% ga, 1990-yillarda esa 43% ga yetdi. Bozor iqtisodiyoti, xususan, sanoati rivojlangan davlatlar va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar savdo hajmining o‘sishidan manfaatdor bo‘lib, ular o‘z bozorlarini ochishga tayyor turadilar. Albatta, integratsiya jarayonida ma'lum xarajatlar yuzaga keladi. Bu xarajatlar yangi iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, ko‘p mehnat talab qiluvchi tovar ishlab chiqaruvchi rivojlangan davlatlar o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishga solib, boshqa sohalarda ustunlikka erishadilar. Shunga qaramay, qilingan xarajatlar to‘g‘ri baholansa, ularning nisbatan mo‘tadil ekanligi ko‘rinib turadi.

O‘tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlar global bozor talablarini to‘liq qondira olmasalar-da, ishlab chiqaruvchilardan yangi tovarlarni yaratish, aholining farovonligini ta’minlash uchun turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zarur xizmatlarni ko‘rsatish talab qilinadi.

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi (YeI) va Markaziy va Sharqiy Yevropa (MShE) mamlakatlari o‘rtasidagi savdo hajmi deyarli ikki barobarga o‘sdi. MShE davlatlari YeI uchun juda qulay eksport bozori sifatida shakllandi. Ushbu ikki mintaqa o‘rtasidagi Yevropa bitimi bozorlarni turli tovarlar bilan boyitish imkonini berdi. Biroq, hali ham ba’zi sezilarli cheklovlar mavjud: ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida

protektsionistik siyosat davom etmoqda, shuningdek, antidemping va boshqa himoya choralari metallurgiya va kimyo mahsulotlari eksportining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, Yevropa bitimi ochiq savdoni rag‘batlantirib, MShEdagi ishlab chiqarish va savdo islohotlarini mustahkamlashga yordam bermoqda. Ikki mintaqa o‘rtasidagi savdo munosabatlari rivojlanayotgani sababli ichki tarmoqdagi savdo hajmi hamda MShE davlatlari korxonalarining ishlov berish va yig‘ish sohalaridagi faoliyati oshmoqda. Bundan tashqari, YeI tashqarisidagi pudratchilar bilan YeI kompaniyalari o‘rtasida shartnoma tuzilishi Yevropa bitimi orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Hozirda Yevropa Ittifoqida savdo qilayotgan O‘rta Dengiz va Afrika davlatlari, YeI bilan Markaziy va Sharqiy Yevropa (MShE) mamlakatlari o‘rtasidagi savdo murosasozligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xarajatlardan xavotirda. Shu bilan birga, bir qancha O‘rta Dengiz mamlakatlari 1970 yildan beri YeI sanoat mahsulotlari bozoriga boj to‘lamay, qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozoriga esa imtiyozli soliq stavkalari asosida kirish huquqiga ega. Bu imtiyozlar MShE va YeI o‘rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishini saqlab qolishga yordam beradi, degan fikr mavjud.

Shu bilan birga, bu mamlakatlarning global iqtisodiyotda paydo bo‘lishi O‘rta Dengiz mamlakatlari eksportchilarining Yevropa bozorlaridagi geografik ustunliklaridan mahrum bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Ammo neft eksportidan tashqari, O‘rta Dengiz mamlakatlarining YeI bozoridagi eksport ulushi hali o‘zgarmayapti. O‘rta Dengiz hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari jahon savdosida o‘ziga xos imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularning eksport

tuzilmalari bir-birini kesishmaydi. YeI O‘rta Dengiz mamlakatlari uchun muhim bo‘lib, ular o‘z eksport salohiyatini to‘liq ko‘rsatishga qodir.

3.3. Sog‘liqni saqlash sohasidagi global muammolar

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasida bir qator global muammolar mavjud bo‘lib, ular insoniyat oldidagi eng muhim qiyinchiliklardan hisoblanadi. Ushbu muammolar nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlarga ham ta’sir qilmoqda. COVID-19 pandemiyasi global sog'liqni saqlash tizimlarining zaif tomonlarini yaqqol ko‘rsatdi. Dunyo hamjamiyati hali ham yangi pandemiyalarga tayyorlik masalalarini hal qilishi zarurligi namoyon bo‘ldi. Masalan, AQShda sog‘liqni saqlash xarajatlari YaIMning 17-18% ni tashkil etadi, bu boshqa rivojlangan mamlakatlardan ancha yuqori. Yevropada ham tibbiy xizmatlar narxi muntazam oshib bormoqda, bu davolash usullarining barcha fuqarolar uchun qulay emasligini keltirib chiqaradi. Bangladesh va Filippinlardagi tabiiy ofatlar va ularning aholi salomatligiga ta’siri ham nihoyatda katta.

Hozirda ob-havo hodisalari, yuqumli kasalliklar shakllarining o‘zgarishi, oziq-ovqat va suv tanqisligi sog'liq bilan bog‘liq murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasidagi global muammolar bilan kurashuvchi xalqaro miqyosdagi tashkilotlardan biri bu- Jahon sog'liqni saqlash tashkilotidir.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (**JSST**, ingliz. *World Health Organization* WHO)-ixtisoslashgan muassasa bo‘lib, Birlashgan Millatlar tashkiloti bilan 194 a'zo davlatlardan iborat maxsus hamkorlik shartnomasi bilan bog'langan mustaqil xalqaro tashkilot bo‘lib, uning

asosiy vazifasi dunyo aholisining xalqaro sog'liqni saqlash muammolarini hal qilishdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 1948- yilda Jenevada (Shveytsariya) bosh ofis (ofis) bilan tashkil etilgan.

Ushbu tashkilotning 2019-yilda bergan hisobotiga koʻra Sog'liqni saqlash sohasidagi global muammolar quyidagilardan iborat:

1. **Havoning ifloslanishi va iqlim oʻzgarishi.** Bugungi kunda Yer yuzida yashayotgan har oʻn kishidan toʻqqizi har kuni iflos havo taʼsirida yashashga majbur boʻlmoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) bergan maʼlumotlarga koʻra, 2019 yilda havoning ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi asosiy ekologik xavf omili sifatida qayd etilgan. Havoda uchraydigan juda mayda zarrachalar nafas yoʻllari va qon aylanish tizimiga kirib borishi natijasida oʻpka, yurak hamda miya faoliyatida turli darajadagi kasalliklar yuzaga kelishi mumkin.

Hisob-kitoblarga koʻra, har yili dunyo boʻyicha taxminan 7 million inson havoning ifloslanishi sababli yuzaga keladigan kasalliklar – xususan, saraton, insult, yurak va oʻpka xastaliklari oqibatida erta hayotdan koʻz yumadi. Bu holatlarning qariyb 90 foizi past va oʻrta daromadli davlatlarda kuzatiladi. Bunday mamlakatlarda sanoat, transport, qishloq xoʻjaligi sohalaridan ajralib chiqadigan zararli moddalar miqdori yuqori boʻlib, aholining katta qismi ekologik xavfli oshxona pechlari hamda noanʼanaviy yoqilgʻi turlaridan foydalanishga majbur.

Havoning ifloslanishining asosiy sababi (qazib olinadigan yoqilg'ining yonishi), shuningdek, iqlim oʻzgarishining asosiy

omillaridan biri bo‘lib, bu o‘z navbatida inson salomatligiga turli xil salbiy ta'sir ko‘rsatadi. 2030 yildan 2050 yilgacha iqlim o‘zgarishi yiliga 250 ming qo‘shimcha o‘limga olib kelishi kutilmoqda (to‘yib ovqatlanmaslik, bezgak, diareya va issiqlik stressi).

2018-yil oktyabr oyida Jeneva shahrida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan havoning ifloslanishi va inson salomatligiga ta’siri mavzusiga bag‘ishlangan birinchi global konferensiya tashkil etildi. Ushbu anjumanda 70 dan ortiq mamlakat va xalqaro tashkilotlar ishtirok etib, atmosfera havosining sifatini yaxshilash bo‘yicha aniq majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi.

2019- yilning sentyabr oyida BMTning iqlim sammiti bo‘lib o‘tadi, u global miqyosda iqlim o‘zgarishiga qarshi harakatlarni kuchaytirishga qaratilgan. Parij kelishuvi bo‘yicha barcha mamlakatlar o‘z majburiyatlarini bajargan taqdirda ham, hozirgi asrda sayyoradagi o‘rtacha havo harorati 3°C dan oshishi mumkin.

2. Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar. Saraton, yurak kasalliklari va qandli diabet kabi yuqumli bo‘lmagan kasalliklar global o‘lim holatlarining 70 foizidan ko‘prog‘iga – ya’ni har yili taxminan 41 million kishining hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkich 30 yoshdan 69 yoshgacha bo‘lgan 15 million erta o‘limni ham o‘z ichiga oladi. Ahamiyatlisi shundaki, bu erta o‘limlarning 85 foizdan ortig‘i past va o‘rta daromadli mamlakatlarda sodir bo‘lmoqda.

Bunday kasalliklarning keng tarqalishiga beshta asosiy omil sabab bo‘lmoqda: tamaki mahsulotlaridan foydalanish, jismoniy harakatsizlik, spirtli ichimliklarni me’yordan ortiq iste’mol qilish, sog‘liq uchun zararli ovqatlanish odatlari va havoning ifloslanishi. Aynan shu xavf

omillari ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarning ham ertaroq yuzaga chiqishiga turtki beradi — chunki barcha ruhiy kasalliklarning yarmi odatda 14 yoshgacha bo‘lgan davrda boshlangan bo‘ladi. Afsuski, bu holatlarning ko‘pi vaqtida aniqlanmaydi yoki davolashsiz qoladi. Natijada, 15–19 yosh oralig‘idagi o‘smirlar orasida o‘z joniga qasd qilish o‘limning uchinchi eng keng tarqalgan sababi sifatida qayd etilgan.

3. Global gripp pandemiyasi. Pandemiya potentsialiga ega shtammlarni aniqlash uchun JSST gripp viruslarining aylanishini doimiy ravishda kuzatib boradi. Global kuzatuv va javob berish tizimida 114 mamlakatdan 153 ta muassasa ishtirok etadi. JSST har yili mavsumiy grippga qarshi emlashga qaysi shtammlarni kiritish kerakligi haqida tavsiyalar beradi. Pandemiya xavfi tug‘diradigan har qanday yangi virus shtammi aniqlangan taqdirda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) diagnostika, vaksinalar va virusga qarshi dorilar kabi muhim tibbiy vositalarga, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun, adolatli va samarali kirishni ta’minlash maqsadida asosiy manfaatdor tomonlar bilan beqiyos hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘ygan.

4**. Zaif sharoitlar.** Bugungi kunda dunyo aholisining taxminan 22 foizini tashkil etuvchi 1,6 milliarddan ortiq inson uzoq muddatli inqirozlar — qurg‘oqchilik, ocharchilik, qurolli mojarolar va majburiy migratsiya kabi omillar majmuasi ta’sirida shakllangan beqaror hududlarda yashamoqda. Bu mintaqalarda sog‘liqni saqlash tizimlari yetarlicha rivojlanmagan bo‘lib, aholining zarur tibbiy yordamga erkin va oson kirish imkoniyati mavjud emas.

Deyarli barcha mintaqalarda bunday beqaror hududlar uchrab turadi. Afsuski, ana shunday joylarda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, xususan onalar va bolalar salomatligini yaxshilash bo‘yicha belgilangan ko‘plab vazifalar bajarilmay qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) esa bunday sharoitdagi mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimlarini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va ularga tezkor javob berish imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, sifatli tibbiy xizmatlar va emlash dasturlariga bo‘lgan kirishni kengaytirish ustida izchil faoliyat olib bormoqda.

5. **Birlamchi tibbiy yordamning zaifligi**. Birlamchi tibbiy yordam muassasalari, odatda, aholining sog‘liqni saqlash tizimi bilan birinchi marta to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga kirishadigan nuqtasi hisoblanadi. Ideal holatda, bu muassasalar inson umrining turli bosqichlarida keng qamrovli, sifatli va arzon tibbiy xizmatlarni taqdim eta olishi lozim.

Bunday muassasalar aholining ko‘p hollarda uchraydigan tibbiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lib, ular orqali sog‘liqni saqlash tizimining asosiy maqsadi — universal sog‘liqni saqlash qamroviga erishish yo‘lida muhim poydevor yaratiladi.

Biroq, ko‘plab mamlakatlarda birlamchi tibbiy yordam muassasalarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur tizimlar hali hanuz to‘liq shakllanmagan. Past va o‘rta daromadli davlatlarda bu holat ko‘pincha resurslarning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ayrim hollarda bu muammo so‘nggi o‘n yilliklar davomida asosan alohida kasalliklarga qarshi kurash dasturlariga ustuvor e’tibor berilganligi natijasida yuzaga kelgan.

2018-yil oktyabr oyida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) Qozog‘istonning Ostona shahrida o‘tkazilgan muhim xalqaro konferensiyaga hamkorlik qilgan. Ushbu anjumanda barcha davlatlar 1978-yilgi Olma-Ota deklaratsiyasida belgilanganidek, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatlarini mustahkamlash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini yana bir bor tasdiqladilar.

6. **Emlash bilan bog'liq ikkilanish**. Vaksinalarning o‘zi mavjud bo‘lganda odamlarning emlashda ishtirok etishni istamasligi xavflidir, chunki u vaktsinalar bilan oldini olish mumkin bo‘lgan kasalliklarga qarshi kurashda erishilgan yutuqlarni qaytarishi mumkin. Emlash — yuqumli kasalliklarning oldini olishda eng samarali va iqtisodiy jihatdan eng maqbul usullardan biridir. Hozirgi vaqtda emlashlar har yili 2–3 million kishining hayotini saqlab qolishga yordam bermoqda. Agar global darajada to‘liq emlash qamrovi ta’minlansa, qo‘shimcha ravishda yana 1,5 million o‘limning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Shunga qaramay, dunyo bo‘ylab qizamiq bilan kasallanish holatlari so‘nggi yillarda yana oshgan — ayniqsa, u 30 foizga ko‘tarilganligi xavotirli holat sifatida qayd etilmoqda. Ushbu o‘sishning bir qator sabablari bor va kasallikning barcha holatlari emlashdan bosh tortish bilan izohlanmaydi. Shunga qaramay, qizamiqni yo‘q qilishga deyarli erishgan ba'zi mamlakatlarda qizamiq bilan kasallanish ko‘paymoqda.

Odamlarning emlashdan bosh tortishi bir qator sabablar bilan bog'liq: JSSTning vaktsina bo‘yicha maslahat guruhi asosiy omillarni ehtiyotsizlik, vaktsinalarga ishonchsizlik va emlash xizmatlaridan qulay foydalanish imkoniyati yo‘qligi deb ataydiAyniqsa kichik jamoalar doirasida, odamlarning emlanish bo‘yicha qarorlariga eng katta ta’sir

koʻrsatadigan shaxslar — bu sogʻliqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar hisoblanadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) esa ushbu mutaxassislarga ishonchli va ilmiy asoslangan vaksina haqida ma’lumotlarni yetkazishda koʻmaklashadi, shunda ular aholiga asosli tavsiyalar bera olishlari mumkin boʻladi.

2019 yilda tashkilot HPV vaktsinalari bilan aholini qamrab olishni kengaytirish orqali bachadon boʻyni saratonini yoʻq qilish boʻyicha ishlarni faollashtiradi. Shuningdek, bu yil Afg'oniston va Pokistonda yovvoyi poliovirusning tarqalishini butunlay toʻxtatish imkoniyati mavjud. Oʻtgan yili ikkala mamlakatda ham poliomiyelitning 30 dan kam holati qayd etilgan. JSST va sheriklar ushbu mamlakatlarga har bir bolani emlashni ta'minlash va ushbu nogiron kasallikni butunlay yoʻq qilishni qoʻllab-quvvatlashni eng muhim vazifalaridan biri deb bilishadi.

7. Deng kasalligi. Oʻn yildan koʻproq vaqt davomida oʻsib borayotgan tahdidlardan biri bu dang isitmasi. Bu kasallik chivinlar orqali yuqadi va grippga oʻxshash belgilar bilan namoyon boʻladi. Taxminan har beshinchi holatda kasallik ogʻir kechib, oʻlimga olib kelishi mumkin.

Kasallik yuqori darajada ayniqsa yomgʻirli mavsumda Bangladesh va Hindiston kabi mamlakatlarda koʻp uchraydi. Soʻnggi yillarda, xususan 2018-yilda, ushbu mintaqalarda kasallik tarqalishining davomiyligi sezilarli darajada oshgan (masalan, oxirgi yigirma yil ichida Bangladeshda eng koʻp oʻlim holatlari qayd etildi). Bundan tashqari, kasallik ilgari kuzatilmagan tropik va moʻtadil iqlimga ega davlatlarga ham tarqala boshladi, jumladan, Nepal kabi hududlarga.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyo aholisining taxminan 40 foizi dang isitmasi xavfi ostida yashaydi va yiliga 390 millionga yaqin inson bu kasallikka chalinadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan dangga qarshi kurash strategiyasi 2020 yilga kelib o‘lim holatlarini 50 foizga kamaytirishni maqsad qilgan.

9. **Odamning immunitet tanqisligi virusi.** OIVga qarshi kurashda sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritildi: ko‘plab bemorlar tashxis qo‘yilgan va antiretrovirus terapiyasi bilan ta’minlangan — hozirda taxminan 22 million odam ushbu davolanishni olmoqda. Shuningdek, yuqori xavf guruhlariga kiruvchi shaxslar infektsiyani oldini olish maqsadida antiretrovirus dorilarni profilaktik tarzda qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan oldingi ta’sir ko‘rsatish profilaktikasidan (PrEP) foydalanmoqda.

Shunga qaramay, epidemiya barqaror pasaymayapti va har yili taxminan bir million kishi OIV/OITS tufayli vafot etmoqda. Epidemiya boshlangandan buyon deyarli 70 million odam virusni yuqtirgan, shulardan taxminan 35 millioni hayotdan ko‘z yumgan. Hozirda dunyo bo‘ylab taxminan 37 million kishi OIV bilan yashamoqda. Jinsiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, mahbuslar, erkaklar bilan jinsiy aloqada bo‘lgan erkaklar hamda transgender shaxslar kabi yuqori xavfli guruhlarni sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish katta murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda, chunki bu guruhlar ko‘pincha zarur tibbiy yordamdan mahrum qoladi. OIV xavfi juda yuqori va ortib borayotgan guruhlardan biri 15-24 yoshdagi qizlar va ayollardir, ular Sahroi Kabirdan Janubiy Afrikada barcha infektsiyalarning to‘rtdan bir qismini tashkil qiladi, garchi ular aholining atigi 10 foizini tashkil qiladi.

Bu yil JSST mamlakatlarga OIV bilan kasallangan odamlarga OIV holati to‘g'risida ma'lumot olish va davolanish uchun murojaat qilish imkoniyatini berish uchun o‘z-o‘zini tekshirish vositalarini joriy etishda yordam beradi (va salbiy test natijalari bilan – profilaktika yordami uchun). Ushbu faoliyatning yo‘nalishlaridan biri JSST va xalqaro mehnat tashkilotining 2018 yil dekabr oyida e'lon qilingan korxonalar va tashkilotlarga OIVga qarshi o‘z-o‘zini tekshirish testlarini o‘z xodimlariga tarqatishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalarini bajarish bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Global muammolarni qanday ko‘rinishlarini bilasiz?
2. Xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo munosabatlarining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari va dinamikasiga ta'rif bering.
3. Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy aloqalarning yana qanday shakllari mavjud va taraqqiy etmoqda?
4. O‘tuvchi iqtisodiyotli mamlakatlardagi iqtisodiy holatlarga tavsif bering.
5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va uning faoliyati?

IV-BOB. GLOBAL VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYANING MOHIYATI

4.1.Mintaqaviy integratsiya shart-sharoitlari va maqsadlari.

4.2.Xalqaro integratsiya jarayonining asosiy xususiyatlari hamda uni shakllantiruvchi omillar.

4.3. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy turlari va rivojlanish bosqichlari.

Tayanch iboralar: mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy erkinlik, iqtisodiy integratsiya, mintaqaviy ittifoqlar, geosiyosiy manfaatlar, plyuralizm, konvertatsiya, inson kapitali, axborot-texnologiyalar inqilobi, erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq, siyosiy integratsiya.

4.1. Mintaqaviy integratsiya shart-sharoitlari va maqsadlari.

Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy darajadagi integratsion harakatlar ushbu jarayonda asosiy o‘rin tutadi. Mintaqaviy integratsiya deganda esa, ma’lum bir hududda joylashgan davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va boshqa yo‘nalishlarda hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi tushuniladi. Integratsiyaning taraqqiy etishi bir qator muhim shart-sharoitlarning mavjudligini talab etadi:

Birinchi omil, integrallashuvchi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti deyarli bir xil darajada bo‘lishi va bozor iqtisodiyoti to‘laqonli shakllangan bo‘lishi shart. Ularning xo‘jalik mexanizmlari

o‘zaro mos bo‘lishi kerak. Ko‘pincha yuqori darajada rivojlangan davlatlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlar eng barqaror va natijador bo‘lib chiqadi.

Ikkinchi omil sifatida, umumiy chegaralarning mavjudligi va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning davomiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Geografik yaqinlik esa mintaqaviy integratsiyaning asosiy asoslaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi o‘xshash tarixiy va madaniy ildizlar, bir xil til, urf-odatlar o‘zaro ishonchni kuchaytirib, integratsiya jarayonlarini jadallashtiradi.

Uchinchi jihatdan, integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida bir-birini to‘ldiruvchi tuzilmalarning mavjud bo‘lishi muhim. Aksincha, bunday muvofiqlikning yo‘qligi Afrikadagi va arab mamlakatlaridagi integratsiya harakatlarining sust bo‘lishiga olib kelgan.

To‘rtinchi omil sifatida esa, muayyan mintaqada joylashgan davlatlarning umumiy xo‘jalik yoki boshqa turdagi dolzarb muammolarga birgalikda duch kelayotgani, ularni birlashishga undovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, davlatlarning siyosiy ixtiyori va integratsiya tarafdori bo‘lgan yetakchi mamlakatlarning mavjudligi. Mintaqaviy integratsiya murakkab va uzoq muddatli jarayon bo‘lib, unda qatnashuvchi davlatlar siyosiy jihatdan tayyor va irodali bo‘lishi kerak. Integratsiyaga qatnashish faqat iqtisodiy manfaatlarga emas, balki siyosiy qarorlar qabul qilishga tayyorlikni ham talab qiladi. Mintaqaviy hamkorlikda yetakchi davlatlar o‘zining iqtisodiy salohiyati, siyosiy nufuzi yoki geosiyosiy mavqei bilan integratsiyani “tortuvchi

lokomotiv” rolini bajaradi. Bunday mamlakatlar tashabbus ko‘rsatadi, infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritadi va boshqa davlatlarni ham ishtirokka undaydi. Misol uchun Germaniya va Fransiya – Yevropa Ittifoqining yetakchilari hisoblanadi.

Oltinchidan, o‘ziga xos «namoyish samarasi». Odatda, u yoki bu guruh mamlakatlarining integratsion muvaffaqiyatlari qolgan mamlakatlarni ham ushbu jarayonga jadalroq suratlarda qo‘shilish hoxishini uyg‘otadi. Bunga misol tariqasida Yevropa ittifoqining muvaffaqiyatli tajribasidan keyin yuzaga kelgan holatni keltirish mumkin — o‘sha davrda 10 ta Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishga katta qiziqish bildirgan.

Yettinchidan, “Domino effekti”. Integratsiya mintaqa ichidagi mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarining jadallashuviga olib keladi. Bunda, ba’zi qo‘shni, a’zo bo‘lmagan mamlakatlar ma’lum qiyinchiliklarni (ko‘pincha, a’zo mamlakatlar bilan savdo aloqalarining susayib ketishi) boshdan kechiradi. Natijada, ular ham integratsion birlashmaga a'zo bo‘lishga majbur bo‘lishadi. “Domino effekti” – bu bir davlatning integratsiyaga qo‘shilishi yoki bu yo‘nalishda tashabbus ko‘rsatishi boshqa davlatlarni ham o‘xshash harakat qilishga undovchi zanjirli jarayonidir. Ya’ni, bir davlatning ijobiy natijalarga erishgani boshqalarda ham integratsiyaga qiziqish uyg‘otadi va bu ketma-ket boshqa davlatlarni ham qo‘shilishga olib keladi. Yevropa Ittifoqida dastlab 6 davlat a’zo bo‘lgan, keyinchalik domino effekti orqali 27 davlatga yetdi. Meksikaning NAFTAga qo‘shilishi ortidan Lotin Amerikasi mintaqasida «Uchlar guruhi» nomi bilan tanilgan yangi

iqtisodiy hamkorlik shakllandi. Ushbu guruh doirasida Venesuela va Boliviya Meksika bilan erkin savdo bitimlarini imzoladi.

Mintaqaviy integratsiya bir qator aniq maqsadlarga ega:

- Milliy raqobatbardoshlikni ko‘tarish, hamkorlikda globalizatsiya hamlalariga javob qaytarish. Masalan, 1990-yillarda Polsha o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakat edi. 2004 yilda Polsha Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish orqali raqobatbardoshlikni oshirdi.
- Bilvosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, ishlab chiqarish resurslarini yangi usullarda birlashtirish, tranzaktsion xarajatlarni kamaytirish va bozordagi hajm imkoniyatlarini kengaytirish orqali “miqyos iqtisodiyoti”ning afzalliklaridan foydalanish imkonini yaratish. Aynan shu kabi maqsadlar asosida MERCOSUR, And davlatlari ittifoqi hamda ASEAN kabi tuzilmalar shakllantirilgan.
- Iqtisodiyotni tarkibiy isloh qilish va modernizatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash. Keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb etish orqali milliy iqtisodiyotda muhim tarkibiy o‘zgarishlar yuz beradi va barcha sohalarda texnologik va iqtisodiy yangilanishlar amalga oshadi;
- Bozor iqtisodiyotiga endi kirib kelayotgan yoki jiddiy iqtisodiy islohotlarni boshlagan davlatlarni nisbatan rivojlangan mamlakatlar tuzgan mintaqaviy savdo bitimlariga jalb etish. Ushbu jarayonni xo‘jalik tajribasini uzatishning muhim yo‘li sifatida ko‘rish. Rivojlangan mamlakatlar o‘zlarining qoloq qo‘shnilarini integratsiya jarayoniga jalb etar ekan, ulardagi islohotlar muvaffaqiyati, samarasi va jadalligidan manfaatdordir, u yerda to‘laqonli bozorlarning tezroq yaratilishi tarafdoridir;

- Milliy ishlab chiqaruvchilar uchun moliyaviy, mehnat, xomashyo, texnologik resurslarga kengroq yo‘l ochib berish, talabgorroq bozorga ishlash. Integratsiyalashgan moliyaviy institutlar (mintaqaviy rivojlanish banklari, qo‘shma fondlar) orqali milliy ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozli kreditlar va sarmoya manbalariga chiqish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Polsha o‘z mahsulotlarini 500 million aholiga ega YI bozoriga hech qanday tariflarsiz eksport qila boshladi;
- Mamlakatlar bilan barcha sohalarda yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini bog‘lash. Qarama-qarshiliklar uchun shart-sharoitlarning barham topishi yuzaga keladi. Maqbul tashqi siyosiy muhitni yaratish maqsadi ayniqsa, Yaqin Sharq, Afrika mamlakatlari uchun xosdir.
- A‘zo mamlakatlarning jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlash, savdo siyosatining ma'lum masalalari hal etiladi. Misol: Yevropa Ittifoqi davlatlari jahon bozorida yagona "yevro hududi" sifatida ishtirok etadi. Bu ularga: katta eksport kuchi, yagona savdo siyosati, AQSH, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarga qarshi barqaror iqtisodiy ta’sir kuchini beradi.
- Integratsiya xalqaro tashkilotlarda birga ishtirok etish, JST ning ko‘p tomonlama muhokamalarida o‘z manfaatlarini to‘laroq himoya etish imkoniyatini beradi.

4.2. Xalqaro integratsiya jarayonining asosiy xususiyatlari hamda uni shakllantiruvchi omillar

Ma’lumki, globallashuv — bu jahon xo‘jalik tizimining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiya jarayonlarining jadallashuvi asosida yuzaga keladigan iqtisodiy integratsiya va o‘zaro

bog‘liqlikning chuqurlashuvini ifodalaydi. Bu jarayon natijasida milliy iqtisodiyotlar bir-biriga tobora ko‘proq bog‘lanadi, iqtisodiy erkinlik kuchayadi va transmilliylashuv kengayadi. Shubhasiz, mintaqaviy va xalqaro integratsiya globallashuvning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

"Iqtisodiy integratsiya" atamasi ilk bor XX asrning 1930-yillarida nemis va shved iqtisodchilari tomonidan ilmiy adabiyotlarda qo‘llanilgan. Hozirgi kunda esa bu tushunchaning turli nuqtai nazardan tavsiflangan o‘nlab ta’riflari mavjud. Lotincha "integratio" so‘zi "birlashish", "to‘ldirish", "yaxlitga aylantirish" ma’nolarini beradi. Demak, integratsiya — bu alohida qismlarni yagona, yaxlit tizimga birlashtirish jarayonidir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XIM) nuqtai nazaridan, bu atama bir qator mamlakatlar o‘rtasidagi takror ishlab chiqarish jarayonlarining bosqichma-bosqich uyg‘unlashuvi orqali milliy xo‘jaliklar o‘rtasida chuqur va barqaror iqtisodiy aloqalarning shakllanishini anglatadi. Ushbu jarayon xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi darajasining oshishi bilan tavsiflanadi.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya esa, bir necha mamlakatlar o‘rtasidagi mintaqaviy miqyosdagi hamkorlikni nazarda tutadi. Bu jarayon, odatda, ularning iqtisodiyotlarini ma’lum bir yagona mintaqaviy xo‘jalik tizimiga yaqinlashtirishni maqsad qiladi. Biroq, bu jarayonda “birlashtirish”, “umumlashtirish” va “yaxlitlik” kabi tushunchalarga qanday mazmun yuklanayotganiga aniqlik kiritish muhim ahamiyatga ega.

Mashhur fransuz iqtisodchisi R. Aron ta’kidlaganidek, agar

iqtisodiy birliklar o‘rtasida tovarlar, kapital va ishchi kuchining harakati shu birliklarning ichida bo‘lgani kabi erkin amalga oshsa, ushbu birliklar umumiy iqtisodiy makon sifatida qaraladi (Aron, R.).

Integratsiyalashayotgan davlatlar o‘rtasida tovarlar va ishlab chiqarish resurslarining to‘liq erkin harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan yagona iqtisodiy makon raqobatbardosh kompaniyalar sonining oshishiga va «miqyos iqtisodiyoti»ning samaralaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Mintaqaviy ittifoqlar o‘z a’zolari iqtisodiyotining qanchalik chuqur birlashgani, tanlangan integratsiya strategiyasi va institutsional tuzilishining xususiyatlari, faoliyat doirasi va hajmi hamda a’zo davlatlar soni va ularning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga qarab farqlanadi.

Integratsiya jarayoni bir qator muhim xususiyatlar bilan ajralib turadi, ular integratsiyani mamlakatlar o‘rtasidagi boshqa iqtisodiy hamkorlik shakllaridan farqlashga yordam beradi:

- Ishtirokchi davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital va inson resurslarining erkin harakatlanishiga qo‘yilgan cheklovlarning olib tashlanishi;
- Ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy siyosatlari o‘rtasida muvofiqlikning ta’minlanishi;
- Milliy ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi va birlashuvi hamda mintaqa doirasida ishlab chiqarish jarayonida texnologik yaxlitlikning shakllanishi;
- Ishlab chiqarish, ilm-fan va texnologiya sohalarida yanada ilg‘or va chuqur shakllar asosida xalqaro ixtisoslashuv va hamkorlikning

rivojlanishi hamda iqtisodiy taraqqiyot va innovatsion jarayonlarning hamkorlikda moliyalashtirilishi;

- Ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar;
- Milliy qonunlar, me’yorlar va standartlarning yaqinlashuvi;
- Integratsiya jarayonining maqsadli va tizimli boshqarilishi, o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarining rivojlanishi (masalan, Yevropa Ittifoqidagi kabi davlatlararo va davlat ichidagi boshqaruv mexanizmlari);
- Integratsiya jarayonining geografik qamrov doirasining mintaqaviy darajaga kengayishi.

Integratsiyaning asl mohiyati – takroriy ishlab chiqarish jarayonlarining qisman qo‘shilishi, o‘zaro singishi va birlashishi orqali namoyon bo‘ladigan jarayon hisoblanadi.

Integratsiyalashuv jarayoni yagona tizimning bir nechta asosiy bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi:

1) Bozor munosabatlari, ya’ni savdo sohasida erkinlik va ishlab chiqarish omillarining o‘sishi orqali erishiladigan integratsiya; bu — yuzaki yoki “yumshoq” integratsiya deb ataladi, unda tovarlar, xizmatlar, pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar kabi resurslar erkin harakatlanadi;

2) Real ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish va uyg‘unlashtirishni o‘z ichiga olgan chuqur integratsiya;

3) Qaror qabul qilish jarayoni, bunda firmalar, tadbirkorlik birlashmalari, milliy hukumatlar hamda xalqaro va milliy tashkilotlar ishtirok etadi.

4.1-jadval.

Dunyodagi asosiy mintaqalardagi muhim integratsion iqtisodiy birlashmalar

№	Tashkilot nomi	A’zo davlatlar soni	Tuzilgan yili
1.	Yevropa Ittifoqi (Yel) (dastlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyati YelH)	28	1992 (1957)
2.	Markaziy Yevropada erkin savdo zonasi (SEFTA)	7	1992
3.	Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YeESA	4	1960
4.	Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)	10	1991
5.	Qora dengiz iqtisodiy hamkorligi(Q1H)	11	1992
6.	Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA)	3	1994
7.	«Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi» Forumi (ATES)	21	1989
8.	Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN)	10	1967
9.	Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi assotsiatsiyasi (SAARK)	7	1985
10.	Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi (L1A) (sobiq Lotin Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi LESA)	11	1980 (1960)
11	And guruhi, yoki And pakti	5	1969
12	Karib hamkorligi va Karib umumiy bozori	14	1973
13	Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR)	4	1991
14	Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (KOMESA)	20	1994
15	G‘arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati (EKOWAS)	16	1976
16	Janubiy Afrika taraqqiyot hamjamiyati (SADK)	11	1992
17	Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy ittifoqi (YuDEAK)	6	1966
18	Arab iqtisodiy yaxlitligi kengashi (AIYaK)	12	1964
19	Fors ko‘rfazidagi arab mamlakatlari hamkorligi Kengashi (FKAMHK)	6	1981

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy integratsiyada uchta yirik markaziy birlashma muhim rol o‘ynaydi:

1. Yevropa Ittifoqi (YI) — 27 ta davlatni o‘z ichiga oladi, jumladan Germaniya, Fransiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Belgiya, Irlandiya, Daniya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Shvetsiya, Finlyandiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Latviya, Litva, Estoniya, Sloveniya, Kipr, Malta, Ruminiya, Bolgariya va Xorvatiya.

Bugungi kunda YI o‘z ichki bozorini yagona tizimga aylantirib, 19 davlatni qamrab olgan iqtisodiy va valyuta ittifoqini yaratgan eng rivojlangan iqtisodiy hamkorliklardan biridir.

2. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA) — AQSh, Kanada va Meksikadan tashkil topgan ushbu mintaqaviy ittifoq doirasida tovarlar erkin savdosi amalga oshiriladi. Shuningdek, a’zo davlatlar o‘rtasida investitsiyalar, ishchi kuchi va xizmatlar sohasidagi harakatlarni erkinlashtirish ishlari ham olib borilmoqda.

3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) — 21 davlatni qamrab olgan ushbu forum 2020-yilgacha erkin savdo tizimi va investitsiyalarning erkin harakatlanishini ta’minlashga qaratilgan masalalarni hal qilmoqda.

Integratsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar quyidagicha ifodalanadi:

a) mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning ortib borishi, xo‘jalik faoliyatining xalqaro xarakter kasb etishi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning uyg‘unlashuvi;

b) global iqtisodiyotning shakllanishi va kuchayib borayotgan xalqaro raqobat muhiti;

c) ilm-fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ayniqsa axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi;

e) iqtisodiy erkinlik jarayonlarining chuqurlashuvi va milliy xo‘jaliklarning ochiqlik darajasining oshishi;

f) zamonaviy dunyoda sivilizatsiyalar, ijtimoiy va madaniy tizimlarning xilma-xilligi (ya’ni, plyuralizm);

g) ko‘plab mamlakatlar uchun umumiy xavfsizlik masalalari asosida milliy manfaatlarning yaqinlashuvi;

h) geosiyosiy manfaatlarning muvofiqlashuvi va boshqa omillar.

Integratsiyani shakllantiruvchi omillarning ko‘pligini chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

1) Bugungi davrda mamlakatlar, ayniqsa ularning firmalari o‘rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti negizida shakllanib, global xarakter kasb etmoqda. Milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi darajasining ortishi, transmilliy korporatsiyalarning faoliyati, ilmiy-texnik taraqqiyot, xalqaro savdoning kengayishi, kapital oqimi, zamonaviy transport va aloqa vositalari, shuningdek, ilg‘or axborot texnologiyalarining jadal rivoji xo‘jalik faoliyatining xalqaro miqyosda chuqur integratsiyalashuviga olib keldi. Bu esa ko‘plab mamlakatlarning firmalari ishtirokida jahon miqyosida o‘zaro bog‘langan iqtisodiy tarmoq shakllanishini ta’minladi.

2) Zamonaviy iqtisodiy makonda firmalar va davlatlar o‘rtasidagi raqobatning keskin kuchayib borayotgani, yangi raqobat maydonlarining yuzaga kelishi hamda an’anaviy bozorlar doirasida kuchli raqobatning davom etishi — alohida mamlakat yoki ularning iqtisodiy hamkorlikdagi salohiyatini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ayniqsa, hududiy yaqinlikda joylashgan mamlakatlarning birlashuvi ularga globallashuv sharoitida o‘z mavqeini mustahkamlash, yirik iqtisodiy hududlar imkoniyatidan foydalanish hamda xalqaro bozorda yagona iqtisodiy kuch sifatida raqobatga kirishish imkonini beradi. Bu holat, nafaqat milliy manfaatlarning bir-biriga bog‘liqligini, balki ularning mintaqaviy darajadagi umumiy manfaatlar sifatida rasmiy tus olishini ham dolzarb masalaga aylantirmoqda.

3) Milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasining ortishi mintaqaviy va global integratsiya jarayonlarini jadallashtiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ochiq iqtisodiyotning quyidagi xususiyatlarini alohida ta’kidlash mumkin:

— *milliy xo‘jalikning xalqaro iqtisodiy tizimga chuqur singib borishi, ya’ni jahon xo‘jaligidagi ko‘plab davlatlar yalpi ichki mahsulotida tashqi savdoning (xususan, eksportning) ulushi sezilarli bo‘lib, bu tendensiya davom etmoqda;*

— *tovarlar, investitsiya resurslari va mehnat kuchining davlatlar o‘rtasida erkin harakatlanishiga qo‘yilgan to‘siqlarning sezilarli darajada qisqarishi yoki umuman bekor qilinishi;*

— *milliy valyutaning xalqaro bozorlarda erkin ayirboshlanishi (konvertatsiyaligi).*

4) Rivojlangan mamlakatlarda bilim va axborot texnologiyalariga asoslangan yangi iqtisodiyotning shakllanishi — mintaqaviy integratsiyaning taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biridir.

Ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, bugungi global iqtisodiy rivojlanish jarayoni asosan bilim va axborot texnologiyalariga

asoslanmoqda. Shunday iqtisodiyotning bosh resursi bu — inson kapitalidir. Har bir fuqaro o‘zining individual salohiyatiga ega bo‘lib, davlatning asosiy vazifalaridan biri — ushbu salohiyatni ro‘yobga chiqarishdir.

Ammo ko‘plab davlatlarda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari (NIOKR), yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va ilg‘or ta’lim tizimlari uchun zarur moliyaviy resurslar yetarli emas.

Mintaqaviy integratsiya esa bu boradagi muammolarni hal etishda yordam beradi — masalan, umumiy moliyaviy resurslar (fondlar) yaratish, ilmiy-texnik ixtisoslashuvni kuchaytirish, qo‘shma innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

5) Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda *axborot-texnologiyalar inqilobi* bilan bog‘liq masalalar global ahamiyat kasb etmoqda. Bu ayniqsa, ayrim mamlakatlarning, xususan rivojlanayotgan davlatlarning axborotlashtirish sohasidagi imkoniyatlardan yetarli darajada foydalana olmasligi bilan bog‘liq muammolar orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, Afrika davlatlari uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida mintaqaviy, subregional va milliy strategiyalarni ishlab chiqish muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Bu borada integratsiya jarayonlari axborot texnologiyalarini iqtisodiyotga samarali joriy etish, innovatsion rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish yo‘lida mintaqaviy hamkorlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Aynan shuning natijasida, Janubiy Afrika mamlakatlarini rivojlantirish hamjamiyati (SADK) doirasidagi davlatlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ancha ilg‘or holatga erishdi.

6) Hozirgi kunda globallashuv faqat iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy ta’sir doirasi bilan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, u insonlarning turli ehtiyoj va talablarini hisobga olgan holda, jamiyatga ko‘rsatadigan ijobiy yoki salbiy oqibatlarini baholash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, globallashuvning noxush ta’sirini yumshatish va zaif ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ijtimoiy himoya tarmog‘i (social safety nets) deganda — aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy ta’minot, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy tanglik sharoitida ularni manzilli yordam bilan ta’minlash choralari tushuniladi.

Bu yo‘nalish, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarini ham rag‘batlantiradi. Masalan, Yevropa Ittifoqi singari rivojlangan integratsion birliklar doirasida yagona ijtimoiy makon shakllanmoqda. Bu esa aholining farovonligini ta’minlashda umumiy yondashuvlar ishlab chiqishga imkon bermoqda.

7) Alohida mintaqalarda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, sobiq ikki qutbli jahon tartibining yemirilishi va uning o‘rniga ko‘p markazli global tuzilma shakllanishi tendensiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu holat turli hududlarda yangi iqtisodiy kuch markazlarining yuzaga chiqishiga turtki bo‘lmoqda.

Mintaqaviy integratsiya jarayonlari faqat iqtisodiy manfaatlargagina emas, balki umumiy madaniy meros, sivilizatsiyaviy asoslar, urf-odatlar va hayot tarziga ham tayanadi. Masalan, Yevropa

Ittifoqi, ASEAN yoki MERKOSUR kabi tuzilmalar o‘z hududlaridagi an’anaviy qadriyatlar va mafkuraviy qarashlarga asoslanadi.

Shu ma’noda, mintaqaviy integratsiya insoniyat sivilizatsiyasining ichki xilma-xilligini saqlash va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, chunki barqarorlik ko‘pincha xilma-xillikning mavjudligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy integratsiyaga rivojlangan davlatlarga qaraganda boshqacha sabablarga ko‘ra intiladi. Agar rivojlangan mamlakatlarda integratsiya ko‘proq ishlab chiqarish kuchlarining yuqori darajada rivojlanishi talabidan kelib chiqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu jarayon sanoatlashtirish kabi muhim iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengillashtirishda yordam beradi.

Iqtisodiy integratsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- *iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotning tezlashuvi;*
- *iqtisodiyotning tuzilmasini qayta shakllantirish va modernizatsiya qilish;*
- *xorijiy investitsiyalarni, xususan, uchinchi davlatlardan jalb etishni rag‘batlantirish;*
- *xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘zgarishlarga moslashish.*

Ammo rivojlanayotgan davlatlar orasida integratsiya jarayoni ko‘pincha bir nechta to‘sqinlik qiluvchi omillar tufayli sekin kechadi. Ushbu omillar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- har bir mamlakatning ichki iqtisodiy muammolari o‘ziga xos bo‘lib, masalan, ishlab chiqarish kuchlarining past rivojlanganligi,

iqtisodiyotning bo‘lak-bo‘lak va yakkaxon tuzilishi kabi holatlar mavjud;

- o‘zaro munosabatlarga ta’sir qiluvchi omillar — moddiy bazaning zaifligi, infratuzilmaning, xususan transport tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi; integratsiyaga kirayotgan mamlakatlarning ko‘pincha iqtisodiy tizimlari o‘xshash tarmoqlarga asoslanganligi va shu sababli bir-birini to‘liq to‘ldira olmasligi; shuningdek, mintaqaviy qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur resurslarning yetishmasligi;

1980-yillarning o‘rtalaridan boshlab, 60-70-yillarga nisbatan, Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalarda mintaqaviy integratsiya yanada samaraliroq rivojlanishiga yangi turtki beruvchi omillar paydo bo‘ldi. Bularga milliy iqtisodiyotlarning liberallashtirilishi, global bozor bilan bog‘liq ochiq iqtisodiyotlarning shakllanishi, ko‘plab davlatlarda demokratik jarayonlarning rivojlanishi, o‘zaro munosabatlarda keskinlikning pasayishi hamda yangi liberal islohotlar asosida amalga oshirilayotgan zamonaviylashtirish to‘lqinlari kiradi, bularning barchasi integratsiya jarayonlarini rag‘batlantirmoqda.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlardagi iqtisodiy integratsiya ko‘pincha katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, amalda ko‘proq rasmiy xarakterga ega bo‘lib qolmoqda (masalan, Lotin Amerikasi iqtisodiy tizimi — LAES, Rossiya-Azarbayjon iqtisodiy hamkorligi — SAOR, shuningdek Afrika va Arab mamlakatlari birlashmalari).

Bunday holatga qaramay, bu intilish butun dunyo iqtisodiyotining umumiy rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiradi. Yangi tendensiya sifatida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqaviy

birlashmalari — masalan, Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi (NAFTA) va Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) — alohida e'tirof etilmoqda.

4.3. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy turlari va rivojlanish bosqichlari

Har qanday integratsion birlashmaning iqtisodiy modeli – bu uzoq davom etgan tarixiy shakllanish natijasidir. Bu jarayonda mintaqaviy xo‘jalik tizimini tashkil etuvchi asosiy omillar nisbati vujudga keladi va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlari mustahkamlanadi. Shuning uchun har bir mintaqaviy iqtisodiy struktura o‘ziga xos bo‘lib, uni boshqa hududlarga to‘liq ko‘chirib qo‘llash samarasiz bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud savdo-iqtisodiy bloklar misolida olib borilgan taqqosloviy tahlillar shuni anglatadiki, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining rivojlanishida ba’zi umumiy qonuniyatlar mavjud. Bunday jarayonlar, odatda, muayyan ketma-ket bosqichlardan o‘tadi, ularda integratsiyaning qamrovi, chuqurligi va sur’ati turli darajada namoyon bo‘ladi. Integratsiya oddiy birlikdan murakkab tuzilmalarga tomon evolyutsiyalanuvchi jarayon bo‘lgani uchun, uning shakllari va bosqichlarini tizimlashtirishga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Bu borada xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan keng qo‘llanilayotgan yondashuvlardan biri — Jons Hopkins universiteti (AQSh) professori B. Balassa tomonidan ilgari surilgan nazariy tasnifdir. Balassaning modeli klassik yondashuv sifatida tan olingan bo‘lib, u xalqaro iqtisodiy hamkorlik va integratsiya tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni aniq belgilab berdi.

Uning fikricha, hamkorlik — bu asosan davlatlar o‘rtasida mavjud cheklovlar va kamsituvchi choralarni qisqartirishga yo‘naltirilgan harakatlar yig‘indisidir. Integratsiya esa, buning aksiga, ushbu cheklov va to‘siqlarni to‘liq yo‘q qilishga intiladi.

Balassa o‘z nazariyasida iqtisodiy integratsiyaning **beshta asosiy shaklini** ajratib ko‘rsatadi. Ushbu tasnif hozirgi kunda YeI (Yevropa Ittifoqi) va boshqa mintaqaviy birlashmalar tajribasi asosida qayta ko‘rib chiqilgan, zamonaviylashtirilgan va keng tatbiq etilmoqda. Endi bu shakllarni ketma-ketlikda ko‘rib chiqamiz.

Integratsion kelishuvlar bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Quyidagi turlari bu jarayonning rivojlanish darajasiga ko‘ra ajratiladi:

- erkin savdo zonasi ***(free trade zone),***
- bojxona ittifoqi (***customs union),***
- umumiy bozor ***(common market),***
- iqtisodiy ittifoq (yanada yetuk shaklda iqtisodiy va valyuta ittifoqi: ***economic and monetary union***)
- to‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya.

Yuqorida sanab o‘tilgan integratsiya shakllarining har biri bo‘yicha batafsil tahlil olib boramiz.

Erkin savdo zonasi — bu ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘rtasida tuzilgan iqtisodiy bitim bo‘lib, uning asosiy maqsadi a’zo mamlakatlar o‘rtasida tovarlar va xizmatlar erkin harakatini ta’minlashdir. Bu kabi hududlarda bojxona bojlari, kvotalar va boshqa savdo to‘siqlari bekor qilinadi yoki kamaytiriladi, biroq har bir mamlakat tashqi davlatlar bilan o‘ziga xos boj siyosatini saqlab qoladi.

Ko‘pgina hollarda, erkin savdo zonasi shartlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tashqari barcha tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida bojxona chegaralari va tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiluvchi, ularning davlat chegaralarini kesib o‘tuvchi postlar saqlanib qoladi.

Dunyoda ularning soni 3000 dan oshadi va ular dunyoning 135 mamlakatida joylashgan. Bunday integratsiya shakllariga NAFTA namunali misol sifatida keltirilishi mumkin. 2011-yildan boshlab faoliyat yuritayotgan MDH Erkin savdo hududi esa bojxona to‘siqlarini bekor qilish orqali Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston kabi bir qator MDH davlatlarini birlashtirib kelmoqda.

Erkin savdo zonasi mintaqaviy integratsiyaning dastlabki bosqichlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtiradi, a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni rag‘batlantiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jahon bozoriga kirishda muhim imkoniyatlar yaratadi.

Bojxona ittifoqi erkin savdo zonasidan quyidagi jihatlar bilan farqlanadi: bu shakldagi integratsiyada ishtirokchi davlatlar o‘zaro savdoda bojlar va kvotalarni bekor qilish bilan birga, uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini ham olib boradilar. Bunday tuzilma bir nechta milliy bojxona hududlari o‘rniga yagona bojxona hududining shakllanishini nazarda tutadi. Shu sababli, ichki chegara nazorati soddalashtiriladi va asosiy bojxona nazorati tashqi chegaralarda to‘plangan yagona tizim orqali amalga oshiriladi.

Dastlabki Bojxona ittifoqlaridan biri Fransiya va Monako o‘rtasida tuzilgan (1865). 1924-yilda Shveysariya bilan Lixtenshteyn knyazligi

o‘rtasida Bojxona ittifoqi vujudga keldi. Rivojlangan davlatlar o‘rtasida bojxona ittifoqining mavjudligiga bir nechta muhim tarixiy misollarni keltirish mumkin. Masalan, 1947-yilda imzolangan *Ta’riflar va savdo bo‘yicha umumiy kelishuv* (GATT), keyinchalik 1997-yildan *Jahon savdo tashkiloti* (WTO) bilan almashtirilgan, xalqaro savdo munosabatlarining asosiy me’yorlarini belgilab berdi. Yana bir muhim misol — 1957-yilda asos solingan *Yevropa iqtisodiy hamjamiyati*, bu tuzilma 1995-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 1960-yilda tashkil etilgan *Yevropa erkin savdo uyushmasi* (EFTA) ham mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning klassik shakllaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi MDH doirasida 1997-yildya Rossiya bilan Belarus o‘rtasida, 1998-yilda Rossiya, Belarus, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida Bojxona ittifoqi yuzaga keldi. O‘zbekiston Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlari o‘rtasida ham yagona iqtisodiy makon barpo etish maqsadlarida Bojxona ittifoqi tashkil etildi (1998).

Bojxona ittifoqi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, mantiqan ancha mukammallikka yaqin shakl sanaladi. Biroq u asosan tashqi savdo sohasigacha cheklanib qolganligi sababli, uning doirasida vujudga keladigan ayrim ichki qarama-qarshiliklar vaqt o‘tishi bilan bu tizimni yanada murakkabroq savdo-iqtisodiy tuzilmalar tomon rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Umumiy bozor shakli bojxona ittifoqi imkoniyatlarini kengaytirib, ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarish resurslarining — ya’ni kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning — erkin harakatlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bu shaklni amalga

oshirishda milliy qonunchilik tizimlarini yaqinlashtirish, umumiy standartlarni ishlab chiqish, integratsiyani qo‘llab-quvvatlaydigan institutlarni mustahkamlash va yagona boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy bozor nafaqat bojxona Ittifoqi (customsunion) kabi ichki savdoning to‘liq erkinligini, balki ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatlanishini ham o‘z ichiga oladi. Ishchi kuchining erkin harakati deganda, umumiy bozorga a’zo mamlakatlar fuqarolarining boshqa a’zo davlatlarda yashash va mehnat qilish huquqiga ega bo‘lishi tushuniladi. Bunda, odatda, mahalliy tilni bilish zarurati va professional hamda texnik malakalarni o‘zaro tan olish kabi talablar mavjud bo‘ladi. Kapitalning cheksiz harakatchanligi (capital mobility) valyuta nazoratining yo‘qligi va umumiy bozor mamlakatlaridan birida firmalar tashkil etish huquqini ta'minlaydi.

Masalan, *Markaziy Amerika umumiy bozori* Markaziy Amerikaning rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy xo‘jaliklarini yagona "umumiy bozor"ga bosqichma-bosqich birlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Gvatemala, Salvador, Gonduras va Nikaragua davlatlari ushbu umumiy bozorini tashkil etish to‘g'risidagi bitimni 1960 yil 13 dekabrda Managua konferensiyasida tuzgan. Shartnoma 1961 yilda kuchga kirgan va 1963 yilda Kosta-Rika kelishuvga qo‘shilgan.

Umuman olganda, mamlakatlar guruhida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati umumiy resurslardan samarali foydalanishga, mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining rivojlanishiga, ishlab chiqarish tizimlarining optimallashtirilishi hamda ishlab chiqarish hajmining kengayishiga xizmat qiladi.

Biroq, umumiy bozorga a’zo davlatlarning iqtisodiy siyosatlaridagi farqlar bu jarayonga to‘siq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, milliy iqtisodiyotlarni boshqarishdagi tafovutlar salbiy oqibatlar va ziddiyatlarga olib keladi. Shunday holatlar savdo-iqtisodiy ittifoqlarning yanada rivojlangan, murakkab shakllariga o‘tish orqali hal qilinishi mumkin.

Umumiy bozor Yevropadagi integratsiya jarayonlarining bosqichlaridan biri edi. Umumiy bozor shartnomasi 1957 yilda Rimda Yevropaning oltita davlati (G‘arbiy Germaniya, Frantsiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg) tomonidan imzolangan (Rim shartnomasi). Yevropadagi umumiy bozor Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasining ijobiy tajribasi asosida paydo bo‘ldi.

Iqtisodiy ittifoq — bu bir nechta davlatlar o‘rtasida tuziladigan bitim bo‘lib, unda kapital, ishchi kuchi, tovarlar va xizmatlarning erkin harakati ta’minlanadi. Shuningdek, ishtirokchi davlatlar o‘zlarining ijtimoiy, fiskal hamda pul-kredit siyosatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirishga intiladi. Ushbu shakl, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy siyosat sohalarida yuzaga keladigan muammolarni kelishuv asosida hal qilishni nazarda tutadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida yagona qishloq xo‘jaligi siyosati, kelishilgan sanoat, energetika, transport, mintaqaviy, ijtimoiy hamda ilmiy-texnik siyosatlarning yuritilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Iqtisodiy siyosat bo‘yicha kelishuvlar ma’lum bir bosqichga yetgach, ular o‘zining ichki mantiqiga ko‘ra rivojlanadi. Agar mamlakat iqtisodiyoti yuqori darajada ochiq bo‘lsa, unda bu jarayon yanada kengroq sohalarni qamrab olgan, o‘zaro mustahkam bog‘langan

munosabatlarni shakllantirishni talab qiladi. Bunday jarayon ko‘pincha murakkabroq va kengroq majmua — iqtisodiy va valyuta ittifoqiga aylanishi mumkin.

Masalan, *Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi* (YeOII) – Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Armaniston o‘rtasidagi integratsiya shakli. U 29-may 2014-yilda tashkil etilgan iqtisodiy ittifoq hisoblanadi. Moldova 2017-yilning aprelida kuzatuvchi maqomini oldi.

Valyuta ittifoqi — bu yagona markaziy bankni tashkil etish va yagona valyutani joriy etish orqali mintaqaviy yagona valyuta tizimini shakllantirish jarayonidir. Bu bir yoki bir nechta davlatlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va umumiy valyutani qabul qilish asosida tashkil etilgan tizimdir. Valyuta ittifoqining asosiy maqsadi — a’zo davlatlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va savdoni erkinlashtirishdir. Bunda yagona valyutaning joriy etilishi kredit siyosati va mikroiqtisodiy boshqaruv sohasidagi kelishuvlarning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Masalan, *Sharqiy Karib valyuta ittifoqi* (Eastern Caribbean Currency Union - ECCU). A’zo davlatlar: Antigva va Barbuda, Sent-Kits va Nevis, Dominika, Grenada va boshqalar. Valyutasi Sharqiy Karib dollari (XCD). Markaziy banki Sharqiy Karib Markaziy Bank hisoblanadi.

Valyuta ittifoqi bu iqtisodiy integratsiyaning yuqori bosqichi bo‘lib, u davlatlarga umumiy valyutani qabul qilish orqali o‘zaro moliyaviy siyosatini birlashtirish imkonini beradi. Bu esa savdo, investitsiyalar va iqtisodiy o‘sishni kuchaytiradi, shu bilan birga markaziy bank tomonidan inflyatsiyani nazorat qilishni osonlashtiradi.

4.2-jadval

Yevropa Ittifoqi (EU) integratsiyasi

№	Soha	Integratsiya shakli
1	Valyuta	Yevro (ko‘plab a’zo davlatlarda)
2	Parlament	Yevropa Parlamenti
3	Qonunchilik	Yevropa Komissiyasi, Yevropa Sudi
4	Savdo siyosati	Yagona boj siyosati
5	Tashqi siyosat	Yagona tashqi siyosat (muvofiqlashtirilgan)
6	Fuqarolik	Yevropa fuqaroligi (erkin harakat huquqi)

To‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya bosqichida yagona bozor hududi birlashtirilgan iqtisodiy hamda siyosiy tizimga aylanadi. Bu jarayon faqat shartnomalar majmuasi emas, balki yagona iqtisodiy siyosat va qonunlar tizimini birlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda yangi ko‘p millatli xalqaro subyektlar yuzaga keladi yoki asta-sekin shakllanadi, bunda yagona federativ yoki konfederativ davlatni barpo etishga qaratilgan harakatlar amalga oshiriladi.

To‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya— bu mintaqaviy integratsiyaning eng yuqori bosqichi bo‘lib, bunda ishtirokchi davlatlar nafaqat yagona iqtisodiy tizim, balki umumiy siyosiy institutlar, qonunchilik, byudjet, valyuta va tashqi siyosatni shakllantiradi. Bu darajadagi integratsiyada davlatlar o‘z milliy suverenitetining bir qismini umumiy tashkilotga topshiradi. Yevropa Ittifoqi bunga eng yaqqol namuna bo‘lib hisoblanadi. Masalan, Italiya, Germaniya yoki Ispaniya fuqarosi Polshaga yoki Niderlandiyaga hech qanday viza yoki ruxsatsiz ko‘chib borib ishlashi, o‘qishi yoki yashashi mumkin.

To‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya — bu davlatlar o‘rtasidagi eng chuqur hamkorlik bo‘lib, nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy mustaqillikning bir qismini umumiy boshqaruvga o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu turdagi integratsiya orqali davlatlar barqarorlik, rivojlanish va global ta’sir kuchini oshirishga intiladi.

Integratsiyaning eng past darajasidan boshlab yuqori pog‘onasiga o‘tish jarayoni iqtisodiy rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichlar davomiyligi esa mamlakat ichidagi va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy hamda siyosiy omillar majmuasiga bog‘liq.

Bir nechta iqtisodchilar, jumladan Dj. Mid, G. Myurdal, R. Lipse, Dj. Vayner va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan **B. Balassa nazariyasi** aynan Yevropa Ittifoqi misolida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, integratsiya besh bosqichda rivojlanadi: erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq va siyosiy ittifoq. Har bir bosqich ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotining ma'lum darajada yaqinlashishi va o‘zaro bog'liqligini nazarda tutadi.

Nazorat savollari

1. Jahon xo‘jaligining rivojlanish bosqichlari va ularning o‘xshash hamda farqli tomonlari?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning mohiyati qanday?
3. Iqtisodiy integratsiya shart-sharoitlari va asosiy maqsadlari
4. Global va mintaqaviy integratsiyalashuv tushunchalari va milliy kompaniyalarning bunga ta’siri?
5. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy turlarini sanab bering.
6. Iqtisodiy ittifoq va bojxona ittifoqining o‘xshash va farqli

jihatlari nimalardan iborat?

7. Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida integratsiyalashuv jarayoniga to‘sqinlik qiluvchi omillar?

V- BOB. PUL-VALYUTA INTEGRATSIYANING IQTISODIY ASOSLARI

4.3. Pul-valyuta integratsiya mazmun-mohiyati

4.4. Yevropada pul-valyuta integratsiyasi

4.5. Pul-valyuta integratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari

Tayanch iboralar: valyuta integratsiyasi, optimal hudud, milliy valyuta, fiskal transfertlar, Verner rejasi, tranzaktsion xarajatlar, valyuta zaxirasi, valyuta xavflari, narxlar barqarorligi.

5.1. Pul-valyuta integratsiya mazmun-mohiyati

Jahon iqtisodiy munosabatlarining globallashuvi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro valyuta tizimini tashkil etishda mavjud tarkibiy tamoyillarni qayta ko‘rib chiqishni, valyuta tartibga solish va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqarish, jahon savdosi va geoiqtisodiy kuchlar nisbatidagi o‘zgarishlarga moslashtirishni talab etadi. Valyuta tizimining asosiy elementlari – xalqaro hisob-kitob vositasi sifatida foydalaniladigan valyutalar, valyuta paritetlari, kurs siyosati, cheklovlar va konvertatsiya shartlari – barchasi global talablar asosida takomillashmoqda. Ayniqsa, valyuta sohasidagi integratsiya jarayonlari bugungi kunda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Valyuta integratsiyasi - bu bir nechta davlatlar o‘rtasida valyuta siyosatini uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan hamkorlik shakli bo‘lib, ularning o‘zaro valyuta munosabatlarini chuqurlashtirish va transmilliy

darajadagi tartibga solish hamda nazorat tizimlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu integratsiya jarayoni, bir tomondan, pulning muomaladagi aylanmasi, jamg‘arma shakllanishi hamda hisob-kitob vositasi sifatidagi funksionalligini oshirishga xizmat qiladi. Tranzaksiya xarajatlari kamayadi, valyuta xavfi kamayadi yoki nolga yaqinlashadi, shu jumladan eng ko‘p tejash uni himoya qilishda amalga oshiriladi, imkoniyat paydo bo‘ladi to‘g'ridan-to‘g'ri narxlarni taqqoslash.

Biroq valyuta integratsiyasi muayyan salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, suveren davlatlarning moliyaviy mustaqilligi kamayadi va yakka bir davlatning iqtisodiy holati butun mintaqaning valyuta va makroiqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Shu bilan birga, mintaqaviy darajadagi pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va samarali amalga oshirish jarayonida muvofiqlashtirish talablari kuchayadi.

Valyuta integratsiyasi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning bosqichlaridan biridir. Mintaqaviy valyuta integratsiyasini rivojlantirishning sharti iqtisodiy konvergentsiya bo‘lib, u tegishli davlatlarning makroiqtisodiy siyosatini yaqin muvofiqlashtirish va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning yaqinlashishini anglatadi. Valyuta integratsiyasining yakuniy natijasi *valyuta ittifoqini* yaratishdir.

Integratsiya ko‘rsatkichlari odatda ishtirokchi mamlakatlar uchun o‘zaro savdoning ahamiyati va aholining, shu jumladan mehnatning harakatchanligini baholashdir. Iqtisodiyotning ochiqligini baholash uchun amerikalik iqtisodchi R.Makkinnon (1935-2014) yalpi ichki mahsulotdagi o‘zaro savdo ulushidan diversifikatsiya darajasi va optimal

valyuta zonasini shakllantirishga tayyor bo‘lgan mamlakatlar uchun tashqi savdoning ahamiyati ko‘rsatkichi sifatida foydalanishni taklif qildi.

1961-yilda Robert Mundell *Optimal Valyuta Hududi nazariyasini* ishlab chiqdi. Ushbu nazariyaning asosiy g‘oyasi - bir nechta davlatlar yagona valyutani joriy qilishi faqatgina ular “optimal valyuta hududi”ga tegishli bo‘lsa, iqtisodiy foyda keltiradi. Optimal hudud mezonlari:

- Mehnatning yuqori darajadagi harakatchanligi.
- Kapital harakati va narx-mekanizmlarining moslashuvchanligi.
- Pul va moliyaviy integratsiya.
- Fiskal transfertlar tizimi mavjudligi (bir hududdagi iqtisodiy zarbalarni boshqalar yengillashtiradi).
- Iqtisodiy sikllarning sinxronligi.

Mundell valyuta integratsiyasining muhim mezoni deb hisoblagan ishchi kuchining harakatchanligi empirik tadqiqotlarda, ayniqsa, yarim qonuniy mehnat migratsiyasi mavjud bo‘lganda, uni baholash qiyinligi sababli nisbatan kamdan-kam hollarda hisobga olinadi. Shu bilan birga, Mandell mehnat harakatchanligining proksi o‘zgaruvchisi sifatida tegishli mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotidagi pul o‘tkazmalarining ulushini qo‘llagan.

Tadqiqotchilar, shuningdek, davlatlarning pul-kredit va byudjet siyosatining o‘xshashligini valyuta integratsiyasini kuchaytirish belgisi deb atashadi. Mamlakatlarning moliya sektorining rivojlanish va integratsiya darajasi (xususan, uzoq muddatli moliyaviy aktivlarning

mavjudligi) bir qator tadqiqotlarda mamlakatlarning maqbul valyuta zonalarini shakllantirishga tayyorligi mezonlari sifatida ishlatilgan.

Bundan tashqari, pul hokimiyatining tashqi zarbalarga reaksiyasining izchilligi ba'zan pul massasining o‘zgarishi traektoriyalarining o‘xshashligi darajasiga qarab baholanadi. Bu asosiy parametr, chunki. valyuta integratsiyasining ma'lum bir bosqichida, yuqorida ta'kidlab o‘tilganidek, pul emissiyasi umumiy Markaziy bankka topshiriladi. Yagona emissiya markazini shakllantirishga qiziqish bildirgan davlatlar o‘zaro kelishilgan tartibda byudjet taqchilligini va davlat qarzini boshqarish bo‘yicha umumiy qoidalarni ishlab chiqishlari zarur. Bundan tashqari, inflyatsiyaning maqbul chegaralarini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, yagona valyuta kursining shakllanishiga oid umumiy siyosatni — u suzuvchi, sobit yoki aralash kurs bo‘lishidan qat’i nazar — kelishib olishlari talab etiladi.

Va nihoyat, valyuta integratsiyasining eng muhim shartlaridan biri bu siyosiy integratsiyadir. Biroq, bu ko‘rsatkich empirik tadqiqotlarda kamdan-kam hollarda siyosiy sabablarga ko‘ra integratsiya samaradorligini ob'ektiv baholash qiyinligi sababli qo‘llaniladi.

Postsovet hududida valyuta integratsiyasining bir qator tadqiqotchilari (S. Drobishevskiy, D. Polevoy, A. Knobel, A. Mironov va boshqalar) mustaqil davlatlar Hamdo‘stligining bir qator mamlakatlari uchun mintaqaviy valyuta zonasini shakllantirish imkoniyatini tan olishadi.

Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqi doirasida yagona valyutani joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi omillar qatoriga iqtisodiy, savdo, investitsiya, pul-kredit va moliyaviy integratsiyaning past darajasi kiradi;

strukturaviy farqlar va tashqi zarbalarga javob berishning turli xil imkoniyatlari, shuningdek, bunday qarorning maqsadga muvofiqligi to‘g'risida siyosiy noaniqlik.

5. 2. Yevropada pul-valyuta integratsiyasi

Yevropada pul-kredit va valyuta integratsiyasining shakllanishi 1957-yil 25-martda imzolangan Rim shartnomasiga borib taqaladi. Ushbu hujjat asosida Germaniya, Frantsiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlari 1958-yil 1-yanvardan boshlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga birlashtirildi. Shartnomada belgilangan asosiy prinsiplarga ko‘ra, a’zo davlatlar o‘zaro muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosat yuritishi, tovarlar, xizmatlar, kapital va aholi erkin harakatini ta’minlashi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida umumiy siyosat yuritishi belgilandi. Rim shartnomasi Yevropada iqtisodiy hamkorlik va valyuta sohasida integratsiyalashuv jarayonlariga barqaror asos bo‘lib xizmat qildi.

Valyuta integratsiyasi tarixida muhim bosqich sifatida 1969-yil 1–2-dekabr kunlari Gaaga shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati davlatlari sammiti tilga olinadi. Ushbu uchrashuvda Yevropa iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etish bo‘yicha qaror qabul qilinib, bu yo‘nalishdagi bosqichma-bosqich harakatlar dasturini ishlab chiqish vazifasi Lyuksemburg Bosh vaziri Pyer Vernerga topshirildi.

1970-yilda taqdim etilgan “Verner rejasi” Yevropa iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish bo‘yicha o‘n yillik strategik yo‘l xaritasini o‘z ichiga olgan edi. Unga ko‘ra, a’zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, fiskal va valyuta siyosatini bosqichma-bosqich

muvofiqlashtirish, shuningdek, kapital bozorlarini liberallashtirish ko‘zda tutilgan.

Ushbu rejada asosiy maqsad – tovarlar, xizmatlar, aholi va kapitalning erkin harakatini ta’minlaydigan yagona iqtisodiy makonni shakllantirishdan iborat edi. Valyuta integratsiyasi jarayoni doirasida esa milliy valyutalarning to‘liq o‘zaro konvertatsiyasini joriy etish, valyuta kurslarining o‘zgarish diapazonini cheklash hamda yakunda yagona valyutani muomalaga kiritish rejalashtirilgan edi.

Bundan tashqari, “Verner rejasi”da Yevropa miqyosida yagona Markaziy banklar tizimini yaratish g‘oyasi ham ilgari surilgan bo‘lib, bu iqtisodiy va valyuta ittifoqini mustahkamlashga qaratilgan edi. Biroq ushbu dastur to‘liq amalga oshirilmadi: faqatgina birinchi bosqich bo‘yicha kelishuvga erishildi. Rejaning to‘liq ijrosi, ayniqsa, iqtisodiy va siyosiy jihatdan noqulay davrga to‘g‘ri kelgani sababli to‘xtab qoldi. Qabul qilinganidan so‘ng darhol AQSh dollarining oltin tarkibi bekor qilindi, bu valyuta bozorlarida beqarorlikni keltirib chiqardi va Yevropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarining valyuta kurslarining o‘zgarishi chegaralarini toraytirishni qiyinlashtirdi.

Energiya inqirozi vaziyatni yanada og‘irlashtirdi, bu inflyatsiyaning yuqori kutishlariga va kelishilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning beqarorlashishiga olib keldi. Shu bilan birga, "Verner rejasi" integratsiya jarayonidagi o‘zgarishlarga yordam berdi.

Iqtisodiy va moliyaviy sohalardagi integratsiya jarayonlari Yevropaning boshqa davlatlariga ham tatbiq etildi va 1973 yilda Yevropa Ittifoqi yana uchta a'zo — Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya bilan to‘ldirildi.

Shuningdek, Yevropa valyuta integratsiyasining yana bir muhim bosqichi 1975-yilda boshlangan bo‘lib, bu davrda Yevropa hisob birligi – EPE (European Unit of Account, EUA) joriy etildi. Uning qiymati Yevropa Ittifoqining to‘qqizta a’zo davlatining valyutalaridan tashkil topgan valyuta savati asosida belgilandi. EPE, keyinchalik Yevropa hisob-kitob pul birligi – ECU (European Currency Unit) uchun dastlabki model sifatida xizmat qildi. Yevropadagi valyuta integratsiyasining navbatdagi muhim davri esa 1979-yil mart oyida boshlandi.

Bu davrda Yevropa valyuta tizimi (European Monetary System, EMS) tashkil etildi, uning asosiy maqsadi valyuta barqarorligini ta’minlash, Yevropa integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish va a’zo mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat edi.

1989-yilda Yevropa Ittifoqi komissiyasi raisi J. Delore Yevropa mintaqasida iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil etishga mo‘ljallangan uch bosqichli strategik reja taklif qildi. Ushbu reja asosida integratsiya jarayoni uch bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan edi.

Birinchi bosqichda kapitalning erkin transchegaraviy harakatini cheklovchi barcha to‘siqlar olib tashlanishi lozim edi.

Ikkinchi bosqichda esa milliy valyuta siyosatini tartibga soluvchi va valyuta nazorat organlarini tashkil etish, shuningdek, Yevropa Ittifoqi davlatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni yakunlash rejalashtirilgan edi.

Uchinchi bosqichda esa yagona Yevropa valyutasining joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

J. Delor tomonidan taklif etilgan reja 1992- yilda Yevropa Ittifoqining 12 mamlakati tomonidan imzolangan va iqtisodiy va valyuta

ittifoqini bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutuvchi Maastrixt shartnomasiga asos bo‘ldi. Maastricht shartnomasiga ko‘ra, iqtisodiy va valyuta ittifoqiga a’zo davlatlarga quyidagi konvergentsiya mezonlari qo‘yilgan:

- Davlat byudjetining taqchilligi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 3 foizidan oshmasligi kerak.
- Davlat qarzi YaIM ning 60 foizidan yuqori bo‘lmasligi talab etiladi.
- Inflyatsiya darajasi Yevropa Ittifoqidagi eng past inflyatsiyaga ega uchta davlatning o‘rtacha ko‘rsatkichidan 1,5 foizdan oshmasligi shart.
- Uzoq muddatli foiz stavkalari inflyatsiya darajasi eng past bo‘lgan Yevropa Ittifoqining uch davlatining uzoq muddatli foiz stavkalari o‘rtacha ko‘rsatkichidan 2 foizdan yuqori bo‘lmasligi lozim.
- Milliy valyutaning kursi valyuta kurslari mexanizmi doirasida belgilangan chegaralarda harakatlanishi zarur.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqining shakllanishi uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda (1993 yil 31 dekabrgacha) davomida kapital harakati va to‘lov operatsiyalariga qo‘yilgan barcha cheklovlar olib tashlandi, shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaqinlashtirish bo‘yicha dasturlar amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqichda (1994 yil 1 yanvardan 1998 yil 31 dekabrgacha da a’zo davlatlar Maastricht shartnomasida belgilangan konvergentsiya mezonlariga erishish uchun muvofiqlashtirilgan siyosat olib bordilar.

Shu davrda Yevropa valyuta instituti tashkil etildi. 1995-yilda Finlyandiya, Shvetsiya va Avstriya Yevropa iqtisodiy ittifoqiga qo‘shildi. Shuningdek, o‘sha yilning dekabr oyida Madridda o‘tkazilgan Yevropa Kengashi yig‘ilishida yagona valyutani joriy etish dasturi tasdiqlandi va ECU nomi yevroga almashtirildi.

Ushbu dasturni amalga oshirish konvergentsiya mezonlariga javob beradigan va quyidagilar bo‘lgan mamlakatlarni aniqlashni nazarda tutgan 1998 yil mart oyida amalga oshirilgan evroga o‘tishga ruxsat berilgan bo‘lar edi Yevropa Ittifoqi komissiyasi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan Maastrixt shartnomasining konvergentsiya mezonlarini bajarish natijalari va uning natijalari to‘g'risida hisobot taqdim etdi o‘n bir mamlakat (Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya va Gretsiyadan tashqari barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) valyuta Ittifoqiga a'zo bo‘lishni tavsiya qildi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqining *uchinchi bosqichida*, ya’ni 1999-yil 1-yanvardan boshlab, yevroni joriy etish bo‘yicha dastur amalga oshirildi.

Yevroni umumiy valyuta sifatida joriy etish birinchi navbatda iqtisodiy barqarorlik zonasini shakllantirish, valyutalar almashinuvidagi murakkabliklarni kamaytirish hamda iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishni maqsad qilgan edi. Bu maqsadga erishish uchun valyutani tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi millatlararo tizimni yaratish zarur bo‘ldi. Natijada, narxlar barqarorligini ta’minlash va Yevropa Ittifoqining umumiy iqtisodiy siyosatini qo‘llab-quvvatlash uchun **Yevropa Markaziy banki (European Central Bank, ECB)** tashkil etildi.

Yevroning joriy etilishi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun bir qator afzalliklarni keltirdi. Xususan, valyuta xavfi yo‘q qilinishi natijasida konversiya operatsiyalariga bog‘liq xarajatlar kamaytirildi. Bu esa moliyaviy bozorlarning barqarorligi va yagona xarakterda rivojlanishiga xizmat qildi. Shuningdek, yevro hududida tashkiliy, texnik, huquqiy va tartibga soluvchi to‘siqlar sezilarli darajada bartaraf etildi, bu esa oldingi davrlarda milliy bozorlarning bo‘linishi va segmentatsiyasiga sabab bo‘lgan muammolarni yo‘q qildi. Yevro joriy etilgandan so‘ng, uning xalqaro maydondagi mavqei kuchaydi va jahon valyuta tizimidagi o‘rni sezilarli darajada oshdi.

5.3. Pul-valyuta integratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari

Mamlakatlar uchun valyuta Ittifoqiga qo‘shilishning iqtisodiy oqibatlarini baholash har doim ham ijobiy emas. Ba’zan mamlakatning bunday ittifoqqa kirishi siyosiy qaror bilan bog'liq bo‘lib, uning valyuta Ittifoqida ishtirok etishga tayyorligini tahlil qilish yoki bunday qarordan iqtisodiy foyda, shuningdek milliy valyutani rad etish bilan bog'liq yo‘qotishlarni baholashga asoslanmaydi.

Integratsiya masalalarini, xususan, valyuta integratsiyasini ko‘rib chiqishda, valyuta Ittifoqi tashkil etilgan taqdirda mamlakat uchun xavf tug'diradigan iqtisodiy risklarga – valyuta integratsiyasi riskiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu risk guruhi mamlakatda valyuta Ittifoqiga kirgan taqdirda paydo bo‘ladi yoki paydo bo‘lishi mumkin. Ularning tizimlashtirilishi Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqi mamlakatlarining valyuta integratsiyasining maqbul stsenariysini aniqlashda risk xavfi darajasini

tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu tizimda quyidagi risklarni ajratish mumkin:

- umumiy iqtisodiy;
- moliyaviy;
- fiskal;
- tashqi iqtisodiy.

Valyuta integratsiyasi riskining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u riskni o‘z ichiga olgan hodisaning bashorat qilish qobiliyatining oshishi bilan kamayadi: taxmin qilingan hodisani bashorat qilish ehtimoli qanchalik katta bo‘lsa, xavfning o‘zi shunchalik past bo‘ladi. Shunday qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, valyuta integratsiyasining iqtisodiy xatarlari - bu mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni tubdan o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan va, qoida tariqasida, mamlakatning milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi turli omillar guruhlarining (iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va boshqalar) integratsiyalashgan o‘zaro ta'siri.

Valyuta integratsiyasining ijobiy oqibatlari sifatida biz quyidagilarni eslatib o‘tishimiz mumkin:

- *tranzaktsion xarajatlarning pasayishi* - valyuta integratsiyasi tufayli ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasidagi tranzaktsiyalar quyidagi xarajatlardan qutuladi yoki ularni kamaytiradi: valyuta ayirboshlash xarajatlari, valyuta kursi o‘zgarishiga qarshi sug‘urtalash (hedjing) xarajatlari, hisob-kitob va buxgalteriya xarajatlari;
- *valyuta xavflarining pasayishi* - yagona valyutaga o‘tish valyuta kursi o‘zgarishidan kelib chiqadigan xavflarni kamaytiradi, bu esa savdo va investitsiyalarni rag'batlantiradi;

- *savdo va investitsiyalar oqimlarining ko‘payishi* - valyuta barqarorligi va valyuta ayirboshlash xarajatlarining kamayishi tufayli xalqaro savdo va kapital oqimi ortadi;
- *valyuta zaxiralarini kamaytirish imkoniyati* – ishtirokchi davlatlar o‘z milliy valyutasini barqarorlashtirish yoki qo‘llab-quvvatlash uchun katta hajmdagi chet el valyuta zaxirasini saqlashga majbur bo‘lmaydi;
- *past inflyatsion mamlakatga qo‘shilish paytida inflyatsiyani pasaytirish imkoniyati* - Agar yuqori inflyatsiyaga ega mamlakat past inflyatsiyali, barqaror pul siyosatiga ega bo‘lgan davlatlar yoki valyuta zonasiga qo‘shilsa, quyidagi holatlat yuzaga kelishi mumkin:

1) Yagona markaziy bank yoki qat’iy monetar siyosat ta’siriga tushadi – Bu yangi a’zoni pul massasini nazorat qilishga va fiskal intizomni kuchaytirishga majbur qiladi.

2) Bozor ishtirokchilari ishonchi oshadi– Past inflyatsiyali zonaga qo‘shilish investorlar va aholi orasida valyutaga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi, bu esa narxlar barqarorligiga olib keladi.

3) Inflyatsion kutilmalar pasayadi– Mamlakat ichidagi iqtisodiy subyektlar (ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar) narxlar o‘sishi sekinlashadi degan kutish bilan harakat qiladi, bu esa inflyatsiyani tabiiy ravishda tushiradi.

4) Monetar intizomni oshadi– Mamlakat endi o‘z xohishiga ko‘ra pul bosib chiqara olmaydi (yoki cheklov bilan bosadi), bu esa byudjet tartibliligini ta’minlaydi va inflyatsiyani jilovlaydi.

Yagona valyuta zonasiga kirish bilan bog'liq bir qator salbiy oqibatlar:

1.Mustaqil pul-kredit siyosatidan voz kechish - har bir davlat o‘zining iqtisodiy holatiga mos ravishda foiz stavkasi yoki pul massasi hajmini o‘zgartira olmaydi. Bu siyosat yagona markaziy bank (masalan, Yevropa Markaziy banki) tomonidan boshqariladi. Oqibatda, iqtisodiy inqiroz yoki milliy ehtiyojga javob beruvchi choralarni ko‘rish qiyinlashadi;

2. Millatlararo tartibga soluvchilar tizimini yaratish zarurati siyosiy va iqtisodiy suverenitetning cheklanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, soliq siyosati, byudjet xarajatlari va moliyaviy nazorat kabi sohalarda umumiy qoidalar asosida harakat qilish talab qilinadi. Bundan tashqari, tartibga solishdagi nomutanosibliklar ham yuzaga kelishi mumkin, chunki yirik va kuchli iqtisodiyotga ega davlatlarning manfaatlari ko‘proq e’tiborga olinadi, kichik davlatlar esa ularning qarorlariga moslashishga majbur bo‘lishadi.

3.Tegishli mamlakatlar hukumati tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning pul vositalarini yo‘qotish. Yagona valyutaga o‘tgan mamlakat o‘z milliy markaziy bankining asosiy funksiyalaridan (masalan, milliy valyutani chiqarish, foiz stavkalarini belgilash, pul massasini boshqarish) voz kechadi. Bu vakolatlar yagona markaziy bank – masalan, Yevropa Markaziy banki (YMB) qo‘liga o‘tadi. Iqtisodiyotni rag‘batlantirish uchun pul-kredit vositalaridan foydalanish (masalan, foiz stavkasini pasaytirish yoki obligatsiyalar sotib olish orqali likvidlikni oshirish) milliy darajada amalga oshirilmaydi. Bu esa iqtisodiy inqirozga duch kelgan davlatning vaziyatdan chiqish imkoniyatlarini cheklaydi. Pul-kredit vositalari yo‘qolgach, iqtisodiyotni tartibga solishning yagona yo‘li sifatida fiskal siyosat (byudjet

xarajatlari va soliqlar) qoladi. Ammo yagona valyuta zonasidagi byudjet intizomi qoidalari (masalan, Yevro hududida Maastricht mezonlari) bu siyosatni ham keskin cheklaydi.

4. Inqirozning tarqalish xavfi - yagona valyuta zonasida banklar, moliyaviy institutlar va davlat moliyasi o‘zaro chuqur integratsiyalashgan bo‘ladi. Bir mamlakatda yuzaga kelgan moliyaviy yoki fiskal inqiroz, iqtisodiy muammo (masalan, davlat qarzining o‘sishi yoki bank muammolari) boshqa mamlakatlardagi banklar va investorlarga bevosita ta'sir qiladi. Yoki bo‘lmasa, inqirozga uchragan davlatni moliyaviy halokatdan qutqarish uchun boshqa a’zolar yirik yordam paketlarini taqdim etishga majbur bo‘ladi (masalan, Gretsiya inqirozida Germaniya va Fransiyaning roli). Bu esa iqtisodiy jihatdan kuchli davlatlar aholisida norozilik uyg‘otadi, va siyosiy taranglikni kuchaytiradi.

Shunday qilib, yagona valyuta iqtisodiy integratsiyani siyosiy integratsiyaga aylantirish bosimini kuchaytiradi. Bu esa har doim ham barcha a’zolar tomonidan qo‘llab-quvvatlanavermaydi.

Demak, pul-valyuta integratsiyasi iqtisodiy barqarorlik, savdo hajmi va investitsiyalarning oshishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq, bu jarayon muayyan salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun har bir mamlakat bunday integratsiyaga qo‘shilishdan oldin o‘z iqtisodiy tayyorgarligi, strukturaviy barqarorligi va siyosiy yondashuvini puxta baholashi lozim.

Nazorat savollari

1. Yevropa pul-valyuta integratsiyasi?
2. Valyuta integratsiyasi va uning natijalari?

3. "Verner rejasi" haqida ma’lumot bering.

4. Yevropa hududida iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil etishning bosqichlari?

5. Pul-valyuta integratsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlari?

VI- BOB. YEVROPA ITTIFOQI: INTEGRATSIYANİNG XUSUSIYATLARI VA UNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI

6.1. Yevropada integratsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi

6.2. Yevropa Ittifoqining tashkil topishi va asosiy shartnomalar — Yagona Yevropa Akti, Maastricht va Amsterdam shartnomalari

6.3. Yevropa Ittifoqining kengayish istiqbollari va imkoniyatlari

Tayanch iboralar: tashqi siyosiy muhit, sanoat tarmoqlari, ishsizlik, Marshal rejasi, davlat qarzlari, Maastrixt shartnomasi, yevro zona, demokratiya, inson huquqlari, Amsterdam shartnomasi.

6.1. Yevropada integratsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya haqida gap ketganda, birinchi navbatda G‘arbiy Yevropa davlatlarining bu sohadagi yutuqlari hamda hozirda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqalari ko‘z oldimizga keladi. Biroq, integratsiya jarayonlarini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va tashkilotlarni barpo etishdagi murakkabliklar, shuningdek muzokaralar jarayonidagi noaniq va ko‘rinmas tomonlar ham mavjud.

Jahon iqtisodiy integratsiyasining turli darajalarda rivojlanishiga qaramay, unga turtki beruvchi maqsadlar ko‘pincha o‘xshash bo‘lib, aksariyat integratsion guruhlar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga intiladi:

1. Iqtisodiyot hajmini kengaytirish orqali erishiladigan foyda. Bu, masalan, bozor chegaralarining kengayishi, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi, investitsiyalar oqimining ortishi kabi natijalar bilan namoyon bo‘ladi. Bunday tendentsiya ayniqsa Markaziy Amerika va Afrika davlatlari guruhida ko‘zga tashlanadi.

2. Yaxshi tashqi siyosiy muhit yaratish. Ishtirokchi davlatlar o‘zaro siyosiy, harbiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda o‘zaro anglashuv va hamkorlik asosida mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yadilar. Yevropa Ittifoqidagi katta va kichik davlatlarning hamkorlik tajribasi bunga misol bo‘la oladi.

3. Savdo siyosati masalalarini birgalikda hal etish. Bu davlatlarga ko‘p tomonlama savdo muzokaralarida, xususan, Jahon savdo tashkilotida kuchliroq pozitsiya egallash imkonini beradi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining birgalikdagi harakati bunga yaqqol misoldir.

4. Iqtisodiyotning tarkibiy qayta tuzilishida o‘zaro yordam ko‘rsatish. Guruhdagi rivojlangan davlatlar bozor islohotlarida o‘z tajribalari, kapital va texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqidagi integratsiya jarayoni bunga yorqin misoldir.

5. Milliy sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash. Bu yirik mintaqaviy bozorning shakllanishi orqali amalga oshiriladi, masalan, Lotin Amerikasi davlatlaridagi integratsiya jarayonlarida ko‘riladi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari juda tez rivojlangan hudud sifatida, shuningdek xalqaro savdo tarixida ham muhim ahamiyatga ega. XVI-XIX asrlarda Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya va Portugaliya kabi davlatlarning kolonial siyosati davrida asosan arzon xomashyo va ishchi kuchidan

foydalanishga e'tibor qaratilgan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mintaqaviy savdo aloqalarini kengaytirishga urg‘u berila boshlandi.

1870-yillarda Germaniya markazlashgan davlat sifatida shakllana boshladi. Fan va texnologiya yutuqlarini ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish hamda yuqori texnik qurollangan milliy sanoatni barpo etish iqtisodiy o‘sish uchun muhim omil bo‘ldi.

Birinchi jahon urushi “bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lish” muammosini hal eta olmadi. Germaniyaning harbiy sanoatni rivojlantirib, qo‘shni davlatlarga bosqin qilish xavfi oshib bordi. Shuningdek, xususiy mulkchilik to‘liq yo‘q qilinib, “proletar diktaturasi”ga asoslangan iqtisodiy tizimning Yevropaga eksport qilinishi tahdidi ham barcha mamlakatlar uchun xavf tug‘dirardi. Shu sababli, iqtisodiy integratsiya uchun zarur shart-sharoitlar Ikkinchi jahon urushigacha shakllanib yetmadi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng barcha davlatlar chuqur iqtisodiy inqirozga duch keldi. Ishsizlik va qashshoqlik keng tarqaldi, mahalliy sanoat esa deyarli butunlay vayron bo‘ldi, bu esa tezda iqtisodiy tiklanishni imkonsiz qildi. Shu davrda taraqqiyparvar kuchlar G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida mafkuraviy erkinlikni kuchaytirish va davlatlararo hamkorlikka asoslangan xalqaro iqtisodiy tizim yaratish zarurligini ilgari sura boshladilar.

Yevropaning iqtisodiy tiklanishi va rivojlanishida **«Marshal rejasi»** katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu rejalar doirasida G‘arbiy Yevropada barqaror o‘sish va savdo aloqalarini kengaytirishga sezilarli yordam ko‘rsatildi. Shuningdek, mustamlaka imperiyalari parchalanishi

bilan sobiq metropoliyalar o‘z tashqi iqtisodiy strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lib, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga harakat qilishdi.

Yevropada iqtisodiy integratsiyaning boshlang‘ich nuqtasi sifatida 1950-yil 9-may kuni qabul qilinadi. Shu kuni Fransiyaning Tashqi ishlar vaziri Robert Shuman Parijda o‘z bayonotini e’lon qildi. U Germaniya Federativ Respublikasi bilan ko‘mir va po‘lat sanoatini yagona boshqaruv ostida birlashtirishni taklif qildi. Natijada, 1951-yil aprel oyida Yevropa Ko‘mir va Po‘lat Birligi (YeKPB) tashkil etish to‘g‘risida Parij shartnomasi imzolandi. *Ushbu ittifoqqa Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Germaniya, Fransiya va Italiya* davlatlari a’zo bo‘ldi. Shartnoma 1953-yilda kuchga kirdi.

1955-yil iyun oyida bo‘lib o‘tgan **Messina konferensiyasi** Yevropa Ittifoqining rivojlanishiga yangi impuls berdi. Ushbu yig‘ilishda G‘arbiy Yevropadagi integratsiya jarayonlariga oid Benilyuks memorandumi muhokama qilindi. Ayniqsa, 1957-yil 25 martda Rimda o‘tgan konferensiya va qabul qilingan shartnomalar integratsiya tarixida muhim o‘rin tutadi. Rim shartnomalari Messina konferensiyasida belgilangan asosiy yo‘nalishlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Bu doirada bojxona ittifoqi tashkil etildi, umumiy siyosat yuritish yo‘lga qo‘yildi va qishloq xo‘jaligida hamkorlik kuchaytirildi. Natijada, **Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YIH) hamda Atom Energetikasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevroatom)** tashkil etildi. Rim shartnomalari esa YeKPB, YIH va Yevroatomni yagona tizimga birlashtirdi.

1960-yil mart oyida Yevropada savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (YESA) tashkil etildi. Ushbu tashkilotga YeKPB va Yevroatom a’zosi bo‘lmagan davlatlar — Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shveysariya hamda Shvetsiya qo‘shildi.

Garchi YESAning faoliyati 1973-yilgacha kutilgan darajada samarali bo‘lmagan bo‘lsa-da, Yevropa Hamjamiyati davlatlaridagi integratsiya jarayonlari jadallashgan davrda, bu tashkilotga a’zo bo‘lmagan mamlakatlar ham savdo sohasidagi to‘siqlarni asta-sekin bartaraf etib, boj tariflarida deyarli bir xil siyosatni amalga oshira boshladilar. Bu esa Yevropa bo‘ylab tovar va xizmatlar harakatining erkinlashishi va yagona bojxona hududi sifatida kengroq mintaqaning shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

YeIH haqidagi shartnomada a’zo davlatlar o‘rtasida kvotalarning bekor qilinishi va savdo yo‘lida mavjud bo‘lgan boshqa cheklovlarning olib tashlanishi ko‘zda tutilgan. Asosiy maqsad — tovarlar, shaxslar, kapital hamda xizmatlarning erkin harakatlanishini ta’minlovchi bojxona ittifoqini yaratishdir. Shartnoma shuningdek, qishloq xo‘jaligi, tashqi savdo, ijtimoiy va qonunchilik sohalarida umumiy siyosatni shakllantirishga qaratilgan aniq yo‘nalishlarni belgilashni o‘z ichiga olgan.

YeIH shartnomasida makroiqtisodiy va moliyaviy siyosatga oid mezonlar va ko‘rsatkichlar aniq belgilanmagan edi. Shuningdek, ittifoqga a’zo davlatlarning ijtimoiy va tashqi siyosatdagi muammolari ham ushbu hujjat doirasiga kirmagan.

1960–1970-yillarda ko‘plab Yevropa mamlakatlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini katta hajmda import qiluvchi bo‘lib qoldi. Garchi qishloq xo‘jalik tovarlari savdosida tariflar orqali himoya mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ko‘pgina davlatlar asta-sekin oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirib, milliy ehtiyojlarini qondirish darajasiga yetishdi. Bu holat integratsiya doirasida amalga oshirilgan agrar siyosatning, qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarning va chora-tadbirlarning samarasi sifatida qaraladi.

YeIH tashkil etish rejalariga ko‘ra, hamjamiyatga a’zo davlatlar o‘rtasida **bojxona ittifoqi tuzish jarayoni 1970-yil 1-yanvarga qadar** yakunlanishi ko‘zda tutilgan edi. Boshlang‘ich a’zo davlatlar darajasida bu jarayon asosan hal etilgan bo‘lsa-da, 1973-yilda YeIHga Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya qo‘shilgach, ushbu yangi a’zo davlatlarda bojxona ittifoqini joriy etish uchun qo‘shimcha vaqt zarur bo‘ldi.

Yevropa Ittifoqining kengayishi masalalari alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu masalalar ilk bor 1969-yil Gaagada o‘tkazilgan konferensiyada muhokama etildi. 1973-yil «oltilikka» Buyuk Britaniya, Daniya, lrlandiya qo‘shilgan bo‘lsa, 1981-yil Gresiya, 1986-yil Ispaniya va Portugaliya, 1995-yil Avstriya, Finlyandiya va Shvesiya davlatlari qo‘shildi.

Bu davrda sobiq «sotsialistik lager» tuzilmasi batamom o‘z mavqeini yo‘qotgandi. Avstriya, Finlyandiya va Shvesiya davlatlari kichik davlatlar sanalsa-da, ulardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ittifoqdagi mamlakatlaming ko‘rsatkichlaridan uncha katta farq qilmasdi. Bundan tashqari, ushbu davlatlar tashqi savdo aylanmasining 50-60 foizi YeIH davlatlari hissasiga to‘g ‘ri kelardi.

1990-yillarda ko‘pgina Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlaridagi tub o‘zgarishlar va bozor munosabatlarining qaror topishi YeIning kengayishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayotganligidan dalolat berar edi.

Bundan tashqari, xalqaro siyosat va vaziyat ham sezilarli darajada o‘zgarib bordi. Yevropa Ittifoqi doirasida Iqtisodiy-Valyuta Ittifoqini (IVI) tashkil etish jarayoni tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keldi. 1990-yillarning boshlarida "sovuq urush" tugagach, YeI ko‘plab xalqaro muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynashni boshladi.

Shu sababli, 1991-1995 yillarda YeI Sharqiy Yevropa va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari bilan iqtisodiy va savdo sohalarida alohida hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga intildi. Sababi, o‘sha vaqtdagi Iqtisodiy Yordam Kengashi orqali amalga oshirilgan hamkorlik bozorning zamonaviy talablariga javob bera olmadi. 1992-yil 21 dekabrda Krakov shahrida **Markaziy Yevropa erkin savdo zonasi** haqidagi bitim imzolandi. Keyinchalik, 1996-yilda Sloveniya, 1997-yilda Ruminiya, 1998-yilda esa Bolgariya ushbu bitimga qo‘shildi.

6.2. Yevropa Ittifoqining tashkil topishi va asosiy shartnomalar — Yagona Yevropa Akti, Maastricht va Amsterdam shartnomalari

1992-yilda Niderlandiyaning Maastrixt shahrida, shuningdek, 1997-yilda Amsterdamda o‘tkazilgan yig‘ilishlarda imzolangan shartnomalar Yevropa Ittifoqi shakllanishi jarayonida muhim rol o‘ynagan. Xususan, 1991-yil dekabr oyida tasdiqlangan Yevropa

Ittifoqiga oid Maastrixt shartnomasi Yevropa integratsiyasining rivojlanishida asosiy huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Maastrixt shartnomasining asosiy maqsad va mohiyati quyidagilardan iborat:

- Yagona bozor prinsiplariga sodiq qolgan holda, iqtisodiy va valyuta ittifoqi sari izchil harakat qilish;
- Ijtimoiy siyosatning umumiy yondashuvlar asosida olib borilishi orqali iqtisodiy integratsiyada ijtimoiy mezonlar ustuvorligini ta'minlash;
- Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini to‘laqonli Yevropa Ittifoqiga aylantirish va uning vakolatlarini kengaytirish;
- Hamjamiyat institutlari doirasida millatustilik tamoyiliga asoslangan integratsiyani shakllantirish («birinchi tayanch») va uni tashqi siyosat hamda xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik («ikkinchi tayanch»), shuningdek, adliya va ichki ishlar sohasidagi hamkorlik («uchinchi tayanch») bilan to‘ldirish;

Ushbu uch tayanchni yagona Yevropa Ittifoqi doirasida birlashtirish orqali barqaror integratsion tuzilmani ta’minlash.

1992 yilda Yevropa hamjamiyatiga a’zo bo‘lgan o‘n ikki davlat — Belgika, Daniya, Fransiya, Gretsiya, Irlandiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Ispaniya, Buyuk Britaniya va Germaniya — o‘rtasida "Yevropa integratsiyasining yangi bosqichi"ga oid bitim imzolandi. Ushbu bosqich, eng avvalo, umumiy Yevropa fuqaroligi tamoyilining joriy qilinishi, yagona valyutaning tatbiq etilishi, tashqi siyosat va xavfsizlik sohalarida umumiy strategiyaning ishlab chiqilishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, Yevropa institutlarining vakolatlari

va ularning qaror qabul qilish tartiblariga ham muhim o‘zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek, Maastrixt shartnomasida Yevropa Ittifoqiga a’zolikka da’vogar davlatlar uchun muayyan mezonlar belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra:

- Davlat byudjeti taqchilligi (defitsiti) bozor narxlarida hisoblangan yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 3 foizidan oshmasligi lozim;
- Davlat qarzlarining umumiy hajmi bozor bahosida o‘lchangan YaIMning 60 foizidan yuqori bo‘lmasligi kerak;
- Yillik inflyatsiya darajasi Ittifoq tarkibidagi inflyatsiyasi eng past bo‘lgan uchta davlatning o‘rtacha ko‘rsatkichidan 1,5 foizdan ortiq bo‘lmasligi zarur;
- Uzoq muddatli foiz stavkalarining o‘rtacha nominal darajasi yuqoridagi uch davlat ko‘rsatkichlaridan 2 foizdan yuqori bo‘lmasligi talab etiladi;
- Bundan tashqari, davlat iqtisodiy va valyuta ittifoqiga a’zo bo‘lishidan kamida ikki yil oldin milliy valyutasini devalvatsiya qilmagan bo‘lishi hamda valyuta kursidagi tebranishlar ±2,25% doirasida saqlangan bo‘lishi shart.

Mazkur mezonlarning barchasiga nisbatan muayyan cheklovlar mavjud bo‘lib, ular konvergensiya (uyg‘unlashuv) jarayonida vaqtinchalik xarakterga ega ekani alohida qayd etilgan. Agar biror davlat belgilangan miqdoriy ko‘rsatkichlarga to‘liq javob bera olmasa, u holda yaqin istiqbolda ularga erishish borasidagi qat’iy niyatini va amaliy harakat rejasini namoyon qilishi lozim.

Shartnomada "a’zo davlat fuqaroligiga ega bo‘lgan har bir shaxs Ittifoq fuqarosi" ekanligini belgilandi. Bu umumiy va parallel fuqarolik a’zo davlatlardan kelgan muhojirlarga nafaqat yashash va ishlash uchun fuqarolik huquqini, balki birinchi marta siyosiy huquqlarni ham beradi. Yangi istiqomat qiluvchi mamlakatda Yevropa Ittifoqi fuqarolari mahalliy va Yevropa saylovlarida ovoz berish va saylanish huquqiga ega bo‘ldi.

1997-yilda Amsterdamda YeI davlatlari tomonidan imzolangan shartnomada esa a’zo mamlakatlar uchun siyosiy, ijtimoiy va huquqiy sohalar, ekologik muhofaza, tinchlikni ta’minlash hamda inson huquqlarini himoya qilish yo‘nalishlarida bir qator asosiy tamoyillar va dasturiy vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, Yevropa mintaqasida inson huquqlarini har tomonlama kafolatlash bilan birga, Ittifoqqa yangi a’zo bo‘lgan davlatlar hamda ularning boshqaruv institutlarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Amsterdam shartnomasi, rasmiy ravishda Amsterdamning Yevropa Ittifoqi shartnomasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi shartnomasi, Yevropa jamoalarini tashkil etuvchi shartnomalar va ular bilan bog'liq ba’zi hujjatlar 1997 yil 2 oktyabrda imzolangan va 1999 yil 1 mayda kuchga kirgan; u 1992 yilda imzolangan Maastrixt shartnomasiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritdi.

Amsterdam shartnomasiga binoan a’zo davlatlar Yevropa parlamentiga turli sohalardagi milliy hukumatlardan ma’lum vakolatlarni berishga kelishib oldilar, shu jumladan immigratsiya to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilish, fuqarolik va jinoiy qonunlarni qabul qilish va umumiy tashqi hamda xavfsizlik siyosatini (HVAC)

amalga oshirish va Yevropa Ittifoqiga yangi a’zo davlatlar qo‘shilishi bilan kengaytirish uchun institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Shartnoma 1995-yil 2-iyunda Italiyaning Messina shahrida ko‘rib chiqa boshlangan, Rim shartnomasi imzolanganidan deyarli qirq yil o‘tib, 1997-yil 18-iyunda Amsterdamda yakuniga yetgan uzoq davom etgan muzokaralar natijasi bo‘ldi. Shartnoma 1997-yil 2-oktabrda rasmiy imzolanganidan so‘ng, a’zo davlatlar teng darajada davom etgan ratifikatsiya jarayoniga kirishdi. Yevropa Parlamenti 1997 yil 19 noyabrda Shartnomani tasdiqladi va ikkita referendum hamda 13 parlament qaroridan so‘ng, a'zo davlatlar nihoyat protsedurani yakunladilar.

Amsterdam shartnomasi 13 ta protokol, Konferentsiya tomonidan qabul qilingan 51 ta deklaratsiya va a’zo davlatlar tomonidan 8 ta deklaratsiyadan, shuningdek, 15 ta moddada bayon qilingan amaldagi shartnomalarga o‘zgartirishlardan iborat. 1-modda Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi Shartnomaning umumiy qoidalariga o‘zgartirishlar kiritadi va jinoiy hamda politsiya masalalarida hamkorlikni qamrab oladi. Keyingi to‘rtta modda (70 band) Yevropa Ittifoqi shartnomasiga, Yevropa ko‘mir va po‘lat hamjamiyatiga oid shartnomaga (2002-yilda muddati tugagan), Yevrotom shartnomasiga va Yevropa parlamenti saylovlari to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirishlar kiritadi.

Oddiy yevropaliklarning huquqiy va shaxsiy xavfsizligi, immigratsiya va firibgarlikning oldini olish kabi eng dolzarb muammolari shartnomaning boshqa boblarida ko‘rib chiqilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi immigratsiya, fuqarolik qonunchiligi yoki fuqarolik protsessual qonunchiligi uchun javobgar bo‘ldi, chunki bu

Yevropa Ittifoqida odamlarning erkin harakatlanishi uchun zarurdir. Shu bilan birga, a’zo davlatlar o‘z faoliyatini yanada samarali muvofiqlashtirish uchun politsiya va jinoiy sudlov sohasida hukumatlararo hamkorlik mustahkamlandi. Ittifoq o‘z fuqarolari uchun erkinlik, xavfsizlik va adolat maydonini yaratishni maqsad qilgan. Shengen kelishuvlari endi Yevropa Ittifoqi huquqiy tizimiga kiritilgan (Irlandiya Buyuk Britaniya bilan ochiq chegarasi tufayli Shengendan tashqarida qolmoqda).

Shartnoma umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati sohasida yangi tamoyillar va majburiyatlarni belgilaydi, asosiy e’tibor Yevropa Ittifoqi qadriyatlarini tashqi dunyoga ko‘rsatish, uning manfaatlarini himoya qilish va harakat usullarini isloh qilishga qaratilgan. Yevropa Kengashi umumiy strategiyalarni ishlab chiqadi, keyinchalik ular Kengash tomonidan ma’lum shartlar asosida malakali ko‘pchilik tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa hollarda, ba’zi a’zo davlatlar "konstruktiv tarzda", ya’ni choralar ko‘rilishiga to‘sqinlik qilmasdan o‘zlarini tiyishlari mumkin.

Amsterdam shartnomasida umumiy mudofaa tizimini ishlab chiqmagan bo‘lsa-da, u Yevropa Ittifoqining tinchlikparvarlik va gumanitar ishlar uchun mas’uliyatini oshirdi, xususan, G‘arbiy Yevropa Ittifoqi bilan yaqinroq aloqalarni o‘rnatdi.

2000–2002-yillar davomida Yevropa Ittifoqida yevro valyutasini muomalaga joriy etish bo‘yicha keng qamrovli tashkiliy, huquqiy, moliyaviy va hisob-kitob ishlarini amalga oshirishga katta e’tibor qaratildi. Dastlab yagona valyutani joriy etish g‘oyasi Tindemans rejasida ilgari surilgan bo‘lsa-da, u 1980-yilda amalga oshmagan.

Shunga qaramay, milliy markaziy banklar, tovar, fond va valyuta birjalari hamda investitsiya oqimlari holati tahlil qilinib, yevro 2002-yil 1-yanvardan boshlab naqd pul shaklida rasmiy muomalaga kiritildi.

Bugungi kunga kelib, yevro barqaror valyuta sifatida shakllangan bo‘lib, xalqaro savdo va valyuta operatsiyalarida muhim to‘lov vositasi sifatida keng qo‘llanmoqda. Shunga qaramay, Yevropa Ittifoqiga a’zo barcha davlatlar hali yevro zonasiga qo‘shilmagan. Avstriya, Belgiya, Germaniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya va 2007-yildan boshlab Sloveniya kabi mamlakatlar yevro zonasiga a’zo bo‘lib, hozirda ularning soni 18 taga yetgan. Kelajakda yevro zonasining yanada kengayishi kutilmoqda, shuningdek, bu valyutaning xalqaro iqtisodiy operatsiyalarda asosiy hisob-kitob vositasiga aylanishi ehtimoli yuqori baholanmoqda.

6.3. Yevropa Ittifoqining kengayish imkoniyatlari

Yevropa Ittifoqining kengayishi - bu yangi a'zo davlatlarning Yevropa Ittifoqini (YeI)ga kirishi. Yevropa Ittifoqining kengayish jarayonida **besh bosqich** alohida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan biri o‘z ko‘lami va ta’siri jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. 2004-yil 1-maydan boshlab Ittifoqqa bir vaqtning o‘zida 10 ta davlat — *Polsha, Litva, Latviya, Estoniya, Slovakiya, Chexiya, Vengriya, Sloveniya, Malta va Kipr* qo‘shildi. Bu kengayish natijasida YeIning ichki bozor hajmi kengaydi, investitsion faoliyat esa yanada faollashdi.

Yangi a’zolarning iqtisodiy holati o‘zaro farq qilgan bo‘lsa-da, 1990–2003-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va

bozor munosabatlarini chuqurlashtirish bo‘yicha bu davlatlar Sharqiy va Markaziy Yevropa mintaqasidagi boshqa mamlakatlarga nisbatan nisbiy ustunlikka ega edi.

2007-yilda Ruminiya va Bolgariya Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘ldi. 2013-yilda esa bu safga Xorvatiya qo‘shildi. Biroq Turkiyaning Ittifoqqa qo‘shilishi borasidagi jarayon hanuzgacha noaniqligicha qolmoqda va u bo‘yicha aniq muddatni bashorat qilish mushkul.

Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish jarayoni qo‘shilishdan oldingi shartnomadan boshlab va yakuniy qo‘shilish to‘g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilishgacha bo‘lgan bir qator rasmiy bosqichlar bilan birga keladi. Bu qadamlar Yevropa Komissiyasi (Kengayish Direksiyasi) tomonidan nazorat qilinadi, ammo amaldagi muzokaralar ittifoqqa a'zo davlatlar va nomzod davlat o‘rtasida olib boriladi.

Nazariy jihatdan har qanday Yevropa davlati Yevropa Ittifoqiga kirishi mumkin. YeI Kengashi Komissiya va Yevropa Parlamenti bilan maslahatlashib, a’zolik bo‘yicha muzokaralarni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Kengash arizani faqat bir ovozdan rad etishi yoki tasdiqlashi mumkin. Arizani tasdiqlash uchun mamlakat quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- "Yevropa davlati" bo‘lishi kerak;
- erkinlik, demokratiya, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish, qonun ustuvorligi tamoyillarini hurmat qilishi kerak.

Qo‘shilish jarayoni. Mamlakat a'zolikka ariza berishdan oldin, odatda, mamlakatni nomzod va ehtimol a'zo maqomiga tayyorlashga yordam berish uchun birlashgan a'zolik shartnomasini imzolashi kerak.

Koʻpgina mamlakatlar muzokaralarni boshlashdan oldin zarur boʻlgan mezonlarga ham javob bermaydilar, shuning uchun ularga jarayonga tayyorgarlik koʻrish uchun koʻp yillar kerak boʻladi. Assotsiatsiyalangan a'zolik shartnomasi ushbu birinchi qadamga tayyorlashga yordam beradi.

Agar davlat a'zolikni rasmiy ravishda soʻrasa, Kengash Komissiyadan mamlakatning muzokaralarga tayyorligi toʻg'risida fikr bildirishni soʻraydi. Kengash Komissiyaning fikrini qabul qilishi yoki rad etishi mumkin.

Kengash Komissiyaning fikrini faqat bir marta - Gretsiya misolida (1990-yillarning boshlarida Gretsiya va Makedoniya oʻrtasidagi nom masalasi sababli Gretsiyaning oʻzi, Makedoniyaning YeIga qoʻshilish jarayonini toʻxtatib qoʻydi), Komissiya Kengashni muzokaralarni boshlashdan qaytarganida rad etdi. Kengash muzokaralarni boshlashga qaror qilsa, koʻrib chiqish jarayoni boshlanadi. Bu Yevropa Ittifoqi va nomzod mamlakat oʻz qonunlari va YeI qonunlarini oʻrganib chiqadigan, mavjud farqlarni aniqlaydigan jarayondir.

Keyin Kengash konstruktiv muzokaralar uchun etarli umumiy asoslar mavjudligi toʻg'risida qaror qabul qilganda, qonunning "boblari" boʻyicha muzokaralarni boshlashni tavsiya qiladi. Muzokaralar odatda nomzod davlatni YeIni uning qonunlari va boshqaruvi Yevropa qonunchiligini amalga oshirish uchun yetarli darajada ishlab chiqilganligiga ishontirishga harakat qiladi, bu esa a'zo davlatlar tomonidan tegishli deb topilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Hozirda toʻqqizta davlat nomzod maqomiga ega: Albaniya (2009 yilda ariza berilgan), Bosniya va Gersegovina (2016 yilda), Gruziya (2022 yilda), Moldova (2022 yilda), Shimoliy Makedoniya (2004 yilda),

Serbiya (2009 yilda), Turkiya (1987 yilda), Ukraina (2022 yilda), Chernogoriya (2008 yilda). Kosovo ham a’zo bo‘lish uchun ariza bergan.

Yevropa Ittifoqi bilan assotsiatsiya shartnomasini uchta davlat imzoladi: *Gruziya, Moldova va Ukraina*.

2022-yil 28-fevralda Ukraina Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish uchun ariza topshirdi. Murojaat ratifikatsiya qilindi va uyushma majlisida ko‘rib chiqildi. 2022-yil 1-martda Yevropa parlamenti Ukrainaga Yevropa Ittifoqiga a’zolikka nomzod maqomini berishni tavsiya qildi.

2022-yil 23-iyun kuni Yevropa Ittifoqi sammitida Ukraina va Moldova Yevropa Ittifoqiga a’zolikka nomzodlar maqomini oldi. 2023-yil 14-dekabrda Yevropa Ittifoqi Kengashi Ukraina va Moldovaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi bo‘yicha muzokaralarni boshlashga qaror qildi.

Shveytsariya 1992 yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo‘lish uchun ariza bergan. O‘sha yili referendum bo‘lib o‘tdi, unda shveytsariyaliklarning aksariyati Evropa institutlariga integratsiyaga qarshi chiqdi. 2016 yil iyun oyida Shveytsariya parlamenti Yevropa Ittifoqini arizasini qaytarib olishi haqida rasman xabardor qildi.

Kelajakda Yevropa Ittifoqining kengayishida Norvegiya, Shveysariya va Lixtenshteynning roli va ishtiroki bo‘yicha aniq xulosa chiqarish qiyin. Bu davlatlar iqtisodiy jihatdan YeIga a’zo mamlakatlar bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirib, integratsion jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Biroq ularning rasmiy a’zolikdan chetda qolish siyosati, ularni Yevropa Ittifoqining to‘laqonli a’zosi bo‘lishdan ma’lum darajada cheklab turadi.

G‘arbiy Yevropadagi integratsion harakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nazariy asoslar bilan amaliy natijalar o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lsa-da, bu model boshqa mintaqalarda shakllanayotgan integratsiya birliklariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekani bilan ajralib turadi.

Yevropa Ittifoqi nazariyotchilarining fikriga ko‘ra, mamlakatlar o‘rtasidagi integratsiya shart-sharoitlarini yaratishda qayta ishlovchi sanoatning rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu soha ko‘pincha iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i hisoblanadi. Aksincha, agrar soha yoki xomashyo eksport qiluvchi davlatlarning integratsiyasi amalda unchalik samarali bo‘lmaydi.

Umuman olganda, integratsion jarayonga kiruvchi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi o‘xshash bo‘lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli integratsiya jarayonlarining asosiy omili davlatlar o‘rtasidagi chuqur hamkorlik va siyosiy barqarorlikka asoslangan mustahkam iroda mavjudligidir.

Ittifoq a’zoligidan chiqishi uchun birinchi da’vogarlik (Yevropa shartnomasining 50-moddasiga muvofiq) Buyuk Britaniya tomonidan bildirilgan. 2016-yil 23-iyun kuni mamlakatda referendum bo‘lib o‘tdi, unda britaniyaliklarning 52 foizi Yevropa Ittifoqidan chiqish uchun ovoz berdi. 43 yillik Yevropa Ittifoqining barcha organlari ishida ishtirok etganidan so‘ng, qirollik Yevropa hokimiyat institutlaridan chiqishini e‘lon qildi. Bunda Buyuk Britaniya xalqi Ittifoqdan chiqib ketish uchun bir qator sabablarni ko‘rsatdi:

- YeI byudjetiga yiliga 15 milliard yevro to‘lashning hojati qolmaydi

- qo‘shilgan qiymat solig‘ini tartibga solish mumkin bo‘ladi
- assimilyatsiya qilishni istamaydigan migrantlar oqimini nazorat qilish
- Yevropa qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan qoidalar byurokratik hisoblanadi va iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi.

2020-yil 1-fevralda Buyuk Britaniya uzil-kesil Yevropa Ittifoqini tark etdi. Ammo bu jarayon kutilgan natijani bermadi. 2023 yilda britaniyalikning o‘rtacha daromadi deyarli 2000 funt sterlingga qisqardi, o‘tgan yili hisobidan esa o‘rtacha londonliklarning daromadi deyarli 3400 funt sterlingga kamaydi. Hisobotda shuningdek, Buyuk Britaniyada Brexitdan chiqish tufayli ish o‘rinlari deyarli ikki millionga kamayganini taxmin qilmoqda.

Nazorat savollari

1. Mintaqaviy integratsiyaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?

2. Yevropa Ittifoqi shakllanishi va rivojlanishida muhim bo‘lgan asosiy bosqichlar qanday?

3. Yevropa Ittifoqining kengayish jarayonlari qaysi bosqichlardan iborat va ularning ahamiyati nimada?

4. Maastrixt shartnomasida YeIga a’zo bo‘lish uchun qo‘yilgan talab va mezonlar qanday?

5. Yevropa Ittifoqining tashkil topishida muhim rol o‘ynagan shartnoma va kelishuvlar qaysilar?

6. Yevropa Ittifoqining kelajakdagi kengayishi va rivojlanish istiqbollarini qanday tahlil qilish mumkin?

VII- BOB. SHIMOLIY AMERIKA MINTAQASIDA INTEGRATSIYA JARAYONINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.





7.1. Shimoliy Amerikadagi integratsiyaning boshqa mintaqalardagi modellarga taqqoslanishi

7.2. Shimoliy Amerika Erkin savdo kelishuvi (NAFTA)ning asosiy tamoyillari.

7.3. NAFTAning ijobiy va salbiy ta’sirlari.

Tayanch iboralar: avtomobilsozlik sohasi, energetika inqirozi, eksportni subsidiyalash, NAFTA, investitsiya muhiti, intellektual mulk, arbitraj komissiyasi, tarif cheklovlari

7.1. Shimoliy Amerikadagi integratsiyaning boshqa mintaqalardagi modellarga taqqoslanishi

Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlaming yangi qiyofasi integratsion jarayonlarning jo‘shqinlashuvi va shakllangan integratsion uyuushmalarning rivojlanishi bilan bir qatorda o ‘zining tarixi va xususiyatlariga ega bo‘lgan integratsiyaning yangi markazlari yuzaga kelayotganligi bilan tavsiflanadi.

1994-yilning 1 yanvarida AQSh, Kanada va Meksika hududida Shimoliy Amerika erkin iqtisodiy zonasi — NAFTA (North American Free Trade Agreement - NAFTA) ni tashkil etish to‘g ‘risidagi kelishuv

kuchga kirgan bo‘lib, u jahon iqtisodiyoti globallashuvining yangi bosqichida ishtirokchilarning o ‘rnini mustahkamlash va ularning milliy manfaatlarini himoya qilish vositasiga aylandi.

NAFTA bitimining imzolanishiga turli omillar zamin yaratdi. Avvalo, bu uch davlatning geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashuvi, shuningdek, bitim tuzilishidan oldingi davrda mintaqaviy integratsiya bo‘yicha shakllangan shartnomaviy-huquqiy asoslarning mavjudligi muhim rol o‘ynadi. Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayib borayotgani bu jarayonni rasmiylashtirish zaruratini yuzaga chiqardi.

Bunga qo‘shimcha ravishda, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani hududlarida integratsion harakatlarning faollashuvi hamda Yaponiya tomonidan kuchli raqobat bosimi ostida qolgan AQSh o‘z mahsulotlarining raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida Shimoliy Amerika doirasida iqtisodiy integratsiyani ilgari surishga ehtiyoj sezdi.

NAFTA tashkil etilishiga olib kelgan dastlabki shart-sharoitlar Shimoliy Amerikadagi ikki asosiy davlat – AQSh va Kanada o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Kanada iqtisodiy taraqqiyotida AQSh bilan savdo va moliyaviy aloqalar hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib qoldi. Bu davrda tovarlar, xizmatlar va kapitalning faol almashinuvi kuzatildi, bu esa ikki mamlakat o‘rtasida kuchli iqtisodiy integratsiyaning shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Bir qator savdo bitimlarining tuzilishi Shimoliy Amerikada iqtisodiy integratsiya jarayonlariga zamin yaratdi. AQSh va Kanada

o‘rtasida erkin savdo zonasini shakllantirishga bo‘lgan dastlabki urinish 1854-yilda boshlangan bo‘lsa-da, bu jarayon 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi oqibatida 1866-yilda to‘xtatilgan. Shundan so‘ng ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aloqalari turli maxsus bitimlar orqali tartibga solib kelindi.

AQSh hukumati har doim ham Kanada mahsulotlarini bozorida qo‘llab-quvvatlamagan. Jumladan, 1930-yilda joriy etilgan yuqori proteksionistik boj stavkalari Kanada ishlab chiqaruvchilari uchun AQSh bozoriga kirishni sezilarli darajada qiyinlashtirgan edi.

1947-yilda Kanada moliya vaziri tomonidan ilgari surilgan **"Ebbot rejasi"** mintaqaviy integratsiyani rag‘batlantirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Bu reja Yevropadagi **"Marshall rejasi"**ga o‘xshash tarzda, Kanada sanoatining asosiy sohalariga xorijiy, xususan, AQSh kapitalini jalb etishga xizmat qilgan. Natijada, Kanada bilan AQSh o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Boshqa tomondan, Kanada hukumati GATT doirasida xalqaro savdoni liberallashtirish tashabbusini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, AQSh bilan ikki tomonlama iqtisodiy bitimlarga ehtiyotkorlik bilan yondashgan va ularni tuzishni xohlamagan. Biroq, shunga qaramay, ikki davlat o‘rtasida savdo erkinligini ta'minlashga qaratilgan ayrim bitimlar baribir tuzilgan.

Masalan, 1959-yilda imzolangan harbiy sanoatga oid bitim Kanadada mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishda AQSh standartlarining joriy etilishiga olib keldi. Bu kelishuv Shimoliy Amerika harbiy sanoatining o‘zaro uyg‘unlashuviga xizmat qilgan va

AQSh-Kanada o‘rtasidagi chuqur harbiy-iqtisodiy hamkorlikning asosi bo‘lgan ilk muhim hujjatlardan biri sifatida tarixda o‘rin egalladi.

Keyingi bosqichda, 1965-yilda AQSh va Kanada o‘zaro avtomobilsozlik sohasidagi mahsulotlar savdosini erkinlashtirishga doir bitimni imzoladilar. Ushbu kelishuv nafaqat ushbu tarmoqda, balki boshqa ko‘plab sohalarda ham iqtisodiy integratsiyani jadallashtirishga turtki bo‘ldi.

Umuman olganda, mazkur bitimlar ikki davlat o‘rtasidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilgan va bu yo‘nalishlardagi texnologik rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Biroq, 1970-yillarda global iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi, iqtisodiy o‘sish sur’atining pasayishi, proteksionizmning kuchayishi, shuningdek xalqaro valyuta va energetika inqirozlari natijasida bu integratsiya jarayonlari to‘xtab qoldi.

1970-yillar davomida Kanadada iqtisodiy millatchilik kuchayib, yirik sanoat tarmoqlarini «kanadalashtirish» siyosati ustuvor yo‘nalishga aylandi. Ushbu yondashuv chet el, xususan, Amerika kapitalining mamlakatga kirib kelishini cheklashga xizmat qildi. Shu bois, AQSh mahsulotlari uchun Kanada bozorining ochiqligi pasaydi. Faqat oradan o‘n besh yil o‘tgach, Kanada rahbariyati mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish zarurligini anglay boshladi.

1970-yillarning oxiriga kelib esa AQSh o‘zining Kanada va Meksika bilan iqtisodiy-siyosiy hamkorligini mustahkamlash yo‘lida faol qadamlar tashladi. 1979-yilda AQSh Kongressi savdo bitimlariga oid qonun qabul qilib, unda Prezidentga Shimoliy Amerika erkin savdo

hududi tashkil etilishi imkoniyatlarini o‘rganish (1104-bo‘lim) bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

1980-yillar davomida AQSh prezidentlari Ronald Reygan va Jorj Bush Shimoliy Amerika mintaqasida erkin savdo tizimini yo‘lga qo‘yish masalasini bir necha bor ilgari surgan va bu boradagi uzoq muddatli maqsadlarni ochiq qo‘llab-quvvatlaganlar.

Ushbu tashabbuslarning amaliy natijasi sifatida, 1988-yil sentyabr oyida AQSh va Kanada o‘rtasida erkin savdo hududi tashkil etishga qaratilgan muhim bitim — **AQSh-Kanada Erkin Savdo Bitimi (Canada-USA Free Trade Agreement, CUSFTA)** imzolandi. Bu hujjat 1989-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi va o‘n yillik davr ichida bojxona tariflari hamda bir qator no-tarif to‘siqlarni bosqichma-bosqich bekor qilishni, shuningdek xorijiy investitsiyalar ustidan nazoratni yumshatishni nazarda tutgan.

Biroq, bitim ijrosi davomida turli muammolar yuzaga keldi. Jumladan, Kanada kompaniyalarining xalqaro raqobatbardoshligi oshgan bo‘lsa-da, bu jarayon yuqori ishsizlik darajasi va aholining real daromadlarining sust o‘sishi hisobiga amalga oshdi.

Kanada va AQSh o‘rtasida erkin savdo zonasining shakllanishidan so‘ng, AQSh Meksikani ham ushbu iqtisodiy hududga jalb qilish yo‘lida faol harakatlarga kirishdi. 1980-yillar davomida AQSh va Meksika o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning istiqbollarini muhokama qilish uchun ikki tomonlama komissiya tuzildi. Ushbu komissiyaning yakuniy hisobotida ikki mamlakat o‘rtasidagi tobora kuchayib borayotgan iqtisodiy bog‘liqlikni tartibga solish ehtiyoji ta’kidlandi.

Shuningdek, o‘sha yillarda AQSh va Meksika o‘rtasida savdo-sotiqni erkinlashtirishga xizmat qiluvchi bir nechta muhim bitimlar imzolandi. Jumladan, 1985-yilda eksportni subsidiyalash tartib-qoidalariga oid kelishuv, 1987-yilda esa Meksikadan AQShga to‘qimachilik mahsulotlari, po‘lat, pivo va vino kabi ayrim tovarlar importini kengaytirishga doir savdo kelishuvi imzolangani e’tiborga loyiqdir.

1991-yilning iyun oyida AQSh, Meksika prezidentlari va Kanada bosh vaziri o‘rtasida boshlangan muzokaralar natijasida Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA) imzolandi. Ushbu uzoq davom etgan muzokaralar Amerika qit’asida yangi integratsion tuzilma – erkin savdo hududini shakllantirish sari muhim qadam bo‘ldi.

NAFTAga a’zo mamlakatlar ushbu kelishuv orqali o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash bilan birga, butun mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiluvchi asosiy omilni shakllantirdilar.

Xususan, AQSh ushbu bitimni strategik jihatdan G‘arbiy yarim sharda o‘z yetakchilik mavqeini kuchaytirish vositasi sifatida ko‘radi. Kelajakda Alyaskadan Janubiy Amerikaning eng chekka nuqtasigacha yagona erkin savdo zonasini barpo etish rejasida NAFTA muhim rol o‘ynaydi.

Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA) AQSH, Kanada va Meksika o‘rtasidagi savdo shartnomasi bo‘lib, 1994-yil 1-yanvarda kuchga kirgan va dunyodagi eng yirik erkin savdo zonalaridan birini yaratgan. NAFTAning maqsadi tovarlar va xizmatlarni transchegaraviy ayirboshlash yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish va barcha uch imzolagan

davlatning global bozorda raqobatbardoshligini oshirish edi. NAFTA qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va avtomobil ishlab chiqarishda savdoni erkinlashtirishga katta e'tibor qaratdi. Shartnoma, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilishga, nizolarni hal qilish mexanizmlarini o‘rnatishga, mehnat va atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishga qaratilgan.

NAFTA juda munozarali deb hisoblangan va savdo bitimi imzolagan mamlakatlar uchun ko‘proq iqtisodiy afzalliklar yoki kamchiliklarni taqdim etganmi yoki yo‘qmi hali noma'lum. 2014 yil holatiga ko‘ra, AQShning import va eksport savdosi hajmining 630 milliard dollarga yaqin o‘sishi NAFTAning amalga oshirilishi bilan bog'liq. 2015 yilda AQShda 2,2 milliondan ortiq ish o‘rni NAFTA mamlakatlariga eksport qilingan mahsulotlar hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. AQSh NAFTA a'zoligidan foyda ko‘rayotgan yagona davlat emas. Kanadaning savdo hajmining umumiy o‘sishining taxminan 250 milliard AQSh dollari NAFTA bilan bog'liq.

2017-yilda o‘tkazilgan so‘rovda amerikalik respondentlarning taxminan 46 foizi savdo kelishuvi AQSh iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko‘rsatdi, deb hisoblagan . Respondentlarning atigi 30 foizi Qo‘shma Shtatlar NAFTAning bir qismi bo‘lishni davom ettirishi kerakligiga ishonishdi . 2017 yilda Kanadada o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, AQSh prezidenti Donald Tramp savdo kelishuvini tubdan o‘zgartirish bilan tahdid qilganidan so‘ng, Kanadada NAFTA bo‘yicha jamoatchilik fikri mo‘'tadildan sezilarli darajada ishtiyoqligacha o‘zgargan. Kanadalik respondentlarning qariyb 44 foizi o‘z mamlakatlari odatda NAFTA savdo shartnomasidan foyda ko‘rganiga ishonishgan va

respondentlarning 31 foizi savdo bitimini mustahkamlash va kengaytirishni xohlashgan .

2018-yil sentabr oyida NAFTAning ishtirokchi a’zolari kelishuvni 2020-yil mart oyida ratifikatsiya qilingan AQSh-Meksika-Kanada kelishuvi (USMCA) bilan almashtirdilar. USMCA 2020-yil 1-iyulda to‘liq kuchga kirdi va hozir ham amalda. Ushbu matn umumiy ma'lumot beradi. Statista berilgan ma’lumotlarning to‘liq yoki to‘g‘riligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Turli xil yangilanish davrlari tufayli statistika matnda havola qilinganidan ko‘ra ko‘proq dolzarb ma'lumotlarni ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur integratsion tuzilma AQShga nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy jihatdan ham ta’sir doirasini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu hamkorlik AQShning Lotin Amerikasi davlatlari bilan teng asosdagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishiga xizmat qiluvchi platforma bo‘lib xizmat qiladi.

NAFTA doirasidagi ishtirok orqali AQSh bir nechta strategik va iqtisodiy maqsadlarga erishishni ko‘zlagan. Ulardan eng asosiylari sifatida Amerika mahsulotlari va xizmatlarining mintaqa bo‘ylab erkin harakatlanishini ta’minlash, investitsiya uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish, hamda intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilish ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, AQSh yuqori texnologiyalar va kapitallarni Meksikadagi arzon ishchi kuchi hamda tabiiy resurslar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi mintaqaviy nisbiy ustunliklardan foydalanishga intilgan.

Mazkur yondashuv natijasida ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, ishlab chiqarish quvvatlarining qisman Meksikaga ko‘chirilishi va umumiy raqobatbardoshlikning oshishi kutilgan. Bu omillar ayniqsa AQShning G‘arbiy Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi integratsion bloklar bilan kuchayib borayotgan raqobat sharoitida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, NAFTA AQShga xalqaro savdo tizimi doirasida, xususan GATTning Urugvay raundida olib borilgan muzokaralarda muhim geoiqtisodiy pozitsiyalarni mustahkamlash imkonini berdi. Bu kelishuv orqali AQSh Yevropa va Osiyo davlatlariga o‘zining muzokaralarga tayyorligini namoyish qilish bilan birga, ularning pozitsiyalariga nisbatan bosim o‘tkaza oladigan muhim vositaga ham ega bo‘ldi.



7.1-rasm. Jahon va NAFTA mamlakatlari YaIM dinamikasi, 2009-2018 yillar.

NAFTA integratsion bloki doirasida ishtirok etayotgan davlatlarning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga

barqaror o‘sib bormoqda. Bu holat mazkur blokning global iqtisodiy maydondagi ahamiyati tobora ortib borayotganini anglatadi.

Meksika uchun esa NAFTAda ishtirok etish strategik ahamiyat kasb etdi. Xususan, xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi va savdo jarayonlarining liberallashuvi natijasida mamlakat iqtisodiyotining samaradorligi sezilarli darajada yuksaldi. Bu jarayon Meksikada iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashishiga turtki bo‘ldi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, Meksika 1970–1980-yillarning boshlarida neft sanoatiga tayanilgan iqtisodiy modelning zaif tomonlarini anglab yetdi. Neft bumasining pasayishi mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash uchun yetarli bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Shu bois, NAFTA orqali yangi imkoniyatlarga ochilish Meksika uchun iqtisodiy diversifikatsiya va taraqqiyotning muhim yo‘nalishiga aylandi.

Shu bois, 1980-yillarning o‘rtalariga kelib, Meksika hukumati AQSh bilan iqtisodiy aloqalarga nisbatan ilgari mavjud bo‘lgan ehtiyotkor va salbiy munosabatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi. Bu davrda mamlakat rahbariyati ichki siyosiy bosimlarga, xususan Lotin Amerikasi davlatlari bilan an’anaviy hamkorlikni saqlab qolishga intilgan konservativ doiralar bosimiga qaramay, AQSh bilan yanada yaqinroq iqtisodiy integratsiyaga kirishga qaror qildi.

Meksikaning Shimoliy Amerika integratsion blokiga qo‘shilishiga bir qator iqtisodiy omillar asos bo‘lgan. Avvalo, mamlakat eksportining qariyb 80 foizi yo‘naltirilgan AQSh bozoriga kirishning kafolatlanishi muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari, Kanada bilan hamkorlik orqali yangi eksport bozorlariga chiqish imkoniyati yuzaga kelgan.

NAFTA doirasidagi ishtirok Meksikaga xorijiy investitsiyalar, ayniqsa Shimoliy Amerikadan keladigan investitsiyalar hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, hamda ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish imkonini taqdim etdi. Bularning barchasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omillar sifatida e’tirof etiladi.

Meksikada barqaror va ishonchli investitsiya muhitining shakllantirilishi nafaqat AQSh va Kanada sarmoyalarining oqimini ta’minlash, balki uchinchi mamlakatlardan ham kapital jalb etish imkonini yaratishi lozim edi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonida bozorlarning ochilishi, ayniqsa qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun jiddiy raqobat muhitini yuzaga keltirdi.

Xususan, AQShda ishlab chiqariladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining deyarli 90 foizi Meksika bozoriga to‘siqsiz kirish imkoniga ega bo‘lib, bu esa mahalliy fermer xo‘jaliklari va kichik dehqonlar uchun iqtisodiy xavf tug‘dirgan.

Shunga qaramay, Meksikaning Shimoliy Amerika integratsion jarayonida ishtiroki natijasida erishilgan ijobiy natijalar ehtimoliy yo‘qotishlarga nisbatan ancha ustun bo‘ldi. NAFTA doirasidagi ishtirok orqali Meksika iqtisodiy islohotlar davrini sezilarli darajada – avvalgi 50 yilga mo‘ljallangan modernizatsiya bosqichini atigi 10–15 yil ichida bosib o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Natijada, mamlakat sanoati rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashish yo‘lida muhim sur’atga erishdi.

Bundan tashqari, Meksikaning NAFTAdagi ishtiroki faqat iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanib qolmadi. Integratsion hamkorlikning kengaytirilgan modeli Meksikaga atrof-muhitni muhofaza qilish, narkotik savdosiga qarshi kurash, chegara hududlaridagi nizolarni yumshatish va noqonuniy migratsiya muammolarini hal etishda ham sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu omillar Meksika uchun NAFTAni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham manfaatli platformaga aylantirdi.

7.2. Shimoliy Amerika Erkin savdo kelishuvi (NAFTA)ning asosiy tamoyillari

Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim — NAFTA (North American Free Trade Agreement) kuchga kirgan paytda dunyodagi eng yirik mintaqaviy bozorlardan birining shakllanishiga zamin yaratdi. Bu kelishuv 360 milliondan ortiq aholiga ega, yalpi ichki mahsuloti 6,4 trillion AQSh dollariga teng bo‘lgan va jahon YIMining qariyb 28 foizini tashkil qiluvchi iqtisodiy makonni qamrab oldi.

NAFTA nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan, balki a’zo mamlakatlar — AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasidagi manfaatlarning nisbiy muvozanatini ta’minlashga qaratilgan huquqiy va institutsional asoslarni yaratgani bilan ham ahamiyatlidir.

Ushbu bitim quyidagi **asosiy maqsadlarni** o‘z ichiga olgan:

1. **Savdo to‘siqlarini bartaraf etish** va a’zo davlatlar o‘rtasida tovarlar hamda xizmatlarning erkin harakatlanishini ta’minlash;

2. **Adolatli raqobat muhitini yaratish** va savdo zonasida teng shart-sharoitlarni ta’minlash;

3. **Investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish**, ya’ni a’zo mamlakatlarda sarmoya kiritish uchun qulay sharoitlarni yaratish;

4. **Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish** uchun samarali va ishonchli mexanizmlarni joriy etish;

5. **Nizolarni hal qilish bo‘yicha mexanizmlarni shakllantirish**, bitimning to‘liq va samarali ijrosini kafolatlash;

6. Kelishuv doirasida erishilgan yutuqlarni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida kelgusidagi ko‘p tomonlama **mintaqaviy hamkorlik yo‘nalishlarini belgilash.**

NAFTA nafaqat iqtisodiy integratsiya platformasi, balki uch mamlakat o‘rtasida uzoq muddatli strategik hamkorlik asoslarini belgilab beruvchi muhim mintaqaviy bitim sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA) doirasida belgilangan asosiy maqsadlar qatorida bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, ushbu **vazifalar q**uyidagilardan iborat bo‘lgan:

- 2009-yilga qadar barcha bojxona bojlarini bekor qilish, bu orqali a’zo mamlakatlar o‘rtasida erkin savdo muhitini shakllantirish;
- Tovarlar va xizmatlar savdosiga oid ko‘plab notarif to‘siqlarni bosqichma-bosqich tugatish, ya’ni tarifdan tashqari cheklovlarni yumshatish va savdo oqimini erkinlashtirish;

- Meksikada Shimoliy Amerika kapital qo‘yilmalari tartibini yengillashtirish, ya’ni xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish;
- Meksika moliya bozorida AQSh va Kanada banklarining faoliyatini liberallashtirish, bu orqali moliya sektorida raqobat va xizmatlar sifati oshirilishi ko‘zlangan;
- Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali tizimni joriy etish, bu sohada yagona standartlarga asoslangan yondashuvni shakllantirish;
- Uch tomonlama arbitraj komissiyasini tashkil etish, ya’ni a’zo davlatlar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish uchun institutsional mexanizm yaratish.

Mazkur vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi NAFTA doirasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va a’zo mamlakatlar o‘rtasida barqaror, o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlashga xizmat qildi.

NAFTA kelishuvi doirasida tarif cheklovlarini bosqichma-bosqich bekor qilish aniq va batafsil tartibda belgilangan edi. A’zo davlatlar har biri o‘z iqtisodiyotining nozik va muhim tarmoqlarini muhofaza qilish zaruratidan kelib chiqib, tariflarni bir zumda emas, balki ma’lum bosqichlar asosida bartaraf etish mexanizmi ustida kelishuvga erishdi. Bu yondashuv barcha tomonlarning manfaatlarini inobatga olgan holda amalga oshirildi.

Tarif cheklovlarini yo‘q qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi nazarda tutilgan edi:

Birinchi bosqich – Kelishuv kuchga kirgan vaqtdan boshlab ayrim bojxona bojlari darhol yoki qisqa muddat ichida bekor qilindi;

Ikkinchi bosqich – Kelishuv imzolanganidan keyingi besh yil davomida ba’zi tarif to‘siqlari bosqichma-bosqich kamaytirildi;

Uchinchi bosqich – O‘n yil mobaynida murakkabroq va sezgir mahsulot guruhlariga nisbatan bojxona cheklovlari bosqichma-bosqich yo‘q qilindi;

To‘rtinchi bosqich (uzoq muddatli) – Ayrim nozik tarmoqlar uchun 15 yil davomida tariflar bosqichma-bosqich bekor qilinishi rejalashtirildi.

NAFTA kelishuvining kuchga kirishi bilan sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha o‘zaro savdodagi boj stavkalari sezilarli darajada kamaytirildi. Xususan, kelishuv amalda ishga tushgan dastlabki bosqichdayoq bojxona bojlari 65 foizga qisqartirildi, keyingi besh yil davomida esa yana 15 foizga kamaytirildi. Qolgan tarif cheklovlarining aksariyati esa 2005-yilga kelib to‘liq bekor qilindi. Barcha a’zo mamlakatlar ushbu jarayonni oldindan kelishilgan jadval asosida bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar.

Shu bilan birga, kelishuvda iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga oid ayrim tovar guruhlariga nisbatan ehtiyotkor va asta-sekin erkinlashtirish siyosati yuritildi. Bunga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, to‘qimachilik va kiyim-kechak, avtomobillar, hamda energiya resurslari kabi «strategik ahamiyatga ega» bo‘lgan tovarlar kiradi. Ular bo‘yicha savdo cheklovlari darhol emas, balki bosqichma-bosqich va ehtiyot choralarini qo‘llagan holda bekor qilindi.

NAFTA kelishuvida bojxona bojlarini kamaytirish va bekor qilishdan tashqari, **notarif to‘siqlarning** ham bosqichma-bosqich yo‘q qilinishi nazarda tutilgan. Notarif to‘siqlar tushunchasi keng talqin qilinadi: unga nafaqat miqdoriy cheklovlar, balki ish haqini tartibga solish, mehnat xavfsizligi, xodimlarning sog‘lig‘ini himoya qilish choralarini qo‘llash, shuningdek davlat organlari tomonidan ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham kiradi. Shu bois, notarif to‘siqlarni bekor qilish jarayoni nafaqat savdo sohasidagi to‘siqlarni kamaytirish, balki ijtimoiy va mehnat sohalaridagi standartlarni muvofiqlashtirishni ham o‘z ichiga olgan.

Bundan tashqari, kelishuvda tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlashning umumiy qoidalari aniq belgilangan. Shunga ko‘ra, agar tovar ishtirokchi davlatlarning birida ishlab chiqarilgan yoki unda sezilarli darajada qayta ishlangan bo‘lsa, u Shimoliy Amerika erkin savdo zonasida ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

Bu qoidalar savdo maydonidagi mahsulotlarning kelib chiqishini aniq tasniflash va bojxona imtiyozlarini to‘g‘ri taqsimlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tovar qiymatining kamida 50–60 foizini mintaqaviy xarajatlar tashkil etishi lozimligi kelishuvda asosiy talab sifatida belgilangan. Ayrim sanoat tarmoqlari, xususan, kompyuterlar, avtomobillar, to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish sohalari uchun tovar kelib chiqishining maxsus qoidalari joriy etilgan. Misol uchun, avtomobil sanoati bo‘yicha tariflarning kamayishi faqat mintaqaviy va mehnat xarajatlari jami 62,5 foizni tashkil qiladigan avtomobillarga nisbatan tatbiq etiladi.

Uchinchi davlatlar mahsulotlari tomonidan mintaqaviy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan raqobatni zaiflashtirishdan saqlanish va shu orqali ishtirokchi mamlakatlar ichida qayta ishlash jarayonlari orqali qo‘shilgan qiymat ulushini oshirish ushbu qoidalarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu nafaqat iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, balki mintaqaviy integratsiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelishuvning alohida XI-bo‘limi «Investitsiyalar» kapital migratsiyasiga bag‘ishlangan. Ushbu bo‘lim, AQSh va Kanada o‘rtasida kapital harakati nisbatan erkin bo‘lgani sababli, asosan Meksikadagi kompaniyalarda amerikalik va kanadalik investorlarning aksionerlik ulushiga qo‘yilgan cheklovlarni yumshatishga qaratilgan edi.

Umuman olganda, kelishuv doirasida kompaniyalarni tashkil etish, sotib olish, kengaytirish va boshqarishda kamsitish taqiqlanadi. Kapital harakati sohasidagi cheklovlarni bartaraf etish maqsadida NAFTA investorlariga milliy qonunchilikdan ko‘ra birmuncha qulayroq tartib taqdim etiladi. Ishtirokchi davlatlardan hech biri kompaniya mol-mulkining minimal hajmi talablarini yoki direktorlar kengashidagi xorijiy investorlarga ajratilgan kvotalarni kompaniya faoliyati uchun majburiy mezon sifatida belgilay olmaydi.

Bundan tashqari, ushbu tartib kompaniyalarni tashkil etish, sotib olish, kengaytirish, boshqarish va faoliyat yuritishda moliyaviy operatsiyalar hamda savdo sohasidagi cheklovlardan tashqari, kelishuvga qo‘shilmagan boshqa tomon yoki mamlakatlarning investorlariga taqdim etiladigan qulayliklardan ham ko‘proq imtiyozli bo‘lishi lozim. Investor o‘z manfaatiga ko‘ra milliy tartib yoki undan ham qulayroq tartibni tanlash huquqiga ega.

Shuningdek, kelishuv doirasidagi milliy tartib yoki qulayliklar hukumat tomonidan beriladigan qarzlar, kafolatlar, sug‘urta, subsidiyalar yoki grantlarga taalluqli emas.

NAFTA doirasida bojxona tartib-qoidalariga muvofiq faoliyat yuritayotgan maxsus turdagi korxonalar — makiladores — uchun xorijiy investorlarga 100% aksiyaga egalik qilish huquqi berilgan, bu esa ularning investitsiya imtiyozlarini yanada kengaytiradi.

Kelishuvning **xizmatlar savdosiga** bag‘ishlangan bo‘limi katta ahamiyatga ega, chunki ushbu soha ishtirokchi davlatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi muhimdir. Masalan, Meksikada xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi va bandlik darajasi taxminan 60 foizga teng.

NAFTA doirasidagi kelishuv turli xizmat turlarini qamrab oladi, jumladan: *moliyaviy xizmatlar, sug‘urta, qurilish, ko‘chmas mulk savdosi, transportning ayrim*

turlari, kommunikatsiyalar, tijoratni tashkil etish, sog‘liqni saqlash va boshqalar. Ushbu sohalarda ham bosqichma-bosqich erkinlashtirish choralari ko‘zda tutilgan.

Xususan, Meksika xorijiy kompaniyalar uchun **moliyaviy xizmatlar** bozorini ochishga majbur bo‘ldi. NAFTA investorlariga milliy moliya muassasalarining kapitalining 51 foizigacha ulushga ega bo‘lish huquqi berildi. Umuman olganda, 2007-yilga kelib Meksikaning moliya sektori amerikalik va kanadalik investorlar uchun to‘liq ochildi.

Sug‘urta sohasida esa Meksika bozorida amerikalik va kanadalik kompaniyalarga yangi imkoniyatlar yaratildi. Kelishuv imzolanishidan oldin qo‘shma korxonalarga ega bo‘lgan kompaniyalar 1996-yilga kelib

o‘z ixtiyoriga olishdi, yangi bozorga kiruvchi firmalar esa 1998-yilda Meksika kompaniyalari aksiyalarining katta qismini egalladilar. O‘tish davridagi cheklovlar 2000-yilga kelib butunlay bekor qilindi.

Qurilish sohasida Meksika o‘n yil davomida xorijiy mulk ulushiga qo‘yilgan cheklovlarni bosqichma-bosqich olib tashladi. **Yer usti transporti sohasida** — jumladan, yuklarni xalqaro avtomobilda tashish, yo‘lovchilarga avtobusda xizmat ko‘rsatish, yuk terminallari va avtobus stansiyalarini boshqarish — cheklovlarni bosqichma-bosqich bekor qilish tartibi o‘rnatildi. AQSh bilan Meksika o‘rtasidagi savdoning katta qismi aynan yer usti transporti orqali amalga oshiriladi.

Kelishuv imzolanishidan oldin amerikalik yuk tashuvchilarga yuklarni Meksika hududi bo‘ylab tashish yoki u yerda sho‘ba kompaniyalarini tashkil etish taqiqlangan edi, natijada ular treyler-pritseplarni meksikalik haydovchilarga topshirishga majbur bo‘lgan.

Erkin savdo zonasini tashkil etish haqidagi kelishuv 1995-yildan boshlab avtotransport kompaniyalariga xalqaro yuklarni Meksikaning AQSh bilan bevosita chegaradosh hududlarida tashishga, 1998-yildan esa butun Meksika hududi bo‘ylab erkin tashishga ruxsat berdi.

Kelishuv doirasida amal qilishi mumkin bo‘lmagan istisnolar asosan Meksika uchun neft sanoati, Kanada uchun madaniyat sohalariga, AQSh uchun esa transportning ayrim turlariga (xususan, dengiz orqali yuk tashish) taalluqlidir.

Meksika neft sanoati mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, davlat ushbu sohada investitsiyalar kiritish bo‘yicha mutlaq vakolatlarga ega. 1938-yilda Meksika neft sanoati milliylashtirilgach, tashkil etilgan «Petroleos Mexicanos» (Pemex) davlat kompaniyasi

milliy iqtisodiy rivojlanishning ramzi va g‘ururi sifatida qaraladi. Shu sababli, Meksika xorijiy kompaniyalarning neft qazib olish va qayta ishlash sohasiga investitsiya kiritish harakatlariga qat’iy qarshilik bildirdi. Natijada hech bir xorijiy firma neft sanoatiga kapital kiritish huquqiga ega emas.

Kanada tomoni esa milliy madaniyatni saqlash va uning ommaviy hayotga singib ketishining oldini olish maqsadida madaniyat sohasini Kelishuv doirasidan chiqarib tashladi.

Shunday qilib, nashriyot, kino ishlab chiqarish, audio va video yozuvlar, musiqiy asarlar, radio va televidenie, shu jumladan kabel va sun’iy yo‘ldosh aloqasi tarmoqlari Kelishuvga kiritilmadi (2107-modda).

Shuningdek, **intellektual mulk huquqlari** sohasidagi masalalar — patentlar, savdo markalari, ovozli yozuvlar, sanoat dizayni, yarim o‘tkazgichli integratsiyalashgan sxemalar, kopirayt va boshqalar — ham NAFTA kelishuvida alohida tartibga solingan. Kelishuvni amalga oshirish va nizolarni hal etish jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida **NAFTA institutsional tuzilmasi** quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Erkin savdo bo‘yicha Komissiya,
- Komissiya ishiga yordam beruvchi Kotibiyat,
- Turli qo‘mitalar — tovarlar savdosi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi, sanitar va fitosanitar nazorat, standartlar, kichik biznes, moliyaviy xizmatlar, savdo va raqobat bo‘yicha,
- Ishchi guruhlar — masalan, tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlash qoidalari bo‘yicha, qishloq xo‘jaligini subsidiyalash bo‘yicha,

- Shuningdek, ikki tomonlama ishchi guruhlar — Meksika-AQSh, Meksika-Kanada va boshqalar.

Ushbu qo‘mitalar va ishchi guruhlarning faoliyatini nazorat qiluvchi eng yuqori organ sifatida savdo vazirlari darajasidagi Erkin savdo bo‘yicha Komissiya xizmat qiladi, u yiliga bir marotaba yig‘iladi.

Shimoliy Amerika integratsiyasini tartibga soluvchi asosiy mexanizm — davlatlararo nizolarni hal etish tizimidir. Ushbu tizim doirasida har qanday muammo ko‘p tomonlama muhokama qilinib, tomonlar kelishilgan yakuniy qarorga keladi. Agar kelishuv qoidalari buzilgan taqdirda, nizolarni hal etish uchun xalqaro savdo va moliya sohasida arbitraj mexanizmi qo‘llaniladi.

Har bir mamlakat boshqa mamlakatning qonun va amaliyotlariga qarshi bahs yuritish imkoniga ega bo‘ladi. Munozaralar muvaffaqiyatli yakunlangan taqdirda, tegishli qonunlar almashinuvi amalga oshiriladi, aks holda savdo va boshqa turdagi sanksiyalar qo‘llaniladi.

NAFTA asosiy Kelishuvidan tashqari, 1993-yil sentyabr oyida ikki qo‘shimcha kelishuv imzolangan. Ulardan biri — **Atrof-muhit sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risidagi Shimoliy Amerika Kelishuvi (North American Agreement on Ecological Cooperation — NAAEC)** bo‘lib, unda ekologik standartlar, ularning bajarilishini nazorat qilish tartibi va nizolarni hal etish mexanizmi belgilangan.

AQSh va Meksikadagi tadbirkorlar uchun ekologik talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon beruvchi «maquiladoras» korxonalari faoliyati ushbu kelishuvning qabul qilinishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Shu sababli, kelishuv ekologik standartlarning yanada kuchaytirilishiga qaratilgan.

Tomonlar, ekologik nizolar yuzaga kelganda, ularni hal etish uchun zarur bo‘lsa, ikki yoki uch tomonlama arbitraj komissiyalarini tashkil etishga kelishib olishgan.

1993-yilda NAFTA doirasida Atrof-muhit hamkorligi bo‘yicha Komissiya tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibida xavfli mahsulotlarni yuklash kabi muhim tarmoqlar bo‘yicha ishchi guruhlar va nizolarni hal qilish uchun arbitraj guruhlari faoliyat yuritadi. Qonunbuzarlik aniqlanganda, aybdor tomonga qarshi, ikki tomonlama savdoning 0,07% gacha jarima va sanksiyalar qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Bunda Kanada uch tomonlama komissiya va arbitraj guruhining qarorlariga bo‘ysunishni rad etgan, shuning uchun Kanada kompaniyalariga nisbatan sanksiyalar faqat Kanada sudining qarori asosida qo‘llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, chegaradosh ekologik hamkorlik doirasida Amerika va Meksika o‘rtasida ikki tomonlama komissiya faoliyat yuritmoqda. U Shimoliy Amerika taraqqiyot bankining kreditlari va grantlari bilan moliyalashtiriladigan infratuzilmaviy loyihalarni tasdiqlaydi.

Ikkinchi muhim kelishuv — 1994-yilda **imzolangan Shimoliy Amerika mehnat hamkorligi kelishuvi (North American Agreement on Labour Cooperation — AALC)** bo‘lib, u *“bandlik va mehnat sharoitlari hamda hayotiy standartlarni yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar yaratish”,* shuningdek, “NAFTA mintaqasi doirasida mehnat qiluvchilarning huquqlarini himoya qilish, kuchaytirish va rivojlantirish”ga qaratilgan.

Mehnat munosabatlari sohasidagi nizolarni hal etish uchun AQSh va Meksika o‘rtasida uch tomonlama komissiya tashkil etilgan. Biroq, Kanada bilan bog‘liq nizolar Kanada qonunchiligi asosida hal etiladi.

Shuningdek, Komissiya amerikalik yoki kanadalik ishchi oladigan ish haqining 1/8 qismini oladigan Meksikadan keladigan arzon ishchi kuchi oqimini cheklash maqsadida mehnatga haq to‘lash standartlarini belgilaydi.

Kelishuv standartlariga javob bermaydigan tomon o‘z milliy standartlari yoki mehnat qonunchiligini o‘zgartirishga majbur emas, ammo NAFTAning boshqa ishtirokchilari 20 million dollargacha bo‘lgan jarimalarni hisobga olgan holda sanksiyalarni qo‘llash huquqiga ega.

NAFTA ushbu qo‘shimcha kelishuvlar bilan birga o‘ziga xos yangilik hisoblanadi: ilk bor erkin savdo to‘g‘risidagi kelishuv atrof-muhitni va ishchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini ham o‘z ichiga olgan. Umuman olganda, NAFTA ishtirokchi mamlakatlar uchun ham ijobiy, ham salbiy ta’sirlarga ega bo‘lgan o‘ziga xos integratsion birlashma hisoblanadi.

7.3. NAFTAning ijobiy va salbiy ta’sirlari

Shimoliy Amerika erkin iqtisodiy zonasi ham ijobiy va ham salbiy samaraga ega iqtisodiy intefratsiya hisoblanadi.

NAFTAning ijobiy ta’sirlari.

Savdoni erkinlashtirish natijasida milliy iqtisodiyotda resurslarni samarali joylashtirish, narxlarni pasaytirish, bitimlar bo‘yicha xarajatlarni qisqartirish, atrof-muhit sharoitlarini yaxshilash

imkoniyatlari yuzaga keladi. Statik samaralar ta’sirida kapital qo‘yilmalar va texnik taraqqiyot faolligi oshib, natijada farovonlik darajasi ham yaxshilanadi.

NAFTA ishtirokchilari uchun eng muhim jihatlardan biri tashqi savdoning intensivlashishiga xizmat qilgan bojxona to‘siqlarining bekor qilinishidir. Xususan, AQSh va Kanada o‘rtasidagi bojxona to‘siqlari deyarli to‘liq, Meksika va uning shimoliy qo‘shnilari o‘rtasida esa qisman bekor qilindi.

Kelishuv faoliyatining dastlabki besh yili davomida Amerikaning Kanadaga bo‘lgan eksporti joriy narxlarda 56% ga, Meksikaga eksporti esa 92% ga oshdi. Shu bilan birga, Kanadaning AQShga eksporti 35%, Meksikaning esa 91% ga o‘sdi.

Kanada va Meksika o‘rtasidagi savdoda sezilarli o‘sish yuz berdi. Kanada statistik ma’lumotlariga ko‘ra, Kanadaning Meksikaga eksporti 76% ga oshgan bo‘lsa, Meksika statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich 127% ga yetdi. Meksikaning Kanadaga eksporti esa 106% ga oshib, deyarli ikki baravardan ko‘pga yetdi.

Kapital harakatining erkinlashtirilishi investitsiyalar hajmining oshishiga olib keldi, bu esa NAFTA kelishuvining yana bir muhim ijobiy natijasidir. AQShning Kanadadagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari (joriy narxlarda) dastlabki besh yil ichida taxminan 1,5 barobar, Meksikadagi investitsiyalari esa 1,8 barobar ko‘paydi. Shu davrda Kanadaning AQSh iqtisodiyotiga investitsiyalari hajmi 1,9 barobarga, Meksikaniki esa 3,2 barobarga oshdi.

Shimoliy Amerika erkin iqtisodiy zonasi Kanada va Meksika davlatlarida eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini

yaratishga yordam berdi. Masalan, Kanada Alberta g'arbiy provinsiyasida AQSh eksportiga yo‘naltirilgan korxonalarda ko‘plab ish o‘rinlari yaratildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2013 yilda Albertadagi barcha ish o‘rinlarining taxminan 13 foizi Amerika Qo‘shma Shtatlarga eksport bilan bog‘liq bo‘lib, bu mintaqaviy bandlik bo‘yicha kelishuv mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhimligini ko‘rsatdi.

NAFTAning salbiy ta’sirlari.

NAFTA doirasida Meksika tashqi savdosining dinamik rivojlanishi ushbu mamlakat iqtisodiyotini AQSh iqtisodiy kon’yunkturasiga qattiq bog‘lab qo‘ydi. AQSh iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar Meksika uchun sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keldi. Kanadada ham shunga o‘xshash holatlar kuzatildi.

Bundan tashqari, NAFTA bandlik sohasida kutilgan natijalarni bermadi. AQSh va Kanadada sanoati nisbatan kam rivojlangan Meksikadan import hajmi ortishi sababli yangi ish o‘rinlari kamayib bordi.

7.1-jadval

2001- 2023-yiIlarda NAFTAga a’zo mamlakatlar eksporti va importi dinamikasi[9]

	mlrd. AQSh dollari				Ulushi, % hisobda			
	2001	**2013**	**2020**	**2023**	**2001**	**2013**	**2020**	**2023**
Eksport								
AQSH	751	1 470	1 350	1 860	64.8	63.3	62.2	61.2
Kanada	251	456	368	574	21.6	19.7	17.0	19.0
Meksika	158	396	450	591	13.6	17	20.8	19.6
NAFTA, jami	1160	2322	2168	3025	100	100	100	100
Import								
AQSH	1 110	2 250	2 290	3 000	73,3	73,4	75,1	73,9

[9] oec.world.com Iqtisodiy murakkablik observatoriyasi (OEC) ma’lumotlari

Kanada	235	449	391	533	15,5	14,6	12,8	13,1
Meksika	169	368	368	528	11,2	12,0	12,1	13,0
NAFTA, jami	1514	3067	3049	4061	100	100	100	100

2001–2023 yillar oralig‘ida NAFTA (hozirda USMCA) mamlakatlari – AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasidagi savdo hajmlari barqaror ravishda oshdi. 2001 yilda umumiy eksport hajmi 1 160 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 3 025 mlrd dollarga yetdi. Shu davrda AQShning eksportdagi ulushi 64,8% dan 61,2% ga tushgan bo‘lsa-da, u yetakchilikni saqlab qoldi. Kanadaning ulushi 21,6% dan 19,0% gacha kamaygan. Meksika esa eksportda eng sezilarli o‘sishni qayd etib, 2001 yildagi 13,6% ulushdan 2023 yilda 19,6% ga yetgan – bu uning mintaqaviy savdodagi rolini kuchayganini ko‘rsatadi.

Import hajmi ham sezilarli oshib, 2001 yildagi 1 514 mlrd dollardan 2023 yilda 4 061 mlrd dollarga yetdi. AQSh 2023 yilda 3 000 mlrd dollarlik import bilan NAFTA bozorining 73,9% qismini egallab, eng yirik importchi sifatida qolmoqda. Kanadaning importdagi ulushi 15,5% dan 13,1% ga tushgan bo‘lsa, Meksikaning ulushi 11,2% dan 13,0% gacha ko‘tarilgan.

Ushbu davrda NAFTA mamlakatlari o‘rtasidagi savdo ko‘rsatkichlarining izchil o‘sishi ichki integratsiyaning kuchayganini va ayniqsa Meksikaning iqtisodiy faolligi oshganini ko‘rsatadi. AQShning nisbiy ulushi pasayib borayotgan bo‘lsa-da, u hamon asosiy iqtisodiy quvvat bo‘lib qolmoqda. Meksika esa sanoat salohiyatining ortishi va eksportbop mahsulotlar ulushining kengayishi hisobiga mintaqadagi savdo muvozanatida tobora muhim rol o‘ynayapti.

Eksport. 2023 yilda NAFTAga a'zo mamlakatlar jami 3,03 million dollarlik eksport qildi, bu global eksportning 13,4 foizini va o‘tgan yilga nisbatan 3,3 foizga kamaygan. So‘nggi besh yil ichida NAFTA eksporti yillik o‘sish sur'ati (CAGR) 2% ni tashkil etdi.

Qo‘shma Shtatlar eng yirik eksportchi bo‘lib, 1,86 million dollar hissa qo‘shgan, bu tashkilotning umumiy eksportining 61,2 foizini tashkil qiladi. Eksport bo‘yicha asosiy savdo hamkorlari Xitoy , Germaniya va Buyuk Britaniya (tashkilotdan tashqari davlatlar) edi.

Eng ko‘p eksport qilinadigan mahsulotlar xom neft (264 milliard dollar), avtomobillar (167 milliard dollar) va qayta ishlangan neft (127 milliard dollar) edi.

Import. Boshqa tomondan, NAFTA ning umumiy importi 2023 yilda 4,06 million dollarni tashkil etdi, bu global importning 18 foizini va o‘tgan yilga nisbatan 4,98 foizga kamaygan. Oxirgi besh yil ichida import yillik o‘sish sur'ati (CAGR) 1,79% ga o‘sdi. Tashkilot importi bo‘yicha

AQSh 3 million dollar bilan yetakchilik qildi, bu umumiy importning 73,9 foizini tashkil qiladi. Xitoy , Germaniya va Yaponiya asosiy yetkazib beruvchilar bo‘lib, mintaqaga importning katta qismini qo‘shgan.

Eng yaxshi import qilinadigan mahsulotlar avtomobillar (264 milliard dollar), xom neft (186 milliard dollar) va radioeshittirish uskunalari (144 milliard dollar) edi.

Bundan tashqari, Meksika mehnat bozoridagi vaziyat ham yomonlashdi. Meksika va uning raqobatbardosh shimoliy qo‘shnilari o‘rtasidagi savdo tartibining erkinlashtirilishi natijasida mahalliy kichik

korxonalar qiyinchiliklarga uchradi, o‘rta biznes uchun sharoitlar esa yomonlashdi.

Meksika qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorining ochilishi va tarmoqdagi yuqori xarajatlar sababli qishloq xo‘jaligi sohasi AQSh va Kanadadan kelayotgan arzon mahsulotlar bilan, xususan, AQShda Meksikaga nisbatan 3-7 marta arzon bo‘lgan bug‘doy, loviya, sorgo, soya va makkajo‘xoriga qarshi raqobatda zaiflashdi.

Ekologiya sohasidagi holat ham yaxshilanmadi, ayniqsa Meksika ko‘proq zarar ko‘rdi. Meksikada “makiladores” korxonalari va Amerika—Meksika chegarasi hududida avtomobil tashishlari sonining ortishi natijasida zararli moddalar chiqindilari miqdori oshdi.

Meksikada ekologiya vazirligining tashkil etilishi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli qonunlarning qabul qilinishi hamda NAFTA Kelishuvi amalga oshirilishiga qaramay, atrof-muhit sohasidagi tangliklar davom etdi. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarning yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi qanchalik murakkab ekanligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Ekologik muammolar AQShni ham chetlab o‘tmadi.

Xususan, AQSh tadbirkorlari Meksikada ekologik jihatdan iflos ishlab chiqarishlarni joylashtirish bilan mamlakatdagi ekologik holatning sezilarli darajada yomonlashishiga sabab bo‘ldilar. Masalan, Meksika qonunlariga ko‘ra, “makiladores” korxonalari zaharli chiqindilarni xomashyo olingan mamlakatga, ya’ni AQShga qaytarishlari mumkin. Natijada, Meksikadagi zaharli chiqindilarni AQShga eksport qilish yildan-yilga ortib bordi.

Umuman olganda, NAFTA ishtirokchi mamlakatlari uchun bir qator salbiy oqibatlarga ega bo‘lsa-da, Shimoliy Amerikadagi integratsiya jarayonining ijobiy ahamiyatini to‘g‘ri baholash qiyin.

Shunday bo‘lsa-da, NAFTA AQSh va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun G‘arbiy yarimshar mamlakatlarining yanada keng integratsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, 2005-yilda **Butun Amerika erkin savdo zonasi (Free Trade Area of Americas — FTAA)** tashkil etilishi e’lon qilindi va “Hatti-harakatlar rejasi” imzolanishiga erishildi. Hozirgi vaqtda loyiha davlatlar o‘rtasida kelishuv bosqichida turibdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Shimoliy Amerika Erkin Savdo Bitimini (NAFTA) tashkil etishning asosiy maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?
2. NAFTA Shimoliy Amerikadagi integratsion jarayonni boshqa mintaqalardagi integratsiya modellari bilan qanday farqlanadi?
3. NAFTAning ijobiy natijalari qanday? Bu borada qanday misollar keltirish mumkin?
4. NAFTA doirasidagi asosiy muammolar va salbiy tomonlar nimalardan iborat? Misollar bilan tushuntiring
5. Kanada NAFTAdagi o‘ziga xos roli va ahamiyati qanday?
6. Meksikaning NAFTA tizimidagi o‘rni va roli qanday?
7. Shimoliy Amerika atrof-muhit sohasidagi hamkorlik kelishuvi (NAAEC) ning asosiy maqsadlari va vazifalari nimadan iborat?

VIII- BOB. OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASIDA IQTISODIY INTEGRATSION JARAYONLAR

8.1. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (OTOIH): faoliyat maqsadlari va yo‘nalishlari. Uning tashkiliy tuzilmasi.

8.2. OTOIH Forumi sammitlarida qabul qilingan muhim qarorlar.

8.3. OTOIHda savdo va investitsion erkinlashtirish.

8.4. Osiyo-Tinch okean mintaqasida integratsion jarayonlar

Tayanch iboralar: norasmiy sammit, ish yuzasidan maslahat kengashi, bojxona tartibotlari, qashshoqlikni kamaytirish, mikrobiznes, tadbirkorlar migratsiyasi, identifikatsiya, hukumat xaridlari, madaniy aloqalar.

8.1. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (OTOIH): faoliyat maqsadlari va yo‘nalishlari. Uning tashkiliy tuzilmasi.

1989-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida (OTOM) birinchi mintaqaviy hukumatlararo iqtisodiy tashkilot — «Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi forumi» (Asia Pacific Economic Cooperation, APEC) tashkil etildi. Bu tashkilotning paydo bo‘lishiga mintaqaning keng hududida savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solish zaruriyati asos bo‘lgan. APECning asosiy maqsadi – mintaqaviy savdo va investitsiyalar uchun yagona qoidalar va tamoyillarni ishlab chiqishdan iborat edi.

Tashkil etilgan ilk davrda unga *AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Koreya Respublikas*i hamda ASEANga a’zo

davlatlar — *Singapur, Malayziya, Tailand, Filippin, Indoneziya va Bruney* kirgan.

1991-yilda Xitoy Xalq Respublikasi, Gonkong (Xitoy tarkibida) va Tayvan APECga qo‘shildi. Keyinchalik, 1993-yilda Meksika hamda Papua – Yangi Gvineya, 1994-yilda esa Chili a’zo bo‘ldi. 1998-yilda Rossiya Federatsiyasi, Peru va Vetnam ham ushbu forum tarkibiga qabul qilindi. Bugungi kunda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi forumi **21 davlatni hamda Tinch okeani mintaqasidagi** hududlarni o‘z ichiga oladi. Ularga Avstraliya, Bruney, Kanada, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Filippin, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, AQSh, Xitoy, Gonkong, Tayvan, Meksika, Chili, Papua – Yangi Gvineya, Vetnam, Peru va Rossiya kiradi.

1998-yildan boshlab APEC (OTOIH) yangi a’zolarni qabul qilishni vaqtincha to‘xtatish to‘g‘risida o‘n yillik moratoriy joriy etdi. Biroq, shunga qaramay, Hindiston, Kambodja, Makao, Mo‘g‘uliston, Pokiston va Shrilanka kabi bir qator davlatlar ushbu tashkilotga a’zo bo‘lish istagini bildirgan va rasmiy arizalar bilan murojaat qilishgan.

APECning asosiy vazifasi – mintaqadagi savdo va investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi yagona qoidalarni ishlab chiqishdan iborat. Tashkilotga a’zo davlatlar katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘zaro hamkorligi asosida mintaqada erkin savdo hududining shakllanishi natijasida jahon miqyosida eng yirik iqtisodiy integratsion guruh vujudga keldi. Ushbu guruh jahon yalpi ichki mahsulotining 60 foizi, umumiy savdoning deyarli yarmi, global aholi sonining 40 foizi va yer yuzasining qariyb 41,6 foizini o‘z ichiga oladi.

1991-yilgi **Seul deklaratsiyasi** APEC faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan muhim hujjat hisoblanadi. Unda shuningdek, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi forumi (APEC)ning **asosiy maqsadlari** ham aniq belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra:

- mintaqaga a’zo davlatlar iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash;
- ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayib borayotganini e’tiborga olgan holda, ko‘p tomonlama savdo tizimini yanada mustahkamlash;
- GATT hamda Butunjahon savdo tashkiloti (WTO) tamoyillari asosida tovarlar, xizmatlar va kapital harakatiga to‘sqinlik qiluvchi cheklovlarni bartaraf etish kabilar asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Seul deklaratsiyasida ishtirokchi davlatlarning erkin savdo va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka intilishi ochiq mintaqaviylashuv tamoyili asosida ifodalangan. APEC faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayoni konsensus asosida, kamsitmaslik, o‘zaro hurmat va tenglik, shuningdek, Butunjahon savdo tashkiloti (WTO) me’yorlariga hamda tarmoqlar bo‘yicha hamkorlik prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda har bir ishtirokchi mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari inobatga olinadi.

8.1-jadval

Osiyo-Tinch okeani forumi ishtirokchi mamlakatlarining iqtisodiy salohiyati, 2021-yil

Mamlakat	Maydoni, kv.km.	Aholisi, mln. kishi	YaIM, trln. doll	Aholi jon boshiga YaIM, doll	Eksport, mlrd. doll	Import, mlrd. doll
Avstraliya (1969)	7,692,024	25,8	1,557	60,348	389,8	298,7
Bruney (1989)	5770	0,451	0,014	31,042	6,247	9.38
Kanada (1989)	9 984 670	38,24	2,007	52,484	766	764
Chili (1994)	756 950	19,46	0,315	16,187	94,677	92,191
XXR (1991)	9 598 962	1 412,36	17,82	12,617	3360	2690
Gonkong (1991)	1106,4	7,413	0,369	49,777	752,72	732,17
Indoneziya (1989)	1 904 556	276,8	1,187	4,288	232	237
Yaponiya (1989)	377 835	125,7	5,035	40,055	664	633
Janubiy Koreya (1989)	98 480	51,77	1,818	35,116	644	615
Malayziya (1989)	330 803	34,28	0,373	10,881	185	153
Meksika (1993)	1 972 550	127,6	1,317	10,321	494	506
Yangi Zelandiya (1989)	268 680	5,111	0,253	49,501	54,78	62,86
Papua-Yangi Gvineya (1993)	463 840	10,01	0,03	2,997	6,2	1,44
Peru (1998)	1 285 220	33,16	0,226	6,821	22.69	49,3
Filippin (1989)	300 000	113,1	0,394	3,483	84,99	124
Rossiya (1998)	17 125 191	144,7	1,843	12,736	493	296
Singapur (1989)	778	5,454	0,434	79,574	457	406
Tayvan (1991)	35 980	23,579	0,79	33,504	446	278
Tailand (1989)	514 000	71,73	0,506	7,054	296	264
AQSh (1989)	9 833 517	331,9	23,68	71,346	2 528	3 387
Vetnam (1998)	331 210	98,94	0,366	3,699	335	330

APEC tuzilmasi markazlashmagan bo‘lib, har bir a’zo davlat navbatma-navbat bir yil davomida forumga raislik qiladi. Raislik qilayotgan davlat yetakchisi Forum rahbari hisoblanadi va hukumat vakillari, vazirlar, yuqori martabali amaldorlar ishtirokidagi

yig‘ilishlarni boshqaradi. Bu yig‘ilishlar turizm, kichik va o‘rta biznes, bojxona, standartlar va muvofiqlik masalalariga oid ishchi guruhlarni o‘z ichiga oladi. Boshqa ishchi guruhlarda esa rahbar konsensus asosida tanlanadi.

1993-yildan boshlab APEC doirasida ijro va muvofiqlashtirish vazifalarini bajaruvchi asosiy tuzilma — Kotibiyat faoliyat ko‘rsata boshladi. Ushbu organ tarkibiga ma’lum muddatga ishtirokchi davlatlar tomonidan yuborilgan vakillar kiradi. Ijrochi direktor lavozimini esa APECga raislik qilayotgan davlatning vakili egallaydi.

Dastlab Kotibiyatning yillik byudjeti 2 million AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu miqdor 5 million dollardan oshgan. Ajratilayotgan mablag‘lar asosan kadrlar malakasini oshirish, turli ishchi loyihalarni amalga oshirish, axborot xizmatlarini ko‘rsatish va muvofiqlashtirish hamda boshqa axborot-kommunikatsiya ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, Kotibiyat forum doirasida faoliyat yuritayotgan ko‘plab qo‘mita va ishchi guruhlarga tashkiliy-texnik xizmat ko‘rsatadi.

APECning bosh qarorgohi Singapur shahrida joylashgan. Tashkilot doirasidagi eng yuqori darajadagi muhokama shakli — a’zo mamlakatlar rahbarlari va hukumat boshliqlari ishtirokida norasmiy sammitlar hisoblanadi. Ushbu sammitlar 1993-yildan boshlab har yili muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Mazkur amaliyot joriy etilguniga qadar APECning eng oliy organi sifatida tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari e’tirof etilgan edi.

2014-yil boshiga kelib, APEC doirasida 20 dan ortiq sammit o‘tkazilgan bo‘lib, ular davomida Forum faoliyatining strategik yo‘nalishlariga oid muhim qarorlar qabul qilingan.

Tashkilot boshqaruv tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bu — *tashqi ishlar va tashqi savdo vazirlarining* yig‘ilishlaridir. Ushbu yig‘inlar APECning umumiy faoliyati, xususan uning ishchi organlari oldida turgan dolzarb masalalarni hal etish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, 1993-yildan boshlab ushbu vazirlik darajasidagi uchrashuvlar sammitlar uchun diplomatik tayyorgarlik va ko‘makni ham ta’minlab kelmoqda.

Boshqa muhim muvofiqlashtiruvchi organlardan biri bu — hamkorlikning turli sohalariga ixtisoslashgan tarmoq vazirlarining uchrashuvlaridir. Bunday uchrashuvlar quyidagi yo‘nalishlarda o‘tkazilib kelinadi:

- Ta’lim (1992-yildan boshlab)
- Energetika (1996-yildan boshlab)
- Barqaror taraqqiyot va ekologiya (1994-yildan boshlab)
- Moliya (1994-yildan boshlab)
- Telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari (1995-yildan boshlab)
- Savdo (1990-yildan boshlab)
- Transport (1995-yildan boshlab)
- Xotin-qizlar masalalari (1998-yildan boshlab)
- Sog‘liqni saqlash (bu soha ko‘plab hujjatlarda alohida tilga olinadi, ayniqsa pandemiyadan keyin)
- Kichik va o‘rta biznes (1993-yildan boshlab faoliyat yuritadi)

- Turizm (1991-yildan boshlab)

Ushbu tarmoq uchrashuvlari doirasida sektorlar bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari suriladi.

Yuqori darajadagi rasmiy uchrashuvlar yil davomida taxminan to‘rt marta vazir o‘rinbosarlari yoki yordamchi darajasida o‘tkaziladi. Ushbu yig‘ilishlarda ma’muriy masalalar ko‘rib chiqilib, yillik vazirlik uchrashuvlari hamda sammitlar uchun kun tartibi tayyorlanadi, shuningdek, ishchi guruhlarning qarorlari tasdiqlanadi.

1995-yildan boshlab, har bir a’zo mamlakatdan uch nafardan iborat vakillardan tashkil topgan Ish yuzasidan maslahat kengashi (IMK) faoliyat olib bormoqda. *IMKning asosiy vazifasi* — Osaka harakat dasturini amalga oshirish, shuningdek, forum doirasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Ish yuzasidan maslahat kengashining (IMK) asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: OTOIH doirasida qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish, davlat va hukumat rahbarlariga yakka hamda jamoaviy harakat rejalari ijrosida ko‘maklashish, shuningdek, savdo va investitsiya sohalarini erkinlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlash. IMK deyarli eng muhim masalalar bo‘yicha davlat va hukumat rahbarlariga tavsiyalar beradigan, xususiy tadbirkorlik sektorini vakillik qiluvchi doimiy organ hisoblanadi.

Bundan tashqari, IMK OTOIH faoliyati natijalari haqida davlat va hukumat boshliqlarini muntazam xabardor qiladi hamda 2010–2020-yillar davomida erkin savdo va investitsiya zonasining shakllanishi

hamda Bogor maqsadiga erishish holatini monitoring qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Ish yuzasidan maslahat kengashi (IMK) tarkibiga uchta asosiy ishchi guruh kiradi:

1. Moliya me’morchiligi bo‘yicha ishchi guruh
2. Texnologiyalar bo‘yicha ishchi guruh
3. Biznesga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh.

Tarmoq qo‘mitalari va ishchi guruhlar ma’lum sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish va tartibga solish bilan shug‘ullanadi. Ularning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Savdo va investitsiyaiar qo‘mitasi,
- Iqtisodiy qo‘mita,
- Ma’muriy byudjet qo‘mitasi.

Savdo va investitsiyaiar qo‘mitasi Savdo va investitsiyalar qo‘mitasi 1993-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda va uning vazifalari iqtisodiy faollik hamda forumga a’zo davlatlar o‘rtasidagi savdo va xizmatlar almashinuvini rivojlantirishga qaratilgan. Qo‘mita savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash borasidagi tashabbuslarni ilgari surishda Forumning istiqbolli yo‘nalishlarini shakllantirishga yordam beradi.

Qo‘mita turli sohalardagi murakkab masalalarni hal qilish bilan shug‘ullanadi, jumladan:

- Osaka harakatlar dasturini amalga oshirish,
- Tarif va notarif to‘siqlarni kamaytirish,
- Xizmatlar savdosi,
- Iqtisodiy ma’muriy tartibga solish,

- Nizoli masalalarni hal qilish,
- Investitsiyalarni rag‘batlantirish,
- Bojxona protseduralari,
- Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish,
- Raqobat siyosati,
- Tadbirkorlarning migratsiyasi,
- Hukumat xaridlari,
- Tovarlarning kelib chiqish qoidalari,
- Standartlar va muvofiqlik qoidalari.

Qo‘mitaning **asosiy vazifasi** — OTOIH doirasida savdo va investitsiyalarga qo‘yilgan cheklovlarni bartaraf etish hamda ularning alohida harakat rejalarini monitoring qilishdir.

Iqtisodiy qo‘mita Iqtisodiy qo‘mita 1994-yil noyabr oyida iqtisodiy masalalar bo‘yicha maxsus ekspertlar guruhining tashkil etilishi asosida norasmiy tarzda ish boshlagan. Ushbu qo‘mita OTOIHga a’zo davlatlar iqtisodiyotlarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish va tahlil qilishga yordam beradi.

Qo‘mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: iqtisodiy va texnik hamkorlik bo‘yicha hisobotlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, odamlar migratsiyasi hamda axborot jamiyatini shakllantirish sohasida tadqiqotlar olib borish.

Shuningdek, OTOIHga a’zo davlatlarning iqtisodiyotiga va mehnat bozorlariga erkinlashtirishning ta’siri, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, raqobat va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish qoidalari hamda ichki mintaqaviy integratsiya guruhlarining faoliyati

tahlil qilinadi. Bularning barchasi savdo va investitsiyalarning erkinlashtirilishini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan.

Ma’muriy-byudjet qo‘mitasi Ma’muriy-byudjet qo‘mitasi Forum byudjetini tahlil qiladi va unga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi, shuningdek byudjet mablag‘larining moliyalashtirilishi va sarflanishini nazorat qiladi. Bu qo‘mita yuqori martabali shaxslar guruhlari uchun maslahat beruvchi organ sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, ishchi guruhlarning faoliyatini baholab, OTOIH ishining samaradorligini oshirish bo‘yicha yuqori martabali guruhlarga takliflar beradi.

Qo‘mitaning asosiy vazifalaridan biri – OTOIH Markaziy fondining operativ hisobvarag‘idagi mablag‘larni boshqarishni nazorat qilish hamda a’zo davlatlarning badallar miqdorini aniqlashdir.

Qo‘mitalar o‘z ichki tarkibidagi kichik qo‘mitalarga ham ega bo‘lib, ular faoliyatni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Masalan, savdo va investitsiyalar qo‘mitasi tarkibida quyidagi ishchi guruhlar faoliyat yuritadi: bozorlarga kirish imkoniyatlarini o‘rganish, xizmatlar sohasida — telekommunikatsiyalar, turizm, transport va energetika, shuningdek investitsiyalar, standartlar va muvofiqlik, bojxona tartibotlari, intellektual mulk huquqlari, hukumat xaridlari hamda nizolarni hal etish bo‘yicha guruhlar mavjud.

Iqtisodiy qo‘mitaga uchta ichki qo‘mita bo‘ysunadi: infratuzilma, oziq-ovqat sohalari va tahliliy sharhlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi qo‘mitalar.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida texnik yordam ko‘rsatish hamda kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi

ekspertlardan tashkil topgan maxsus (adhoc) guruhlar ham faoliyat yuritadi.

Forum tuzilmasiga 11 ta asosiy ishchi guruh kiritilgan bo‘lib, ular quyidagi muhim yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi: energetika (1990 yilda tashkil etilgan), baliqchilik (1991 y.), inson resurslarini rivojlantirish (1990 y.), sanoat, ilm-fan va texnologiyalar (1990 y.), dengiz resurslarini muhofaza qilish (1990 y.), savdo va investitsiya statistikasi (1990 y.), savdoni qo‘llab-quvvatlash (1990 y.), transport (1991 y.), turizm (1991 y.), qishloq xo‘jaligidagi texnik hamkorlik hamda kichik va o‘rta biznes sohalarida.

8.2. OTOIH Forumi sammitlarida qabul qilingan muhim qarorlar

1993-yilda AQShning Sietl shahrida bo‘lib o‘tgan ilk sammitda Tinch okeani mintaqaviy hamjamiyatini tashkil etish g‘oyasi birinchi bor ilgari surildi. Bir yil o‘tib, 1994-yilda Indoneziyaning Bogor shahrida o‘tkazilgan sammitda esa 2010-2020-yillar oralig‘ida OTOIH mamlakatlari o‘rtasida tovarlar savdosi va kapital harakati bo‘yicha erkin zona yaratishga tayyorlik haqida muhim prinsipial qaror qabul qilindi.

1995-yilda Yaponiya, Osakada bo‘lib o‘tgan sammitda esa mintaqada erkinlashtirish jarayonini chuqurlashtirishga qaratilgan batafsil harakatlar dasturi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, bojxona tariflarini kamaytirish, xizmatlar sohasidagi savdoni erkinlashtirish, milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish kabi masalalar

belgilandi. Bundan tashqari, erkin savdo zonasini shakllantirish boshlangan sana sifatida 1997-yil 1-yanvar belgilandi.

Dastur doirasida jami 15 ta asosiy yo‘nalish belgilangan bo‘lib, ulardan to‘rt nafari Bogor deklaratsiyasining maqsadlari bilan bevosita bog‘liq va hamkorlikda qayishqoqlik (flexibility) tamoyilini ilgari suradi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, mamlakatlar kesimida bojlar bosqichma-bosqich kamaytiriladi va bojxona tartiblari erkinlashtiriladi, bunda erkin va ochiq savdo asoslari yaratiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bojlarning butunlay bekor qilinishi emas, balki ularning pasaytirilishi nazarda tutilgan.

Osaka sammitining yana bir muhim natijasi shundaki, OTOIH (Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi) faoliyatini yo‘naltiruvchi asosiy prinsiplar — ya’ni *kamsitmaslik, shaffoflik, hamkorlik, moslashuvchanlik, Butunjahon savdo tashkiloti (BST) me’yorlariga muvofiqlik, solishtirish imkoniyati, keng qamrov, uyg‘unlik, uzluksizlik hamda erkinlashtirish* choralarini bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun farqlangan muddatlar — rasman qabul qilindi.

1996-yilda Filippinda bo‘lib o‘tgan sammit OTOIH integratsion jarayonlarining keyingi bosqichi sifatida e’tirof etildi. Unda uch asosiy yo‘nalish – kollektiv harakatlar rejasi, har bir davlatning alohida harakatlar dasturi va texnik-iqtisodiy hamkorlikni o‘z ichiga olgan Manila harakatlar dasturi (MAPA) tasdiqlandi. Ushbu dastur OTOIHning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishni ta’minlashga qaratilgan edi.

1997-yilda Kanadaning Vankuver shahrida o‘tkazilgan sammitda, 15 ta sektor bo‘yicha ixtiyoriy asosda tezlashtirilgan erkinlashtirish tashabbuslarini ilgari surish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

1998-yilda Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida o‘tkazilgan sammitda esa asosiy e’tibor Osiyo moliyaviy inqirozi oqibatlarini yumshatish, mintaqa iqtisodiyotlarining barqarorligini ta’minlash va inqirozdan chiqish strategiyalariga qaratildi.

2000-yilda Bruneyda bo‘lib o‘tgan sakkizinchi OTOIH sammitida savdo va investitsiyalarni liberallashtirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali “yangi iqtisodiyot”ni shakllantirish kabi muhim masalalar muhokama qilindi.

Sammit davomida ikki tomonlama erkin savdo zonalarini yaratishga qaratilgan yangi integratsion tashabbuslar ilgari surildi hamda quyidagi muhim qarorlar qabul qilindi:

- 2001-yildan kechiktirmay JST doirasida yangi muzokaralar bosqichini boshlashga tayyorgarlik ko‘rish;
- Ichki mintaqaviy savdo bitimlarini ularning cheklovlarni kamaytirishdagi ahamiyatini inobatga olgan holda tahlil qilish va baholash.

2001-yilda XXRning Shanxay shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda Forumga a’zo davlatlar yetakchilari Osiyo-Tinch okeani hamjamiyatini barpo etish yo‘lida navbatdagi muhim qadamlardan biri sifatida OTOIH faoliyatining strategik yo‘nalishini belgilovchi **«Shanxay roziligi»** hujjatini tasdiqladilar.

Mazkur sammit doirasida uch asosiy vazifa belgilab olindi:

1) Internet-texnologiyalar asosida shakllanayotgan “yangi iqtisodiyot”ning globallashuvi sharoitida, XXI asrda Forumning faoliyat konsepsiyalarini ishlab chiqish; Bogor maqsadlarining amalga oshirilishi yo‘lida erishilgan o‘rta muddatli natijalarni tahlil qilish hamda iqtisodiy boshqaruv va ma’muriy tartibotlarni soddalashtirish orqali kelgusi besh yil ichida tranzaksion xarajatlarni 5 foizga kamaytirish;

2) Osaka harakatlar dasturi qoidalarini zamonaviy talablar bilan moslashtirish orqali Bogor maqsadlariga erishish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni aniqlash hamda 2010–2020-yillarda savdo va investitsiyalarni erkinlashtirishga qaratilgan yakkahol va jamoaviy choralarni kuchaytirish;

3) A’zo mamlakatlarning xatti-harakatlarining individual rejalarini chuqur o‘rganish bilan birga iqtisodiy va texnik hamkorlikni rivojlantirish orqali OTOIH mexanizmlarini mustahkamlash.

OTOIH yetakchilari ushbu sammit davomida mintaqada erkin savdoni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida erkin savdo zonalarini shakllantirish yuzasidan fikr almashdilar. Ular mintaqaviy va ikki tomonlama erkin savdo bitimlarining OTOIH qoidalari hamda Butun Jahon savdo tashkiloti (BJST) doirasidagi ko‘p tomonlama erkinlashtirish me’yorlariga muvofiqligini ta’minlash zarurligini muhokama qildilar.

2002-yilda Meksikaning Los-Kabos shahrida bo‘lib o‘tgan OTOIHning o‘ninchi sammitida esa asosiy e’tibor savdo va investitsiyalar sohasida erkin zonalarni yaratish maqsadlarini amalga oshirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, hamda terrorizmga qarshi kurashish borasida hamkorlik doirasini kengaytirishga qaratildi.

2006-yilgi sammitda bir qancha muhim natijalarga erishildi. Xususan, tranzaksion xarajatlarni 5% ga kamaytirish bo‘yicha oldindan belgilangan maqsadga erishildi. Shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarga infratuzilma barpo etishda yordam ko‘rsatishni ko‘zda tutuvchi rejaga rozilik berildi hamda o‘zaro savdo faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar rejasi ishlab chiqildi.

Sammit davomida ishtirokchi davlatlar rahbarlari 1994-yilda belgilangan Bogor maqsadlariga sodiqliklarini yana bir bor tasdiqladilar. Ular bozorlarni ochish, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, qashshoqlikni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash masalalari yuzasidan muzokaralarni davom ettirishga kelishib oldilar.

Shuningdek, Los-Kabosda yana bir muhim hujjat — OTOIH a’zolari tomonidan umumiy va maxsus “oydinlik tamoyillari”ni amalga oshirishga oid bayonot qabul qilindi.

2003-yilda Bangkokda (Tailand) o‘tkazilgan sammitning asosiy mavzusi xalqaro terrorizmga qarshi kurashish masalalariga bag‘ishlandi. Shu bilan birga, iqtisodiy taraqqiyotga doir bir qator muhim masalalar, jumladan, mintaqada bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi, yangi moliyaviy me’morchilikni yaratish, shuningdek, mikrobiznes shaklidagi yangi kichik va o‘rta korxonalarni tashkil etish ehtiyoji ham muhokama qilindi. Biroq, bu yo‘nalishlarda aniq dasturiy hujjatlar yoki bayonotlar qabul qilinmadi.

2004-yilda Santyago (Chili) shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammit esa «Bizning jamiyat, bizning kelajagimiz» shiori ostida o‘tkazildi. Unda asosiy e’tibor OTOIH doirasida savdo aloqalarini

kengaytirish masalalariga qaratildi. Bu yondashuv Santyago tashabbusi nomli dasturiy hujjatda o‘z ifodasini topdi.

Xulosa qilib aytganda, OTOIH o‘z faoliyatining dastlabki 15 yili davomida maslahat beruvchi organ maqomidan mintaqada va jahon miqyosida iqtisodiy erkinlashtirish jarayonlarini jadallashtiruvchi faol va muhim tashkilot darajasiga ko‘tarildi.

8.2-jadval

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy hamkorlik forumida qabul etilgan qarorlar

OTOIH doirasida o‘tkazilgan yetakchilar ishtirokidagi noformal uchrashuvlar	**Asosiy natijalar**
1989 y. Kanberra-Avstaliya	OTOIH forumining tashkil topishi va ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida uning norasmiy forum maqomini qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishilishi
1991 y. Seul- Koreya	OTOIHning asosiy maqsadlari va vazifalarini aniqlash
1993 y. Sietl- AQSh	Tovarlar va investitsiyalar uchun erkin savdo zonasini yaratish bo‘yicha muhim qarorning tasdiqlanishi
1994 y. Bogar-Indoneziya	2010-2020 yillar oralig‘ida erkin savdo zonasini tashkil etish muddati aniqlanishi; OTOIHning uchta asosiy tamoyili — *savdo va investitsiyalarni liberallashtirish hamda qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy va texnik hamkorlik*, shuningdek, *taraqqiyot sohasida hamkorlik* g‘oyalarini shakllantirish.
1995 y. Osaka-Yaponiya	Osaka xatti-harakatlar dasturining qabul qilinishi, unda erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari hamda OTOIH faoliyatining to‘qqiz tamoyili belgilangan.
1996 y. Manila-Filippin	Manila Xatti-harakatlar dasturi (MAPA)ning qabul qilinishi, unda yakka hamda jamoaviy rejalar hamda texnik-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.
1997 y. Vankuver-Kanada	Yakka va jamoaviy rejalarining ko‘rib chiqilishi hamda Taqmoqli erkinlashtirishni ixtiyoriy ravishda tezlashtirishga oid kelishuvning imzolanishi.
1998 y. Kuala-Lumpur- Malayziya	Tezlashtirilgan ixtiyoriy erkinlashtirishni amalga oshirish maqsadida to‘qqizta tarmoqning aniqlanishi.

1999 y. Oklend-Yangi Zelandiya	OTOIH o‘z faoliyatida raqobat muhitini rivojlantirish hamda iqtisodiyotni ortiqcha tartibga solishdan saqlanish tamoyillari
2000 y. Daressalam-Bruney	Butunjahon savdo tashkiloti doirasida muzokaralarning navbatdagi bosqichlarini boshlashga doir tashabbuslar hamda mintaqaviy ichki guruhlar faoliyatining tahlili
2001 y. Shanxay-XXR	Yaqin o‘tgan davrda OTOIH o‘zining kelajakdagi harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida strategik hujjat – “Shanxay roziligi”ni tasdiqladi
2002 y. Los-Kabos-Meksika	Savdoni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, 2006 yilga kelib tranzaksion xarajatlarning 5%ga qisqarishini nazarda tutgan xatti-harakatlar rejasi qabul qilingan. A’zo mamlakatlar yetakchilarining Yorqinlik tamoyillarini amalga oshirish bo‘yicha bayonoti
2003 y. Bangkok-Tailand	Asosiy diqqat markazi xalqaro terrorizmga qarshi kurash choralarini kuchaytirish hamda erkin savdo zonalarining faoliyatini jadallashtirish masalalariga qaratilgan
2004 y. Santyago-Chili	“Santyago tashabbusi” OTOIH doirasida savdoning kengayishini ta’minlash maqsadida savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish, savdo jarayonlarini soddalashtirish hamda erkin savdo zonalarini faol ravishda qo‘llab-quvvatlash

Forumga a’zo mamlakatlaming yetakchilari Manila sammitida (1996 y.) savdo va investitsion erkinlashtirish hamda iqtisodiy va texnik hamkorlikni kengaytirishning asosiy maqsadi - Osiyo-Tinch okeani hamjamiyatining shakllanishini belgilab oldilar. Dastlab ushbu g‘oya 1993-yilda AQSh sobiq prezidenti B.Klinton tomonidan ilgari surilgan edi.

Manila xatti-harakatlar dasturi (MAPA) quyidagi uchta asosiy bo‘limni o‘z ichiga oladi:

- har bir a’zo davlatning mustaqil xatti-harakat rejalari;
- OTOIH doirasidagi umumiy xatti-harakatlar rejasi;
- OTOIH doirasidagi umumiy xatti-harakatlar rejasi.

Xatti-harakatlarning yakkahol rejalari savdo va investitsiyalar sohasida 15 ta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Ularga bojxona to‘lovlari, notarif to‘siqlar, xizmatlar ko‘rsatish, investitsiyalar, raqobat siyosati, davlat xaridlari, nizolarni hal etish, tadbirkorlarning migratsiyasi, GATTning Urugvay raundi natijalarini tezlashtirilgan tarzda amalga oshirish, tovarlarning kelib chiqishi qoidalari hamda milliy standartlarni erkinlashtirish chora-tadbirlari kiradi.

Yakkahol rejalar ixtiyoriy bo‘lsa-da, ular muzokaralar va maslahatlarning natijalarini hisobga olgan holda qabul qilinadi hamda quyidagi masalalarning hal etilishiga qaratilgan:

- savdo va investitsiya erkinlashtirishining vaqtinchalik doiralarini belgilash, shu jumladan, Bogor maqsadiga nisbatan ayrim mamlakatlar uchun to‘siqlarni kamaytirish sur’atlarini tezlashtirish;
- Urugvay kelishuvlaridan farqli ravishda kengroq majburiyatlar qabul qilinishi va axborot texnologiyalari bo‘yicha kelishuvning bajarilishi;
- importdagi notarif cheklovlarning kamaytirilishi;
- 1997 yilda bojxona tartibotlari ma'lumotlar bazasi va o‘rtacha bojlarni ishlab chiqish orqali ochiqlikni oshirish;
- 1998 yilda identifikatsiyalangan NTO ro‘yxatining tuzilishi;
- tadbirkorlik faoliyati xarajatlarini qisqarishi;
- 2000 yilda bojxona tartibotlari axborot ma'lumotlari bazasini yaratish;
- milliy standartlarning xalqaro standartlarga mos kelishini o‘zaro tan olish bo‘yicha kelishuvlar imzolanishi hamda axborot almashinuvi (1997 y.);

- eksport subsidiyalari va eksportga qo‘yilgan to‘siqlarni qisqartirish va asta-sekin tugatish;
- ayrim mamlakatlarda GATS doirasida xizmatlar savdosini progressiv erkinlashtirish va yanada tez sur’atlarni ta’minlash;
- yangi himoya choralariga «stendstil» shartining joriy etilishi;
- ochiq investitsion tartib yaratish, tadbirkorlarning xizmat safarlari uchun vizalarni erkinlashtirish;
- hukumat xaridlari tartibotlarining oshkoraligini ta’minlash;
- intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmini yaratish;
- tartibga solish sohasida samarali islohotlarni amalga oshirish;
- raqobat siyosati bo‘yicha kelishuvlar imzolanishi;
- yuqori darajadagi infratuzilmaviy obyektlarni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatlar.

Bangkokdagi sammitda qo‘yilgan maqsad - OTOIH mintaqasida oziq-ovqat xavfsizligi tizimining yaratilishi hisobga olingan holda, 2004-yilda HYaRning oziq-ovqatlar bo‘yicha yangi bobi (hisob bo‘yicha 16-si) joriy etildi.

Xatti-harakatlarning jamoaviy rejalari savdo va kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirish, yanada yorqin, sodda, eng kam xarajatlarga ega bo‘lgan qulay tadbirkorlik muhiti shakllanishining 15 ta yo‘nalishini belgilab berdi. Xatti-harakatlarning jamoaviy rejasida quyidagilar qayd etilgan:

1) bojxona bojlari bo‘yicha kompyuterda ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish (buning uchun xatti-harakatlarning yakka rejalarini o‘z

ichiga olgan holda a’zo mamlakatlarning bojxona majburiyatlari formatini yangilash ko‘zda tutilgan);

2) a’zo mamlakatlarning majburiyatlari hamda progressive erkinlashtirish bo‘yicha yakkahol rejaga kiritilgan notarif to‘siqlarning formatini yangilash. Buning uchun NTO darajasini kamaytirish bo‘yicha ishlarning intensifikatsiyalashuvi nuqtayi nazaridan notarif chora-tadbirlaming xilma-xilligini o‘z ichiga olgan holda, ularning tahlilini amalga oshirish belgilangan.

3) eksport subsidiyalarini butunlay tugatish maqsadida Butun Jahon savdo tashkilotidagi majburiyatlarni hisobga olgan holda, eksport subsidiyalarining progressiv qisqarishi bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni ishlab chiqish; tadbirkorlam ing migratsiyasini faollashtirish uchun hududida yagona migratsiya hujjati (Business Travel Card) amal qiladigan davlatlar sonini 9 nafardan 12 nafargacha kengaytirish."

Umuman olganda, mazkur hujjat monitoring va a’zo mamlakatlarning ma’lumotlari asosida har yili to‘ldiriladi va aniqlashtirilib boriladi. 2000-yildan boshlab mamlakatlarning xatti-harakatlar rejalarini amalga oshixishning borishi to‘g‘risidagi davriy hisobotlari qoidasi amal qilmoqda.

Manila xatti-harakatlar dasturining boshqa muhim unsuri - standartlar sohasidagi hamkorlik, bojxona tartibotlarini uyg‘unlashtirish, raqobat siyosatini amalga oshirish va nizolarni hal etishdagi muvofiqlashtirish asosida savdoni qo‘llab-quvvatlashdir.

Shunday qilib, Manila xatti-harakatlar dasturi 2010-2020 mobaynida bojlarning o‘rtacha stavkasini 0 — 5% gacha qisqartirish va notarif to‘siqlarni tugatish; 2010-2020-yillar ichida kam xarajatlar bilan

investitsiya sohasida milliy tartibning joriy etilishi; «stendstil», ya’ni proteksionistik himoya darajasini oshirmaslik hamda Bogor maqsadini bajarish bo‘yicha progressiv erkinlashtirishning amalga oshirilishi shartining joriy etilishi; savdo cheklovlari darajasining kamayishi, shu jumladan ayrim tarmoqlarda NTOlarning ba’zi turlarining tarif cho‘qqilarining qisqarishi, musodaralar sonining kamayishi, tarmoqlar o‘rtasidagi bojlar stavkalaridagi farqning qisqarishi kabi uzoq muddatli maqsadlarni ko‘zda tutadi.

8.3. OTOIHda savdo va investitsion erkinlashtirish.

OTOIHda savdoni erkinlashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

- har bir mamlakatning o‘ziga xos yakkahol xatti-harakat rejalari doirasida;
- tarmoqlar bo‘yicha ko‘ngilli va tezkor erkinlashtirish jarayonlari orqali;
- ichki mintaqaviy iqtisodiy integratsiya doirasida.

Nisbatan kam rivojlangan davlatlar bilan yuqori rivojlangan mamlakatlar orasidagi farqni kamaytirish, shuningdek, tashkilotga a’zo bo‘lmagan davlatlar o‘rtasidagi tafovutlarni yo‘qotish — bular OTOIH ***faoliyatining yakkahol savdoni*** erkinlashtirish sohasidagi asosiy tamoyillari sifatida tan olingan.

Forumning ko‘pgina a’zo mamlakatlari HYaR tahlilining ko‘rsatishicha, qayd etilgan chora-tadbirlar - Butun Jahon savdo tashkiloti, ichki mintaqaviy integratsion guruhlar va erkinlashtirishning milliy dasturiaridagi majburiyatlar yig‘indisi, ya’ni bir vaqtda uch -

milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada amalga oshiriladigan erkinlashtirish chora-tadbirlaridir.

Oqibatda ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar savdoni (nafaqat savdo) erkinlashtirish jarayonida ortiqcha bo‘g"inga aylanadigan, OTOIHda u yoki bu mamlakatning bevosita ishtiroki bilan bog‘liq emas.

Ba’zi mamlakatlarning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lmaganligi sababli, tarmoqli erkinlashtirish masalasi birinchi darajali vazifa sifatida ko‘tarildi. OTOIHda erkin savdo zonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida, 1997 yildagi Vankuver sammitida *ekologik tovarlar va xizmatlardan tortib to baliq mahsulotlari, o‘rmon mahsulotlari, tibbiyot uskunalari, energetika tovarlari, axborot texnologiyalari mahsulotlari, o‘yinchoqlar, qimmatbaho toshlar va zargarlik buyumlari, kimyoviy mahsulotlar, o‘simlik moylari va ularning tayyor mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, sintetik hamda tabiiy kauchuk, mineral o‘g‘itlar, fuqaro aviatexnikasi va avtomatik qurilmalar* kabi jami 15 ta tovar guruhi bo‘yicha 2010-2020 yillar oralig‘ida ixtiyoriy ravishda tezkor tarmoqli erkinlashtirish muddatlari belgilandi.

Mazkur tashabbus uchta yo‘nalishda: bozorning ochiqligi; savdoga ko‘maklashish; iqtisodiy va texnik hamkorlikni o‘z ichiga oladi. OTOIH mamlakatlari o‘z mohiyatiga ko‘ra manfaatli ham bo‘lgan bir tomonlama asosda savdoni ixtiyoriy erkinlashtirish va qo‘llab-quvvatlashning noyob mexanizmini ishlab chiqdilar.

GATT/BST yondashuviga zid ravishda (kelishuvlar bog'liq mazmunga ega bo‘lib, ularning qoidalari buzilganda sanksiyalar

qo‘llaniladi) OTOIH mexanizmi bog'liq bo‘lmagan (eng kam jihatdan majburiy) mazmunga ega.

OTOIHga a’zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajalari va tashqi savdo tizimlarining ochiqligi jihatidan farq qiluvchi davlatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois, dastlabki bosqichda hamkorlikni qat’iy majburiyatlarga bog‘lash qiyin. Bundan tashqari, Forum a’zolari ushbu tashkilotni muhokama forumidan Butun Jahon savdo tashkiloti kabi muzokara organiga aylantirmaslik haqida dastlabki kelishuvga erishganlar.

Tezkor va ixtiyoriy tarmoqli erkinlashtirish kontseptsiyasi 2010-2020-yillar davomida ba’zi sohalarda proteksionistik cheklovlarni kamaytirish istagidan kelib chiqqan. Bu chora-tadbirlar orasida ayrim tarmoqlar mahsulotlariga boj stavkalarini 0-5% gacha pasaytirish, kimyo sanoati mahsulotlari bo‘yicha bojlarni uyg‘unlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida standartlarning o‘zaro tan olinishi kabi kelishuvlar mavjud.

Osiyodagi inqiroz ixtiyoriy tezkor tarmoqli erkinlashtirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, boj stavkalarining kamaytirilishi masalasi Butun Jahon savdo tashkilotiga topshirilgan bo‘lsa, notarif to‘siqlarni olib tashlash, savdoni qo‘llab-quvvatlash va ma’lum tovar guruhlari bo‘yicha iqtisodiy hamda texnik hamkorlik masalalari OTOIH zimmasida qoldi. Shuningdek, OTOIH a’zo davlatlari uchun savdoni erkinlashtirishning uchinchi yo‘nalishi sifatida ***ichki mintaqaviy guruhlar doirasidagi majburiyatlarni*** amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Ko‘pgina OTOIH mamlakatlari integratsion guruhlar a’zosi bo‘lib, ba’zilari ushbu guruhlar bilan muzokaralar olib bormoqda. Kamida, o‘zaro doiralarda bojxona bojlarini kamaytirish orqali savdoni erkinlashtirishni amalga oshirishgan yoki shu jarayonni davom ettirmoqdalar.

Bu holatda, alohida uyushmalarning savdo preferensiyalarini OTOIHning barcha a’zo mamlakatlariga kengaytirishga tayyorligini ta’minlash masalasi hal qilinishi kerak edi.

NAFTA ushbu sohada «birinchi qaldirg‘och» rolini o‘ynadi — 1997-yilda bojsiz savdo imtiyozlarini Forumning boshqa mamlakatlariga ularning o‘zaro shunga o‘xshash imtiyozlarni taqdim etishlari sharti bilan kengaytirish e’lon qilindi. Kanada tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar 2005-yilgacha ko‘plab tovarlar savdosini erkinlashtirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Shu bilan birga, 1997-yilda AQSh tomonidan ilgari surilgan yana bir tashabbus — OTOIHning ayrim a’zo mamlakatlari (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Chili) bilan ikki tomonlama savdo kelishuvlarini imzolash bo‘ldi.

Filippin va Indoneziya kabi ikki mamlakat esa AFTA doirasida 2003-yilga kelib OTOIHning barcha a’zo davlatlariga nisbatan ko‘plab tovarlar uchun boj stavkalarini 0-5% gacha kamaytirish bo‘yicha bir tomonlama orttirilgan majburiyatlarni qabul qildilar. Bu tashabbus «AFTA chaqiruvi» nomi bilan tanildi.

2002-yilda XXR 2020-yilgacha OTOIHga a’zo mamlakatlar bilan savdoni to‘liq erkinlashtirishga tayyor ekanligini rasman e’lon qildi.

8.4. Osiyo-Tinch okean mintaqasida integratsion jarayonlar xususiyatlari va strategiyasi

So‘nggi o‘n yilliklarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi dunyo iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan hududlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mutaxassislar ta’kidlashicha, ushbu mintaqadagi xalqaro integratsiya jarayonlari ayniqsa texnologik ilg‘or sohalarda mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlarini boshqa mintaqalardan ancha oldinga olib chiqdi va ularning global raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirdi. Ana shu iqtisodiy integratsiya mintaqa davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirdi, ishlab chiqarish va iste’mol hajmlarining oshishiga katta turtki berdi.

XXI asr boshlaridan boshlab, dunyo iqtisodiyotida har qanday davlat iqtisodiy integratsiyasiz barqaror o‘sishni ta’minlay olmaydi. Integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish milliy iqtisodiyot uchun quyidagi afzalliklarni yaratadi: tovarlar, kapital va xizmatlarning erkin harakati ta’minlanadi, raqobat kuchayadi; ishlab chiqarish quvvati va samaradorligi oshadi; sifatli va arzon mahsulotlar yetkazib beriladi; rivojlangan bozor shakllari paydo bo‘ladi va umumiy bozorlar shakllantiriladi; ishsizlik kamayadi; mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlari kamayadi va eng muhimi, aholining turmush darajasi oshib, sifat jihatdan yaxshilanadi.

2013-yil 7-8 oktyabr kunlari Indoneziyaning Bali orolidagi Denpasar shahrida OTO iqtisodiy hamkorligining 21-sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu tashkilotga a’zo 21 mamlakat dunyo aholisi taxminan 40 foizini, yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 57 foizini, xalqaro savdo

aylanmasining 48 foizini hamda bevosita investitsiyalarning 26 foizini tashkil etadi.

Sammitda 2020-yilgacha mintaqada ochiq va erkin savdo tizimini barpo etish borasidagi harakatlarni jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

Bu tadbirda muhokama qilingan OTO mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari, barqaror o‘sishga erishayotgan davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari yil sayin kuchayayotgan O‘zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi dunyodagi integratsion jarayonlarning uchinchi yirik markazi sifatida tanilgan. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) 1967-yilda tashkil topgan bo‘lib, unga Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin davlatlari kiradi.

Hozirgi kunda ASEAN tashkiloti Janubiy-Sharqiy Osiyoning 10 ta davlatini o‘z ichiga olgan, dunyoda tez rivojlanayotgan va mintaqaviy nufuzga ega eng muhim xalqaro uyushmalardan biriga aylangan. Ushbu tashkilotga a’zo mamlakatlarning aholisi taxminan 667 million kishini tashkil etadi, ularning umumiy maydoni 4,5 million kvadrat kilometrga teng.

ASEANning yalpi ichki mahsuloti 9,731 trillion AQSh dollariga yetadi, tashqi savdo aylanmasi esa 720 milliard dollarni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha ASEAN Yevropa Ittifoqi va NAFTA’dan keyin dunyodagi uchinchi eng yirik integratsion birlashma hisoblanadi.

ASEAN doirasidagi samarali hamkorlik mintaqadagi a’zo davlatlarning barqaror iqtisodiy o‘sishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu

o‘sish davlatlarning rivojlanishini solishtirishga imkon beradi, shuningdek, uzoq yillik tarixiy an’analarga asoslangan o‘zaro savdo aloqalari va hamkorlik shakllarining tartibga solinishi orqali mustahkamlanadi.

Osiyo-Tinch okeani hududida umumiy madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni izlash hamda ushbu mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash intilishi iqtisodiy munosabatlar va aloqalarni rivojlantirishning asosiy omiliga aylangan. Shu nuqtai nazardan, Osiyo-Tinch okeani hududida kechayotgan integratsion jarayonlar Yevropadagi integratsion yondashuvlardan sezilarli darajada farq qiladi.

Masalan, «Osiyoviy to‘rt burchak» doirasidagi o‘zaro aloqalar asosan savdo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, firmalararo sherikchilik sohalarida hamda hududiy darajada amalga oshirilmoqda.

Bu jihat Yevropa Ittifoqi, MERCOSUR va boshqa integratsion bloklardan farqli o‘laroq, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi integratsiyaning o‘ziga xosliklaridan biridir.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kechayotgan integratsiya jarayonining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilotidagi integratsiya jarayoni davlatlararo hamkorlik uchun asos bo‘luvchi transmilliy korporatsiyalarning yetakchi roli ostida amalga oshmoqda.

Ikkinchidan, ushbu integratsiya jarayoni iqtisodiy rivojlanish darajalari jiddiy farqlanuvchi, madaniy va ijtimoiy-siyosiy tizimlari turlicha bo‘lgan mamlakatlarni qamrab oladi. Osiyo-Tinch okeani

iqtisodiy hamkorligining noyobligi shundaki, unda XX asrning ikki yirik iqtisodiy davlati — AQSh va Yaponiya hamda XXI asrning iqtisodiy giganti — Xitoy birlashadi.

Uchinchidan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi integratsiya submintaqaviy ittifoqlarni, masalan, ASEAN, NAFTA, Janubiy Tinch okeani forumi va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchidan, OTIX va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida «ochiq regionalizm» mafkurasi mintaqaviy integratsiyani iqtisodiy globalizmning muhim elementi sifatida qaraydi. Bu nazariyaga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti evolyutsiyasi mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlarning asta-sekin birlashishi va o‘zaro integratsiyasi jarayoni sifatida tushuniladi.

«Ochiq regionalizm» konsepsiyasi shuningdek, Tinch okeani mintaqasida tovarlar, investitsiyalar va ish kuchining erkin harakatini ta’minlash, proteksionizmdan voz kechish bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilish hamda ichki mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rag‘batlantirishni nazarda tutadi.

Umuman olganda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya munosabatlari hali yuqori darajada rivojlanmagan. Masalan, ASEAN tizimidagi savdo zonasi iqtisodiy integratsiyaning dastlabki bosqichi hisoblanadi — ya’ni savdo tariflari va boshqa notarif cheklovlar olib tashlanadigan erkin savdo zonasidir.

Shu bilan birga, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati hozircha erkin savdo zonasi emas, balki «ochiq iqtisodiy uyushma» sifatida qabul qilinmoqda.

Konseptual jihatdan esa, ASEAN doirasida hamda uning asosida xalqaro tahliliy markazlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning yordami bilan hududiy integratsiyaning uchta asosiy yo‘nalishi ishlab chiqilgan.

1. Bozor yo‘nalishi. Bu yo‘nalishda o‘zaro savdoda bosqichma-bosqich tariflar kamaytirilib, erkin savdo zonasiga erishish yo‘lida harakat qilinadi. Natijada, nisbiy afzalliklar nazariyasiga muvofiq resurslardan samarali foydalanish maqsadida, ASEAN mamlakatlaridan birida ishlab chiqarishni joylashtirish uchun to‘liq erkinlikka erishish ko‘zda tutiladi.

2. Bozor-institutsional yo‘nalishi. Bu yo‘nalishning asosiy xususiyati — davlatlararo nazoratning ayrim shakllaridan foydalanish bilan bir qatorda, savdoning ko‘pchilik yo‘nalishlarini liberallashtirishdan iborat. Ushbu strategiya umumhududiy sanoat hamkorligi, ASEANga a’zo mamlakatlarning rivojlanish rejalari muvofiqlashtirilishi hamda ma’muriy va siyosiy choralar orqali mustahkamlangan hamkorlik loyihalarini amalga oshirishga asoslanadi.

Bu yo‘nalish Indoneziyada ishlab chiqilgan bo‘lib, mamlakat rahbariyatining fikricha, integratsion jarayon va bozor rejimini yo‘lga qo‘yishdan oldin barcha a’zo davlatlarning iqtisodiyotlarida industrializatsiya amalga oshirilishi va kompensatsion mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur.

3. Hududiy darajadagi alohida loyihalarni amalga oshirish yo‘nalishi. Hududiy darajadagi alohida loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha yo‘nalish. Ushbu yondashuv tarafdorlari xo‘jalikni majmuaviy boshqarish sxemalariga qarshi chiqadilar.

Bundan tashqari, mintaqaviy integratsiyaning agenti va harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblangan xususiy sektor imkoniyatlari kengaytirilib, hududiy biznesda asosiy o‘rinni egallay oladigan hamda ASENdan tashqaridagi yirik kompaniyalar bilan jiddiy raqobatlasha oladigan yirik transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi uchun qulay shartsharoitlar yaratish zarurati e’tirof etiladi.

Hozirgi kunda ASEAN hududida yagona nazariy yondashuv hali ishlab chiqilmagan bo‘lsa-da, ushbu hudud mamlakatlari 2020-yilgacha Iqtisodiy hamjamiyat yaratish yo‘lida mintaqaviy integratsiya sohasida katta yutuqlarga erishishi kutilmoqda.

Iqtisodiy hamjamiyatning asosini OTO hududida tashkil etilgan Erkin savdo zonasi tashkil qiladi. Uning maqsadi — ASEAN doirasida tovarlarning erkin harakatlanishini ta’minlash uchun tashqi imtiyozli tarif rejasini yaratishdir.

Ushbu Erkin savdo zonasiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida qabul qilingan bitim asosida faoliyat yuritiladi. Ta’kidlash joizki, bu bitim 1992-yilda qabul qilinganida ASEAN oltita a’zo mamlakatdan iborat edi: Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand. Vetnam 1995-yilda, Laos va Myanma 1997-yilda, Kambodja esa 1999-yilda ushbu uyushmaga qo‘shildi.

ASEAN unga a’zo bo‘lmagan mamlakatlar bilan ham erkin savdo to‘g‘risida bitimlar imzolashi mumkin. Shu sababli hozirgacha XXR, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Hindiston bilan erkin savdo bitimlari tuzilgan. 2010-yil yanvar oyidan boshlab Xitoy-ASEAN erkin savdo zonasi faoliyat yurita boshladi.

Bundan tashqari, ASEAN Yevropa Ittifoqi (YeI) bilan ham erkin savdo hududi tashkil etish bo‘yicha muzokaralar olib bordi. Ta’kidlash joizki, Xitoy va YeI ASEANga a’zo mamlakatlarning asosiy savdo sheriklari hisoblanadi.

2000-yillardan boshlab ASEAN OTO mintaqasi doirasida uchta yetakchi savdo va siyosiy sherik — Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan faol hamkorlik qilmoqda. Shu davrda ASEANga a’zo mamlakatlar bilan birga Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi barcha ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga olgan muzokaralar olib borilmoqda. Ushbu ittifoq «ASEAN+3» deb nomlana boshlandi.

Hozirgi kunda ushbu ittifoqga kirgan mamlakatlar o‘rtasida hamkorlik iqtisodiyot va moliya, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, siyosat, xavfsizlik, fan va texnologiya, turizm, tabiiy ofatlarga qarshi kurash kabi 20 dan ortiq sohalarda amalga oshirilmoqda.

2021-yili ASEAN mamlakatlarining «+3» (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi) davlatlariga yalpi eksporti 565,4 milliard AQSh dollariga, importi esa 533,7 milliard dollarga yetdi. Global moliyaviy inqirozga qaramay, ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sishi davom etmoqda. Mazkur mamlakatlar o‘rtasidagi savdo hajmining ortishi integratsion jarayonlarni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Masalan, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi aholisi bo‘yicha eng yirik mintaqa hisoblanib, 1,9 milliard kishini o‘z ichiga oladi. Ushbu hudud yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 5,8 trillion dollarga teng bo‘lib, iqtisodiyot salohiyati bo‘yicha jahonda uchinchi o‘rinni egallaydi.

Shuningdek, YeI va Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA)dan keyin savdo hajmi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi.

Ta’kidlash joizki, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi ikki tomonlama katta foyda keltirish bilan birga, Sharqiy Osiyo iqtisodiyotining rivojlanishiga, mamlakatlar o‘rtasida madaniy aloqalar va hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

2010-yilda Xitoyda ASEAN mamlakatlari tovarlariga bojxona stavkalari o‘rtacha 9,8% dan 0,1% gacha pasaytirildi. Shuningdek, ASEANning olti mamlakati — Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand — Xitoy tovarlariga nisbatan bojxona stavkalarini o‘rtacha 12,8% dan 0,6% gacha kamaytirdi.

2015-yil davomida Xitoy va ASEANning yangi a’zolari — Vetnam, Laos, Kambodja va Myanma — o‘rtasidagi savdoda mahsulotlarning 90%ga yaqin bojlar bekor qilindi.

Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi erkin savdo zonalarining Yevropa Ittifoqi va Shimoliy Amerika erkin savdo hududidan (NAFTA) farq qiluvchi yangi modeliga aylandi.

Birinchidan, ushbu hudud Shimoliy Amerika kabi bir vaqtda emas, ma’lum davr davomida bosqichma-bosqich tashkil etildi.

Ikkinchidan, a’zo mamlakatlar rivojlanayotgan bo‘lishiga qaramay, ular Jahon Savdo Tashkiloti (JST) me’yorlari va qoidalariga qat’iy rioya qiladilar. Erkin savdo hududi ishtirokchilari boshqa davlatlar uchun savdo to‘siqlari yaratmaydi.

Uchinchidan, hamkorlikning barcha a’zo davlatlarga teng foyda keltirishi uchun rivojlangan mamlakatlar pastroq rivojlangan sheriklariga yordam ko‘rsatishni ta’minlaydi.

2020-yilga kelib, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aylanmasi 684,6 milliard dollardan oshdi.

Jahon xo‘jaligining globallashuvining zamonaviy bosqichida, dunyoning eng tez rivojlanayotgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kechayotgan integratsiya jarayonlarining xususiyatlari va istiqbollarini to‘g‘ri baholash O‘zbekiston uchun xalqaro kreditlar jalb qilishda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni keng ko‘lamda olib kirishda va milliy mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda muhim yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining asosiy vazifasi?
2. OTOIH mamlakatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.
3. Tarmoq qo‘mitalari va ularning vazifalari haqida ma'lumot bering.
4. OTOIHda savdoni erkinlashlirish yo‘nalishi nimalardan iborat?
5. Manila xatti-harakatlar dasturi va uning masadi?
6. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kechayotgan integratsiya jarayonining muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
7. OTOIHning Vankuver sammiti to‘g‘risida ma’lumot bering.

IX-BOB. AFRIKA KONTINENTIDAGI INTEGRATSION JARAYONLAR





9.1. G‘arbiy Afrikadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari va Iqtisodiy G‘arbiy Afrika Davlatlari Jamiyati (ECOWAS).

9.2. Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida valyuta birligi va iqtisodiy hamkorlik aloqalari.

9.3. Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida valyuta birligi va iqtisodiy hamkorlik aloqalari.

Tayanch iboralar: G‘arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati, xomashyo eksportchisi, oziq-ovqat muammosi, yagona iqtisodiy makon, turmush darajasi, atrof-muhit integratsiyasi, ijtimoiy integratsiya, to‘lov balansi.

9.1. G‘arbiy Afrikadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari va Iqtisodiy G‘arbiy Afrika Davlatlari Jamiyati (ECOWAS).

G‘arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati — ECOWAS (Economic Community of West African States) 1975-yil 28-may kuni Lagos shartnomasi asosida tashkil etilgan bo‘lib, 1976-yildan boshlab kuchga kirdi. Bu iqtisodiy hamkorlik uyushmasining asosiy maqsadi G‘arbiy Afrikadagi davlatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishdan iborat.

Tashkilotga dastlab quyidagi davlatlar a’zo bo‘lgan: Benin, Burkina-Faso, Kot-d’Ivuar, Kabo-Verde, Gambiya, Gana, Gvineya, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Mavritaniya, Niger, Nigeriya, Senegal, Syerra-Leone va Togo. 1999-yilda Mavritaniya a’zolikdan chiqdi va hozirda ECOWAS tarkibida 15 ta davlat faoliyat yuritmoqda.

ECOWAS dunyoning eng qashshoq mamlakatlarini o‘z ichiga oladi. ECOWAS dunyoning eng qashshoq mamlakatlarini o‘z ichiga oladi. Hamma hamjamiyat mamlakatlari yomon rivojlangan sanoat bazasiga ega bo‘lib, ular ozmi-ko‘p xomashyo eksportchisi va tayyor sanoat mahsulotlari, jumladan, oziq-ovqat va boshqa hayotiy iste’mol tovarlari importchisi hisoblanadi. Ishlab chiqarish tuzilmalari kuchli mamlakatdan farq qiladi.

ECOWAS davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oziq-ovqat muammosi alohida o‘rin tutadi. Uning yechimi globallashuv sharoitida ECOWAS davlatlarining ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishishda eng muhim komponent hisoblanadi.

ECOWAS Afrika va butun dunyo o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi.

ECOWAS mintaqasida yoqilg‘i-energetika manbalari, turli xil foydali qazilmalarning mavjudligi, qishloq xo‘jaligi uchun qulay iqlim sharoitlari va maqbul transport-geografik joylashuv iqtisodiy faoliyatni kengaytirish hamda hamkorlikdagi savdo aloqalarini rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aholi soni va tabiiy boyliklar nuqtai nazaridan Nigeriya mintaqaning eng muhim bozorlaridan biri sanaladi. U Yevropa,

Amerika, Osiyo va boshqa Afrika mamlakatlaridan investorlar va savdo hamkorlarini jalb etish salohiyatiga ega. Biroq shunga qaramay, Nigeriya hali ham dunyodagi eng kambag‘al 25 ta davlat qatoridan joy olgan.

Yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari past bo‘lishiga qaramay, G‘arbiy Afrika o‘zining tovar va xizmatlar iste’mol bozori hajmi bilan ajralib turadi — bu mintaqada qit’a aholisining to‘rtinchi qismidan ortig‘i istiqomat qiladi.

Bundan tashqari, bu mintaqa mamlakatlarida bir-biriga yaqin etnik guruhlar, umumiy madaniyat va qadriyatlar mavjud bo‘lib, bu yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini shakllantirish, o‘zaro integratsiyani kuchaytirish va tashqi siyosatda birgalikda harakat qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli ECOWAS tashkil etilgan.

ECOWAS Ustaviga ko‘ra, tashkilotning asosiy vazifasi — iqtisodiy integratsiyani keng qamrovli yo‘nalishlarda, ayniqsa, sanoat, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, tabiiy resurslar (shu jumladan suv resurslari), savdo, telekommunikatsiya, moliya, ijtimoiy va madaniy sohalarda rivojlantirish hisoblanadi.

Tashkilotning bosh maqsadi – alohida milliy bozorlarni yagona iqtisodiy makonga birlashtirish orqali tovar va xizmatlar, kapital hamda mehnat resurslarining erkin harakatini ta’minlash va bu orqali barcha a’zolar uchun barqaror va uyg‘un ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishishdir.

Bitimda ta’kidlanishicha, Hamjamiyatga a’zo davlatlar o‘z xalqlarining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish zaruratini his etadilar. Bu esa har bir a’zo

davlatning iqtisodiy imkoniyatlari va manfaatlarini safarbar etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ham ECOWAS mamlakatlari G‘arb davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaramligini kamaytirish, mintaqa ichida ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatini ta’minlash orqali rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mustamlakachilik davridan qolgan urf-odatlar, valyuta, moliyaviy, til va boshqa to‘siqlarni bartaraf etish, hamda ishtirokchi davlatlar o‘rtasida 15 yil ichida umumiy bozor bosqichiga o‘tishni ta’minlash maqsadida, ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratilishi lozim edi.

Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida ECOWAS a’zolari tomonidan quyidagi strategik yo‘nalishlar ustuvor deb belgilangan:

• hududiy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish orqali bosqichma-bosqich iqtisodiy ittifoq barpo etish;

• mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni safarbar etish;

• a’zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni kamaytirish;

• 15 yil davomida bosqichma-bosqich umumafrikaviy bozorni shakllantirish;

• iqtisodiy siyosatni uyg‘unlashtirish va ishtirokchi davlatlar rivojlanish strategiyalarini muvofiqlashtirish;

• mintaqada tinchlik, siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash.

ECOWASning oliy organi — Davlat va hukumat rahbarlari konferensiyasi bo‘lib, u har yili o‘tkaziladi. Konferensiyaga raislik rotatsiya tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Tashkilotning yana bir muhim tuzilmasi — Vazirlar Kengashi (ECOWAS Parlamenti) hisoblanadi. Ushbu Kengash yiliga ikki marta yig‘ilib, eng dolzarb va muhim masalalarni ko‘rib chiqadi. Har bir a’zo davlat ushbu Kengash tarkibiga ikki nafar vakilni yuboradi.

Mutaxassislar fikricha, ECOWAS tuzilmasidagi asosiy kamchiliklardan biri — qarorlar qabul qilish va ularni ishlab chiqish vakolatiga ega mustaqil organning mavjud emasligidir. Bu holat tashkilot tomonidan ilgari surilgan dastlabki maqsadlarning amalga oshmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek, ECOWASning byurokratik va moliyaviy jihatdan murakkab hamda qimmat tuzilishi ko‘pincha belgilangan maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

ECOWAS doirasida iqtisodiy integratsiya quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanmoqda:

- Mintaqaviy savdoni liberallashtirish, bojxona ittifoqini shakllantirish hamda ECOWAS doirasida yagona umumiy bozorni yaratish;
- Fuqarolar va kapitalning erkin harakatlanishini ta'minlovchi rejimni joriy etish, bu orqali mintaqa ichidagi mehnat resurslari va investitsiyalar oqimini erkinlashtirish;
- Energetika, tog‘-kon sanoati va infratuzilma, xususan yo‘l qurilishi sohalarida qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, bu orqali mintaqaning sanoat salohiyatini oshirish;
- Valyuta-moliyaviy munosabatlar sohasida samarali hamkorlik tizimini shakllantirish, barqaror moliyaviy muhit va integratsiyalashgan to‘lov tizimini rivojlantirish.

Savdoni rivojlantirish va liberallashtirish ECOWAS doirasida integratsiya hamkorligining eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

1990 yilda hamjamiyat tomonidan ECOWAS hududida savdoni liberallashtirish dasturi qabul qilindi, unda bojxona to‘siqlarini bosqichma-bosqich qisqartirish va keyinchalik yo‘q qilish, shu jumladan bir qator sanoat tovarlariga bojxona bojlarini kamaytirish, sanoat bo‘lmagan tovarlarga bojxona tariflarini tugatish ko‘zda tutilgan.

Biroq, belgilangan muddatlarda, masalan, Nigeriya faqatgina chegaralardagi bojxona postlari sonini kamaytirishga muvaffaq bo‘ldi; chegarani kesib o‘tishda suiiste'mol qilish va kontrabanda holatlari deyarli kamaymadi. Dasturni belgilangan muddatlarda va mintaqadagi boshqa mamlakatlarning aksariyati tomonidan ham bajarilmadi.

Shu bilan birga, 1990-yillarda. ECOWAS mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo faollashdi. 1990 yilda ko‘pgina tovarlar va hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan ichki tariflar bekor qilindi va sanoat tovarlariga bojlarni bosqichma-bosqich
pasaytirish boshlandi.

G‘arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiyoti uchun tashqi savdo aloqalari muhim o‘rin tutadi. Subregionning sakkizta davlatida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 20 foizdan ortig‘i tashqi savdo kanallari orqali amalga oshiriladi. Eksport hajmi eng yuqori bo‘lgan G‘arbiy Afrika mamlakatlari qatoriga quyidagilar kiradi: Kot-D’Ivuar (eksport kvotasi — 49,8%), Mavritaniya (47,7%), Nigeriya (45,3%), Niger (28,6%), Gana (27,5%) va Gvineya (27,1%).

G‘arbiy Afrika mamlakatlari eksporti xom ashyo xarakteriga ega. Shu bilan

birga, subregion mamlakatlari tovar konsentratsiyasining juda yuqori darajasi bilan

ajralib turadi. Shu bilan birga, subregion mamlakatlari eksport tovarlarining yuqori darajadagi konsentratsiyasi bilan ajralib turadi. Masalan, Nigeriyaning eksportining 96 foizi neftdan iborat bo‘lsa, Niger eksportining 59 foizi urandan tashkil topadi. Syerra-Leone eksportining taxminan 50 foizi olmosga to‘g‘ri keladi. Mavritaniya eksportining 40 foizi temir rudasi hisoblanadi. Gvineya eksportining 70 foizdan ortig‘i boksit, alyuminiy, oltin va olmos kabi tabiiy resurslarga to‘g‘ri keladi. Gana uchun esa valyuta tushumining asosiy manbalari oltin va kakao loviyasi eksportidan iborat.

Asosiy eksport ekinlari bo‘yicha ECOWAS Hamjamiyati jahon bozorida yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

Jahon eksportining ikki uchdan bir qismini tashkil etuvchi kakao loviya, yuqori sifatli paxta, yeryong‘oq va yog‘li yeryong‘oq mahsulotlari hamda tropik mevalarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha Hamjamiyat birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, yog‘li palma va kauchuk ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha ikkinchi, kofe ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha esa uchinchi o‘rinni egallaydi.

Hamjamiyat valyuta tushumlarining taxminan 65 foizini ta'minlovchi tog‘-kon sanoati sohasida esa neft va gaz qazib olish yetakchi o‘rin tutadi. Ayni paytda kuniga taxminan 2 million barrel neft qazib olinmoqda.

G‘arbiy Afrika mamlakatlarida tashqi savdoni rivojlantirish istiqbollari asosan tovar eksportini diversifikatsiya qilishga bog‘liq.

2004 yil dekabr oyida Nigeriya, Togo, Benin va Gana o‘rtasida gaz quvurini qurish ishlari boshlandi. Ushbu loyiha nafaqat ishtirokchi davlatlar, balki butun Hamjamiyat uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, ECOWASda bir necha yildan beri gaz va neft quvurlarini barpo etish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ushbu gaz quvuri loyihalarini amalga oshirish Nigeriyadan Benin, Togo va Ganaga energiya yetkazib berishni ta’minlaydi.

Mazkur submintaqaviy energiya tarmog‘i G‘arbiy Afrika davlatlarining o‘sib borayotgan bozorlarini toza va arzon energiya bilan ta’minlab, ECOWAS assotsiatsiyasining iqtisodiy integratsiyasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transport globallashuv jarayonlarining asosiy omili va mintaqaviylashtirish, integratsiya jarayonlari uchun dastak hisoblanadi. Shu bois, Gvineya ko‘rfazida yuqori samarali transport infratuzilmasini yaratish ECOWASning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Afsuski, ECOWAS mamlakatlarining quruqlik transport tarmog‘i yetarlicha rivojlanmagan. Ularning umumiy uzunligi taxminan 1500 km bo‘lgan ko‘plab yo‘llari qurilishi to‘liq tugallanmagan. Shu sababli yangi temir yo‘l liniyalarini qurish bo‘yicha istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu loyihalar orasida Lagosdan Dakargacha Atlantika qirg‘og‘i bo‘ylab, Abidjandan Dakarga Bamako orqali va Uagadugudan Niameygacha bo‘lgan yo‘nalishlar mavjud.

ECOWAS mamlakatlari integratsiyasi, xususan, savdo aloqalarining rivojlanishiga moliyaviy sohadagi muammolar to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli, tashkilotning dastlabki faoliyat yillaridan boshlab asosiy e’tibor valyuta va kredit sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratildi.

Hozirda ECOWASga a’zo mamlakatlarda jami 10 ta milliy valyuta amalda. Shulardan 10 ta mamlakatning fransuz tilida so‘zlashadigan 7 tasi G‘arbiy Afrika valyuta ittifoqi frankidan (XOF) foydalanadi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi 5 davlat hamda Kabo-Verde orollari (portugal tilida so‘zlashadi) esa o‘z milliy valyutalariga ega.

G‘arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyatining bir nechta davlatlari (ECOWAS) joriy qilmoqchi bo‘lgan yagona valyutaning nomi Eko bo‘lib, dastlab jamoaviy valyutani joriy etish 2009 yil 1 dekabrga rejalashtirilgan edi, ammo bu sana avval 2020 yilga, keyin esa 2027 yilga ko‘chirildi.

ECOWAS yetakchilari Akkrada 50 yillik yubiley tantanalarini nishonlashdi. Oltin yubiley Akkrada nafaqat merosni nishonlash, balki mintaqaning eng dolzarb muammolariga qarshi turish uchun yig'ilgan rahbarlar va manfaatdor tomonlarni birlashtirdi.

CHANNEL AFRICA ma'lumotlariga ko‘ra, Oltin yubiley besh o‘n yillik hamkorlikni ko‘rib chiqish va eng muhimi, noaniqlik bilan to‘la davrda oldinga yo‘lni aniqlash uchun bir lahzani taqdim etdi. Muzokaralarda markaziy o‘rinni G‘arbiy Afrika davlatlari o‘rtasida terrorizm va mintaqadagi beqarorlikka qarshi kurashishga qaratilgan razvedka ma’lumotlarini almashish bo‘yicha “Akra tashabbusi” tashkil etdi. Ushbu munozaralar to‘g‘ridan-to‘g'ri ECOWASning tinch, integratsiyalashgan va iqtisodiy jihatdan mustahkam G‘arbiy Afrikani

yaratishga intiladigan 2050 yilga mo‘ljallangan uzoq muddatli qarashlari bilan bog‘liq.

9.2. Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida valyuta birligi va iqtisodiy hamkorlik aloqalari.

Markaziy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati (CEEAC) umumiy aholisi 100 milliondan ortiq bo‘lgan 11 ta davlatni o‘z ichiga oladi. Ushbu davlatlar: *Angola, Burundi, Kamerun, Markaziy Afrika Respublikasi, Kongo Respublikasi, Kongo Demokratik Respublikasi, Chad, Ekvatorial Gvineya, Gabon, Ruanda hamda San-Tome va Prinsipi*dir.

Markaziy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (ECCAS) 1983-yil 18-oktabrda Librevil shahrida imzolangan Konstitutsiyaviy shartnomasi bilan tashkil etilgan. Ushbu shartnoma 2019-yil 18-dekabrda qayta ko‘rib chiqilib, yangilangan va 2020-yil 28-avgustda kuchga kirgan.

Shartnomaga ko‘ra, Hamjamiyatning asosiy maqsadi jamoaviy avtonomiyaga erishish, aholining turmush darajasini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va saqlashdir. Buning uchun siyosiy, xavfsizlik, iqtisodiy, pul-kredit, moliyaviy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va texnik sohalarda Markaziy Afrika mintaqasida hamkorlik va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga ko‘maklashish nazarda tutilgan.

Markaziy Afrika davlatlari integratsiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari.

ECCAS doirasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun davlat va hukumat rahbarlari tomonidan oltita (6) ustuvor integratsiya yo‘nalishi belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. **Siyosiy integratsiya, tinchlik va xavfsizlik:** Ushbu yo‘nalish siyosiy hamkorlik asosida mintaqada barqaror va farovon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash uchun tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashni nazarda tutadi. Tinchlik — har qanday integratsiya jarayonining zaruriy sharti hisoblanadi;

2. **Iqtisodiy va moliyaviy integratsiya:** Bu yo‘nalish umumiy bozor yaratish, shuningdek, mintaqa doirasida tovarlar, kapital va xizmatlarning erkin harakatini ta’minlashga qaratilgan. Iqtisodiy yaqinlashuv moliyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish orqali amalga oshiriladi;

3. **Jismoniy integratsiya (transport va infratuzilma):** Ushbu yo‘nalish avtomobil, temir yo‘l, havo va dengiz transporti aloqalarini rivojlantirish orqali mintaqaviy bozorni moddiy jihatdan bog‘lash, odamlar, tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. U mintaqaviy rejalashtirishni jadallashtirishga qaratilgan;

4. **Atrof-muhit integratsiyasi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish:** Mazkur yo‘nalish kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlikni saqlab qolish bilan birga, submintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini, ishlab chiqarish samaradorligi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, raqobatbardoshlikni oshiradi;

5. **Ijtimoiy integratsiya va inson taraqqiyoti:** Bu yo‘nalish butun Markaziy Afrika bo‘ylab qashshoqlikni yo‘q qilish, sog‘lom turmush

tarzini ta’minlash, sifatli ta’lim va texnik, ilmiy, madaniy bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini berish orqali har bir fuqaroning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Shuningdek, u jinslar o‘rtasidagi tenglikni mustahkamlash va har bir inson uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

6. **Institutsional va tashkiliy islohotlar:** Bu yo‘nalish ECCAS doirasidagi barcha integratsiya mexanizmlarini takomillashtirish, huquqiy va normativ bazani qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, samarali institutsional boshqaruv tizimini barpo etish orqali amalga oshiriladi.

1985-yildan buyon rasmiy ravishda faoliyat yuritib kelayotgan ECCAS (Markaziy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati) ayrim davrlarda faoliyatini susaytirgan. Bunga sherik mamlakatlarning moliyaviy qiyinchiliklari, xususan, a’zolik badallarini to‘lamaslik holatlari va Buyuk ko‘llar mintaqasidagi uzoq davom etgan mojarolar sabab bo‘lgan. Xususan, Kongo Demokratik Respublikasidagi urush, shuningdek, Ruanda va Angola o‘rtasidagi ziddiyatlar mintaqadagi keskinlikni yanada kuchaytirdi.

Bundan tashqari, bir qator ECCASga a’zo davlatlarning boshqa submintaqaviy tuzilmalarda ham ishtirok etishi — masalan, Janubiy yoki Sharqiy Afrika mintaqaviy bloklarida — muammo sifatida emas, balki yagona Afrika hamjamiyatini shakllantirish yo‘lidagi muhim vosita sifatida talqin qilinmoqda. Mutaxassislarning fikricha, Angola, Ruanda, Burundi va Kongo Demokratik Respublikasi Markaziy, Janubiy va Sharqiy Afrika o‘rtasida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradi. Bunday ko‘pyoqlama ishtirok mamlakatlarga turli mintaqalar o‘rtasida

integratsiyani chuqurlashtirish va Afrika qit’asidagi hamkorlik salohiyatidan kengroq foydalanish imkonini beradi.

ECCAS doirasidagi integratsiya jarayoni mamlakatlar kesimida ham, vaqt o‘tishi bilan ham sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish bilan ajralib turadi. Bu esa, birlashma oldida hamkorlik mexanizmlarini yanada uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Markaziy Afrikaning aksariyat mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu soha mintaqadagi o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlaydigan aholining katta qismini bandlik bilan ta’minlaydi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida muhim ulushga ega. Ko‘plab Markaziy Afrika davlatlarida qishloq xo‘jaligi eksportda yetakchi o‘rin tutib, valyuta tushumlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, asosan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan past daromad darajasi, mehnat unumdorligining pastligi, cheklangan jamg‘armalar, ichki talab yetishmasligi hamda jismoniy va inson kapitaliga investitsiyalarning kamligi bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, Markaziy Afrika mintaqasida aholining o‘sish sur’ati global ko‘rsatkichlardan ancha yuqori bo‘lib, o‘rtacha yillik o‘sish 2,7 foizni tashkil etadi (bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 0,7 foiz atrofida). Bu esa demografik bosimni kuchaytiradi hamda iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, aholi sonining tez o‘sishi ishlab chiqarish hajmlariga, bandlik darajasiga va ichki bozorlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir qiladi.

Milliy va mintaqaviy darajada hal etilmagan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

• **Oziq-ovqat xavfsizligining past darajasi:** Aksariyat davlatlar asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi to‘liq ta’minlay olmayapti, bu esa oziq-ovqat importiga yuqori darajadagi qaramlikni yuzaga keltirmoqda.

• **Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyasining yetishmasligi:** Sohaga yo‘naltirilgan iqtisodiy choralarni belgilovchi kompleks dasturlarning ishlab chiqilmagani hamda mavjud resurslardan samarali foydalanilmasligi qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

• **Milliy oziq-ovqat zaxiralarining shakllantirilmaganligi:** Ayniqsa don mahsulotlari bo‘yicha davlat zaxiralarining yetishmasligi inqiroz sharoitlarida aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muammolar keltirib chiqaradi.

• **Tashqi savdo mexanizmining beqarorligi:** Mahsulot narxlari va yetkazib berish zanjirlaridagi nomutanosibliklar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytiradi.

• **Aholining zaif qatlamlarini oziq-ovqat bilan ta’minlashdagi qiyinchiliklar:** Kam ta'minlangan guruhlarning asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga yetarlicha kirish imkoniyatining bo‘lmasligi oziq-ovqat xavfsizligining ijtimoiy o‘lchovini pasaytiradi.

Markaziy Afrikadagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari hamda siyosiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari, asosan, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining samarali rivojlanishiga bog‘liqdir.

Markaziy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyatining (CEEAC) **bosh maqsadi –** mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, jamoaviy mustaqillikka erishish, aholining turmush darajasini oshirish va integratsiyalashgan hamkorlik orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdir.

CEEAC asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash hamda taraqqiyot uchun birgalikda harakat qilish;
- A’zo davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarida bojxona to‘lovlari va boshqa moliyaviy to‘siqlarni bekor qilish;
- O‘zaro savdoda miqdoriy va boshqa tarifsiz cheklovlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish;
- Yagona tashqi bojxona tarifini joriy etish va uni saqlash orqali umumiy bojxona makonini shakllantirish;
- Uchinchi davlatlar bilan savdo-sotiqda yagona tashqi savdo siyosatini ishlab chiqish;
- Xizmatlar, kapital va aholi harakatiga nisbatan mavjud cheklovlarni asta-sekinlik bilan bekor qilish;
- Sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aloqa, energetika, ilm-fan va texnologiya sohalarida hamkorlikni rivojlantirish va milliy siyosatni muvofiqlashtirish;
- Taraqqiyot va hamkorlik fondlarini tashkil etish;
- Kam rivojlangan ishtirokchi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rag‘batlantirish;

- Moliyaviy ko‘mak mexanizmlarini joriy etish hamda dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan davlatlar uchun qulay bojxona sharoitlarini yaratish (Chad, Markaziy Afrika Respublikasi);

• Mintaqada barqaror tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash.

Boshqacha aytganda, CEEAC davlatlari erkin savdo hududi (FTA)dan boshlab, umumiy bozorga qadar bo‘lgan iqtisodiy integratsiya bosqichlarini izchil amalga oshirishga intilishmoqda.

Shuningdek, ular xalqaro maydondagi asosiy hamkor davlatlar, mintaqaviy bloklar va tashkilotlar bilan munosabatlarda umumiy strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga harakat qilmoqda. “Afrika taraqqiyoti uchun yangi hamkorlik” (NEPAD) tashabbusining tamoyillariga amal qilgan holda, uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinmoqda.

Birlashma doirasidagi davlatlar asta-sekinlik bilan o‘zlarining ichki rivojlanish salohiyatini mustahkamlash, integratsion jarayonlarni chuqurlashtirish uchun muhim infratuzilma va institutsional asoslarni shakllantirishga harakat qilmoqda. Biroq, qashshoqlik darajasining yuqoriligi va keng tarqalgan ishsizlik holatlari ushbu maqsadlarga to‘liq erishishni sezilarli darajada murakkablashtirmoqda.

9.3. Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida valyuta birligi va iqtisodiy hamkorlik aloqalari.

Markaziy Afrika valyuta va iqtisodiy hamjamiyati (CEMAC) — bu Markaziy Afrika mintaqasidagi davlatlar o‘rtasida tuzilgan savdo-iqtisodiy ittifoq hisoblanadi. Ushbu tashkilot 1994-yil mart oyida

Ekvatorial Gvineyaning Malabo shahrida, ilgari faoliyat yuritgan Markaziy Afrika Bojxona va Iqtisodiy Ittifoqi (UDEAC) asosida tashkil etilgan. Hamjamiyat tarkibiga quyidagi davlatlar kiradi: *Gabon, Kamerun, Chad, Kongo Respublikasi, Ekvatorial Gvineya va Markaziy Afrika Respublikasi*.

1999-yilda kuchga kirgan bitimga binoan, Markaziy Afrikadagi oltita davlat o‘zaro kelishuv asosida Markaziy Afrika iqtisodiy va valyuta hamjamiyatini (CEMAC) barpo etdi. Ushbu hamjamiyat iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yagona valyuta tizimi orqali valyuta sohasida integratsiya qilish;
- umumiy bozor va bojxona ittifoqi tuzish orqali savdo erkinligini ta'minlash;
- makroiqtisodiy siyosatni o‘zaro moslashtirish;
- soliq siyosatini uyg‘unlashtirish;
- iqtisodiyotning turli sohalarida hamkorlik dasturlarini muvofiqlashtirib borish.

Mazkur iqtisodiy hamjamiyat rivojlanishida bir qator muammolar mavjud. Ular jumlasiga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasining farqlanishi, milliy iqtisodiyotlarning yetarlicha diversifikatsiyalanmaganligi, infratuzilmaning sust rivojlangani hamda ayrim davlatlarda kuzatilayotgan siyosiy beqarorlik kiradi.

Shunga qaramay, hamjamiyat o‘z oldiga Markaziy Afrika davlatlari o‘rtasida bosqichma-bosqich umumiy bozorni shakllantirish va uni amaliyotda samarali faoliyat yurituvchi iqtisodiy makonga

aylantirish vazifasini qo‘ygan.

MAQSADLAR CEMAC iqtisodiy ittifoq va valyuta ittifoqini tashkil etish doirasida tinchlik va o‘ziga a'zo davlatlarning uyg'un rivojlanishiga ko‘maklashishga qaratilgan. Ushbu ikki sohaning har birida a'zo davlatlar iqtisodiy va valyuta integratsiyasi jarayonini yakunlash va kam rivojlangan a'zo davlatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘zaro yordamni yaxshilash uchun hamkorlikdan ittifoq holatiga o‘tish niyatida.

CEMAC doirasidagi integratsiya faoliyati natijalari kamtarona bo‘lsha ham, ammo aniq. So‘nggi yillarda hamjamiyat doirasidagi savdo hajmi sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Biroq, o‘zaro savdoning tuzilmasi hali ham milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi past bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Hamjamiyat ichida savdoga chiqarilayotgan mahsulotlarning assortimenti cheklangan bo‘lib, asosan neft va uning mahsulotlari, ayrim turdagi oziq-ovqatlar hamda qurilish materiallari bilan chegaralanadi. Ushbu mahsulotlar mintaqa ichidagi savdo aylanmasining katta qismini tashkil etadi. Shunga qaramay, savdo hajmidagi o‘sish CEMAC davlatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Aytish joizki, bu ijobiy dinamika, asosan, 2000–2010 yillar oralig‘ida jahon neft bozorida yuz bergan o‘sish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Integratsiya tashabbuslarida qo‘shma loyihalar muhim o‘rin tutadi. Bu borada Chad–Kamerun neft quvuri loyihasi yaxshi misol bo‘la oladi. Taxminan 3,7 milliard AQSh dollari miqdorida baholangan mazkur loyiha mintaqadagi eng yirik infratuzilma tashabbuslaridan biri

hisoblanadi. Mazkur loyiha, ayniqsa, dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan va iqtisodiyoti zaif rivojlangan Markaziy Afrika mamlakatlari uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Submintaqada integratsion jarayonlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- hamjamiyat a’zolari o‘rtasidagi transport va aloqa infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi;
- iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pastligi;
- milliy iqtisodiyotlarning zaifligi hamda ularning, ayniqsa, neft eksportiga nisbatan jahon bozoriga kuchli darajada bog‘liqligi;
- iqtisodiy jihatdan o‘zaro to‘ldiruvchanlikning mavjud emasligi;
- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda sezilarli tafovutlarning mavjudligi;
- submintaqa miqyosida yetakchi “rivojlanish markazi” (yoki gegemon davlat)ning yo‘qligi.

Mintaqaviy institutlarning ko‘pligi, ular o‘rtasida organik aloqalar mavjud emasligi jiddiy institutsional kamchilik deb hisoblash mumkin. Bu mintaqaviy bozorning atomizatsiyasiga, mablag'larning tarqalishiga, siyosiy kurashning keskinlashuviga olib keladi.

Ushbu muammolar mintaqalararo hududiy va boshqa mojarolarning mavjudligi va bir qator rahbarlarning mintaqada dominant rol o‘ynashga intilishi bilan kuchayadi. Ushbu qoida mintaqa uchun samarasiz tashabbuslarni amalga oshirishga olib keladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy integratsiyaga tashqi tahdidlar mavjud. Shunday qilib, Semak mamlakatlari Nigeriya, Sudan, Kongo demokratik

Respublikasi va Angoladagi mojarolarning oqibatlariga duch kelishmoqda. 2002 yilda BMT xalqaro sudi Kamerunning (Nigeriya bilan ziddiyatda) chegaradagi Bakassi oroliga(neftga boy bo‘lishi mumkin) egalik qilish huquqini tan oldi. Neft narxlaridagi o‘zgaruvchanlik mintaqa uchun muhim tashqi tahdidlardan biri hisoblanadi. Bu holat qisqa muddat ichida neft eksport qiluvchi hamda import qiluvchi davlatlar uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va integratsion yaqinlashuv mezonlariga erishishda jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Importga tayanadigan mamlakatlar uchun asosiy oqibat — to‘lov balansidagi salbiy o‘zgarishlar bo‘lsa, eksport qiluvchilar uchun bu jarayon inflyatsiya bosimining kuchayishi hamda boshqa iqtisodiy tarmoqlarning raqobatbardoshligini susaytirishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan CEMAC mintaqaviy darajada yuzaga kelayotgan ichki va tashqi makroiqtisodiy xatarlarni boshqarishga yo‘naltirilgan siyosatni shakllantirishga harakat qilmoqda.

Ushbu siyosat quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- joriy hisobdagi kamomadni kamaytirish maqsadida davlat moliyasini barqarorlashtirish va budjet daromadlarining o‘sishini rag‘batlantirish;
- milliy valyuta kurslarining mo‘tadil darajada pasayishini ta’minlash orqali raqobatbardoshlikni saqlab qolish.

Nazorat savollari

1. Afrika qit’asidagi integratsiya jarayonining xalqaro iqtisodiyot kontekstidagi asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Afrikada yuzaga kelayotgan birlikni buzuvchi asosiy sabablar qanday?

3. G‘arbiy Afrika mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini qanday ta’riflash mumkin?

4. G‘arbiy Afrika davlatlari tashkiloti (ECOWAS) va G‘arbiy Afrika iqtisodiy hamda valyuta ittifoqi (UEMOA) doirasida integratsiyaning o‘ziga xos jihatlari qanday ifodalanadi?

5. Markaziy va Sharqiy Afrika mintaqalaridagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari qanday kechmoqda?

6. Markaziy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (CEMAC) doirasidagi integratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Sharqiy, Janubiy, Markaziy va Shimoliy Afrika mintaqalaridagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini umumiy tarzda qanday tasvirlash mumkin?

X-BOB. MDH MAMLAKATLARI MIQYOSIDAGI INTEGRATSION RIVOJLANISH

10.1. MDH davlatlarining global iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.

10.2. MDH doirasidagi integratsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar va kelajak istiqbollari.

10.3. O‘zbekiston bilan MDH mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion aloqalarning rivojlanish jarayoni

Tayanch iboralar: xalqaro mehnat taqsimoti, ma’naviy salohiyat, neft zaxiralari, iqtisodiy salohiyat, milliy xo‘jaliklar integratsiyasi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, tashqi savdo aylanmasi.

10.1. MDH davlatlarining global iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.

Fan va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy ixtisoslashuv yanada chuqurlashib bormoqda. Bu esa mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishiga hamda bir mintaqada joylashgan davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarining jadallashishiga olib kelmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, hududiy integratsion tashkilotlarga a’zo davlatlar globallashuv sharoitlariga tezroq moslasha oladi va xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi ham turli xalqaro va mintaqaviy integratsion tuzilmalarda faol ishtirok etish orqali o‘zining tabiiy, iqtisodiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan to‘liq foydalanishga, shuningdek, jahon xo‘jaligi tizimida munosib o‘rin egallashga intilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi), Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi muhim xalqaro va mintaqaviy integratsiya tuzilmalariga qo‘shildi. Bu esa respublika oldida turgan dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy integratsiya tuzilmalariga a’zo bo‘ldi. Bu a’zolik mamlakatimizda dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida MDHga kiruvchi respublikalar o‘zaro chuqur iqtisodiy integratsiyaga ega bo‘lgan va uzoq yillar shakllangan yaqin hamkorlik aloqalari mavjud edi. Bugungi kunga kelib ham bu mamlakatlar iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridagi o‘xshashlik, yagona geografik hududda joylashgani, umumiy suv va energiya resurslariga egaligi, transport-kommunikatsiya tarmoqlarining o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ekologik muammolarning umumiyligi MDH davlatlari o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning davom etishiga zamin yaratmoqda.

Hozirgi bosqichda esa mustaqillikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish va global xo‘jalik tizimida munosib o‘rin egallash yo‘lida MDH davlatlarining iqtisodiy, intellektual va ma’naviy salohiyatlarini birlashtirish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Sobiq Ittifoq davrida MDHga a’zo bo‘lgan davlatlar iqtisodiyotlari o‘zaro kuchli integratsiyalashgan edi. Masalan, 1990-yilda ittifoq respublikalari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi umumiy ichki mahsulotning 20 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Yevropa Ittifoqida atigi 14 foizga teng bo‘lgan. Ayrim respublikalarda, xususan Rossiya, Ukraina, Belorus va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 80 foizdan ortig‘i boshqa ittifoqdosh davlatlarga yetkazib berilgan.

1991-yil dekabr oyida Belarus, Ukraina va Rossiya rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini tashkil etish haqidagi bitimni imzoladilar. Ushbu hujjatda sobiq Ittifoq xalqaro huquqiy va geosiyosiy subyekt sifatida faoliyatini yakunlagani va uning o‘rniga MDH tashkil etilgani rasman e’lon qilindi. Dastlab ushbu tuzilmaga Belarus, Qozog‘iston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va Ukraina qo‘shildi. 1992-yilda Armaniston, Moldova, Qirg‘iziston va O‘zbekiston, 1993-yilda esa Ozarbayjon va Gruziya ham Hamdo‘stlikka a’zo bo‘ldilar.

1991–1994-yillarda, ya’ni MDH faoliyatining dastlabki davrida, tashkilotga a’zo davlatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarida milliy manfaatlarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab oldilar. Mustaqillikka erishgan respublikalar bir vaqtning o‘zida ikki asosiy vazifani amalga oshirish zarurati bilan yuzma-yuz kelishdi: birinchidan, iqtisodiyotni bozor tamoyillariga asoslangan tizimga o‘tkazish, ikkinchidan esa milliy iqtisodiy strukturalarni chuqur isloh qilish.

Ushbu vazifalarni bajarish nafaqat katta hajmdagi investitsiyalarni talab qildi, balki aholining bozorga oid dunyoqarashini shakllantirish, samarasiz iqtisodiy bog‘liqliklardan voz kechish va yangi bozor

munosabatlariga asoslangan aloqalarni yo‘lga qo‘yishni ham zarur qildi. Bu o‘zgarishlar natijasida MDH davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo hajmi sezilarli darajada qisqardi. Aksariyat respublikalar iqtisodiy hamkorlikda uzoq xorijdagi davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishni ustun yo‘nalish sifatida tanladilar.

Mutaxassislarning baholashicha, sobiq ittifoq respublikalari o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarining izdan chiqishi natijasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi 35–40 foizga kamaygan.

MDH doirasida qabul qilingan ilk muhim hujjatlardan biri bu — 1993-yil sentabr oyida imzolangan Iqtisodiy ittifoq to‘g‘risidagi Shartnoma hisoblanadi. Ushbu hujjatda Hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy integratsiyani bosqichma-bosqich chuqurlashtirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat edi:

- davlatlararo darajadagi erkin savdo hududini shakllantirish;
- yagona bojxona ittifoqini barpo etish;
- tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi uchun umumiy bozori yaratish;
- yagona valyuta ittifoqini tashkil etish.

1994-yil aprel oyida MDH davlatlari o‘rtasida erkin savdo zonasini tashkil etish bo‘yicha bitim imzolandi. Shu yili, oktyabr oyida esa to‘lov ittifoqi va Iqtisodiy ittifoqning doimiy faoliyat yurituvchi organi sifatida “Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita (DIQ)”ni tuzish haqidagi kelishuvga erishildi.

MDHning shakllanishi esa o‘z navbatida uzoq yillar davomida yuzaga kelgan o‘zaro chuqur integratsion bog‘liqlik, mamlakatlar

miqyosida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, turli korxona va sohalar o‘rtasidagi keng ko‘lamli kooperatsiya hamda umumiy infratuzilmaning mavjudligi kabi obyektiv omillar bilan bog‘liq edi.

MDH mamlakatlari katta tabiiy, insoniy va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu omillar Hamdo‘stlik davlatlariga jahon iqtisodiyotida raqobatdosh ustunliklar yaratish va mustahkam o‘rin egallash imkonini beradi. Umuman olganda, MDH hududi Yer shari maydonining qariyb 16,3 foizini, aholisi esa dunyo aholisining 5 foizini tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishining esa 10 foizi ushbu mintaqaga to‘g‘ri keladi.

Hamdo‘stlik doirasida xalqaro bozor talablariga mos va muhim bo‘lgan ko‘plab tabiiy resurslar zaxiralari mavjud. Masalan, faqatgina Rossiya neft zaxiralari hajmi bo‘yicha jahonning 13 foiz ulushiga ega. Ozarbayjonning ulushi 10 foizdan ortiq, Qozog‘iston va Turkmanistonda esa bu ko‘rsatkich deyarli 10 foizga teng. Jahon bo‘yicha aniqlangan tabiiy gaz zaxiralarining 35 foizi Rossiyada joylashgan. Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston esa birgalikda 20 foizga yaqin gaz zaxiralariga ega. Albatta, bu ko‘rsatkichlar nisbiy bo‘lib, ayrim manbalarda MDH davlatlarining energetik resurslari bundan ham ko‘proq baholanadi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, Qozog‘iston hududida neft zaxiralari 1 dan 1,7 trillion barrelgacha baholanadi, bu esa jahon umumiy neft zaxiralarning taxminan 2 foizini tashkil etadi. Boshqa ma’lumotlarga qaraganda, butun Markaziy Osiyo mintaqasining neft va gaz boyliklari qiymati 3 trillion AQSh dollariga teng deb baholanmoqda. Agar bu raqamlarga Kaspiy dengizi atrofidagi hududlar resurslarini ham

qo‘shsak, ko‘rsatkichlar ancha yuqori bo‘ladi. Kaspiy mintaqasida tabiiy gaz zaxiralari 1,4 trillion kub metrni, aniqlangan neft zahiralari esa 0,7 dan 1 trillion tonnagacha baholanadi. Bu raqamlar asosida shuni aytish mumkinki, neft-gaz zahiralari bo‘yicha MDH hududi dunyoda Fors ko‘rfazidan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Shu sababli ko‘plab xalqaro tahlilchilarning ta’kidlashicha, bugungi kunda shakllanib borayotgan yangi global siyosiy va iqtisodiy muvozanatda kuchlar nisbati ko‘p jihatdan yangi mustaqil davlatlarning tutgan yo‘liga bog‘liq bo‘ladi.

Energetik resurslardan tashqari, ko‘mir sohasida ham MDH davlatlari muhim o‘rin tutadi: Rossiya, Ukraina va Qozog‘iston toshko‘mir hamda qo‘ng‘ir ko‘mir ishlab chiqarish bo‘yicha jahon miqyosida ikkinchi o‘rinda turadi. Qimmatbaho metallar va foydali qazilmalar borasida esa Rossiya olmos, boksit, mis, nikel, kobalt va qo‘rg‘oshin konlariga boy. Temir rudasi, boksit va mis konlarining katta qismi esa Ukraina, Qozog‘iston va Gruziya hududlarida joylashgan.

Rossiya va O‘zbekiston oltin zahiralari bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. O‘zbekistonda 40 dan ortiq konlarda jami taxminan 4 ming tonnadan ziyod oltin zaxirasi mavjud. Respublika oltin ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha dunyo miqyosida 7-o‘rinda, oltin zahiralari bo‘yicha esa 4-o‘rinda turadi. MDH davlatlari orasida esa Rossiyadan keyin 2-o‘rinni egallaydi. Kishi boshiga oltin ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha esa dunyoda 5-o‘rinda va MDHda 1-o‘rinda joylashgan. Bundan tashqari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda ham oltin konlari mavjud.

MDH hududida platina (Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston) va kumush (Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston) kabi boshqa qimmatbaho metallar ham katta zaxiralarga ega.

Qozog‘istonda dunyodagi jami uran zahiralarining taxminan 10 foizi joylashgan bo‘lsa, O‘zbekiston ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha jahonda 7-8-o‘rinni egallaydi. Tojikistondagi uran zaxiralari esa biroz kamroq hisoblanadi.

Kimyo sanoatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan turli xil qazilma boyliklar mavjud. Fosforitlarning asosiy zaxiralari Qozog‘iston hududida joylashgan. Rossiya va Belarus esa dunyodagi eng katta o‘rmon maydonlariga ega bo‘lib, yer yuzidagi o‘rmonlarning to‘rtdan bir qismi shu hududlarda joylashgan. Shuningdek, bu davlatlarda kaliy tuzi zaxiralari ham juda katta.

Yevropa va Janubiy-Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi eng qisqa quruqlik yo‘li va dengiz yo‘li (xususan, Shimoliy Muz okeani orqali) MDH hududidan o‘tadi, va XXI asrda bu yo‘l global iqtisodiy markazga aylanishi kutilmoqda.

MDHning raqobatbardosh ustunliklari orasida arzon ishchi kuchi va energiya resurslari ham bor. Har yili MDH hududida jahon elektr energiyasining taxminan 10 foizi ishlab chiqariladi, bu esa mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

MDH mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasining asosiy strategik vazifalari sifatida xalqaro mehnat taqsimotidan to‘liq foydalangan holda ishlab chiqarishda ixtisoslashuv va hamkorlikni rivojlantirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda Hamdo‘stlikdagi barcha davlatlar aholisi turmush darajasini yaxshilash maqsadlari belgilangan.

MDH doirasida qabul qilingan bitim va shartnomalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagi asosiy tamoyillar qabul qilingan:

- integratsion jarayonlar ixtiyoriylik tamoyili asosida, shuningdek, ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlar orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;
- hududiy integratsiya o‘zaro manfaatlarga tayangan holda va hamkor davlatlarga zarar yetkazmaslikka katta e’tibor qaratiladi;
- zarur hollarda MDH ishtirokchilariga ularning mas’uliyati doirasida hamda aniq iqtisodiy natijalarni ko‘zlab jamoaviy yordam ko‘rsatiladi;
- hamkor mamlakatlarda iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun barcha zaruriy yordam taqdim etiladi;
- mamlakatlararo munosabatlarda bozor subyektlari o‘rtasidagi teng huquqli aloqalar ustuvorlik kasb etadi, mikrodarajadagi integratsion jarayonlar va yangi iqtisodiy hamkorlik shakllari kengaytiriladi.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash uchun turli tadbirlar ko‘rilayotganiga qaramay, MDH mamlakatlarining iqtisodiy bog‘lanishi darajasi hali ham past bo‘lib qolmoqda.

2017-yilda so‘nggi yillardagidan farqli o‘laroq, MDHga a’zo davlatlarda tovarlar tashqi savdosining asosiy ko‘rsatkichlarida o‘sish kuzatildi. Masalan, 2018-yilda MDHga a’zo davlatlarda tovarlar tashqi savdosining asosiy ko‘rsatkichlari o‘sishi davom etdi.

2018-yilda Hamdo‘stlik mamlakatlari bo‘yicha umumiy hisobda 2017-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasining qiymati 17,4 foizga, eksport 23,2 foizga, import 9,5 foizga o‘sdi.

10.1-jadval

MDHga a’zo davlatlarning 2018 yildagi tashqi savdosi

Savdo operatsiyalari	milliard AQSh dollari	2017 yilga nisbatan %
MDHga a'zo davlatlarning tashqi savdosining umumiy hajmi	1 044,4	117,4
Eksport	630,6	123,2
Import	413,8	109,5
shu jumladan:		
o‘zaro savdo:	191,5	111,7
Eksport	97,2	111,6
Import	94,3	111,8
xorijiy davlatlar bilan savdo:	852,9	118,7
Eksport	533,4	125,6
Import	319,5	108,8

2018-yilda MDHga a’zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 11,7 foizga, MDHdan tashqari davlatlar bilan esa 18,7 foizga oshgan. 2018 yilda MDHga a’zo davlatlarga eksport 11,6 foizga, dunyoning boshqa mamlakatlariga 25,6 foizga, MDHga a’zo davlatlardan import 11,8 foizga, dunyoning boshqa davlatlariga 8,8 foizga oshdi (10.1-jadval).

10.2-jadval

2018-yilda MDHga a’zo davlatlar tovarlari bilan eksport-import operatsiyalarining umumiy hajmi

MDHga a'zo davlatlar	Eksport		Import	
	Million AQSh dollari	2018% da 2017 yilgacha	Million AQSh dollari	2018% da 2017 yilgacha

MDHga a'zo davlatlar	Eksport		Import	
	Million AQSh dollari	2018% da 2017 yilgacha	Million AQSh dollari	2018% da 2017 yilgacha
Ozarbayjon	19 458,6	127	11 464,9	130,5
Armaniston	2 411,9	107,8	4 963,2	121,1
Belarus	33 726,1	115,3	38 408,9	112,2
Qozoqiston	60 956,2	125,7	32 533,5	109,9
Qirg‘iziston	1 764,6	100,02	4 907,4	109,2
Moldova	2 706,9	111,6	5 764,3	119,3
Rossiya	449 963,7	125,8	238 151,4	104,7
Tojikiston	1 073,3	89,6	3 149,5	113,5
O‘zbekiston	11 228	111,4	17 314,5	143,9
Ukraina	47 339,9	109,4	57 141	115,2
MDHga a’zo davlatlar uchun jami	630 629,2	123,2	413 798,6	109,5

MDHga a’zo barcha davlatlarda tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmi oshdi. Eng sezilarli o‘sish Ozarbayjonda (28,3 foizga), Qozog'istonda (19,7 foizga) va O‘zbekistonda (29,1 foizga) kuzatildi.

2018 yilda Hamdo‘stlik mamlakatlari bo‘yicha savdo aylanmasining ijobiy saldosi 216,8 milliard AQSH dollarini (2017 yilga nisbatan 61,9 foizga ko‘p) tashkil etdi (Ozarbayjon, Qozog‘iston va Rossiyadagi ijobiy saldo hisobiga).

Savdo balansida eng katta kamomad Belarus, O‘zbekiston va Ukrainada kuzatildi - 4,7; 6,1 va 9,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi (10.2.-jadval).

Umuman olganda, MDH davlatlarining global iqtisodiyotdagi o‘rni va rolini tahlil qilar ekanmiz, shuni alohida qayd etish zarurki, ushbu mamlakatlar mineral xom ashyo hamda yoqilg‘i-energetika resurslari bo‘yicha jahonda yetakchi hisoblanishiga qaramay, tayyor mahsulotlar

bozorida ularning pozitsiyasi ancha zaifligicha qolmoqda. Bu esa iqtisodiyotda bozor munosabatlarini chuqurroq joriy etishni, amalga oshirilayotgan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazishni hamda jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi.

Bu chora-tadbirlarning muvaffaqiyati, avvalo, MDH doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, Hamdo‘stlik hududida yagona iqtisodiy makon yaratish hamda mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni tashkil etish va ularning huquqiy asoslarini takomillashtirishga bog‘liq. Shu bilan birga, bu jarayonlarda O‘zbekistonning mavjud iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotgani ham kuzatilmoqda.

10.2. MDH doirasidagi integratsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar va kelajak istiqbollari.

MDH doirasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalasi davlatlar mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq ko‘plab ijobiy fikrlar va tashabbuslar bilan kuzatilgan. Davlat rahbarlari tomonidan maqsadga muvofiq bitimlar va kelishuvlar imzolangan bo‘lishiga qaramasdan, amalda bu jarayonlar sekin va sust rivojlanmoqda. Aksincha, MDH respublikalari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda dezintegratsion tendensiyalar kuchayib bormoqda. Mamlakatlararo tovar almashinuvi hajmining kamayishi hamda respublikalar yalpi ichki mahsulotida o‘zaro savdo ulushining pasayishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Nega MDHda dezintegratsiya jarayonlari hanuzgacha davom etmoqda? Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plab manbalarda bu holatning sabablari siyosiy omillar bilan bog‘lanadi. Ba’zi adabiyotlarda

integratsiyaga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omil sifatida mustaqillik eyforiyasi, davlat rahbarlarining yangidan qo‘lga kiritilgan suverenitetni boy berishdan qo‘rqishi natijasida vujudga kelgan pessemistik kayfiyat ta’kidlanadi. Ayrim manbalarda esa integratsiya jarayonlarining sekinlashuvi tashqi davlatlar, jumladan AQSh siyosiy ta’siri bilan bog‘lanadi. Bu fikrlarda ma’lum darajada haqiqat bo‘lishi mumkin. Biroq, masalaning mohiyatini aynan shu sabablar bilan izohlash yetarli emas.

Aslida, milliy xo‘jaliklar integratsiyasi — bu o‘z ichki qonuniyatlariga asoslangan holda shakllanadigan iqtisodiy jarayondir. A’zo davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy chora-tadbirlar qanchalik ahamiyatli bo‘lmasin, ular hal qiluvchi omil emas. Bunday chora-tadbirlar integratsiya jarayonlarini yengillashtirishi yoki murakkablashtirishi, tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ammo ular mustahkam iqtisodiy asos va zarur sharoit mavjud bo‘lmagan hollarda bu jarayonni vujudga keltira olmaydi. Shu sababli, integratsiya jarayonlarining sekinlashuviga sabab bo‘layotgan omillarni avvalo iqtisodiy sohada izlash zarur.

Ma’lumki, milliy xo‘jaliklarning integratsiyalashuvi bozor munosabatlari va erkin tadbirkorlik asosida rivojlanayotgan mamlakatlar orasida yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, integratsiya avvalo sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo korxonalari, banklar va boshqa iqtisodiy subyektlarning o‘zaro bevosita aloqalari orqali shakllanadi. Ana shunday chuqur bog‘liqlik ularni asta-sekin hududiy miqyosdagi yirik ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga aylantiradi. Bu jarayon nafaqat har bir a’zo mamlakatga iqtisodiy manfaat keltiradi, balki mamlakatlar o‘rtasidagi

iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuviga mustahkam poydevor yaratib, ularni yangi sifat darajasiga olib chiqadi.

Aksincha, bozor munosabatlariga zid, ma’muriy-buyruqbozlik usullariga asoslangan iqtisodiy aloqalar esa muvaffaqiyatsizlikka mahkumdir. Buning yorqin misoli sifatida O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashini keltirish mumkin. U hukumatlararo kelishuv asosida tuzilib, mamlakatlarning o‘zaro tovar yetkazib berishi yo‘lida faoliyat yuritgan, asosan harbiy-siyosiy manfaatlar doirasida shakllangan edi. Shu sababli ushbu iqtisodiy blok ilk davrda muvaffaqiyatsizlikka duch keldi. Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, MDH mamlakatlari bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o‘tmas ekan, ularning o‘zaro integratsiya jarayonlari rivojlanmaydi.

Bugungi kunda bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni MDHning har bir mamlakatida turlicha sur’atlarda amalga oshmoqda. Ayrim mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning katta qismi nodavlat sektori tomonidan yaratilsa, boshqalarida davlat sektori ulushi hanuz yuqori darajada saqlanmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faqat yuqori darajada sanoatlashgan va iqtisodiy jihatdan diversifikatsiyalashgan milliy xo‘jaliklar integratsiyalashuvga erisha oladi. Bunday mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yuzlab turdagi tayyor mahsulotlar o‘zaro almashinuvi tashkil etilib, ular bir-birini to‘ldiradi. Ana shunday sharoitlarda xalqaro miqyosdagi tadbirkorlik va biznes rivojlanishi uchun qulay muhit yuzaga keladi.

MDH mamlakatlarining aksariyati agrar-industrial xarakterga ega iqtisodiyot tizimiga ega. Bu esa, asosan, respublikalar sobiq Ittifoq

davrida xomashyo yetkazib beruvchi baza sifatida shakllangani bilan bog‘liq. Ittifoqdan meros bo‘lgan bu iqtisodiy tizim hozirgi kunda ham qishloq xo‘jaligi va mineral xomashyo resurslarini qayta ishlash hamda foydalanishda ichki mintaqaviy kooperatsiyaning past darajasi va umuman ichki mintaqaviy savdo-iqtisodiy munosabatlarning sekin rivojlanishini belgilab bermoqda.

MDH doirasida integratsion aloqalarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri respublikalar rivojlanish darajasi o‘rtasidagi sezilarli tafovutdir. A’zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biridan ancha farq qiladi, bu esa integratsiya jarayonlarini murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, milliy valyutalarning barqarorligi turlicha, kapital harakati sohasida mavjud cheklovlar, transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi farqlari va boshqa omillar ham MDH doirasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

MDH mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda asosiy to‘siq — bu tashkiliy-huquqiy bazaning zaifligi va hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Shuningdek, a’zo davlatlarning iqtisodiy salohiyatining notengligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarining farqliligi hamda milliy qonunchilik hujjatlarining muvofiqlashtirilmaganligi integratsiya imkoniyatlarini cheklashga olib kelmoqda.

Biroq MDHga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi integratsion aloqalarni yanada chuqurlashtirish uchun erkin savdo zonalarini tashkil etish, to‘lov ittifoqini shakllantirish, yagona kommunikatsion va axborot

makonini yaratish, ilmiy-texnika va texnologik hamkorlikni rivojlantirish kabi choralar amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, a’zo davlatlarning investitsiya salohiyatlarini integratsiyalash va kapital oqimini samarali yo‘lga qo‘yish Hamdo‘stlik doirasida hal qiluvchi ahamiyatga ega masalalardan biridir.

Ta’kidlash lozimki, MDH doirasida savdo aloqalari integratsion jarayonlarning poydevori hisoblanadi. Savdo munosabatlarining rivojlanishi bosqichma-bosqich erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va yagona iqtisodiy hududning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashuvi ishlab chiqarish samaradorligini quyidagi yo‘nalishlarda oshirishga xizmat qiladi:

- Integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida milliy xo‘jaliklarning tarmoq tarkibi takomillashadi, chunki iqtisodiy hudud doirasida samarali ishlab chiqarish tarmoqlari tanlanadi va kapital qo‘yilmalar iqtisod qilinadi. Bu esa import qilinadigan mahsulotlar bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdan voz kechish imkonini beradi;
- Mintaqaviy integratsion tashkilot a’zosi bo‘lgan har bir mamlakatda zamonaviy ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanadi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, mahsulotlarning texnik darajasi va sifati yaxshilanadi;
- Fan va texnika sohasida yagona siyosat yuritilishi va integratsiyaning chuqurlashuvi fan-texnika taraqqiyotini

jadallashtirishga, hamda uning natijalarini amaliyotga joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi;

- MDH doirasida tovarlar umumiy bozorining shakllanishi o‘zaro tovar almashinuvi hajmini oshiradi. Yirik hajmdagi mahsulotlar bo‘yicha yagona eksport siyosatini yuritish jahon bozoridagi mavqeini yaxshilashga va global bozor kon’yunkturasidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga imkon yaratadi;
- Xizmatlar umumiy bozorining shakllanishi gorizontal iqtisodiy aloqalarning rivojlanishini ta’minlab, qo‘shma korxonalar, birlashmalar va firmalar tashkil etilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada yangi samarali xo‘jalik aloqalari yuzaga keladi va rivojlanadi;
- Mehnat resurslari umumiy bozorining shakllanishi mamlakatlararo ishchi kuchi harakatining faollashishiga, kadrlar tayyorlash va ulardan foydalanish samaradorligining oshishiga, shuningdek bandlik tarkibining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

10.3. O‘zbekiston bilan MDH mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion aloqalarning rivojlanish jarayoni

O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ko‘p jihatdan mamlakatning jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuvi va eksport salohiyatini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligiga bog‘liqdir. Hozirgi bosqichda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish O‘zbekistonning XXI asr boshidagi rivojlanish strategiyasining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiyotning ochiqlik darajasini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda mamlakat eksport salohiyatining ichki imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuv bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratdi. Buning yorqin misoli sifatida O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etayotganini ko‘rsatish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti kabi nufuzli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘ldi.

Bundan tashqari, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha asosiy unsurlari yangidan shakllantirildi. Jumladan, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi, keyinchalik u Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligiga aylantirildi. Shuningdek, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki va boshqa muhim tashqi iqtisodiy institutlar tashkil qilinib, faoliyat yurita boshladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini shakllantirish borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1991-yil 10-iyul kuni «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida» (2000-yil 26-mayda yangi tahrirda), 1998-yil 30-aprelda «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida», 1998-yil 30-aprelda

«Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning asosiy qoidalari va tamoyillari, uning subyektlari va obyektlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qonuniy asoslari, xorijiy investorlarning huquq va majburiyatlari o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z eksport salohiyatini oshirishda ichki imkoniyatlari va qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan mahsulot turlariga tayanmoqda. Eksport hajmining o‘sishi barqaror valyuta tushumlarini ta’minlash, shuningdek, jahon xo‘jalik tizimida mamlakatning o‘ziga xos o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida MDH mamlakatlari alohida o‘rin egallaydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz Hamdo‘stlik tashkil etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, uning muassislaridan biri sifatida faol ishtirok etdi. Hozirgi kunda ham O‘zbekiston MDH mamlakatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Shunga qaramay, so‘nggi yillarda MDH mamlakatlarining O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi pasayish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Buning bir qator sabablari mavjud. Jumladan, respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, sobiq Ittifoq davrida shakllangan, ishlab chiqarish va eksportda xom ashyo mahsulotlari ustuvorligi bilan tavsiflangan biryoqlama iqtisodiy tuzilmadan voz

kechish zarurati vujudga keldi. Bu masala respublikaning yangi iqtisodiy siyosatida muhim ustuvorliklardan biri sifatida kun tartibiga chiqdi.

Birinchi mustaqillik yillarida sobiq Ittifoq tarkibida mavjud yagona to‘lov tizimining ishdan chiqishi, shuningdek, turli respublikalarda joylashgan korxonalar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda yuzaga kelgan qiyinchiliklar iqtisodiy inqiroz jarayonini yanada chuqurlashtirdi. Bunda, korxonalar to‘lovga layoqatlilik darajasining keskin pasayishi va inflyatsiya sur’atlarining yuqoriligi ham muhim rol o‘ynadi. Shunday iqtisodiy muhitda sobiq ittifoq davlatlari bilan samarasiz iqtisodiy bog‘liqlikni to‘xtatish, buning o‘rniga uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish muqarrar zaruratga aylandi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston tashqi savdo siyosatida uzoq xorij davlatlariga ustuvorlik berilishi mavjud eksport tarkibi bilan bevosita bog‘liq edi. Ya’ni, eksport hajmining katta qismini jahon bozorida barqaror talabga ega bo‘lgan xom ashyo resurslari tashkil etgani bu yo‘nalishda hamkorlikni kengaytirishni taqozo qilardi.

Shu bilan birga, mamlakatda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar, shuningdek, importni diversifikatsiyalashga qaratilgan siyosat hamda bozor mexanizmlarining joriy etilishi zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyalarni import qilish zaruriyatini kuchaytirdi. Bu esa o‘z navbatida rivojlangan xorijiy davlatlarning O‘zbekiston importidagi ulushining ortishiga olib keldi.

1994-yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lib, ularning ulushi 58 foizni tashkil etgan. Biroq keyingi yillarda bu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasini namoyon etdi va 2012-yilga kelib 47,3 foizgacha

qisqardi. Aksincha, uzoq xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarining faollashuvi natijasida 1994–2007-yillar oralig‘ida bu guruh mamlakatlarining tashqi savdodagi salmog‘i 42 foizdan 52,7 foizgacha oshdi. Bu esa tashqi iqtisodiy siyosatda geografik diversifikatsiya jarayonining kuchayganligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonning tashqi savdo aloqalarida MDH mamlakatlari ulushining bosqichma-bosqich kamayib, uzoq xorijiy davlatlar bilan hamkorlik ulushining ortib borishiga bir qator muhim omillar sabab bo‘lgan. Jumladan:

- Markazlashgan rejali baholardan bozor mexanizmlariga asoslangan narx tizimiga o‘tish savdo aloqalari samaradorligini baholash mezonlarini tubdan o‘zgartirdi. Natijada ilgari foydali deb hisoblangan ko‘plab iqtisodiy aloqalar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Bundan tashqari, MDHga a’zo davlatlarning har biri endi faqat hamdo‘stlik doirasidagina emas, balki boshqa mintaqalardan ham iqtisodiy sherik tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi, bu esa tovarlar oqimining qayta taqsimlanishiga olib keldi va o‘zaro savdo hajmining qisqarishiga sabab bo‘ldi;
- Iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida O‘zbekiston zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan tarkibiy islohotlarni amalga oshirdi. Bunday ilg‘or texnologiyalar asosan rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mavjud bo‘lgani uchun, tashqi savdo aloqalarining geografik tarkibi tabiiy ravishda diversifikatsiyalandi;
- MDH davlatlari iqtisodiyotlarining o‘xshash tarkibga ega bo‘lishi ham savdo aloqalarining torayishiga olib keldi. Ya’ni, ushbu

mamlakatlar tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlar – masalan, yoqilg‘i-energetika resurslari, metallar va boshqa xom-ashyo turlari – deyarli barcha respublikalarda mavjud bo‘lganligi sababli, savdo aloqalarida o‘zaro to‘ldiruvchanlik yetishmasligi yuzaga keldi;

- Ichki ishlab chiqarishning rivojlanishi va importni qisqartirishga yo‘naltirilgan siyosat natijasida ba’zi muhim ehtiyojlar, jumladan, g‘alla va energiya mahsulotlariga bo‘lgan talab, o‘z resurslar hisobiga qoplanadigan bo‘ldi. Bu esa avval MDH mamlakatlaridan olib kelinadigan mahsulotlar importining kamayishiga olib keldi;
- XX asr oxirida MDH hududida yuz bergan iqtisodiy inqiroz ko‘plab mamlakatlarda to‘lov qobiliyatining keskin pasayishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi;
- Hukumatlararo darajadagi savdo bitimlarining qisqarishi va ularning ahamiyatining kamayishi ham ushbu tendensiyani kuchaytirgan omillardan biri bo‘ldi.
- Shubhasiz, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida uzoq xorijiy davlatlar ulushining ortib borayotgani mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi jadallashayotganidan dalolat beradi. Bu holat respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari tobora faollashib borayotganini, jahon bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotganini ko‘rsatadi.
- Biroq, uzoq xorij bilan aloqalarning kengayib borayotganiga qaramasdan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish ham hanuz dolzarb va samarali yo‘nalish hisoblanadi. Chunki MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy

aloqalar qator afzalliklarga ega, jumladan, geografik yaqinlik, transport-logistika qulayliklari, tarixiy bog‘liqliklar va ayrim sohalarda o‘zaro iqtisodiy to‘ldiruvchanlik mavjud.

- Shu jihatlarni inobatga olgan holda, so‘nggi yillarda MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining nisbiy ulushi pasaygan bo‘lsa-da, uning mutlaq hajmi izchil oshib bormoqda. Bu esa MDH davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarning to‘liq yo‘qolmaganini, balki o‘z shaklini va hajmini yangilab, rivojlanishda davom etayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 20,5 foizga o‘sib, 19,2 milliard dollarni tashkil etdi, shundan: eksport 44,6 foizga o‘sib, 7,9 milliard dollarni, import 8,0 foizga oshib, 11,3 milliard dollarni tashkil etdi.



10.1-rasm. 2023-yilda O‘zbekiston bilan tashqi savdoda eng yuqori ulushga ega bo‘lgan top-5 MDH davlatlari

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) doirasida O‘zbekiston uchun eng yirik savdo hamkorlari sifatida

Rossiya, Qozog‘iston va Turkmaniston ajralib turadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, respublikaning umumiy tashqi savdo aylanmasida Rossiyaning ulushi 15,8 foizni, Qozog‘istonning ulushi 7,0 foizni, Turkmanistonning ulushi esa 4,1 foizni tashkil etdi.

Tahlilchilarning fikricha, yaqin istiqbolda O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar izchil o‘sish yo‘liga kiradi. Ushbu jarayonni rag‘batlantiruvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- **Integratsion jarayonlarning faollashuvi.** Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi kabi tuzilmalar doirasida bojxona to‘lovlarining kamayishi, tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi uchun yaratilayotgan huquqiy va iqtisodiy sharoitlar o‘zaro savdo hajmining oshishiga xizmat qilmoqda;
- **Kooperatsiya munosabatlarining kengayishi.** MDH mamlakatlari o‘rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyasining chuqurlashuvi natijasida ichki mintaqaviy savdo hajmining oshishi kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi;
- **Iqtisodiy barqarorlik va geografik yaqinlikning ustunligi.** So‘nggi yillarda ko‘plab MDH mamlakatlari makroiqtisodiy barqarorlikka erishib, iqtisodiy o‘sish uchun qulay sharoitlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Shu bilan birga, transport-logistika xarajatlarining pastligi O‘zbekiston mahsulotlarini, xususan paxta tolasi va energetika resurslari kabi eksportbop xomashyo tovarlarini jahon bozori narxlarida MDH mamlakatlariga yetkazib berish imkonini oshirmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning mavjud holatini tahlil qilish, mavjud salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanilmayotganini ko‘rsatmoqda. Hududiy hamkorlikning chuqurlashuviga qaramay, iqtisodiy imkoniyatlar va resurslar salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan.

Mazkur holatni inobatga olgan holda, MDH doirasida va O‘zbekistonning ushbu mamlakatlar bilan ikki tomonlama aloqalarida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada faollashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bunday yondashuv:

- tabiiy resurslar, mehnat kuchi va moliyaviy imkoniyatlardan yanada samarali foydalanishga;
- mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga;
- MDH mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. MDH mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasining asosiy bosqichlari, yo‘nalishlari va shakllari qanday bo‘ladi? Ularni sanab o‘ting.
2. MDH hududi katta tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, unda jahon bozorida yuqori talabga ega tabiiy resurslarning katta zahiralari qaysilar?
3. Globallashuv jarayonida MDH mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va iqtisodiy salohiyati qanday baholanadi?

4. MDH doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning hozirgi vaziyati qanday va ushbu munosabatlarni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar nimalardan iborat?

5. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi tashqi savdo tarkibida yuzaga kelgan o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari qanday? Ularni izohlab bering.

XI BOB. MARKAZIY OSIYO MUSTAQIL DAVLATLARI GLOBAL IQTISODIYOTGA INTEGRATSIYASI





11.1.Integratsiya- mintaqaviy barqarorlikning garovi.

11.2.Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti.

11.3.Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati.

Tayanch iboralar: strategik maqsad, xalqaro raqobat, iqtisodiy muhit, mintaqa xavfsizligi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, demokratik o‘zgarishlar, tolerantlik tamoyili.

11.1. Integratsiya- mintaqaviy barqarorlikning garovi.

Xalqaro hamjamiyat evolyusiyasi va ko‘pgina davlatlar hayotida hududlar rolining o‘sishi hududiy rivojlanish jarayonlarining ahamiyatini oshirdi. O‘zining milliy-etnik, diniy, geosiyosiy, geoiqtisodiy, tarixiy-madaniy, ma’naviy va mafkuraviy xususiyatlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo dunyodagi boshqa mintaqalarga nisbatan farqlanadi.

Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish mintaqaviylik va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan eng dolzarb masala hisoblanadi. “Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik

o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta’sirini his etmoqda”.

Markaziy Osiyoda o‘ziga xos subregionning shakllanishi bilan bog‘liq geosiyosiy vaziyatning rivojlanish tendensiyalari mintaqa davlatlari oldiga ham katta vazifalarni, strategik maqsadlarni, shu bilan birga hayotiy ehtiyoj hisoblangan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar integratsiya jarayonlarini jadallashtirish bilan bog‘liq faoliyatni takomillashtirish talabini qo‘ymoqda.

Chindan mintaqaning geografik jihatdan katta makonni egallaganligi va tabiiy boyliklar ko‘pligini inobatga olgan holda uning geoiqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari yuqori baholanadi. Mazkur imkoniyatlardan to‘laligicha va ratsional foydalanish mintaqa davlatlarining integratsiya doirasidagi umumiy qarashlarining strategiyasiga bog‘liq. Mintaqaviy integratsiya strategiyasini amalga oshirish milliy manfaatlarning uyg‘unlashuvi bilan izohlanadi.

Minglab yillarni o‘z ichiga oladigan mushtarak tarixga, yagona din va yaqin til, o‘xshash madaniyatga daxldor bo‘lgan Markaziy Osiyoda sho‘ro hukumati tomonidan o‘tgan asrning 20-yillarida amalga oshirilgan milliy davlatchilik chegaralanishining o‘tkazilishi bilan bog‘liq “imperiyacha strategiya” bugungi besh davlat o‘rtasida munsabatlar o‘zgaruvchanligini vujudga kelishiga ham sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, ular o‘rtasida hududiy, milliy-etnik, gidroresurslar, tabiiy resurslar, migratsiya, kontrabanda sohasidagi mushkulotlar, hali hanuz yechimini kutayotgan muammolar aksariyat hollarda, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sobiq Ittifoq parchalanganidan so‘ng, mintaqada yuzaga kelgan chorak asrlik murakkab geosiyosiy sharoit har bir mustaqil davlat oldiga o‘z suverenitetini mustahkamlash, unga tahdid soluvchi mafkuraviy, madaniy va ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, shuningdek, milliy Qurolli Kuchlar va davlat institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish kabi muhim strategik vazifalarni qo‘ydi. Davlatlararo munosabatlarga tashqi va ichki omillarning ham ta’siri katta bo‘lganligi, ba’zi davlatlarda fuqarolik urushlari avj olganligi va xokazo siyosiy vaziyatlar davlatlar integratsiyasi va hamkorligining amalga oshirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyoda umumxavfsizlik tizimining shakllanishida mintaqaviy integratsiya g‘oyasi yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek:

“Markaziy Osiyodagi integratsiyani biz hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo‘jaligi va energetika obyektlarini birgalashib ishlatish, energiya zahiralari bilan ta’minlash ehtiyoji taqozo etgan obe’ktiv zarurat, deb hisoblaymiz. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo‘lgan xalqlarimizning madaniy, til va ma’naviy birligi haqida-ku, gapirmasa ham bo‘ladi”.

Integratsiya borasida turli tashabbuslar, ichki va tashqi omillar mavjud bo‘lsada, davlatlarning barchasi ham dastlabki 25 yil davomida bunga juda katta xayrihohlik ko‘rsatmagan edi. Xususan, mintaqada asosiy ikki katta iqtisodiyotga ega bo‘lgan davlat O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘zaro raqobat yo‘lidan ketgan bo‘lsa, Qirg‘iziston zo‘r berib, mamlakatda g‘arbona demokratiyani qaror toptirish va

rivojlantirishga ahamiyat qaratdi. Tojikiston, endigina fuqarolar urushini bartaraf qilib, davlatchilik tuzilmalarini mustahkamlash va mamlakatning nochor iqtisodiyotini barqarorlashtirish yo‘lidan borgan bo‘lsa, Turkmaniston Afg‘onistondagi chigal vaziyatning mamlakatga ta’sir ko‘rsatmasligining oldini olish uchun chegaralar daxlsizligini ta’minlash va dastlab, Saparmurat Niyozovning, keyinchalik esa Gurbanguli Berdimuxamedovning yakka hokimiyatini yanada mustahkamlash masalasini asosiy vazifa sifatida belgiladi.

Qachonki davlatlar va xalqlar o‘zaro bir butunligini anglab yetib, ichki integratsiyani vujudga keltirsagina, Markaziy Osiyo yaxlit jipslikka erishib, mukammal kuchga aylanadi.

Integratsiyaning muhim nazariy masalasi bu – integratsiya jarayonida iqtisodiy va siyosiy omillarning o‘zaro munosabati hisoblanadi. Qachonki, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun siyosiy muhit yuzaga kelsa, integratsiya jarayonlari jadallashadi. Arab davlatlarining integratsiyasida ham aynan ushbu omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mintaqa davlatlari uchun ko‘plab integarsion tashabbuslar, turli integratsiyaon loyihalar taklif qilingan bo‘lib bular ma’lum bir davlatlar ustunligiga asoslanganligi barchamizga ma’lum. Bular ichida sobiq ittifoqning kooperatsiya aloqalarini saqlab qolishga bo‘lgan intilish ro‘yobi sifatidagi **Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi,** Rossiyaning iqtisodiy qanoti ostida birlashishga chaqiriq hisoblangan **YevroOsiyo iqtisodiy hamjamiyati**, mintaqa xavfsizligini ta’minlash “kafolatini” olgan **Kollektiv xavfsizlik shartnomasi** tashkiloti (KXSHT), turkiy tilda so‘zlashuvchi davlatlarni yagona panturkizm g‘oyalari asosida

yaqqol turkiyaning qanoti ostida birlashishga qaratilgan Turkiy tilli davlatlar Kengashi (hozirgi **Turkiy davlatlar tashkiloti**), mintaqa va unga tutash davlatlarning iqtisodiy va investitsion, geosiyosiy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan, asosan Xitoy va Rossiyaning siyosiy irodasiga ko‘proq bog‘liq bo‘lgan, ularning geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini jadal ilgari suradigan **Shanxay hamkorlik tashkiloti** va xokazolarni keltirishimiz mumkin.

«Integratsiya jarayonlari borgan sari nafaqat mintaqalarning ichki maqsadlari, balki tashqi muhitning ortib borayotgan talablari, kuchayib borayotgan xalqaro raqobat bilan ham belgilanmoqda.

Xalqaro integratsiya mafkurasining o‘zi o‘zgarmoqda, avvallari a’zo mamlakatlarning xo‘jaliklarini yaqinlashtirishni maqsad qilgan mintaqaviy tashkilotlarning o‘zi global makon ishtirokchisiga aylanmoqdalar, integratsiya esa mintaqalarning dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuvi sifatida tushunilmoqda». Bunda xalqaro va davlatlararo tashkilotlar oldida eng asosiy masala, davlatlarda integratsion jarayonlarni to‘g‘ri va manfaatli yo‘llar asosida tashkillashtirish hisoblanishi lozim.

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)— turkiyzabon davlatlardan tashkil topgan xalqaro tashkilot. Tashkilotning asosiy maqsadi a’zo davlatlarning har tomonlama do‘stlik va hamkorlikni rivojlanirishiga qaratilgan.

Ushbu tashkilotga 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida asos solingan. 2009-yilning 3-oktabr kuni Ozarbayjonning Naxchivon shahrida Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya o‘rtasida „Naxichevan kelishuvi“ imzolandi va

„Turkiy kengash“ xalqaro tashkilotiga asos solindi. Tashkilot kotibiyati bosh binosi Turkiyaning Istanbul shahrida joylashishi aniqlab olindi.

2018 yil sentyabr oyida Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlarning 6-sammitida tashkilot tarixida birinchi marta O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. Sammitda davlatimiz rahbari O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga kirishi to‘g‘risida so‘zlagach, 2019 yil 14 sentyabr kuni O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan bitimini ratifikatsiya qildi va tashkilotning to‘laqonli a’zosiga aylandi.

11.1-jadval

Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar ko‘rsatkichlari

(2024 yil uchun)

Davlat	**Poytaxti**	**Maydoni**	**Aholisi soni (ming)**	**YIM**	**YIM Aholi jon boshiga**
Ozarbayjon	Boku	86 600 km²	10 073	65 mlrd. doll.	18 500 doll.
O‘zbekiston	Toshkent	448 976 km²	37 143	76 mlrd. doll.	2800 doll.
Qirg‘iziston	Bishkek	198 500 km²	6 389	8 mlrd. doll.	1655 doll.
Qozog‘iston	Nur-Sulton	2 724 902 km²	20 000	185 mlrd. doll.	10000 doll.
Turkiya	Anqara	783 562 km²	84 155	848 mlrd. doll.	13500 doll.

Tashkilotning maqsad va vazifalari Naxchivan shartnomasining 2-moddasida bayon qilingan bo‘lib, jumladan quyidagilarni qamrab oladi:

- tomonlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash;
- mintaqada va uning tashqarisida tinchlikni ta’minlash va xavfsizlikni mustahkamlash;

- tashqi siyosat masalalari bo‘yicha umumiy pozitsiyalarni qabul qilish;
- umumiy manfaatlarga daxldor barcha yo‘nalishlarda ikki tomonlama va mintaqaviy darajada samarali hamkorlikni kengaytirish;
- a’zo davlatlar o‘rtasida savdo-sotiq va investitsiya faoliyati uchun qulay iqtisodiy muhitni shakllantirish;
- qonun ustuvorligini ta’minlash, samarali davlat boshqaruvi va inson huquqlarining kafolatli himoyasini ta’minlashga doir masalalarni birgalikda ko‘rib chiqish;
- fan, texnika, ta’lim va madaniyat sohalarida o‘zaro hamkorlikni kengaytirish;
- ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni va yanada intensiv muloqotni rivojlantirish;
- huquqiy masalalar bo‘yicha axborot almashinuviga ko‘maklashish.

Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligi O‘zbekiston iqtisodiyotida ulkan raqamlarni hosil qiladi, birgina 2021 yilni oladigan bo‘lsak, shu yili O‘zbekiston TDT davlatlari bilan 9,3 milliard AQSH dollari miqdorida savdo-sotiq olib borgan. Bu raqamlar O‘zbekiston tashqi savdosining qariyb 23 foizini tashkil etib, o‘tgan davrda O‘zbekiston va TDT mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo operatsiyalari qariyb 4 barobarga yetgan.

Bu ko‘rsatkichlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, samarali iqtisodiy yutuqlar tashkilotga O‘zbekiston raislik qilgan davrda turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yuzdan ortiq dastur va chora-tadbirlar natijasidir.

Shu bois jahon platformalarida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lgan Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekistonning 2022 yil yanvar-mart oylarida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarli o‘sdi.

“Turkiyaning iqtisodiy istiqboli” nomli statistik byulleteni ma’lumotlarga qaraganda 2022 yilning birinchi choragida Turkiya iqtisodiyotida 7,3 foiz, Ozarbayjonda 6,8 foiz, O‘zbekiston iqtisodiyotida 5,8 foiz, Qirg‘izistonda 4,5 foiz, Qozog‘iston iqtisodiyotida esa 4,4 foizga o‘sish kuzatilib, mintaqada shaffof iqtisodiy muhit yaratilgan va mamlakatimiz 3-o‘rinda iqtisodiy tashabbusni qo‘lga olgan. 2022 yilda turkiy davlatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 33 milliard dollarni tashkil etdi. Shundan, 3,8 milliard dollari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2021 yili Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlarning umumiy eksporti qiymati 537 milliard dollardan oshgan. O‘zbekiston tashkilot mamlakatlari bozorlariga tayyor mahsulotlarning asosiy hajmini – *to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobilsozlik va meva-sabzavot mahsulotlari hamda rangli metallarni* eksport qiladi.

Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning e’tiqod birligi tashkilot faoliyatida, davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarining samarali bo‘lishida muhim hisoblandi.

Butun islom olamini birlikka, integratsiyaga, yagona maqsadlarni amalga oshirishga bo‘lgan intilishlari tufayli Islom hamkorlik tashkiloti katta qudratga ega bo‘lib borayotgan tashkilotlardan hisoblanadi. Islom hamkorlik tashkiloti a’zo davlatlar hamjihatligi, integratsiyasi borasida yetakchi o‘rin egallamoqda. «Islom hamkorlik tashkiloti iqtisodiy,

madaniy va boshqa masalalar bo‘yicha manfaatdor tomonlar hamkorlik o‘rnatishi mumkin bo‘lgan muloqat platformasi hisoblanadi».

Islom hamkorlik tashkiloti turli tartibotlarni, turli iqtisodiy farqli davlatlarni, turli qit’a mamlakatlarini birlashtirgan tashkilot sifatida jahon siyosatida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda Islom hamkorlik tashkilotining jahon siyosatida va xalqaro munosabatlarda ta’siri va ko‘lami tobora ortib bormoqda (oldingi nomi Islom konferensiyasi tashkiloti).

Bu tashkilotning butun musulmon dunyosidagi o‘rni va ahamiyati tobora yuqori ekanligini e’tirof etish bilan birga, uning mafkuraviy, madaniy, ma’naviy va eng muhimi iqtisodiy salohiyatini ham alohida e’tirof etmoq joiz.

O‘tgan asrning 70-yillarida tashkil topgan ushbu tashkilot Falastinni ozod qilish, islom dinining muqaddas qadamjolarini muxofaza qilish, shuningdek, eng asosiy g‘oyasi islom dunyosi va xalqalri manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ham nafaqat dunyo musulmon mamlakatlari, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham jozibador.

Bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasi tobora o‘zgarib borayotgan bir davrda mintaqa davlatlariga nisbatan ham turli madaniyatlarning, millatchilik, diniy va liberalizm g‘oyalarining kirib kelayotganligi, ularning o‘zaro raqobatining kuchayishi Markaziy Osiyoning mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri tobora ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Ammo, musulmon ummasining (umma-musulmon jamoasi) manfaatlarini, huquqlarini himoya qilishni o‘z Nizomi va boshqa

dasturiy hujjatlarida aks ettirgan Islom hamkorlik tashkiloti Markaziy Osiyodagi til, madaniyat farqlariga qaramasdan, mintaqa davlatlarini tom ma’noda birlashtiruvchi omil, institutdir. Chunki, bugungi kunda 57 ta a’zo davlatga ega bo‘lgan ushbu tashkilotning moliyaviy, siyosiy, madaniy-gumanitar imkoniyatlari ham tobora ortib borayotganligi, uning eng katta xalqaro tashkilotlardan biri (BMTdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi).

11.2. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi haqida so‘z borar ekan, bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari katta amaliy ahamiyatga ega: *“Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi va ichki xatarlarning yoyilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning oldini olish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining sa’y-harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi”*[10].

Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti — davlatlararo mintaqaviy iqtisodiy tashkilot. 1993-yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida 1994—2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to‘g‘risida bitim imzolandi.

Integratsiya jarayonlariga sharoitlar yaratish maqsadlarida **1994-yil 10-yanvarda O‘zbekiston va Qozog‘iston** o‘rtasida Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to‘g‘risida Shartnoma tuzildi. Shartnomaga **1994-yil 16-yanvarda Qirg‘iziston** qo‘shildi.

[10] Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. J. 9. –T.: O’zbekiston, 2001. – B. 89.

1996-yil 23 avgustda Olmaota shahrida o‘tkazilgan Davlatlararo kengash majlisida Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasi kuzatuvchi sifatida tashkilotga qabul qilindi.

Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari 1998-yil 17-martda *Sirdaryo havzasining suv-energatika resurslaridan foydalanish* to‘g‘risidagi uzoq muddatli shartnomani imzoladilar. Bir yildan so‘ng bu shartnomaga **Tojikiston ham qo‘shildi va 1998-yil 26-martda** mazkur respublika ham yagona iqtisodiy hudud to‘g‘risidagi shartnomaning to‘laqonli a’zosiga aylandi.

1998 yil 17-iyulda Cho‘lponota shahrida (Qirg‘iziston) Yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma ishtirokchilari — Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy birlashmasi *"Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati"* nomini oldi.

1999-yildan davlatlararo kengashda Gruziya, Turkiya, Ukraina kuzatuvchi maqomida ishtirok eta boshladi. Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligi tashkilotiga a’zo davlatlar boshliqlari 1999-yilning iyun oyida Bishkekda *bojxona ittifoqini tuzish to‘g‘risidagi* fikrlarni ilgari surdilar.

Bir yildan so‘ng esa Dushanbe shahrida “Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligining 2005-yilgacha mo‘ljallangan integratsion rivojlanish strategiyasi”ni tasdiqladilar. Ushbu hujjatda iqtisodiy hamkorlikka a’zo davlatlar integratsiyalashuvi jarayoni har bir davlatning hayotiy muhim manfaatlaridan kelib chiqadiga obyektiv jarayon ekanligi alohida ta’kidlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari yagona iqtisodiy makonni shakllantirish, mintaqa xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash

borasidagi strategik maqsadlarni inobatga olgan holda, integratsion jarayonlarni siyosiy, savdo-iqtisodiy va ijtimoiy–madaniy sohalarda kengaytirish zarurligi muhim ta’kidlandi. Shu doirada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov hamjamiyatning faoliyat doirasini kengaytirib, uni «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti nomi ostida olib borish taklifini ilgari surdi. Ushbu tashabbus 2001-yil 28-dekabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan bayonotda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlari tomonidan rasmiy ravishda qo‘llab-quvvatlandi.

Davlat boshliqlarining Olmaota uchrashuvida (2002-yil 28-fevral) *"Markaziy Osiyo hamkorligi"* (MOH) tashkilotini tuzish haqida Shartnoma imzolandi. Bu uchrashuv chog‘ida tashkilot faoliyatini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan bu tashkilot doirasida
qabul qilingan hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va ayni paytda harakatda bo‘lmagan hujjatlarni bekor qilish taklifi ilgari surildi. Bu davrga kelib tashkilot doirasida 243 ta hujjat imzolangan edi. Milliy muvofiqlashtiruvchilar instituti tashkil etildi.

MOHni tashkil etishning asosiy maqsadlari:

- Qatnashuvchi mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika resurslaridan va suv xo‘jaligi ob’yektlaridan ratsional foydalanish;
- Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi transport yo‘laklari doirasida umumiy mintaqaviy transport infratuzilmasini shakllantirish;
- Ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish va savdo-iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama chuqurlashtirish;

- Gumanitar sohalarda, shuningdek ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘lida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida birgalikdagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish.

2002-yilda MOH davlat boshliklarining 4-marta uchrashuvi bo‘lib o‘tdi (Olmaota — 28-fevral; Oqtov — 6—7-iyul; Dushanba — 5—6 oktabr; Ostona — 27 dekabr).

MOHT keng ko‘lamdagi masalalarni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan mintaqaviy integratsion tashkilotga aylandi. Buning isboti sifatida 2002-yilning 5-6-oktabr kunlarida Dushanbeda bo‘lib o‘tgan MOHTga a’zo mamlakatlar rahbarlarining uchrashuvini keltirishimiz mumkin. Uchrashuv chog‘ida mintaqaviy integratsiya masalalaridan tashqari, Afg‘oniston bilan bog‘liq muammolar ham ko‘rib chiqildi. Bu uchrashuv davomida Orol bo‘yidagi ekologik holat chuqur o‘rganib chiqildi hamda “Orolni qutqarish xalqaro fondi” faoliyati tahlil qilindi.

2002-yil 18-noyabrda Toshkentda MOH tashkiloti mamlakatlari parlamentlari a’zolarining davlatlar qonunchilik bazalarini yaqinlashtirishga qaratilgan uchrashuvi, 2002-yil 28—29-noyabrda MOH tashkilotiga a’zo davlatlar ishbilarmon doiralari va tadbirkorlarning Markaziy Osiyo hamkorligi — iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish mavzuida biznes forumi o‘tkazildi.

MOH tashkiloti doirasida 1994-yil 8-iyulda **Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki** tashkil etilgan.

11.3. Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati.

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati — 2001 yildan 2014 yilgacha davlatlararo (xalqaro) iqtisodiy tashkilot. 2000-yil 10-oktyabrda *Belarus*, *Qozog‘iston*, *Qirg‘iziston*, *Rossiya*, *Tojikiston* prezidentlari Ostona shahrida imzolagan shartnoma asosida ta’sis etilgan (mazkur davlatlar tomonidan 1995-yilda tashkil etilgan Bojxona Ittifoqining huquqiy vorisi).

2002 yil may oyidan Ukraina, Moldova, 2003 yildan Armaniston kuzatuvchi maqomiga ega. **2005 yil 6—7 oktabrda** Sankt-Peterburg (Rossiya)da Markashi Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOHT)ga a’zo davlatlar boshliqlari kengashi majlisida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan davlatlararo iqtisodiy integratsiyani yanada rivojlantirish maqsadlarida MOHT **Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati** bilan qo‘shilgani haqida qaror qabul qilindi.

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a’zo mamlakatlar Davlatlararo kengashining Sankt-Peterburg sammitida O‘zbekiston mazkur tashkilotga rasman a’zo bo‘ldi (2006 yil 25 yanvar). Lekin O‘zbekiston iqtisodiy manfaatlariga zid bo‘lganligi uchun Respublikamiz 2008-yilda bu tashkilotdan chiqqan.

Hamjamiyat faoliyatining bosh maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Davlatlararo integratsiyani chuqurlashtirish orqali, bosqichma-bosqich tarif va notarif to‘siqlarni bartaraf etgan holda, erkin savdo hududlarini shakllantirish;
- Yagona transport tizimi va transport xizmatlari bozorini, shuningdek, umumiy energetika bozorini yaratish;

- Yagona bojxona ittifoqini va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakatini ta’minlovchi erkin iqtisodiy makonni barpo etish;
- Muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosatga asoslangan iqtisodiy va valyuta ittifoqini rivojlantirish.

Shuningdek, Hamjamiyat doirasida imzolangan bitim va kelishuvlar savdo-iqtisodiy, moliyaviy, bojxona, tarif hamda ijtimoiy sohalardagi o‘zaro hamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga soladi.

Hamjamiyatning oliy organi — a’zo mamlakatlar davlat boshliqlari va hukumat boshlikdari kiradigan davlatlararo kengash hisoblanadi (bir yilda kamila 3 marta — bir marta prezidentlar darajasida, 2 marta bosh vazirlar darajasila majlislar o‘tkazadi).

Hamjamiyatning ijroiya organi — Integratsiya qo‘mitasi (uning tarkibiga hukumat boshliqlarining iqtisodiyot masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari kiradi). Integratsiya qo‘mitasi majlislari oralig‘idagi davrda Hamjamiyatning joriy ishlarini Hamjamiyat huzuridagi doimiy vakillar komissiyasi (vakillarni davlat boshliqlari tayinlaydi) boshqaradi.

Integratsiya qo‘mitasi qoshida doimiy ishlaydigan va 9 departamentdan iborat Sekretariat bor. Uni Davlatlararo kengash qarori bilan 3 yil muddatga tayinlanadigan Bosh kotib boshqaradi. Bundan tashqari Hamjamiyat huzurida birlamchi organlar tarzida 13 tarmoq kengashlari va 4 komissiya faoliyat ko‘rsatadi.

A’zo mamlakatlarning parlamentlari vakillaridan iborat Hamjamiyatning Parlamentlararo assambleyasi doirasida davlatlarning qonun chiqaruvchi hokimiyatlari o‘rtasidagi hamkorlik amalga oshiriladi (milliy qonunchilikni o‘zaro uyg‘unlashtirish va uni hamjamiyat

doirasida tuzilgan shartnomalarga muvofiqlashtirish masalalarini koʻrib chiqadi).

Hamjamiyat sudi (har bir davlatdan 2 tadan vakil) hamjamiyat doirasida amal qiladigan shartnomalar va organlar qarorlarini aʼzo davlatlar tomonidan bir xilda qoʻllashni taʼminlaydi. Integratsiya qoʻmitasi sekretariati Moskva va Olmaota sh.larida, Parlamentlararo assambleya Sankt-Peterburg sh.da, hamjamiyat sudi Minskda joilashgan.

Hamjamiyat 2003-yillan BMT Bosh ayesambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega. Yevropa Ittifoqi, Jahon Savdo Tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Jahon banki hamda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik munosabatlari yoʻlga qoʻyilgan.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YeII) — 29-may 2014-yilda tashkil etilgan iqtisodiy ittifoq. Ushbi ittifoqga Rossiya, Belarus, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Armaniston davlatlari kiradi. Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi aʼzo davlatlarning bir-biri bilan xalqaro va oʻzaro birlikni kuchaytirishni oʻz ichiga oladi.

Moldova 2014-yilning aprelida kuzatuvchi maqomini oldi. Oʻzbekiston va Kuba 2020-yilning 11-dekabrida kuzatuvchi maqomiga ega boʻlishdi.

2014 yil 29 maydagi YeII shartnomasining 4-moddasiga binoan Ittifoq tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakati erkinligini yoki “toʻrt erkinlik” ni (Yevropa Ittifoqiga oʻxshash) taʼminlaydi.

11.2-jadval

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar

Mamlakat	Qoʻshilish sanasi	Imzo sanasi
Belarusiya	2015 yil 1 yanvar	2014 yil 29 may

Qozog'iston	2015 yil 1 yanvar	2014 yil 29 may
Rossiya	2015 yil 1 yanvar	2014 yil 29 may
Armaniston	2015 yil 2 yanvar	2014 yil 10 oktyabr
Qirg'iziston	2015 yil 12 avgust	2014 yil 23 dekabr

Postsovet mamlakatlari integratsiyasining umumiy makroiqtisodiy ta'siri bir necha qismlarga bo‘linadi:

1. kerakli xom ashyoni tashish/tayyor mahsulotni eksport qilish xarajatlarining pasayishi tufayli tovarlar narxining pasayishi;

2. iqtisodiy rivojlanishning teng darajasi tufayli YOII umumiy bozorida "sog'lom" raqobat rag'batlantiriladi;

3. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlarning umumiy bozorida umumiy makondan yangi ishtirokchilarning bozorga kirishi tufayli raqobatning kuchayishi;

4. xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish tufayli o‘rtacha ish haqining oshishi;

5. tovarlarga talabning oshishi tufayli ishlab chiqarishni ko‘paytirish;

6. importga yo‘naltirilgan/eksportga yo‘naltirilgan firmalarning ishlab chiqarishlari kengayishida mahsulot narxlarining pasayishi va aholi bandligining o‘sishi tufayli YOII mamlakatlari xalqlarining farovonligini oshirish;

7. bozor hajmining oshishi hisobiga yangi texnologiyalar va mahsulotlarning qoplanishi ortadi;

8. Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti hajmining kamida 25 foizga o‘sishi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgandan keyin o‘zaro integratsion birlashma tuzishga urinib ko‘rdilar. Bunday inegratsion birlashmalarning o‘zaro tenglik va tolerantlik tamoyillarga asoslangan bo‘lishiga qaramasdan kutilganidek samara bermadi. Bu bir necha sabablar oqibatida tadrijiy o‘sishga erisha olmasdan qoldi:

Birinchidan, mintaqa davlatlari integratsion birlashma tuzishni dinamikasini juda ham tezlashtirib yubordilar. Ular jahon tajribasida sinalgan avval koordinatsiya, keyin esa subordinatsiya usulidan foydalanmadilar. Masalan, Yevropa Ittifoqi yarim asr davomida erishgan yutuqlarga Markaziy Osiyo davlatlari 10-15 yilda erishishga urindilar.

Ikkinchidan, mustaqillikdan keyin deyarli bir xil salohiyatga, bir xil imkoniyatga ega bo‘lgan mintaqa davlatlari keyingi davr mobaynida turli xil rivojlanish yo‘llarini boshlaridan kechirdilar. Masalan, Qozog‘iston xalqaro yordamlar va kreditlar evaziga juda tez rivojlanish yo‘lini tanlab, mintaqada iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshqa davlatlardan ancha ilgarilab ketdi. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishning tadrijiy yo‘lini tanladi va bosqichma bosqich rivojlanib bordi.

Tojikistondagi barqarorlikka esa fuqarolar urushi to‘g‘anoq bo‘lgan bo‘lsa, Qirg‘iziston “demokratik o‘zgarishlar” ta’siriga tushib qoldi. Turkmaniston esa integratsion jarayonlarga umuman qo‘shilmadi va neytrallik yo‘lini tanladi. Shu jihatdan bu davlatlar manfaatlari mutanosiblik xarakteriga ega bo‘lmadi va oqibatda inetgratsiya jarayoni to‘xtab qoldi.

Oxirgi bir necha yillar mobaynida mintaqa davlatlari yana qaytadan o‘zaro hamkorlikka kirishishni boshlab yubordilar. Bu borada

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuskor bo‘lmoqda. Sh.Mirziyoyev hali Prezident etib saylanmasdan oldin, ya’ni 2016-yil 8-sentabrda Oliy Majlis palatalarini qo‘shma yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini vaqtincha bajaruvchi lavozimga kirishar ekan, Markaziy Osiyo haqida quyidagicha fikr bildirgan edi:

“*Mamlakatimizning milliy manfaatlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Biz o‘zimizning yaqin qo‘shnilarmiz Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz”.*

Shu jihatdan olib qaraganda, O‘zbekiston rahbari o‘tgan yillar mobaynida barcha Markaziy Osiyo davlatlariga davlat tashrifi bilan tashrif buyurdi va mintaqada o‘ziga xos muhit yaralishiga sababchi bo‘ldi. Shu boisdan mamlakatimiz tashabbus bilan 2017-yil 11-avgust kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi” mavzuidagi xalqaro konferensiyada mintaqaviy ahamiyatga molik eng muhim masalalar yuzasidan O‘zbekiston va unga qo‘shni davlatlarning zamonaviy mintaqaviy siyosati, nuqtai nazar hamda yondashuvlarining turli qirralari batafsil muhokama etildi.

Xalqaro miqyosda o‘tkazilgan bu yirik anjuman O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi, BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatimizdagi vakolatxonasi hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti

(YXHT) loyihalari koordinatori ofisi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Qayd etish lozimki, aynan shu anjuman keyinroq Samarqandda yirik xalqaro konferesiya o‘tkazilishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yil 10–11-noyabr kunlari Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Shuningdek, 2018-yil 15-mart kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ilk maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Aynan shu uchrashuvlarning keyingi yillarda ham davom etdi va davlatlarining mintaqaviy hamkorligining rivojlanib borishiga asos bo‘ldi, deyish mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligidagi keyingi muhim qadam 2018 yilning 15-martida Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘ldi, deyish mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Samarqanddagi tashabbusiga ko‘ra joriy etilgan bunday uchrashuv N.Nazarboyevning taklifiga ko‘ra Qozog‘istonda bo‘lib o‘tdi.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyo davlatlari va ularning o‘zaro hamkorlik munosabatlari?
2. MOHni tashkil etishning asosiy maqsad nimadan iborat bo‘lgan?
3. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Iqtisodiy sheriklar ittifoqdoshligi natijalari qanday?

4. Shanxay hamkorlik tashkiloti qaysi davlatlarning birlashuvidan iborat?

5. Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatining bugungi kundagi a’zolari haqida ma’lumot bering?

6. Turkiy davlatlar tashkilotidagi O‘zbekistonning o‘rnini izohlab bering.

7. Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatining asosiy maqsadlari?

8. Postsovet mamlakatlari integratsiyasining umumiy makroiqtisodiy ta'siri nimadan iborat?

XII-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI

12.1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtiroki.

12.2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik

12.3. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida Shanxay mintaqaviy xalqaro tashkilotining o‘rni.

Tayanch iboralar: iqtisodiy boshqaruv, ochiq bozor iqtisodiyoti, integratsion salohiyati, infratuzilmani rivojlantirish, korporativ shaffoflik, iqtisodiy siyosat, xavfni boshqarish, qayta moliyalashtirish, davlat moliyasi.

12.1.O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtiroki.

O‘zbekiston geografik jihatdan O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, mintaqa aholisining qariyb 45 foizi aynan ushbu hududda istiqomat qiladi. 2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, respublika aholisi 37 143 944 kishini tashkil etdi. O‘zbekiston Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lib, strategik jihatdan Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi asosiy quruqlik yo‘llari, transport-kommunikatsiya tarmoqlari va axborot oqimlari chorrahasida joylashgan.

Geosiyosiy nuqtai nazardan, O‘zbekiston dunyodagi kam sonli ikki tomonlama dengizga chiqish yo‘li bo‘lmagan (double-landlocked) mamlakatlardan biri sanaladi, ya’ni uning bevosita qo‘shnilari ham

dengiz portlariga ega emas. Shunga qaramay, mamlakat geografik joylashuvi jihatidan Yevroosiyoning Sharq va G‘arb o‘rtasidagi asosiy strategik yer yo‘llari kesishgan nuqtada joylashgan.

1991-yilda SSSR parchalanganidan so‘ng, O‘zbekiston ham boshqa sobiq sovet respublikalari kabi og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan yuzlashdi. Markazlashtirilgan iqtisodiy boshqaruv tizimining parchalanishi natijasida ko‘p yillar davomida shakllangan tovar-pul munosabatlari tizimi izdan chiqdi. O‘zbekiston o‘zining an’anaviy bozorlarini, jumladan, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni yo‘qotdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga, xususan paxta yetishtirishga qaratilgan edi. Bu holat bir qancha muammolarni yuzaga keltirdi — jumladan, iqtisodiy diversifikatsiya yetishmasligi, bandlik va ijtimoiy sohalarda izchil islohotlarga ehtiyojning ortishi.

Yangi mustaqillikka erishgan O‘zbekiston uchun eng dolzarb vazifalardan biri iqtisodiy tanazzulni yengib o‘tish va iqtisodiyotni barqaror rivojlanish yo‘liga qayta yo‘naltirish bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda, davlat o‘zining mustaqil tashqi siyosatini shakllantirishi zarur edi. Boshqacha aytganda, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, mamlakat taraqqiyoti uchun uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish davr talabiga aylandi.

O‘zbekiston tashqi siyosatini belgilashda milliy manfaatlar ustuvor mezon sifatida qabul qilindi. Bu yondashuv respublikaning 1990-yillardan boshlab bugungi kungacha davom etayotgan mintaqaviy va

global integratsion jarayonlardagi ishtirokining o‘ziga xos jihatlarini belgilab berdi.

Tashqi siyosiy faoliyat teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik prinsiplari asosida olib boriladi. U ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik munosabatlariga tayangan holda, manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan chuqur hamkorlikni rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekistonning global iqtisodiyotga va xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyasi ochiq bozor iqtisodiyoti tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Bu yondashuv mamlakatga tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va jahon iqtisodiy tizimida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatining to‘laqonli a’zosi sifatida ko‘plab integratsion jarayonlarda faol qatnashmoqda. Shuningdek, barcha yirik xalqaro tashkilotlar bilan muntazam va samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Ayni paytda, O‘zbekiston 160 dan ortiq davlat bilan diplomatik munosabatlarga ega. Bundan tashqari, respublika BMTning iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki kabi ko‘plab xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a’zo hisoblanadi.

O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib, Birinchi Prezident I. Karimov shunday degan edi:

“*Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari*

mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang‘ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko‘lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiya– lashuvi serqirra jarayondir”[11]

Jahon iqtisodiyotidagi aloqalar asosan ma’lum mintaqaviy guruhlar yoki ittifoqlarga birlashgan davlatlarning integratsion salohiyatiga tayangan holda shakllanadi.

“Salohiyat” tushunchasi — bu subyektda mavjud bo‘lgan, ammo to‘liq namoyon bo‘lmagan imkoniyatlarni anglatadi. Bu imkoniyatlar obyektiv yoki subyektiv omillarga bog‘liq holda faoliyat sohasida o‘z ifodasini topmasligi mumkin.

Iqtisodiy nazariyada salohiyat atamasi har qanday sohadagi mavjud resurslar va imkoniyatlar yig‘indisini ifodalaydi, biroq “salohiyatli” deganda amalga oshirishga qodirlik tushuniladi. Shunday qilib, salohiyat mavjudligi va undan foydalanish ehtimoliy, ya’ni sharoitlarga bog‘liq omil hisoblanadi.

Mamlakat ***integratsion salohiyati*** — bu xalqaro iqtisodiy integratsiya subyektlarining (integratsiyalashayotgan davlatlar) ishlab chiqarish va iqtisodiy hamkorlik sohalarida foydalanadigan tabiiy

[11] Karimov I.A. “O‘zbekistonning mustaqillik va taraqqiyot yo‘li”, Toshkent, 2003, 128-bet.

resurslar, mehnat kuchi, ishlab chiqarish quvvatlari, moliya-kredit vositalari, savdo salohiyati, shuningdek, ilmiy-texnik kadrlar va intellektual salohiyat majmuasini anglatadi.

O‘zbekistonning integratsion aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladigan asosiy omillar (integratsion salohiyatining ustunliklari) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Yevroosiyo mintaqasida O‘zbekistonning qulay geostrategik joylashuvi;
- Katta yer maydonlari, mineral-xomashyo zaxiralari va boy o‘simlik resurslari;
- Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay tuproq va iqlim sharoitlari;
- Tashqi savdoda kuchli eksport salohiyati;
- Davlatlararo kooperatsiyani mustahkamlash va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish quvvatlari;
- Mehnat resurslarining yuqori salohiyati, nisbatan arzonligi va tez o‘sib borishi (jahon miqyosida taqqoslaganda mavjudligi);
- Rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, xususan, MDHning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi avtomobil va temir yo‘l magistrallari, telekommunikatsiya tizimining mavjudligi;
- Chet el investitsiyalarini jalb qilish va o‘zaro manfaatli tashqi iqtisodiy integratsion hamkorlikni ta’minlovchi barqaror siyosiy muhit.

Davlatlar o‘z siyosiy, iqtisodiy, geosiyosiy yoki geoiqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida turli integratsion guruhlar shakllantiradilar. Oldingi bo‘limlarda ta’kidlanganidek, bugungi kunda

dunyodagi aksar davlatlar turli darajadagi integratsion jarayonlarda faol qatnashmoqdalar.

Hozirgi zamonda ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiyoti ochiq iqtisodiyot prinsiplari asosida tashkil etilgan. Shu sababli, O‘zbekiston ham boshqa davlatlar singari integratsion jarayonlarga faol qo‘shilib, ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatini ko‘p vektorli, ya’ni ko‘p qirrali yondashuv asosida amalga oshirmoqda va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv borasida ko‘p darajali tizimni qo‘llamoqda.

Ko‘p darajali integratsiya tizimi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. global daraja;
2. transkontinental daraja;
3. mintaqalararo daraja;
4. mintaqaviy daraja;
5. mahalliy daraja.

Har bir darajaga xos bo‘lgan aloqalar o‘zining maxsus vazifalari va xususiyatlariga ega. O‘zbekiston Respublikasi ushbu integratsiya darajalarining barchasida ishtirok etib kelmoqda. Biroq, 2016-yildan keyingi tashqi siyosiy yo‘nalishda, ayniqsa, qo‘shni davlatlar bilan integratsion hamkorlikni chuqurlashtirish masalasiga alohida urg‘u berilmoqda. Ushbu yondashuv milliy manfaatlarga mos holda ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilanmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirzayev BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasidagi nutqida, *“Biz Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro*

hamjihatlik va hurmat, yaqin qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi mutlaqo yangi siyosiy muhitni mustahkamlab bormoqdamiz. Bizning asosiy maqsadimiz – Markaziy Osiyoni farovon va barqaror rivojlanayotgan, ishonch va do‘stlik makoniga aylantirishdir”, deb ta’kidlagan edi.

2023-yil Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlar rejasida:

- “O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va mintaqaviy aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- oliy va yuqori darajada o‘zaro tashriflarni tashkil etish;
- “Xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan samarali foydalanish;
- yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni birgalikda hal etish;
- savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining o‘sishi hamda hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;
- mintaqaning tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish hamda transport infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash;
- Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqalari (shu jumladan, chegara hududlari) o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish ko‘zda tutilgan”[12].

12.2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik

[12] https://strategy.uz/index.php?news=1278

O‘zbekistonning turli xalqaro moliya-iqtisodiy institutlar bilan hamkorligi uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyada samarali ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu hamkorlik:

- o‘tish davridagi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi,
- ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni osonlashtiradi,
- kreditlar va bevosita xorijiy investitsiya jalb qilishni jadallashtiradi,
- mahalliy mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarish bo‘yicha ko‘mak beradi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Jahon banki guruhi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro valuta fondi (IMF), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo Taraqqiyot banki, Islom Taraqqiyot banki, Butunjahon bojxona tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti, Paxta bo‘yicha maslahat komiteti kabi 30 dan ziyod nufuzli moliya-iqtisodiy tashkilotlarga to‘la a’zo sifatida qo‘shildi.

2023-yilda Janubiy Koreya, Seulda bo‘lib o‘tgan biznes-forumda Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish bo‘yicha sa’y-harakatlarni “qayta tiklamoqda” ekanligini e’lon qildi.

Jahon Banki bilan hamkorlik. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Xalqaro Rivojlanish Assotsiatsiyasi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi va Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha Ko‘p tomonlama agentlikka a’zo bo‘lishga oid 633-XII-sonli Oliy Kengash qarori asosida Jahon Banki

tizimiga qo‘shildi. Shundan so‘ng mamlakat Jahon Banki doirasidagi Shveytsariya guruhining tarkibiga kirgan.

1992-yilning sentabr oyida Toshkent shahrida Jahon Bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi tashkil etildi. Bank vakolatxonasining ilk faoliyati bank va hukumat o‘rtasidagi muloqotlar, texnik yordam va loyiha tayyorlash ishlari bilan boshlangan.

2002-yildan boshlab O‘zbekistondagi bo‘lim faoliyatiga Pietro Veglio rahbarlik qilgan. Keyinchalik vakolatxona rahbari lavozimini boshqa mutaxassislar, jumladan Martin Reyzer ham bajargan. Mintaqaviy faoliyatga keladigan bo‘lsak, Jahon Bankining Markaziy Osiyodagi loyihalarini boshqarishda Denis de Treem muhim rol o‘ynagan.

Jahon Banki bilan hamkorlik, asosan, bank tomonidan ishlab chiqiladigan “O‘zbekiston bilan hamkorlik strategiyasi” hujjatlari asosida yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu strategik hujjatlar asosida infratuzilma, sog‘liqni saqlash, ta’lim, energetika va boshqa yo‘nalishlarda bir qator yirik xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon Banki O‘zbekiston Respublikasiga ajratadigan kreditlar bir nechta muhim moliyaviy shartlar asosida beriladi. Jumladan:

- Qarzlar 20 yil muddatga taqdim etiladi;
- Ular bo‘yicha 5 yillik imtiyozli davr ko‘zda tutiladi;
- Foiz stavkasi esa har yili yangilanadigan, suzuvchi (floating) shaklda belgilanadi.

Bank va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik doirasida ishlab chiqilgan strategik hujjatlar bir necha bosqichlarda hayotga tatbiq etilgan:

- 1995-yilda ilk bor uch yillik hamkorlik strategiyasi ishlab chiqildi;
- 1997-yilning kuzida esa 1998–2000-yillarni qamrab oluvchi yangi hujjat tasdiqlandi;
- 2006–2009-yillarda amal qilgan strategik dastur esa navbatdagi bosqichni ifodalagan.

Jahon Bankining bu strategiyalari O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga maslahat, texnik va moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish orqali ko‘maklashishga yo‘naltirilgan. Kreditlar, asosan, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, suv ta'minoti va sanitariya holatini yaxshilash, irrigatsiya va drenaj tizimlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarga ajratiladi.

12.1-jadval

O‘zbekiston va Jahon Banki hamkorligidagi asosiy loyihalar

№	Yillar	Loyiha obyekti	Loyiha qiymati
1.	1992	Davlat sektoridagi islohotlarni davom ettirish, xususiy mulkni rivojlantirishni tezlashtirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va bandlikni oshirish, shuningdek energetika hamda telekommunikatsiya sohalarini takomillashtirish.	21 mln. AQSh dollari
2.	1995	Import qilinadigan asosiy mahsulotlarni moliyalashtirish, jumladan paxta xomashyosining sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan choralar.	160 mln. AQSh dollari
3.	1998	Suv ta’minoti, sanitariya xizmatlari va sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish, shuningdek korxonalarning institutsional imkoniyatlarini oshirish	127 mln. AQSh dollari
4.	1999	Sog‘liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy xizmatlarning samaradorligini kuchaytirish	30 mln. AQSh dollari
5.	1999	Tijorat banklarining boshqaruv tizimini yaxshilash hamda Markaziy bankning nazorat va	25 mln. AQSh

		tartibga solish funksiyalarini mustahkamlash	dollari
6.	2000	Shahar transport tizimini yaxshilash maqsadida yangi avtobuslar xarid qilish	29 mln. AQSh dollari
7.	2006-2009	Maktab ta’limini rivojlantirish va sifatini oshirish uchun chora-tadbirlar amalga oshirish	40 mln. AQSh dollari
8,	2021	O‘zbekistonda suv ta’minoti xizmatlari sektorini rivojlantirish va uni institutsional qo‘llab-quvvatlash	7,8 mln AQSH dollari

Jahon bankining 2002-2008 yillardagi mamlakatimizga ko‘rsatgan yordami asosan quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan:

A) Valyuta va savdo sohasidagi siyosatni liberallashtirishni rag‘batlantirish hamda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish;

B) Xususiy sektor va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish;

V) Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va davlat resurslarini samarali boshqarish;

G) Texnik xizmat ko‘rsatish va irrigatsiya-melioratsiya sohasidagi infratuzilmani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar nafaqat ichki investitsiya faolligining oshishiga sabab bo‘lmoqda, balki xalqaro moliyaviy tashkilotlar va reyting agentliklari tomonidan ham ijobiy baholanmoqda.

Jahon bankining «Biznes yuritish 2020» (Doing Business 2020) yillik reytingida O‘zbekiston 2019 yil yakunlari bo‘yicha 100 baldan

69,9 ball to‘plab, 190 mamlakat orasida 69-o‘rinni egalladi. O‘tgan 2018-yilgi reytingga nisbatan mamlakat 76-o‘rindan 7-o‘ringa ko‘tarildi (2012-yildagi 166-o‘rinda turgan).

Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi matbuot xizmatiga ko‘ra, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa to‘rtta davlat, shu jumladan Tojikiston, Ozarbayjon, Qirg‘iziston va Kosovo bilan birgalikda O‘zbekiston ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan 20 mamlakat qatoridan o‘rin egalladi.

Jahon banki ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashdagi asosiy islohotlar quyidagilar:

- eng muhim korporativ qarorlarda aksiyadorlar huquqlari va rolini kengaytirish, mulkchilik va boshqaruv tuzilmalarini aniqlashtirish, shuningdek korporativ shaffoflikni oshirish orqali **minoritar investorlar himoyasini** kuchaytirish;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlarini daromad solig‘i bilan birlashtirish orqali **soliqqa tortish**ни soddalashtirish;
- xavfga asoslangan bojxona nazorati mexanizmini joriy etish orqali **xalqaro savdo**ни soddalashtirish, shuningdek, import hujjatlariga talablarni yengillashtirish;
- ixtiyoriy mediatsiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish orqali **shartnomalar ijrosini soddalashtirish**, shuningdek, taraflarni nizolarni mediatsiya orqali hal qilishga undash uchun moliyaviy rag‘batlar yaratish.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik. YeTTB 1991-yilda sobiq Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyodagi postsotsialistik mamlakatlarni bozor iqtisodiyotiga o‘tkazishda yordam

berish maqsadida tashkil etilgan. Bank hozirga qadar O‘rta Osiyo davlatlariga 12 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritgan.

O‘zbekiston **1992-yil 19-aprelda** YeTTB a’zosi bo‘ldi. Bank vakillari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni o‘rganib, kelajakdagi hamkorlik strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya doirasida O‘zbekistonning xususiy sektorini rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy resurslarni samarali boshqarish, energetika sohasini rivojlantirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, paxtani qayta ishlash va yengil sanoatni rivojlantirish, shuningdek, turizm infratuzilmasini yaxshilash asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Hozirgi kunda YeTTB tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar qatoriga quyidagilar kiradi: kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun uchta kredit liniyasini ta’minlash, Asaka bankini xususiylashtirish (bank aksionerlarining 20% garovi asosida), Sirdaryo GRESning 5 va 6-energiy bloklarini ikki bosqichda tiklash, “O‘zbektelekom” aksionerlik kompaniyasining 7% aksiyalarini sotib olish orqali xususiylashtirish, shuningdek, kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun maxsus jamg‘arma tashkil etish.

2005-yilga kelib Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar sovuqlashib, bank 2007-yilda mamlakatdagi yirik loyihalarni moliyalashtirishni to‘xtatgan edi. Shu sababli YeTTB bilan hamkorlik deyarli 12 yil davomida to‘xtatilgan edi. Biroq, 2016-yilda Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka saylanganidan so‘ng, YeTTB bilan munosabatlarni tiklash jarayoni tezlashdi. Bu borada muhim qadam sifatida 2017-2018-yillarda YeTTB prezidenti Suma Chakrabortining O‘zbekistonga tashrifi xizmat qiladi. Tashrif

davomida energetika sohasini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirishga investitsiyalar jalb etish hamda kapital bozorlarini xususiylashtirish va rivojlantirish masalalarini muhokama qilgan holda hukumat bilan bir qator memorandumlar imzolandi.

2017-yildan boshlab Yevropa investitsiya banki va YeTTB O‘zbekiston bilan hamkorlikni qayta boshladi va shu vaqt mobaynida amalga oshirilayotgan loyihalar soni va hajmi sezilarli darajada o‘sdi.

Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlik. O‘zbekiston 1992-yil sentabr oyidan boshlab XVFga a’zo hisoblanadi. 1995-yil yanvarda fond mamlakat boshqaruvi tomonidan qabul qilingan dastur asosida birinchi marta 72,4 million AQSh dollari miqdorida transh mablag‘larini taqdim etdi. Shu yilning dekabr oyida milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash uchun yana ikki transh ajratildi. Ushbu kreditlar foiz stavkasi suzib yuruvchi bo‘lib, qarz to‘lash muddati 5,5 yilni tashkil etdi.

1995-yil 18-dekabrda Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) O‘zbekiston Respublikasiga «Stand-By» kreditini ajratdi. Ushbu mablag‘lar 1995-1996-yillarda davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va 2000-2001-yillarda valyuta siyosatini tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida berildi. Shunga muvofiq, 2001-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi va XVF o‘rtasida 31-iyuldan 31-dekabrgacha bo‘lgan moliyaviy va iqtisodiy siyosatga oid memorandum imzolandi.

Ushbu memorandum asosida 1-yanvardan 30-iyungacha bo‘lgan davr uchun makroiqtisodiy va strukturaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston va XVF vakillari tomonidan ishlab chiqildi. 2002-yilda XVF monitoring dasturi doirasida bir qator vazifalar bajarildi

va turli vazirlik hamda idoralar o‘rtasida chora-tadbirlar amalga oshirildi. Asosiy maqsad iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish, kredit va soliq siyosatini qat’iy saqlash hamda valyuta rejimini tartibga solish edi.

2003-yilda XVF vakillari O‘zbekistonga tashrif buyurib, muzokaralar o‘tkazishdi. Bu jarayonda XVF nizomining 8-moddasiga muvofiq davlat rejasi asosida bir qator shartlar imzolandi. Ular orasida savdo sohasida soliq, budjet va pul-kredit siyosatining samarali unsurlaridan foydalanish hamda tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirish masalalari ham bor edi. 2003-yil 15-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi XVF bilan kelishuvidagi 8-moddasi, 3-4 moddasi va 2a qismidagi shartlarni qabul qilganini e’lon qildi.

2014-yilda Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) tomonidan korporativ boshqaruvni yaxshilash maqsadida texnik yordam ko‘rsatilib, fond mutaxassislari O‘zbekistonga tashrif buyurdilar. Ushbu missiya doirasida respublika tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Mutaxassislarning fikr va takliflari inobatga olinib, Markaziy bank va boshqa vakillar bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Natijada, korporativ boshqaruv qoidalari so‘nggi xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko‘rib chiqildi. Jumladan, Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv tamoyillari va Moliyaviy Barqarorlik Kengashining xavflarni boshqarish bo‘yicha tavsiyalari asosida o‘zgartirishlar amalga oshirildi.

2016-yil aprel oyida tijorat banklarida stress-test metodikasini takomillashtirish maqsadida texnik yordam ko‘rsatish jarayoni boshlandi.

Osiyo Taraqqiyot Banki. O‘zbekiston 1995-yil avgust oyida Osiyo Taraqqiyot Bankiga (OTB) a’zo bo‘ldi. Hozirgi kunda O‘zbekistonning bankdagi ulushi 71,5 ming aksiyani tashkil etadi, bu umumiy kapitalning taxminan 0,67 foiziga teng. Shuningdek, Direktorlar Kengashidagi ovoz birligi 110,9 mingni tashkil qiladi. Imzolangan kapital miqdori 1,04 milliard AQSh dollarini tashkil etib, shundan 51,79 million dollari to‘langan.

O‘zbekiston, Koreya, Vanuatu, Shri-Lanka, Vyetnam, Papua-Yangi Gvineya va Tayvan kabi davlatlar bilan birga Koreya guruhining a’zo-davlatlari qatoriga kiradi. O‘zbekistonda OTBning doimiy vakolatxonasi 1998-yildan beri faoliyat yuritmoqda.

2012-2016-yillarga mo‘ljallangan OTB bilan strategik hamkorlik doirasida asosiy e’tibor transport, energetika, kommunal xizmatlar, suv ta’minoti va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya, ta’lim boshqaruvi, xususiy sektorni rivojlantirish, gender tengligi va atrof-muhit o‘zgarishlari kabi sohalar ham loyihalarda muhim o‘rin tutadi.

2015-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, OTB tomonidan O‘zbekistondagi loyihalarga ajratilgan kreditlarning umumiy hajmi 4,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Shulardan 225 million dollari xususiy sektorni moliyalashtirish uchun, 61,7 million dollari esa texnik yordam uchun yo‘naltirilgan. Bank kreditlarining katta qismi transport (26,6%), energetika (24,6%), qishloq xo‘jaligi (13%) va moliya (12%) sohalariga yo‘naltirilgan.

Moliya sohasidagi loyihalar doirasida tijorat banklariga kichik biznes subyektlarini qayta moliyalashtirish uchun kredit liniyalari

ajratish, moliya muassasalarining faoliyatini yaxshilash uchun institutsional tuzilmani mustahkamlash, samarali bank ishini tashkil etish, davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish hamda ipoteka kreditlashni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda.

OTB Direktorlar Kengashi tomonidan O‘zbekistonda kichik biznes va mikromoliyalashni rivojlantirish maqsadida uchta loyiha tasdiqlangan. 2003-yilda OTB Moliya vazirligiga ikki asosiy qismdan iborat dastlabki loyiha doirasida 20 million AQSh dollari kredit ajratdi. Birinchi qism bo‘yicha kichik biznes loyihalarini qayta moliyalashtirish uchun uchta tijorat bankiga kreditlar berildi: Agrobankga 10,3 million, Asaka bankiga 6,5 million va Ipak Yo‘li bankiga 1,3 million dollar.

Ikkinchi qism esa kredit uyushmalarining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish hamda institutsional mustahkamlash uchun texnik yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oldi. Kichik biznes va mikromoliyalashtirishga oid ikkinchi loyiha uchun 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va OTB o‘rtasida kelishuv memorandumi imzolandi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida kichik biznesni qayta moliyalashtirish maqsadida Agrobank, Hamkorbank va Ipak Yo‘li banklariga mos ravishda 20 million, 20 million va 10 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyalari ajratildi. 2013-yil oktabr oyida OTB tomonidan O‘zbekiston uchun “Kichik biznesni rivojlantirish va mikromoliyalashtirish. Faza 3” loyihasi doirasida 50 million AQSh dollari kredit hamda tijorat banklarining imkoniyatlarini oshirish va qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 500 ming dollarlik texnik yordam grant ajratish qaror qilindi.

Ushbu loyiha doirasida OAKB “Hamkorbank” va OAIKB “Ipak Yo‘li bank”lari o‘z mablag‘lari hisobidan 50 million AQSh dollariga teng qo‘shma moliyalashtirish loyihasida ishtirok etmoqda. Shuningdek, subqarzdorlarning o‘z kapital mablag‘lari 33,3 million dollarni tashkil etmoqda.

Moliya sohasining samaradorligini oshirish maqsadida 2007-yilda OTB Direktorlar Kengashi O‘zbekiston hukumati uchun “Davlat moliyasini isloh qilish” loyihasini moliyalashtirish uchun 20,7 million AQSh dollari kredit va 0,6 million dollarlik texnik yordam grantini tasdiqladi.

Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishga qaratilgan ko‘ptranshlik loyiha OTBning moliya sohasidagi yirik loyihalaridan biri hisoblanadi. Ushbu loyiha umumiy qiymati 500 million AQSh dollarini tashkil etib, shuningdek, 1 million dollarlik texnik yordam grantini ham o‘z ichiga oladi. OTB Direktorlar Kengashi tomonidan 2011-yil 31-avgustda tasdiqlangan mazkur loyiha uch transhda moliyalashtirilishi rejalashtirilgan.

2011-yilda OTB oddiy kapital manbalaridan 200 million AQSh dollari miqdorida, muddati 18 yilga mo‘ljallangan va uch yillik imtiyozli birinchi transh zayomi ajratishni ma’qulladi. Ushbu zayomda ishtirok etuvchi bank sifatida OATBning “Qishloq qurilish banki” tanlandi. 2012-yilda 160 million, 2013-yilda esa 40 million dollar mablag‘ berildi. Shu yil ichida, shartlarga muvofiq, hajmi 200 million dollar bo‘lgan ikkinchi transh taqdim etilishi tasdiqlandi. Bu transhda “Qishloq qurilish banki”, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va ATIB “Ipoteka banki” ishtirok etdi. 2013-yilda 92 million, 2014-yilda esa 108 million dollar

mablag‘ ajratildi. 2015-yilda esa ishtirokchi tijorat banklariga 100 million dollar hajmida uchinchi transh zayomi taqdim etildi.

OTB tomonidan berilgan kreditlar, foiz va komissiya to‘lovlari, shuningdek moliyaviy mablag‘larning qaytarilishi ishtirokchi banklar va O‘zbekiston Respublikasi budjeti hisobidan amalga oshiriladi. 2013-yilda OTB ATIB “Ipak Yo‘li banki”ning ustav kapitaliga investitsiya kiritish jarayonini yakunladi va natijada u ikkinchi yirik aksionerga aylandi.

Investitsiyalar bilan birga, OTB tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini yaxshilash, korporativ boshqaruvni rivojlantirish hamda ijtimoiy va ekologik tavakkalchiliklarni boshqarishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekiston Respublikasi va Osiyo Taraqqiyot banki o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda Osiyo Taraqqiyot banki (OTB) a’zoligiga qabul qilingan. Hozirgi kunda mamlakatning bankdagi aksiyalari 71,5 ming AQSh dollarini yoki umumiy ustav kapitalining 0,67 foizini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Direktorlar Kengashida 110,9 ming ovoz huquqiga ega. O‘zbekiston OTB doirasida Koreya, Vanuatu, Shri-Lanka, Vetnam, Papua-Yangi Gvineya va Tayvan kabi davlatlar bilan birgalikda Koreya guruhi tarkibiga kiradi. Mamlakatdagi OTBning doimiy vakolatxonasi esa 1998-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

2012–2016-yillarda ikki tomonlama strategik hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari ***sifatida transport, energetika, kommunal infratuzilma, ichimlik suvi ta’minoti va moliyaviy resurslardan***

foydalanishni kengaytirish belgilangan edi. Bundan tashqari, *mintaqaviy integratsiya, ta'lim tizimini boshqarish, xususiy sektorni rivojlantirish, gender tengligi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muhofazasi* kabi sohalar ham ustuvor yo'nalishlar sifatida tan olingan.

2015-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, OTB tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalarga ajratilgan kreditlar umumiy hajmi 4,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Bu mablag'lar ichida xususiy sektorga yo'naltirilgan 225 million dollar miqdoridagi kreditlar hamda texnik ko'mak uchun ajratilgan 61,7 million dollar mavjud. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston va OTB o'rtasidagi hamkorlik portfeli 14 milliard AQSh dollaridan ortiq qiymatga ega bo'lgan 59 ta loyihani qamrab oladi. Ushbu tashabbuslarni moliyalashtirish uchun bank tomonidan 6 milliard dollardan ko'proq mablag' safarbar etilgan.

OTB tomonidan ajratilgan kredit mablag'larining qariyb uchdan ikki qismi transport, energetika, qishloq xo'jaligi hamda moliya sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan (2-rasm). Moliya sohasi doirasidagi loyihalar esa asosan tijorat banklariga kichik biznes subyektlarini qayta moliyalashtirish uchun kredit liniyalarini taqdim etish, moliyaviy institutlarning institutsional tuzilmasini rivojlantirish, samarali bank tizimini shakllantirish, davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish hamda ipoteka kreditlash tizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'zbekistonda kichik biznes va mikromoliyalashtirish yo'nalishida OTB Direktorlar kengashi tomonidan uchta loyiha tasdiqlangan. 2003-yilda Moliya vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan birinchi loyiha doirasida OTB tomonidan 20 million AQSh dollari miqdorida

qarz ajratilgan. Ushbu loyiha ikki asosiy komponentdan iborat bo‘lib, birinchi yo‘nalish kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishni ko‘zda tutgan. Shu asosda uchta tijorat banki – Agrobank (10,3 mln. dollar), Asaka banki (6,5 mln. dollar) va Ipak Yo‘li banki (1,3 mln. dollar) kredit olgan.

Loyihaning ikkinchi komponenti kredit uyushmalarining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularning institutsional salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan texnik yordam choralarini o‘z ichiga olgan.

2010-yilda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Osiyo Taraqqiyot Banki o‘rtasida “Kichik biznes va mikromoliyalashtirish bo‘yicha ikkinchi loyiha”ni moliyalashtirish yuzasidan Memorandum imzolandi. Ushbu loyiha kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish hamda texnik yordam ko‘rsatish komponentlarini o‘z ichiga olgan. Loyihani amalga oshirish doirasida qayta moliyalashtirish maqsadida “Agrobank”ga 20 million, “Hamkorbank”ga 20 million va “Ipak Yo‘li banki”ga 10 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyalari ajratildi.

2013-yil oktabr oyida esa OTB tomonidan “Kichik biznesni rivojlantirish va mikromoliyalashtirish. Faza 3” loyihasini amalga oshirish uchun O‘zbekistonga 50 million AQSh dollari miqdorida kredit berish, shuningdek, tijorat banklarining salohiyatini kuchaytirish va qishloq hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 500 ming AQSh dollari hajmida grant ajratish bo‘yicha qaror qabul qilindi.



12.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan ajratilgan kredit mablag‘larining yo‘nalishlar kesimidagi tarkibi (2018-yil 1-yanvar holatidagi ma’lumotlarga ko‘ra).

“Kichik biznesni rivojlantirish va mikromoliyalashtirish. Faza 3” loyihasi doirasida moliyalashtirish ikki yo‘nalishda amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihada ishtirok etayotgan OAKB “Hamkorbank” hamda OAIKB “Ipak Yo‘li bank” tomonidan qo‘shma moliyalashtirish uchun 50 million AQSh dollari ajratilgan. Bundan tashqari, subqarzdorlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 33,3 million AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha resurslar safarbar etilgan.

Moliya tizimining samaradorligini oshirish maqsadida, 2007-yilda OTB Direktorlar kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga “Davlat moliyasini isloh qilish” loyihasi doirasida 20,7 million AQSh dollari miqdorida qarz ajratilishi hamda loyiha faoliyatiga texnik ko‘mak

ko‘rsatish uchun 600 ming AQSh dollari miqdorida grant taqdim etilishi ma’qullangan.

“Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish” loyihasi Osiyo Taraqqiyot Bankining O‘zbekistondagi moliya sektoriga oid eng yirik ko‘ptranshli tashabbuslaridan biridir. Loyihaning umumiy qiymati 500 million AQSh dollarini tashkil etib, shundan 1 million AQSh dollari texnik ko‘mak uchun ajratilgan. OTB Direktorlar kengashi ushbu loyihani 2011-yil 31-avgustda tasdiqlagan.

Loyiha doirasida zayomlar uch bosqichda moliyalashtirilishi belgilangan. Birinchi transh sifatida, 2011-yilda OTBning oddiy kapital mablag‘lari hisobidan 200 million AQSh dollari miqdorida, 18 yillik muddatga va 3 yillik imtiyozli davrga ega kredit ajratilishi ma’qullangan. Bu bosqichda “Qishloq qurilish bank” ishtirokchi moliya muassasasi sifatida tanlangan bo‘lib, 2012-yilda 160 million, 2013-yilda esa 40 million AQSh dollari miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilgan.

Shunga o‘xshash shartlar asosida, 2013-yilda hajmi yana 200 million AQSh dollariga teng ikkinchi transh tasdiqlangan. Bu bosqichda uchta bank — “Qishloq qurilish bank”, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va ATIB “Ipoteka banki” loyihada ishtirok etgan. 2013-yilda 92 million, 2014-yilda esa 108 million AQSh dollari ajratilgan.

Uchinchi transh doirasida esa, 2015-yilda tijorat banklariga jami 100 million AQSh dollari miqdorida kredit taqdim etilishi belgilangan. Ushbu kreditlar, foiz va komissiya to‘lovlarini qoplash hamda moliyaviy majburiyatlarni bajarish ishtirokchi banklar va O‘zbekiston Respublikasi byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, 2013-yilda OTB tomonidan ATIB “Ipak Yo‘li banki”ning ustav kapitaliga sarmoya kiritish yakuniga yetkazilib, OTB ushbu bankdagi ikkinchi yirik aksiyadorga aylandi. Moliyaviy investitsiyalardan tashqari, OTB risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, ijtimoiy va ekologik tavakkalchiliklarni boshqarishga qaratilgan dasturlarni joriy etish tashabbusi bilan chiqdi.

Shu bilan birga, Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida bir qator yirik infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilgan va hozirda ham davom etmoqda. Jumladan, To‘llimarjon va Taxiatosh issiqlik elektr stansiyalarida zamonaviy bug‘-gaz qurilmalarining barpo etilishi, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarining modernizatsiyasi, qishloq hududlarida namunaviy uy-joylar qurilishi, turli viloyatlarda suv ta’minoti va sanitariya tizimlarining rekonstruksiyasi, Amu-Buxoro mashina kanalining qayta tiklanishi, Samarqand–Qarshi temir yo‘lining elektrlashtirilishi, shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilgan muhim tashabbuslar sirasiga kiradi.

2017-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyo Taraqqiyot Banki prezidenti bilan uchrashuv o‘tkazdi. Muzokaralar davomida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilinib, umumiy qiymati 573 million AQSh dollariga teng bo‘lgan 4 ta loyihani amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Ushbu loyihalar kichik biznesni rivojlantirish, meva-sabzavotchilik sohasini qo‘llab-quvvatlash, suv ta’minoti tizimini

yaxshilash hamda avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Islom Taraqqiyot Banki o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari.

O‘zbekiston Respublikasi *2003-yil sentabr oyidan boshlab* Islom Taraqqiyot Bankining to‘laqonli a’zosi hisoblanadi va ayni yili Toshkentda bankning vakolatxonasi ochilgan. O‘zbekiston ITB a’zolari orasida Ozarbayjon, Albaniya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlar bilan birga joylashgan. *Islom Taraqqiyot Bankining aksionerlari soni 56 ta a’zo davlatdan* iborat bo‘lib, ovoz berish huquqi ularning egalik qilgan aksiyalari soniga bog‘liq. O‘zbekistonning bankdagi ulushi **1344 ta aksiyani** tashkil etib, umumiy kapitalning **0,03 foizini** tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ITB bilan hamkorlik aloqalarini 2013-yil 27-avgustda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Islom Taraqqiyot Bankiga a’zoligi to‘g‘risida”gi 371-sonli qarorga asosan yo‘lga qo‘ygan. ITB faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan davlat loyihalarini moliyalashtirish strategiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. Hamkorlik natijasida bankning o‘z mablag‘lari hisobidan jami 1465,4 million AQSh dollari qiymatidagi zayomlar 30 ta investitsion loyihaga yo‘naltirilgan. Hozirda O‘zbekistonda ITB mablag‘lari ishtirokida jami 1069,4 million AQSh dollarini tashkil qiluvchi 15 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu investitsiyalar sog‘liqni saqlash, ta’lim, irrigatsiya va melioratsiya, energetika, suv ta’minoti, kommunal xizmatlar, yo‘l

infratuzilmasi hamda xususiy tadbirkorlik sohalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar doirasida yangi asfalt zavodi barpo etilib, foydalanishga topshirildi hamda Toshkent-Termiz magistral avtomobil yo‘li qayta ta’mirlandi. Ushbu loyihalarga ajratilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 258,1 million AQSh dollarini tashkil etib, shundan 179,8 million dollari Osiyo Taraqqiyot Banki mablag‘lari hisoblanadi. Hozirgacha bu sohada 65,1 million AQSh dollari miqdorida mablag‘lar sarflangan.

Umumta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan to‘rt loyiha doirasida jami 99,08 million AQSh dollari investitsiya kiritilgan, uning 79,98 million dollari ITB zayomi hisoblanadi. Ta’lim sohasidagi loyihalarga hozirgacha 23,63 million AQSh dollari o‘zlashtirilgan.

Tez tibbiy yordam va onkologik bemorlarni davolash sifatini oshirish bo‘yicha loyihalarga ajratilgan kreditlar hajmi 101,82 million AQSh dollarini tashkil etib, shundan 78,24 million dollari ITB tomonidan moliyalashtirilgan. Sog‘liqni saqlash sohasida hozirgacha 23,62 million AQSh dollari sarflangan.

Kommunal xizmatlarni rivojlantirish doirasida kanalizatsiya tizimini yaxshilash bo‘yicha ikki loyiha amalga oshirilmoqda, ularga jami 99,68 million AQSh dollari ajratilgan. ITB o‘z mablag‘lari hisobidan 92,9 million dollar investitsiya kiritgan. Kommunal xizmatlar sohasidagi loyihalarga hozirgacha 10,3 million AQSh dollari sarflangan.

Xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 5 ta loyiha uchun jami 65 million AQSh dollari miqdorida investitsiya

amalga oshirildi va bu mablag‘larning barchasi Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan to‘liq sarflandi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirish va sug‘orish tizimini yaxshilash maqsadidagi loyihalarga jami 338,5 million dollar ajratilib, shundan 232,7 million dollari ITB tomonidan moliyalashtirildi. Ayniqsa, irrigatsiya va melioratsiya sohasida 36,55 million dollar sarflandi.

Energetika sektorini rivojlantirish, xususan, elektr energiyasini uzatish, yoritish sifati va energiya tejamkorligini oshirish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilgan 6 ta loyiha uchun 738,16 million dollar ajratilgan bo‘lib, shundan 433,1 million dollar ITB mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi. Energetika sohasida hozirgacha 89,37 million dollar o‘zlashtirilgan.

Shuningdek, gaz qazib olish hajmini ko‘paytirish, zamonaviy uy-joylarni qurish orqali qishloq joylarni rivojlantirish va aviatsiya transport tizimini yaxshilashga yo‘naltirilgan loyihalar uchun jami 313,47 million dollar ajratilgan, buning 306,7 million dollari ITB mablag‘lari hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi loyihalarga hozirgacha 258,83 million dollar sarflangan. Hozirda beshta zayom loyihasi tayyorlov bosqichida turibdi.

ITB o‘z mablag‘lari hisobidan kiritgan investitsiya hajmi 306,7 mln. AQSh dollarini tashkil yetdi. Ushbu yo‘nalishlardagi loyihaiar bo‘yicha 258,83 mln. AQSh dollari o‘zlashtirildi. Hozirgi paytda 5 zayom loyihasi tayyorgarlik bosqichida turibdi.

Grant loyihalari bo‘yicha ITB jami 577 966,8 AQSh dollariga teng bo‘lgan 5 loyihaga jalb etildi. Hozirgi vaqtda 300 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan 1 ta grant loyihasi amalga oshirish bosqichida turibdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz va ITB o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Xususan, 2017-yilda O‘zbekiston hukumati va ITB 300 mln dollarlik moliyaviy kelishuvni imzoladi. Taqdim qilingan mablag‘lar «Qishloq joylarida turar - joy qurilishini rivojlantirish» loyihasining 2-bosqichini amalga oshirishga yo‘naltiriladi. ITB mablag‘lami 15 yillik, jumladan, 2 yillik imtiyozli muddatga berdi. Loyiha doirasida 2017-2021-yillarda O‘zbekistonning 6 ta viloyatida yangilangan namunaviy loyihaiar asosida 6,4 mingtadan ko‘proq uy, 110,52 km kirish va ichki yo‘llar, 197,80 km li ichimlik suvi tizimi quriladi. Loyihaning amalga oshirilishi qishloq joylarida yashovchi 30 mingga yaqin odamning yashash sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

12.3. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida Shanxay mintaqaviy xalqaro tashkilotining o‘rni.

O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahrida 2004 yil iyun oyida davlat rahbarlari – Shanhay hamkorlik tashkiloti (ShHT) rahbarlarining sammitining o‘tkazilishi O‘zbekistonning yuqori xalqaro nufuzi, uning mintaqaviy xavfsizlik va integratsiyadagi muhim rolini e'tirof etadi. Bizning mamlakatimiz bu masalaga yuqori ahamiyat berayotgani quvonarli holdir va bizning bugungi tinch va osoyishta hayot kechirayotganimiz – respublika rahbariyati bu yo‘nalishdagi faoliyatining natijasidir. Shuni ta'kidlab o‘tish lozimki, ushbu sammitni o‘ziga xos o‘zaro aloqada faoliyat yuritish, hamkorlik va barcha olti mamlakat (**Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Xitoy, Rossiya, O‘zbekiston va Tojikiston)** xalqlari taqdirini hal etuvchi masalalarni hamma tomondan

koʻrib chiqib olgani gapimizning yaqqol dalilidir. Bu, aynan mintaqaning barcha halqlarini oʻylantiruvchi asosiy masalalardir.

ShHT haqida fikr yuritar ekanmiz, shuni ta'kidlab oʻtish lozimki, ushbu tashkilotning yaratilishi tabiiy xoldir. Bizning xalqlarimiz necha asrlar osha yonma-yon yashab kelmoqda. Tarixan, biz birgalikda umumiy, odatda, mintaqaning har bir xalqi yutugʻi boʻlib chiqqan, manfaatlar va maqsadlarni amalga oshirganmiz.

Shuni e'tirof etib oʻtish lozimki, xalqaro tashkilotning nufuzi va ahamiyati uning faoliyati samaradorligi va u ega boʻlgan obroʻ bilan belgilanadi. ShHTning tashkilot sifatida shakllanishi va uning keyingi taraqqiyoti unchalik koʻp vaqt talab etmadi.

2001 yil 15 iyunda Xitoyning Shanhay shahrida olti mamlakat rahbarlari ShHTni va uning ikki doimiy faoliyat yurituvchi organlari – Kotibiyat va Mintaqaviy antiterroristik strukturani tashkil etish toʻgʻrisida deklaratsiyani imzoladilar. Ta'sis hujjati – Xartiya (Nizom) 2002 yil 7 iyunda Sankt-Peterburg (Rossiya) da qabul qilindi. Shundan soʻng tashkilot xalqaro yuridik maqomga ega boʻldi.

2003 yil 9 mayda tashkilotning Moskva sammitida 2004 yil yanvaridan Pekinda Kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy antiterroristik strukturasi ijro qoʻmitasi faoliyatini boshlash toʻgʻrisida qaror qabul qilindi.

Shuningdek, 2003 yil sentyabrda hukumat rahbarlari Kengashi qaroriga asosan Savdo-iqtisodiy sohada koʻp tomonlama hamkorlik toʻgʻrisida uzoq muddatli dastur ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

ShHT qoshida muntazam ravishda a'zo mamlakatlarning tashqi iqtisodiy idoralari, iqtisodiyot va savdo vazirliklari, mamlakat

xavfsizligi kengashlari o‘rtasida muzokaralar olib boriladi. Toshkent sammiti arafasida ham ushbu idoralar rahbarlarining uchrashuvi tashkil etilgan edi. Bu tashkilotning taraqqiyoti, uning ichidagi hamkorlikka qanchalik muhim ahamiyat qaratilayotganidan dalolat beradi.

Toshkent uchrashuvida ko‘rib chiqilgan masalalar orasida ShhTning asosiy ikki yo‘nalishdagi faoliyati muhokamasiga alohida e'tibor qaratildi: xavfsizlik masalalari va savdo-iqtisodiy hamkorlik.

Ishtirokchilar Mongoliya Prezidenti Natsagiyna Bagabandi murojatini eshitib chiqib, uni bu tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul etish to‘g‘risida qaror qabul qildilar. Shuningdek, anjumanda nafaqat ShhT mintaqasidaga, balki butun dunyodagi vaziyatga ta'sir o‘tkazuvchi Afg‘oniston masalasiga ham alohida e'tibor qaratib o‘tdilar.

Shuni ta'kidlab o‘tish lozimki, ushbu mamlakatdagi vaziyatga qaratilgan muzokaralar ko‘pincha, bu mamlakatning o‘zini ishtirokisiz borar edi. Boshqa so‘z bilan aytganda, Afg‘oniston o‘z muammolarini hal etishda o‘zi ishtirok etmas edi, bunga unchalik katta e'tibor berilmas edi. Afg‘onistonda markazlashgan hukumat yo‘q edi, mamlakatlarni hududlarga bo‘lib, uni nazorat qiluvchi guruhlar esa bir-birini tan olmas edi. hozirda esa vaziyat o‘zgargan.

Shu sababdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ShHT ning Toshkent sammitiga Afg‘oniston muvaqqat ma'muriyati rahbari Xamid Karzay mehmon sifatida taklif etildi. Uning muhokama jarayonidagi ishtiroki vaziyatni obyektiv baholash va optimal qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Tashkilotning tarixida birinchi marta kengaygan tarkibdagi ShhT a'zo davlatlari rahbarlari Kengashida Afg‘oniston rahbari Xamid Karzay va Mongoliya Prezidenti vakili – Mongoliya tashqi ishlar vaziri Luvsanngiyn Erdenechuluun ishtirok etdi.

ShHT sammiti kun tartibida xavfsizlik masalalariga alohida o‘rin berilganligi tasodifiy emas. O‘zbekistonda yaqinda bo‘lib o‘tgan terroristik hurujlar xavfsizlikka tahdidi hali saqlanib qolganidan dalolat beradi. Bu voqealar nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni o‘rnatishga intilish kabi qabul qilinishi lozimdir.

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda terrorizm butun dunyo bo‘ylab zo‘raymoqda. Yadro, kimyoviy, biologik, elektoron terrorizm vujudga keldi. Buni inobatga olib, ShHT mintaqasida xatarni oldini olish umumiy mexanizmi, yaxlit tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Toshkentda rasman ochilgan Mintaqaviy antiterroristik strukturaga axborot almashinuvi, chegara va bojxona qo‘mitalari, maxsus xizmatlar hamkorligini muvofiqlashtirish orqali terrorizmni oldini olish vazifasi yuklatilgan.

Prezident I.A.Karimov ko‘p bora ta'kidlaganidek, terrorrizmga qarshi kurashda ularning destruktiv kuchlari va bazalarini yo‘qotish bilan cheklanib qolish kerak emas. Terrorizmni moliyalashtiruvchi, insonlar ongini zaharlovchi markazlar bilan ayovsiz kurash olib borish lozim. Bu kurash siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarini hisobga olishi lozim.

Mamlakatimiz rahbari terror va narkobiznesga nisbatan “Tranzit mamlakat” tushunchasining o‘zi noto‘g‘riligini ta'kidlab o‘tdi. Xavf

bevosita sening davlatingga qaratilmagan bo‘lsa ham unga befarq qarab bo‘lmaydi. Yer yuzasida terroristlar o‘zini bexavotir sezadigan biron nuqta qolmaganidagina, terrorizmga qarshi kurash kutilgan natija berishi mumkin.

ShHT sammitida ko‘rilgan ikkinchi muhim masala savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Chunki, uning a'zolari ta'kidlaginidek, ShhT xavfsizlikni ta'minlash orqali davlatlarning o‘zaro faoliyatini rivojlantirishga olib keladigan tashkilotdir. Iqtisodiy sohada transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, meneral resurslar zahiralarini o‘zlashtirish, suv-energetika resurslaridan samarali foydalanish, ekologik, xususan ichimlik suvi muammolarini xal etish maqsad qilib qo‘yilgan.

ShHTning mintaqaviy antiterroristik strukturasini tashkil etish to‘g‘risidagi qaror 2001 yil Shanxayda o‘tkazilgan birinchi sammitda qabul qilingan edi. 2003 yil maydagi Moskva sammitida esa struktura Bosh idorasini Toshkentda joylashtirish to‘g‘risida kelishilgan.

Qisqa muddat ichida idora uchun bino ajratildi. U zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan. Yangi struktura 2001 yilning 1 yanvaridan to‘laqonli faoliyatini boshladi.

ShHTning Toshkent sammiti boshlanishi arafasida – 17 iyunda MATS ijroiya qo‘mitasining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Bu voqea sharofati bilan mamlakatimizga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboev, XXR Raisi Xu Szintao, Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Askar Akaev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Raxmonovlar tashrif buyurdi.

Tantanali marosim MATS binosiga kirishdagi lentani kesishdan boshlandi.

O‘zida jiddiylik va kamtarlik jihatlarini mujassamlashtirgan binoning tashqi ko‘rinishi mehmonlarda yaxshi taassurot qoldirdi. Davlat rahbarlari majlislar zali, press-konferentsiya va boshqa tadbirlarni o‘tkazish uchun bino, mehmonlarning shinamligi, zamonaviy texnikalar bilan jihozlanganini ko‘zdan kechirishdi va yuqori baho berishdi.

Tadbirni ochar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov MATS ShHT yetakchilari qaroriga asosan tashkil etilganini ta'kidlab o‘tdi. U struktura tarkibida mavjud xatarlarga qarshi umumiy yondashuv ishlab chiqilishi, ushbu strukturani malakali mutaxassislar va operativ aloqa bilan ta'minlash zarurligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi. A'zo mamlakatlar maxsus xizmatlari o‘rtasida o‘zaro ishonchli aloqalarni o‘rnatish muhimdir. Shuningdek, BMT, MDH, ShHT va Interpol antiterroristik markazi rahbari Boris Mo`lnikov, MDH ijro kotibi Vladimir Rushaylo so‘zga chiqdilar.

MATS ijroya qo‘mitasini tashkil etilishi ShhT a'zolari kuch va imkoniyatlari, terrorizmga qarshi kurashdagi tajriba va usullarni birlashtirish imkoniyatini berishi alohida e'tiborga loyiqdir.

MATS bir joyning o‘zida axborot to‘plash, a'zo mamlakatlarining birgalikda faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratadi. Aynan shu maqsadda, struktura tarkibida Kengash va Ijroya qo‘mitasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Kengash tarkibiga olti mamlakat maxsus xizmatlari rahbarlari kiradi. Ijroya qo‘mitasida esa, kelishilgan lavozimlarda a'zo mamlakatlar vakillari faoliyat yuritadi.

Ushbu strukturalarni a'zo davlatlar galma-gal boshqarib boradi. Bugungi kunda Kengash faoliyatini – Qirg‘iziston, Ijroya qo‘mitasi faoliyatini esa O‘zbekiston boshqarmoqda. Ushbu strukturada a'zo mamlakatlari huquqni muhofaza qilish organlarining ellik nafar mutaxassislari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston xavfsizlikni boshqarish va hamkorlik yo‘lida, Toshkentda O‘zbekiston Prezidentining, XXR Raisi Xu Szintao va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv chog‘ida, O‘zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik to‘g‘risidagi muhim xujjatlarni imzoladi. Biz, Ushbu bitimlar O‘zbekistonning bu mamlakatlar bilan hamkorligini taraqqiy etishida muhim qadam bo‘lganiga ishonamiz.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasining jahonning ilg‘or davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbollari qanday tasvirlanadi?

2. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan olib borayotgan hamkorlik aloqalari qanday xususiyatlarga ega?

3. O‘zbekiston Respublikasining Jahon banki guruhi bilan bo‘lgan munosabatlarini qanday tushuntirish mumkin?

4. O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotida (JST) qanday maqomda ishtirok etadi?

5. O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

XIII BOB. BUTUN JAHON SAVDO TASHKILOTINING HAMKORLIK SIYOSATI

13.1. Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo‘lishda chet el tajribasi.

13.2. BJSTning tarkibi va vazifalari.

13.3. O‘zbekiston Butun jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuv yo‘lida.

Tayanch iboralar: importning erkinlashuvi, sertifikatsiyalash tizimi, bojxona faoliyati, subsidiya, fiskal daromadlar, diskriminatsiya, mehnat unumdorligi, mahalliy investitsiyalar.

13.1. Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo‘lishda chet el tajribasi.

Sobiq Ittifoq bundan o‘n sakkiz yil muqaddam parchalangan bo‘lsa-da, MDH davlatlari hali hanuz ularning o‘zaro savdo munosabatlarini boshqarish uchun mos strukturani topishga harakat qilmoqdalar. Hozirgi kunda chala ijro etilayotgan ko‘plab ikki tomonlama bitimlar va bir qator rasmiy kelishuvlar MDH ichidagi savdo munosabatlarini tartibga solib kelmoqda.

MDH davlatlari o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama savdo bitimlarning ijro etilishi sohasidagi siljishlar importnig erkinlashuvi bilan qiyinlashtirildi. MDH mamlakatlari 1992 yildan buyon, MDH dan tashqari mamlakatlar importi va investitsiyalari uchun iqtisodiyotini ochgan holda, savdoni erkinlashtirish jarayonida ishtirok etmoqda. BJSTga a'zolik ushbu jarayonning o‘z cho‘qqisiga yetganligini anglatib,

har bir mamlakatga savdoni erkinlashtirish jarayonini qonunchilik darajasigacha koʻtarilishini anglatadi.

MDH mamlakatlari eksport sohasida hali-hanuz bir-birlarining bozorlariga qaram boʻlsa-da, oxirgi oʻn yilda, ularning har biri oʻz resurslarini va import assortimentini diversifikatsiya qilishga harakat qildi.

BJSTga kirish jarayoni poyoniga yetmaguncha, integratsiyaning chuqurroq shakli (bojxona yoki iqtisodiy ittifoq) tomon jiddiy siljishlar amalga oshishi ehtimoli kamdir. BJSTga kirish jarayoni mexanikasi kirish import kontsessiyalari boʻyicha ham ikki tomonlama, ham koʻp tomonlama muzokaralarni nazarda tutgani bois, davlatlarga, ular bunday masalalarni bojxona ittifoqi boʻyicha boshqa sheriklar bilan muhokama qilishda cheklanmagan boʻlmasa, kelishishi ancha oson kechadi. (TsT) Transport boʻyicha sertifikatsiyalash tizimi tarif himoyasi va boshqa cheklovlarni oʻz ixtiyoriga koʻra belgilashga ruhsat berganligini hisobga olgan holda (ushbu mamlakatlar oʻrtasidagi savdoga tegishli boʻlmaguncha), ushbu kelishuvlar davlatlarning JSTga kirish kabi jarayonlarda band boʻlmagan hollarda osonroq kechadi.

BJSTga a'zolik MDH davlatlarida mintaqaviy integratsiyaning yanada chuqurlashtirish istagini keltirib chiqarishi mumkin.

Bugungi kunda ST lar MDH davlatlarining holatida MSBning eng qulay shakli ekanligi ravshandir. Ba'zi MDH mamlakatlari integratsiyani yanada chuqurlashtirishni rejalashtirgan boʻlsada (RF va Belorussiya), ushbu jarayonni JSTga kirish jarayoni bilan bir vaqtda olib borishi amri maholdir. Amalda, qoʻyilgan maqsadlarga erishish mexanizmlarining murakkabligi sababli, bir jarayon ikkinchisiga toʻsqinlik qilishi mumkin.

Aslida mintaqaviy integratsiya yana bir mintaqaviy kredit ittifoqi to‘g‘risida bitimni imzolash orqali emas, balki quyidagi sohalarga tegishli bir qator masalalarga chuqurroq yondashuv orqali olg‘a siljishi mumkin:

- bojxona faoliyati (masalan, hujjatlarga bo‘lgan talablarning standartizatsiyalashuvi, sertifikatsiyaning o‘zaro tan olinishi, kelib chiqish mamlakatini belgilash tartib–qoidalarini muvofiqlashgan ravishda ishlab chiqish va qo‘llash);
- MDH mamlakatlari o‘rtasida va ular orqali yuk tashish xarajatlari;
- to‘lovlar bilan muammolar.

Bularning barchasi MDH mamlakatlari o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga, navbatdagi MSB haqida bitimni imzolashdan ko‘ra ko‘proq ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin edi.

Boshlang‘ich tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, MDH davlatlari o‘rtasida savdo masalalari yuzasidan muammo chiqib qoladigan hollarda, ushbu mamlakatlar hukumatlari MSB shartlaridan chekinib, yangi to‘siqlar o‘rnatishga harakat qilishi tendentsiyasi yuqori ekan. Haqiqatdan, ushbu masalada BJSTga kirish MDH davlatlari o‘rtasida raqobatni yuzaga chiqarishi mumkin. Nomzod mamlakat BJST a'zoligini qo‘lga kiritishi bilan, boshqa nomzod mamlakatlarning ishchi partiyasiga a'zo bo‘lishi mumkin. Bu esa yangi a'zo mamlakatning nomzod mamlakat bilan yangi bozorlarni ochish masalalarida ikki yoki ko‘p tomonlama muzokaralarda ishtirok etish huquqini beradi. Ukraina Rossiyaga ba'zi mahsulotlarni (masalan, shakar) eksport qilishda ma'lum to‘siqlarga ro‘baro‘ kelish kabi holatlarda, BJSTga RFdan avvalroq a'zo

bo‘lish ma'lum darajada mantiqqa egadir. BJSTga kirish jarayonidagi raqobat va tashqi savdo qoidalarini muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklarga qaramasdan, MDHning ESZ chegarasida yagona tarifning o‘rnatilishi bir qator ijobiy tomonlarga egadir:

Birinchidan, ijro ustidan nazorat ancha engildir va shu sababli, ancha arzon hamdir. Importyorlarda qallobchilik uchun asos yo‘q. Bugungi kundagi ko‘p MDH davlatlarining muammosi shundaki, import tariflar bo‘yicha tartiblarning ancha chalkash va murakkabligi tufayli ba'zi importyorlarga qallobchilik uchun imkoniyatlar ochiladi. Masalan, ma'lum tovarni boshqa nom yoki tur orqali olib kirishda pastroq boj to‘lovlarini to‘lab, o‘z daromadlarini oshirish imkoniyati. Sodda yagona tarif nafaqat bu muammoni oldini olishi, balki boj tushumlarini oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, yagona tarif nisbiy narxlarni buzib ko‘rsatmaydi. Baland va maxsus tariflarning iqtisodiy samarasizligining salbiy oqibati shundan iboratki, ular import narxini buzib ko‘rsatadi – ba'zi mahsulotlarni arzonlashtiradi, ba'zilarga esa narxni sun'iy ravishda ko‘tarib yuboradi.

Uchinchidan, yagona boj tarifi JST qoidalari bilan mos keladi. BJSTga a'zolik masalalarida kechgan muzokaralarda tarif chegaralari 0 dan 20 % gacha bo‘lishi lozimligi ta'kidlab o‘tildi. Bu ichki bozorga jiddiy ta'sir o‘tkazish uchun nisbatan kichik ko‘rsatkichdir.

Avvalgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, savdo og‘ishi oqibatida ESZ ichida tarif stavkalari tabiiy ravishda mos kelishi mumkin. Bundan tashqari, agar stavkalar, MDH mamlakatlari hukumatlari xozir qo‘llayotgan stavkalardan pastroq bo‘lsa, BJST ning a'zoligiga kirish

jarayoni bunday konvergentsiya albatta amalga oshishini kafolatlaydi. Masalan, agarda Rossiya va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqining boshqa a'zolari o‘zlarining boj ittifoqini tuzish va yagona iqtisodiy siyosatni olib borish va'dalaridan foyda ko‘radigan bo‘lsalar, ularning o‘z taomil(poshlina)lari darajasini qirg‘iziston taomil(poshlina)lari darajasigacha pasaytirishga majbur bo‘lishi ehtimoli bor. Aks holda, qirg‘iziston Respublikasi Iqtisodiy Ittifoq a'zoligidan chiqarib tashlanishi va ESZ tuzish to‘g‘risida bitimni faqatgina YeI ning boshqa a'zo mamlakatlari bilan imzolash huquqini saqlab qolishi mumkin.

Mintaqaviy savdo bitimlarini tuzishda endilikda bunday noaniqliklarga yo‘l qo‘yilmasa kerak. MDH bozor strukturalari baho to‘g‘risidagi va boshqa bozor signallarni samaraliroq uzata boshlaganligi sababli, savdoning bozor integratsiyasiga iqtisodiy intilish va nisbiy ustunlikka asoslangan ishlab chiqarishdan foyda ko‘rishi ravshan bo‘lib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, hozirda mavjud bir qator notarif to‘siqlar, importning liberallashuvi va diversifikatsiya qilinishi jarayoni ancha yaqinroq savdo munosabatlarining iqtisodiy asoslanganligi jiddiy buzib ko‘rsatilganligidan dalolat beradi. Faqatgina «De-fakto» integratsiyani rag‘batlantiruvchi omillar amal qilgandagina, «De-yure» bitimlar amalda qo‘llanila boshlaydi.

Kun sayin yomonlashib, murakkablashib borayotgan jahon xo‘jaligi kon'yukturasi sharoitida, MDH mamlakatlarining bugungi kun vazifasi o‘z barqarorlik salohiyatini saqlab qolish va oshirishdir. Bunday sharoitda, o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosatning muvofiqlashganligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nisbatan barqarorlikka erishish sharofati bilan MDH davlatlari o‘z iqtisodiy salohiyatini yanada tezroq

oshirish imkoniyatini qo‘lga kiritdilar. Oxir-oqibat, ularning jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borish tezligi, MDH asosida jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti markazini yaratish imkoniyati aynan shunga bog‘liqdir.

Faqat integratsion jarayonlarni mustahkamlabgina, hamdo‘stlikning iqtisodiy salohiyatidan, uning a'zolarining milliy manfaatlari yo‘lida, to‘laqonli foydalanish, G‘arb va Sharqning postindustrial davlatlaridan hozirgi qoloqlikni bartaraf etish, baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlaridan jadal foydalanish, beqarorlik avj olayotgan bugungi kun olamida xalqlarimiz do‘stligi va davlatlarimiz mustaqilligini himoyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. MDH davlatlari dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ulkan ustunliklarga egadir. Lekin ulardan foydalana olish uchun bir qaror uzil-kesil hal qilishlari kerak yoki ular barcha masalalarni hamjixatlikda hal etib doimo birga harakat qilishlari kerak (eng to‘g‘ri, istalgan yo‘l), yoxud ularning har biri o‘z tanlagan yo‘lidan o‘zi, ularni ko‘pdan buyon bog‘lab turgan rishtalardan voz kechib, qo‘shnisi ishlariga aralashmasdan va halaqit bermasdan harakatlanishi lozimdir.

13.2. BJSTning tarkibi va vazifalari.

Qarorgohi: Jeneva, Shveytsariya.

Tashkil etilgan sanasi: **1 yanvar 1995 yil.**

Tashkil etilishi: Urugvay raundi (1986-1994) muzokaralari natijasiga asosan.

A'zoligi: 152 mamlakat (2007 yil oktyabr holatiga).

Byudjeti: taxm. 100 mln. AQSh dollari.

Kotibiyat shtati: 500 ta xodim.

Rahbar: Bosh direktor.

Maqsad va tamoyillari: 1947 yildan buyon amal qilib kelgan Tarif va savdo bo‘yicha Bosh Bitimining (TSBB yoki GATT) “Vorisi” bo‘lgan Jahon savdo tashkiloti (JST) o‘z faoliyatini 1995 yil 1 yanvarida boshlagan. BJST tashkilot a'zolarining savdo-siyosiy munosabatlarini ko‘p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvay raundi (1986-1994 yillar) Bitimlari pakti asosida tartibga soladi. Ushbu xujjatlar zamonaviy xalqaro savdoning huquqiy asosidir.

BJSTni joriy etish to‘g‘risidagi bitim, Urugvay raundi kelishuvlari va bitimlarini amalga oshirishni nazorat qilish va ularning ko‘p tomonlama savdo munosabatlariga ta'sir o‘tkazuvchi muammolarni bartaraf etish bilan shug‘ullanadigan, doimiy faoliyat yuritadigan a'zo mamlakatlar forumini tashkil etishni ham nazarda tutadi. BJST ko‘p tomondan TSBB kabi faoliyat olib boradi, lekin shu bilan birgalikda savdo munosabatlarining kengroq jihatlarini nazorat qiladi (shu jumladan, xizmatlar savdosi va intelektual mulk huquqining savdo aspektlari) va tashkilot a'zolari tomonidan qarorlar qabul qilish va ularga rioya etish jarayonining mukammallashuvi oqibatida, ko‘proq vakolatlarga egadir. BJSTning ajralmas qismi sifatida savdo munozaralarini hal etishning nodir mexanizmi e'tirof etiladi.

1947 yildan buyon liberalizatsiyaning global muammolari va jahon savdo taraqqiyoti istiqbollarini muhokama qilish ko‘p tomonlama savdo muzokaralari (KSM) qoshida, TSBB homiyligi ostida olib boriladi. 2002 yilga kelib KSMning 8 raundi bo‘lib o‘tdi (Shu jumladan, Urugvay

raundi) va to‘qqizinchisi boshlandi. Ushbu nufuzli xalqaro iqtisodiy tashkilotning bosh maqsadi. Jahon savdosi liberalizatsiyasidir.

BJST TSBBning asosiy tamoyillari va qoidalari quyidagilardir: kamsitishsiz savdo, ya'ni savdoda o‘zaro maksimal qulaylik yaratib berish rejimini joriy etish, savdoni asosan tarif usullari orqali tartibga solish, miqdoriy va boshqa cheklovlarni qo‘llashdan voz kechish, savdo siyosatining transparentligi, savdo munozaralarini maslahatlar va munozaralar yo‘li bilan hal etish.

BJSTning asosiy vazifalari quyidagilardir: Urugvay raundi hujjatlar paktining kelishuv va bitimlariga amal qilinishini nazorat qilish; mafaatdor a'zo mamlakatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama savdo muzokaralari va maslahatlarini tashkil etish; savdo munozaralarini hal etish; a'zo davlatlarning milliy savdo siyosatlari monitoringi; JST vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik ko‘mak berish; xalqaro ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik.

BJSTga a'zolikdan erishiladigan manfaatlarni quyidagicha mujassamlashtirish mumkin:

Jahon savdo tashkiloti (JST) a’zolari bilan savdo aloqalarining aniq va barqaror rivojlanishi, jumladan ularning tashqi iqtisodiy siyosatining shaffofligi hisobiga, jahon tovar va xizmatlar bozoriga kirishni osonlashtiruvchi qulay sharoitlar yaratiladi;

Milliy manfaatlar himoyasini ta’minlash, ayniqsa, agar ular sherik davlatlar tomonidan e’tiborsiz qolsa yoki bosim ostida bo‘lsa, JSTning nizolarni hal qilish mexanizmidan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu orqali diskriminatsiyaga barham berish ta’minlanadi;

Xalqaro savdo sohasida yangi qoidalarni ishlab chiqishda Kengashlar va muvofiqlashtirish mexanizmlarida faol ishtirok etish orqali o‘zining joriy hamda uzoq muddatli savdo-iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish imkoniyati yaratiladi;

Barcha BJSTga a'zo mamlakatlar, “Ko‘p tomonlama savdo bitimlari” (KSB) atamasi bilan nomlanadigan barcha asosiy bitimlar va yuridik xujjatlarga amal qilish majburiyatini bo‘yniga oladi. Shu asosda, huquqiy nuqtai-nazardan, BJST tizimi, uning me'yorlari va qoidalari orqali jahon xizmat va tovarlar savdosining 97% tartibga solinadigan, o‘ziga xos, ko‘p tomonlama kontrakt (bitimlar paketi)dir.

Urugvay raundi bitimlar pakti 50 dan ziyod KSB va boshqa huquqiy xujjatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ulardan asosiylari BJSTni joriy etish to‘g‘risidagi bitim va unga ilova qilingan KSBdir.

Vazirliklar konferentsiyalari sessiyalari oralig‘ida, zaruriyatga ko‘ra (yiliga 8-10 marta), joriy va amaliy masalalarni hal etish uchun, tashkilotning barcha a'zolari vakillaridan tashkil topgan, Bosh Kengash chaqiriladi. Bundan tashqari, BK Munozaralarni hal etish organi va Savdo siyosatini nazorat qilish organlari faoliyatini boshqaradi.

BJSTning Vazirliklar konferentsiyasi, to‘lov balansining muvozanatini ta'minlaydigan Cheklovlar bo‘yicha qo‘mita, Savdo va taraqqiyot bo‘yicha qo‘mita, Byudjet, Moliya va ma'mur etish qo‘mitasi, shuningdek, Savdo va atrof-muhit bo‘yicha qo‘mitasi, Mintaqaviy savdo bitimlari bo‘yicha qo‘mita va boshqa bir qator organlarni tasdiqlaydi.

Vazirliklar konferentsiyasi (yoki BK) BJSTning Bosh Direktorini tayinlaydi. 1999 yildan 2002 yilning sentyabrigacha bu lavozimni Mayk Mur, Yangi Zellandiyaning sobiq bosh vaziri egallagan. Lekin, Bosh

Direktor vakolati uch yilgacha qisqartirilgani tufayli, 2002 yil sentyabrida, uning o‘rniga bu lavozimga Supachay Panipakdi, Tailandning sobiq bosh vaziri tayinlandi.

BK boshchligida Tovarlar savdosi bo‘yicha kengash, hizmatlar savdosi bo‘yicha kengash, TRIPS bo‘yicha Kengash va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat olib boradi. Ushbu kengashlar qoshida, JSTning barcha a'zolari uchun a'zoligi ochiq bo‘lgan, Bitimlar bo‘yicha qo‘mita va muzokaralar bo‘yicha guruhlar ta'sis etilgan. Shuningdek, yana bir qator idoralar ham faoliyat yuritadi.

BJSTning ijroya organi, strukturaviy bo‘limlarda 500 nafar xodimlar faoliyat ko‘rsatadigan, Jenevadagi (Shveytsariya) BJST Kotibiyatidir. BJSTning rasmiy tillari – ingliz, frantsuz va ispan tillaridir. 2002 yilda tashkilot byudjeti 143 mln. shveytsariya franki (taxm. 90 mln. AQSh dollari) ni tashkil etgan.

Qaror qabul qilish, JSTda qaror qabul qilish, de-yure bilan saylov orqali nazarda tutilgan bo‘lsa-da, konsensus asosida amalga oshiriladi. Tovar, xizmatlar, TRIPS, qabul qilingan majburiyatlardan ozod etish bo‘yicha (veyver) bitimlarni talqin etish ovozlarning qismini talab etadi. A'zolar huquqlari va majburiyatlariga ta'luqli bo‘lmagan masalalar bo‘yicha, shuningdek, yangi a'zolarni qabul qilish masalalari 2-3 ovozlarni talab etadi (amalda, odatda, konsensus orqali).

A'zolik, BJSTni ta'sis etish bo‘yicha Bitimga asosan, tovar va xizmatlar bo‘yicha majburiyatlar ro‘yxatini taqdim etgan va Urugvay raundi Bitimlari paktini ratifikatsiya qilgan, barcha kelishayotgan tomonlar – GATT ishtirokchilari (128 davlat) BJSTning ta'sischilari hisoblanadi.

Bugungi kunda JSTning to‘laqonli a'zolari soni 153 taga etdi. Ulardan faqatgina 16 tasi yangi a'zolardir: Ekvador, Bolgariya (1996 y), Mo‘g‘iliston, Panama (1997 y), qirg‘iziston (1998 y), Latviya, Estoniya (1999 y), Iordaniya, Gruziya, Albaniya, Oman, Xorvatiya (2000 y), Litva, Moldova (2001 y), Xitoy (2001 y), Tayvan (2002 y). Makedoniya va Armanistonning qo‘shilishi to‘g‘risidagi xujjatlar ratifikatsiya bosqichidadir.

O‘ttizdan ziyod mamlakatlar BJST kuzatuvchilari maqomiga ega. Ularning ko‘pi, shu jumladan, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Ukraina, qozog‘iston, MDHning boshqa mamlakatlari (Turkmanistondan tashqari) BJSTga qo‘shilishning turli bosqichlaridadir.

Bundan tashqari, BMT, YuNKTAD, XVF, JTTB, FAO, VOIS, OESR, mintaqaviy guruhlar, tovar uyushmalari kabi 60 dan ortiq xalqaro tashkilotlar BJST kuzatuvchilari maqomiga egadir. YuNKTAD va BJST homiyligi ostida, jahon savdosi sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘mak ko‘rsatuvchi Xalqaro savdo markazi (XSM) faoliyat ko‘rsatmoqda.

BJSTga qo‘shilish protsedurasi GATT va BJSTning yarim asrlik tarixi davomida ishlab chiqilgan bo‘lib, ko‘p tomonlama va bir necha bosqichdan iboratdir. Ixtiyor etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon o‘rtacha 5-7 yilni talab etadi. quyida qo‘shilish protseduralarining barchasi sanab o‘tilgan: Birinchi bosqichda maxsus Ishchi guruhlar (Rossiyaning BJSTga qo‘shilish Ishchi guruhida 66 mamlakat ishtirok etadi, jumladan, barcha asosiy savdo sheriklari) tomonidan qo‘shilmoqchi mamlakatning iqtisodiy tizimi va savdo-

siyosiy strategiyasi JSTning standartlari va qoidalari bilan to‘liq mos kelishi uchun ko‘p tomonlama va batafsil tahlil qilinadi. Bundan so‘ng, ixtiyor etgan mamlakatning ushbu tashkilotga a'zolik shartlari bo‘yicha muzokaralar va konsultatsiyalar olib boriladi. Odatda, ushbu muzokara va maslahatlar IGning barcha manfaatdor mamlakatlari bilan ikki tomonlama ravishda olib boriladi.

Birinchi navbatda, ushbu muzokaralar, qo‘shilayotgan mamlakat BJST a'zolariga o‘z tovar va xizmatlar bozoriga kirishda taqdim etadigan «Tijorat» imtiyozlari, shuningdek, BJST a'zoligi majbur etadigan burchlarni qabul etish muddatlari va shakllari masalalariga bag‘ishlanadi.

O‘z navbatida, a'zo bo‘layotgan mamlakat BJSTning boshqa a'zolari ega huquqlarni qo‘lga kiritadi. Bu esa, uning tashqi bozorlarda siqishga chek qo‘yilishi demakdir (Lekin, masalan, Xitoyga ushbu huquqlar faqat qisman berildi). Biron a'zo tomonidan huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilishi holatida, har bir mamlakat Munozaralarni hal etish organiga tegishli arz bilan murojat etishi mumkin. Ushbu tashkilotning qarorlari BJSTning barcha a'zolari tomonidan so‘zsiz davlat miqyosida ijro etilishi shart.

O‘rnatilgan protseduraga asosan, bozorlarga kirishni erkinlashtirish bo‘yicha muzokaralar natijalari va qo‘shilish shartlari quyidagi rasmiy hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

Muzokaralar natijalariga asosan ixtiyor etgan mamlakatning majburiyatlari va huquqlari aks ettirilgan IG hisoboti;

Tovarlar sohasidagi tarif chekinmalari va qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash darajasi bo‘yicha majburiyatlar ro‘yxati;

Xizmatlar bo‘yicha o‘ziga xos majburiyatlar va maksimal qulayliklar yaratib berish rejimidan istisnolar ro‘yxati;

Erishilgan kelishuvlarni ikki va ko‘p tomonlama yuridik rasmiylashtiruvchi qo‘shilish to‘g‘risidagi qaror.

Yangi davlatlarning BJSTga qo‘shilishining muhim shartlaridan biri, milliy qonunchiligi va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish amaliyotini Urugvay raundi Bitimlar paketi shartlariga muvofiqlashtirishdir.

Qo‘shilishning yakuniy bosqichida, IG tomonidan muvofiqlashtirilgan va BK tomonidan tasdiqlangan xujjatlar paketining qo‘shilayotgan mamlakat milliy qonunchilik organi tomonidan ratifikatsiya qilinadi. Bundan so‘ng, sanab o‘tilgan majburiyatlar BJST va milliy qonunchilik hujjatlarining bir qismiga aylanadi, davlat esa BJST a'zosi maqomini oladi.

13.3. O‘zbekiston Butun jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuv yo‘lida.

1994 yili iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi hukumati Butun jahon savdo tashkilotiga (BJST) xat yo‘lladi. Unda respublikaning rasman bu tashkilotga kirish xohishi izhor etilgan.

O‘zbekiston BJSTda a'zolik olishga qaror qabul qilishidan maqsad ko‘pchilik mamlakatlar savdo munosabatlarini izga soluvchi xalqaro tizim bilan o‘z integratsiyasini taminlashdir. Bu respublika rivojlanish strategiyasiga mos keladi. BJSTga a'zo bo‘lmasdan qayta ishlash sanoati tovarlari eksportining o‘sishi boshqa mamlakatlarning savdo to‘siqlari muammosi bilan ehtimol to‘qnashadi.

2005 yilda muzokaralar jarayoni deyarli to‘xtadi. 2017 yil sentyabr oyida O‘zbekiston talab va taklif asosida valyuta kursini erkin belgilash tartibini joriy etdi. Shundan so‘ng, BJSTga a’zolik masalasi kun tartibiga qaytdi.

2019 yil boshida ishchi guruh faoliyati hukumat tomonidan qayta tiklandi. 2020 yil 28 mayda Vazirlar Mahkamasi "Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha idoralararo komissiya to‘g'risida"qaror qabul qildi. O‘zbekiston hukumatida bosh vazir o‘rinbosari Sardor Umurzakov tashkilotga a'zolikni muvofiqlashtirish uchun mas’ul etib tayinlandi.

Jahon savdo tashkiloti bosh direktorining o‘rinbosari Xiang Sheng Chjan O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi masalasi ko‘rib chiqilayotganini ma’lum qildi.

2020-yil 7-iyulda, 15 yillik tanaffusdan so‘ng, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo‘lishi bo‘yicha qo‘shma ishchi guruh yig'ilishlari qayta tiklanadi. Shundan so‘ng O‘zbekiston a’zo bo‘lish jarayonini faol davom ettirmoqda. 2022–2024-yillarda muzokaralar guruhining yana beshta yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, so‘nggida 2023-yil dekabrida sezilarli yutuqlarga erishildi.

2023-yilda O‘zbekiston muzokaralar guruhidagi 31 davlat bilan faol muzokaralarni boshlagan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 22 davlat, jumladan Turkiya bilan ham muzokaralarni yakunladi. O‘zbekiston qolgan davlatlar, jumladan Yevropa Ittifoqi va Rossiya bilan muzokaralarni joriy yilda yakunlash maqsadida davom ettirmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini bir necha bor ta’kidlagan. Jumladan, Birlashgan Millatlar

Tashkiloti Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqida u shunday dedi: *“O‘zbekistonning bevosita maqsadi JSTga to‘laqonli a’zo bo‘lishdir”.*

Rivojlangan mamlakatlarda saqlanib kelayotgan notarif to‘siqlar kelajakda jiddiy qarshilikka olib kelishi mumkin, ayniqsa qishloq xo‘jalik mahsulotlari, teri, to‘qimachilik tovarlari, kimyo va metallurgiya sanoati mahsulotlari. Shu munosabat bilan savdoda eng qulay status kafolatini olish muhim va uni ko‘plab mamlakatlarga kengaytirish zarur. hozirgi vaqtda O‘zbekiston savdoda eng qulay tartibni 38 yirik savdo mamlakatlaridan olmoqda. BJSTga kirgandan keyin bu tartib kafolatlanishi kerak.

BJSTga a'zolik O‘zbekistonga oldindan bashorat qila olinadigan va qulay savdo muhitida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon beradi. Bunda barcha BJSTga a'zo davlatlar tomonidan eksport qilinayotgan mahsulotlar va xizmatlariga kerakli, ochiq va diskriminatsiyasiz tarzda munosabatda bo‘lib, kafolatlanadi. Bu O‘zbekistonga o‘zining savdo va investitsiya salohiyatini ishga solish imkoniyatini beradi.

“Biznes vestnik vostoka” (1998 y. 1-2 sonlar)da chop etilgan “O‘zbekistonning jahon savdo tizimiga integratsiyalanish yo‘lida” nomli maqolada O‘zbekistonning BJSTga kirgandan keyin oladigan foydalari sanab o‘tilgan:

Xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatining oshirilishi. Bu respublikaga eksportni (tovarlarni va xizmatlarni) kengaytirish imkonini beradi. Gap shundaki, O‘zbekistondan qilingan eksport boshqa JSTga a'zo mamlakatlarda eng kam tarif va KTT notarif to‘siqlarga duch keladi. Bu BJST qoidalari bilan kafolatlangan bo‘lib, bu tashkilotga

kiruvchi mamlakatlardan import uchun kam va eng oqilona va unifikatsiyalangan KTT belgilanishini talab etadi.

Birinchidan, BJST bitimlari a'zo mamlakatlarga ko‘p KTTdan foydalanishni asoslab ta'qiqlaydi.

Ikkinchidan, a'zolari faqat BJST bitimlari bilan ruhsat etilgan NTTlarnigina qo‘llay oladilar.

Uchinchidan, hattoki JSTning juda aniq qoidalariga ko‘ra ruxsat etilgan savdo uchun mushkul yoki chegaralovchi bo‘lmasligi kerak;

Barqarorroq tashqi savdo muhiti yaratilishi. Bu barqarorlik xorijiy bozorlarga “Kirish” bo‘yicha majburiyatlar bilan belgilanib, barcha savdo tartiblarining adolatligi va ma'lum darajagacha unifikatsiyalanganligi kafolatlanishi ta'minlanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston mahsulotlari va xizmatlari yangi xalqaro bozorlarga chiqish imkoniga ega bo‘lib, eksport hajmi ortadi. Tashqi savdo nizolarini hal etish uchun samarali mexanizmlar mavjudligi esa biznes subyektlarining xalqaro maydondagi manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. Natijada, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirib, barqaror o‘sish yo‘lida mustahkam poydevor yaratadi;

Noto‘g‘ri sotiladigan va xarid qilinadigan mahsulotlardan himoyalanish. O‘zbekistonning BJSTga a'zoligining qulayligi shundaki, BJST qoidalari bu tashkilot a'zolariga o‘zlariga yo‘l qo‘yilmagan raqobat imtiyozlaridan foydalanishni ta'qiqlaydi. Bu ayniqsa o‘zlarining ishlab chiqaruvchilari va mahsulotlariga (subsidiya shaklida) tegishli bo‘lgan hollarda.

BJST bitimlari demping bahoda eksport qilinadigan mahsulotlar va nohaq import qilinayotgan va xorijiy kompaniyalarga sotilayotgan intelluktual mulk huquqlari buzilayotgan mahsulotlarga nisbatan choralar ko‘rish imkonini beradi.

Jalb qiluvchiroq turg‘unlik oqibatini oldindan aytib beriladigan investitsiya muhiti yaratilishi. O‘zbekistonning BJSTga a’zoligi xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Xorijiy potentsial investorlar O‘zbekistonning BJSTdagi a’zoligini ularga qator manfaatlar berishini taminlaydi deb qabul qilishadi. Bunga quyidagilar kiradi: O‘zbekistonda ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarni eksport qilish uchun jahon bozoridan barqaror foydalanish; O‘zbekistonda faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan xorijiy mahsulotlardan, kapital anjomlar va texnologiyalardan doim foydalanish.

Shuni ta’kidlash zarurki, BJSTdagi a'zolik nafaqat xorijiy balki maxalliy investorlarga ham mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarni taminlash orqali jahon bozoriga chiqish imkonini beradi. Savdo va investitsiya tartiblari o‘zining ochiqligi, turg‘unligi va oqibatining oldindan bashorat qilaolishligi bilan mamlakatga investitsiya kiritish niyatining tahlikasini kamaytiradi.

Bahslarni bartaraf qilishning samarali tizimiga ega bo‘lish. BJSTga a’zolik shundan iboratki, mabodo biror mamlakat JST qoidalarini buzib O‘zbekiston manfaatlariga zarar etkazsa, O‘zbekiston BJSTning baxslarni hal qilish organida (OUS) baxslarni hal qilishda odilona va samarali taomildan foydalanishi mumkin. OUSning tuzilishi rivojlanayotgan mamlakatlar va jahon iqtisodiyotining uncha obro‘li

bo‘lmagan qatnashchilari uchun ancha muhimdir, chunki ularni savdo bahslarini hal qilishning samarali mexanizmi bilan taminlaydi.

Chunki ikki tomonlama muzokaralarni juda obro‘li savdo sherigi vositachiligida o‘tkazilganiga qaraganda, so‘zsiz, bahslarni BJSTning aniq qoidalari tizimi bo‘yicha hal qilingani maqul. Shuning uchun JSTning bosh kotibi Renato Rujeri “Ko‘p tomonlama savdo tizimining markaziy tayanchi va global iqtisodiyot barqarorligiga BJSTning qo‘shgan eng ulkan ulushidir” degan.

Ko‘p tomonlama savdo tizimiga ta'sir qilish. Alohida ikki tomonlama o‘zining savdo sheriklari bilan o‘tkazilgan muzokaralarga qaraganda O‘zbekistonning BJSTning turli savdo qo‘mitalari va kichik qo‘mitalari muzokara – raundlarida qatnashishi unga ko‘proq natijaga erishish imkonini beradi. Ko‘p tomonlama savdo tizimi tariflar, subsidiyalar, kvotalar kabi cheklovlarni tartibga solish orqali davlatlar o‘rtasida savdo erkinligini ta'minlashga qaratilgan tizim hisoblanadi.

Byurokratlik tamoyillarining kamayishi. O‘zbekistonning BJSTga kirishi uchun ko‘plab mavjud huquqiy va tashqi savdo bitimlariga nisbatan seziluvchi cheklovlarni bekor qilishda va mavjud savdo tizimini soddalashtirishga muhtoj bo‘ladi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-mart kuni “Aholiga va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, bu boradagi byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Davlat byudjeti daromadining oshishi. BJSTga a'zolik O‘zbekiston daromadlarining sezilarli ko‘payishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Agar import, eksport, xorijiy va mahalliy

investitsiyalar hajmi oshsa, unda huquqiy qo‘llanmaning fiskal daromadlari ortadi. Bu bojxona solig‘i (tashqi savdo kengayishidan) va soliqlar (biznes faoliyatdan) dan jamlanadi. Chet ellik investorlarni jalb qilish uchun BJSTga a’zolik soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarga talabni eng yuqori darajaga keltiradi.

O‘zbekiston BJST a'zosi ekanligi yoki unga kirish arafasida ekanligini bilgan xorijiy investorlar o‘z kapitallarini mamlakat iqtisodiga ishonchliroq qo‘yaboshlaydilar. Xorijiy investitsiyalarning ko‘payishi mamlakatda ishlab chiqarishining o‘sishidan dalolat beradi. Bu yangi korxonalardan undiriladigan soliq to‘lovlari va bojxona to‘lovlaridan davlat daromadlarining keyingi o‘sishiga olib keladi.

Muzokaralar davrida O‘zbekiston tashqi savdoni liberallashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha masalalarni hal qilishi zarur:

Valyutani tartibga solish. Importni cheklash uchun tarifsiz kuchli to‘siq sifatida u yoki boshqa mamlakat tomonidan valyutani tartibga solishdan foydalaniladi deb hisoblaydi. BJST, O‘zbekistonda hozir mavjud valyutani tartibga solish tizimi, BJST ekspertlari nuqtai nazarida, import qilinadigan tovarlar turi va hajmini qisqartirishga yo‘naltirilgan.

Bu shundan dalolat beradiki, BJST quyidagi notarif to‘siqlarni bartaraf qilish to‘g‘risida masala qo‘yadi: valyutani almashtirish sohasidagi cheklov, import shartnomalarini majburiy ekspertizasiga talablar, xususiy banklar xisob raqamlaridagi puldan foydalanishga cheklovlar va b.q.

Shu bilan birga bu cheklovlarni oson hisoblanadigan va “Tiniq” tarif to‘lovlari stavkalari bilan almashtirish, chunki ular kelishuvlarga binoan o‘zgarishi mumkin. Shunday qilib, hozir amaldagi sozlash tizimi o‘rniga O‘zbekistondan bojxona to‘lovlari stavkasi tizimini ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi.

Bu tizim talabga zid bo‘lgan importga yuqori tariflar, eksportga esa pasaytirilgan stavkalar o‘rnatilib, bu respublika iqtisodining rivojlanishi nuqtai nazaridan eng qulaydir.

Chet el tajribalarini tahlil etish O‘zbekiston uchun quyidagi xulosalarga olib keldi:

BJSTga a'zo bo‘lgan boshqa mamlakatlar bilan o‘ziga muvofiq rejimda mamlakat statusini olish;

Rivojlangan mamlakatlarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, charm, yengil sanoat buyumlari, kimyo va metallurgiya sanoat mahsulotlariga nisbatan tarif va notarif to‘siqlarni bartaraf etish natijasida tashqi bozorga bo‘lgan imkoniyatlarni kengaytirish;

Savdo munosabatlaridagi diskriminatsiyani bartaraf etish, o‘zbek eksportini chetga chiqish qiziqishini har tomonlama himoya qilish, chetga eksport uchun kafolatlangan rejimni tashkil etish;

Chet el investorlarining ishonchini mustahkamlab, iqtisodiyotga investitsiyalar kirishini oshirish, xalqaro kapital bozorida O‘zbekiston yo‘nalishini jadallashtirish;

BJSTga a'zo mamlakatlar chegarasida erkin tranzit huquqidan foydalanish;

BJST qarorlarida nazarda tutilgan savdo ittifoqlari bilan yuzaga kelgan turli munozarali ishlarni turli mexanizmlar yordamida hal etish;

BJSTga a'zo mamlakatlar o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy siyosat, savda masalalarida operativ axborotlarga ochiq imkoniyatdan foydalanib maslahatlar berish;

Davlatni fiskal daromadini oshirish-eksport, import, mahalliy va chet el investitsiyalarini hajmini o‘stirish natijasidir;

Import hom-ashyosi ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan yarimfabrikantlar, texnik ishlab chiqarishga mo‘ljallangan komplektlangan va tayyor buyumlar uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish.

Shu bilan birga chet el tajribasi asosida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston BJSTga a'zo bo‘lib kirgach, o‘zida ba'zi nomuvofiqliklarni kechirishi mumkin, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidning o‘sishi, ba'zi sektorlarni rivojlanishdagi nobarqarorlik milliy iqtisoddagi ochiqlik darajasi sifatida;
- Jahon bozoridagi narxlar tebranishi tufayli respublika to‘lov balansining yomonlanishi, mamlakat iqtisodini tashqi shok va xavflarga moyilligining o‘sishi;
- Bojxona tarif va bojlarining kamayishi natijasida dastlabki davrda davlat byudjetining daromad qismining kamayishi;
- Mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarga nisbatan arzonroq tovarlarning import qilinishi natijasida ba'zi tarmoqlarda raqobatbordoshlikning kamayishi mumkinligi;
- Iqtisodning strategik muhim tarmoqlarini himoyasini manzilli qilishda hokimiyat imkoniyatlarinig kamayishi;

- Milliy iqtisodning muhim sohalarini boshqarishga chet el firmalari va TMK aralashuvi imkoniyatlarining o‘sishi;
- Ichki bozorda narxlarning o‘zgarmas saqlash, tabiiy monopoliya tariflari, texnik norma va standartlar, davlat sotib olish shartlarini saqlash mumkin emasligi;

Umuman olganda BJSTga O‘zbekiston a’zo bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan potentsial samara bu qisqa muddatli davrda mahsulot eksportini jahon bozorida yuz beradigan to‘siq va chegaralanishlardan himoya qilish shartlarini yaxshilashdan iborat bo‘ladi.

Uzoq muddatli davrda esa mehnat unumdorligini oshirib, ichki va jahon bozorida xarajatlarni kamaytirish asosida korxonada ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Bu holatlar tuzilmaviy o‘zgarishlar jarayonini jadallashtirib eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy tizimni shakllantirishga, chet el investitsiyalarini o‘stirishga, jahon xo‘jaligi aloqalarida qatnashishga imkon yaratadi.

Nazorat savollari

1. BJSTga a’zo bo‘lish shartlari nimalardan iborat?
2. BJSTning tuzilishi va vazifalari haqida nimalar bilasiz?
3. O‘zbekiston BJSTga a’zo bo‘lsa, mamlakatimizga qanday imkoniyatlar yaratiladi?
4. BJSTga a’zo bo‘lish bosqichlarini xarakterlab bering.
5. O‘zbekiston va BJSTmunosabatlarini tavsiflab bering.
6. O‘zbekiston qaysi xalqaro moliyaviy tashkilotlardan iqtisodiy rivojlanish uchun yordam olmoqda?
7. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda O‘zbekiston qanday global muammolarni hal qilishga hissa qo‘shmoqda?

XIV BOB. O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI

14.1. O‘zbekistonning savdo va investitsiya salohiyati.

14.2. Xalqaro kapital bozorida O‘zbekistonning ishtiroki.

14.3. Mamlakat eksport salmog‘ining o‘sishi.

Tayanch iboralar: xalqaro kapital bozori, xorijiy investitsiyalar, ijtimoiy infratuzilma, bojxona to‘lovlari, qo‘shma korxonalar, bandlik darajasi, potentsial investorlar.

14.1. O‘zbekistonning savdo va investitsiya salohiyati.

Jahon iqtisodiyoti globallashib, savdo yo‘lidagi to‘siqlar kamayib, soliq qonunlari va tartibga soluvchi rejimlar erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda chetdan kiritiladigan investitsiya oqimlari tez sur'atlar bilan o‘smoqda. Bevosita chet el investitsiyalarining dunyo bo‘yicha umumiy hajmi 1980 yildagiga qaraganda 14 baravardan ziyod o‘sdi. hozirgi vaqtda butun dunyoda 64 mingga yaqin mamlakatlararo kompaniyalar mavjud bo‘lib, ular 870 mingta xorijiy sho‘ba korxonalari faoliyatini nazorat qilib turadi. Ushbu korxonalarning sotilayotgan mahsulotlari hajmi taxminan 18 trln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o‘z navbatida, butun jahon eksporti hajmidan 2 barovaridan ziyoddir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o‘rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to‘liq aks ettirilishini taqazo etadi.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni tartibga solish jarayonida muhim huquqiy asosni mamlakatda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Jumladan, "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida", "Chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlash va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida", shuningdek, "Investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi qonunlar xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy muhitni shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Bu qonun hujjatlari xorijiy sarmoyadorlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning faoliyatini qonuniy asosda yuritish va O‘zbekistonda investitsiya muhitini barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Mulkchilikning turli shakllari tarkib topishi investitsiyalarning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi.

Mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalardagi o‘zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlarga taqsimlanishi tezlashdi.

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intelektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, qonun bilan taqsimlanmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etiladigan barcha mulkiy, moliyaviy,

intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo‘lmasligi mumkin.

2007 yilda davlatimiz rahbari ta'kidlab o‘tganidek, 2007 yilgi investitsiya dasturi doirasida 1 millard AQSh dollaridan ko‘proq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etilishi mo‘ljallanmoqda. Bu mablag‘ning salkam 700 million dollari yoki kariyb 68 foizini to‘g‘ridan -to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi.

O‘zbekiston investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 2007 yil 20 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007-2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to‘g‘risida" gi qarori e'lon qilindi.

Bu qarorga asosan, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mablag‘ va mulk daromad (foyda), ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish hamda qo‘shilgan qiymat soliqlariga tortilmaydi.

Xorijiy valyutadagi qo‘yilmalar esa majburiy tarzda sotilmaydi. Shuningdek, investitsiya davri mobaynida tuziladigan oldi – sotdi shartnomasiga muvofiq korxonaning oldingi qarzini qoplash hisob raqamiga majburiy tarzda undirib olinmaydi. Bundan tashqari davlat ulushi potentsial investorlarga sotilayotgan korxonaning byudjetga va davlat maqsadli jamgarmalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlari restrukturizatsiya kilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu qarori O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan yuksalishi va halkaro jahon xo‘jalik munosabatlariga integratsiyalashuvining g‘oyat muhim va texnik qayta jihozlashga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish yo‘lidagi strategik yo‘nalishini ham belgilab beradi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida xorijiy investitsiyalar muhim o‘rin tutadi. Ularning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

- xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or texnika va texnologiyalarni tatbiq etish orqali eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytiradi;
- import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkonini yaratadi hamda xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilinadi, bu esa aholining farovon turmush tarzini ta’minlashga xizmat qiladi;
- kichik biznes va qishloq xo‘jaligi sohalarini jadallik bilan rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlik darajasini oshirish imkonini beradi;
- investitsiyalar korxonalardagi eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va ularni texnik jihatdan modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi;
- xorijiy sarmoyalar tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlovchi sanoat korxonalarini tashkil etish va x.k.

Investitsiya loyihalarini, eng avvalo, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlariga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: neft va kimyo sanoati, transport va energetika tarmoqlari, foydali qazilmalarni qazib olish va ularni ishlab chiqarish,

qurilish va telekommunikatsiya infratuzilmasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni chuqur qayta ishlash, shuningdek, turizm sohasini rivojlantirish.

Loyihalar amalga oshirilishida davlat monitoringi yuritilishini o‘z ichiga olishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o‘z ijobiy samarasini bermokda. Masalan, respublikamizda xorijiy investorlar o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiradigan mol-mulk (asbob-uskunalar, texnologik qurilmalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari) uchun bojxona to‘lovlari (asbob-uskunalar, texnologik qurilmalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari) uchun bojxona to‘lovlari olinmaydi, respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (fondi) solig‘idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg‘armasida xorijiy investitsiya mablag‘lari hissasi 50% va undan yuqori bo‘lsa, ular 2 yil muddatga daromad (fondi) solig‘idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo‘ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni koʻzlab siyosat yuritish;
- -respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablagʻni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga koʻmaklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;
- -mablagʻlarni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import oʻrnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bogʻlik boʻlgan eng muhim ustuvor yoʻnalishda jamlash.

Shuningdek, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan oʻtkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

qoʻshma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini roʻyxatdan oʻtkazishdagi toʻsiqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning milliy korxonalari jalb etishda quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini chuqurlashtirilgan qayta ishlash orqali yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish;

- tabiiy boyliklar, xususan, neft va gaz zaxiralarini qazib olish hamda ularni ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalar asosida qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini barpo etish;
- transport va aloqa tarmoqlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kengaytirish;
- ilmga asoslangan, eksportbop va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish;
- turizm sohasini jadal rivojlantirish, jumladan, xalqaro va mahalliy sayyohlar uchun zamonaviy servis va infratuzilma ob'yektlarini shakllantirish.

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini faqat davlat tarkibiy tuzilishi bo‘yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashtirishni nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko‘rsatishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar g‘arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga bo‘lgan qiziqishining ortib borishini ta'minlamoqda.

14.2. Xalqaro kapital bozorida O‘zbekistonning ishtiroki.

Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo‘lib kelmoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda 22 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, bu o‘tgan yilga nisbatan 1,8 barobar ko‘pdir. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar hajmi 24 foizni tashkil etdi. O‘zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga

yo‘naltirilganini ta'kidlash darkor. Keyingi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o‘sib borayotgani e'tiborga sazovordir.

Davlatimiz rahbari amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilar ekan, joriy yilda xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish muhimligini ta’kidladi. Shu bilan birga, asosiy e'tibor elektrotexnika, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoati, farmatsevtika, to‘qimachilik va charm sanoatiga qaratildi.

Yirik sarmoyadorlar bilan maqsadli ishlash, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish, investitsiyalarni jalb etishda xorijdagi diplomatik vakolatxonalarning ishtiroki muhimligi alohida qayd etildi.

Qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish bo‘yicha yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hududlarda maxsus zonalar va sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligi ta’kidlandi. Sarmoyaviy masalalarni hal etishda soha va hududlar rahbarlari sohalar bilan yaqindan hamkorlik qilish, hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratishga intilishlari shart.

Xalqaro moliya institutlari mablag‘laridan samarali foydalanish va o‘z vaqtida foydalanish masalalariga to‘xtalib, bu mablag‘larni ijtimoiy, infratuzilma va suv sohasi loyihalariga ustuvor yo‘naltirish zarurligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, joriy yilda grant mablag‘larini jalb etish faoliyatini kuchaytirish zarurligi alohida ta’kidlandi. Xususan, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash, oliy ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar yo‘nalishlarida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish vazifasi belgilandi.

14.1-jadval

2023–2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha umumiy rejalashtirilgan ko‘rsatkichlari

mlrd so‘m

Moliyalashtirish manbalari	2023 — 2025-yillarda jami	shundan:		
		2023-yil	2024-yil	2025-yil
Jami kapital qo‘yilmalar	**1 214 970**	**352 717**	**403 038**	**459 215**
shu jumladan:				
Markazlashgan investitsiyalar:	**193 587**	**55 538**	**65 622**	**72 428**
Budjet mablag‘lari	83 360	25 886	28 074	29 400
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari	11 170	3 171	3 454	4 545
mln. AQSh dollarida	*873*	*267*	*271*	*335*
Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	99 057	26 481	34 094	38 483
mln. AQSh dollarida	*7 737*	*2 225*	*2 675*	*2 837*
Markazlashmagan investitsiyalar:	**1 021 383**	**297 179**	**337 416**	**386 788**
Korxonalar mablag‘lari	326 814	93 930	107 534	125 350
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	197 010	57 696	64 782	74 532
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	401 466	116 193	133 200	152 073
mln. AQSh dollarida	*31 425*	*9 764*	*10 452*	*11 209*
Aholi mablag‘lari	96 093	29 360	31 900	34 833

O‘zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2023–2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish bo‘yicha tegishli Prezident qarorini qabul qildi. Ushbu hujjat doirasida umumiy qiymati 55,4 milliard AQSh dollarini tashkil etuvchi qariyb 800 ta yirik loyiha rejalashtirilgan. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga binoan,

xorijiy kapital erkin harakatlanishiga va milliylashtirishdan qonuniy himoyaga ega. Shu bilan birga, Xorijiy investorlar kengashi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi davlat va biznes sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida muhim rol o‘ynamoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi Bank nazorati bo‘yicha xalqaro Bazel qo‘mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan qariyb uch barobar ko‘p ekanini ta'kidlash joiz.

Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiqdir. Bu tashqi nodavlat qarzlar bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan to‘lovlar hajmidan 10 barobar ko‘pdir. Bu esa bizda likvidlik, ya'ni to‘lovlarga qodirlik darajasi bo‘yicha muammo yo‘q, deb aytish uchun asos bo‘ladi.

2008-yilning eng muhim yutuqlaridan biri sifatida O‘zbekiston bank tizimiga jahonning nufuzli reyting agentliklaridan biri — "Mudis" agentligi tomonidan bir vaqtning o‘zida uchta yo‘nalishda reyting berilishi ta’kidlanadi. Bu yo‘nalishlar bank-moliya tizimining barqarorligi, milliy valyutadagi uzoq muddatli depozit reytingi va xorijiy valyutadagi uzoq muddatli depozit reytingi bo‘lib, ularning barchasida O‘zbekistonga “barqaror” bahosi berilgan. Agentlik hisobotida ta’kidlanganidek, bank tizimiga berilgan ijobiy baho banklarni nazorat qilish muhitining mustahkamligi, bank tizimining potentsial o‘sishi, moliya tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlar hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishini aks ettiradi.

Shular qatorida "Mudis" agentligi ikkita bankimiz — Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va "g‘allabank"ning kredit berish

qobiliyati bo‘yicha reytingini ijobiy baholadi. Yana bir tanilgan xalqaro reyting agentligi — "Fitch" esa mamlakatimizning "Paxtabank", "hamkorbank", "O‘zsanoatqurilishbank" va "Asakabank" kabi banklariga "barqaror" reytingini berdi.

Shu o‘rinda 2017 yilning 1 yanvarigacha O‘zbekistonning jami tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 11,6 foizini tashkil etishini va bu ko‘rsatkich, xalqaro mezonlar bo‘yicha, "har jihatdan maqbul holat" deb hisoblanishini ta'kidlash joiz.

14.3. Mamlakat eksport salmog‘ining o‘sishi.

Mamlakatimizning geografik joylashuvi nuqtai nazaridan kelib chiqqanda uning dengiz arteriyasidan uzoqda joylashganligi iqtisodiy savdo aloqalarida ma'lum noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Lekin, bu degani bizning aloqalarimiz samarasi pasayib boradi, degani emas. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu aloqalarni rivojlantirishning boshqa yo‘llarini izlab topish talab etiladi. Chunonchi, havo va avtomobil yo‘llari transportini rivojlantirish shular jumlasidandir. Bu yashirin imkoniyatlar milliy mustaqillikka erishilgandan so‘ng ancha kengaydi. Milliy iqtisodiyotimizning ichki yalpi mahsulot hajmida eksport miqdori o‘sib bormoqda.

2017–2022 yillar mobaynida O‘zbekistonning eksport geografiyasi 16ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlar 117ta davlatga yetib bormoqda. Xususan, Peru (3 mln 965,9 ming dollar), Albaniya (3 mln 196,3 ming dollar), Shimoliy Makedoniya (1 mln 454,7 ming dollar), Senegal (311,7 ming dollar), Mavrikiy (303,1 ming dollar) kabi mamlakatlarga ham mahsulotlarni eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Tovar

nomenklaturasida 2017 yildagi 179 xil mahsulot turi 2022 yilga kelib 200 dan ortdi.

Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o‘rniga paxtadan tayyorlangan qo‘shilgan qiymati yuqori tovarlar eksporti yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, umumiy qiymati 1 mlrd 613,5 mln dollarga teng bo‘lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln dollarlik tayyor trikotaj va to‘qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln dollarlik naqshli mato, 131,6 mln dollarlik gazlamalar, 78,1 mln dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi.

2023 yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2022 yilga nisbatan 23,9 foizga oshib, 62,5 mlrd dollarga yetgan. Shundan 24,4 mlrd dollarlik savdoni eksport, 38,1 mlrd dollarlik savdoni esa import tashkil etgan. 2022 yilga taqqoslaganda, eksport hajmi 23,8 foizga, import hajmi 24,0 foizga oshgan.



14.1-rasm. Tashqi savdo aylanmasi

Maishiy texnika vositalaridan changyutkich, kir yuvish mashinasi, gaz plitasi, televizor kabi tovarlar quyidagi mamlakatlarga yetkazib berilmoqda:

- changyutkichlar – Qozog‘iston, Rossiya, Ukraina, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarboyjonga;
- kir yuvish mashinalari – Tojikiston, Qozog‘iston, Rossiya, Qirg‘iziston, Ozarboyjon, Moldova, Turkmaniston, Turkiyaga;
- gaz plitalari – Qozog‘iston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Armanistonga;
- televizorlar – Rossiya, Ozarboyjon, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston, Qirg‘izistonga.

E’tiborli jihati, O‘zbekistonga chegaradosh mamlakatlarning (Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston) umumiy savdo hajmidagi ulushi 2022 yildagi 8 mlrd 24 mln dollardan 2023 yilda 8 mlrd 70 mln dollargacha yoki 16,5 foizdan 12,8 foizgacha qisqargan.

2023 yilda O‘zbekistonning umumiy eksport tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 22,2 foizdan 16,6 foizgacha qisqargan. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushi 8,3 foizdan 7,3 foizgacha, kimyoviy vositalarning ulushi esa 6,6 foizdan 5,4 foizgacha kamaygan. O‘z navbatida, oltin eksportining ulushi 20,8 foizdan 33,4 foizgacha, mashina va transport uskunalarining ulushi 4,9 foizdan 5,3 foizga oshgan.

2023-yilda **sabzavot va mevalar** savdosi 1,76 mln tonnaga (+1,1 foiz), qiymat jihatidan esa 1,18 mlrd dollarga (+3,3 foiz) oshdi. Meva-sabzavot eksportining asosiy bozorlari Rossiya (37 foiz), Pokiston (16,7 foiz), Xitoy (12,3 foiz) va Qozog‘iston (10,3 foiz) bo‘ldi.

Donli ekinlar va undan tayyorlangan mahsulotlar eksporti 478,8 mln dollargacha (+34,4 foiz), qahva, choy, kakao eksporti hajmi

27,6 mln dollargacha (+12,1 foiz), ichimliklar 60,1 mln dollargacha (+35,3 foiz), neft va neft mahsulotlari 333 mln dollargacha (2 baravar), noorganik kimyoviy moddalar 497,5 mln dollargacha (+22,6 foiz), cho‘yan va po‘lat — 185,9 mln dollargacha (+11,3 foiz), metall buyumlar 130,2 mln dollargacha (+11,9 foiz), charm mahsulotlari eksporti esa 41,3 mln dollargacha (+17 foiz) oshdi.



14.2-rasm. Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulishi

Xorijga **avtomobillar** yetkazib berish hajmi 127,5 mln dollarni tashkil etdi. Shuningdek, avtomobillar uchun **ehtiyot qismlar** yetkazib berish hajmi 366,3 mln dollarni (+25,1 foiz), elektrik mashina va qurilmalar 227,7 mln dollarni (-0,3 foiz), energogenerator uskunalari va mashinalar 175,5 mln dollarni (+1,6 foiz), elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari 118 mln dollarni (2,2 barobar), boshqa transport vositalarini yetkazib berish hajmi esa 100,1 mln dollardan iborat bo‘ldi (8,5 baravar).

Gaz eksporti qariyb 2 baravarga — 529,9 mln dollargacha, elektr energiyasi eksporti esa 76,6 mln dollargacha (-37,8 foiz), o‘g‘itlar 336,3 mln dollargacha (-18 foiz), rangli metallar 1,38 mlrd dollargacha (-9,9

foiz), tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari 37,9 million dollargacha (-11,7 foiz), to‘qimachilik mahsulotlari sotuvi esa 3,05 mlrd dollargacha pasaydi (3,8 foiz).

2023-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha **xizmatlar** eksporti hajmi 5,8 mlrd dollarni yoki umumiy savdo eksporti hajmining 21,2 foizini tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 16,2 foizga oshdi. Xizmatlar eksportidagi asosiy ulush transport (43,2 foiz), sayohat (turizm, 41,4 foiz), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,5 foiz) va boshqa tadbirkorlik xizmatlariga (3,1 foiz) to‘g‘ri keladi egallaydi.

Albatta bosib o‘tilgan yo‘lda muammolarga ham duch kelinmoqda. Eksportda raqobat juda kuchli va sifat bilangina xaridorlar sonini oshirish mumkin. Masalan, yurtimiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarining taxminan 65 foizi Rossiya bozoriga eksport qilinadi. Ularda ikki tomon bor, biri marketlar tarmog‘i, ikkinchisi bozor. Har ikkisi ham o‘ziga yarasha talablarga ega. Supermarketlar mahsulotlarni laboratoriyadan o‘tkazib, so‘ng qabul qiladi. Ularning asosiy talabi mahsulot ichi «o‘qlanmagan», ya’ni ichidagi barcha mahsulot bir xil sifatda bo‘lishi kerak. Afsuski, eksportyorlarimiz doim ham bu talabni bajaravermaydi. Masalan, vodiyda gilos yashiklarga to‘rt qator taxlanadi. Ba’zan birinchi qatorga juda chiroyli, sifatli mahsulot terilgan, tagidagi qatorlari esa sifatsiz bo‘ladi. Buni xaridor o‘sha vaqtda ko‘rmasa ham, uyiga olib borgach payqaydi va do‘konga e’tiroz bildiradi. Importyor esa bundan norozi bo‘lib, kelasi safar biz bilan ishlashdan bosh tortadi. Rossiya bozorlarida esa, odatda, yurtimizdan borgan sotuvchilarning o‘zi mahsulot sotadi. Ko‘pincha xaridor topish uchun bir-biriga qarab narxni

tushiradi. Natijada mahsulotlarimizning xorij bozorida narxi pastlab ketishiga olib keladi.

Lekin, eng muhimi, islohotlarning umumiy strategiyasida sobit turgan holda taktikamizga yo‘l-yo‘lakay tuzatishlar kiritib boryapmiz. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga muayyan chorakda, har yili chuqur tahlil orqali baho berib kelinmoqda. Nuqsonlarni o‘z vaqtida bartaraf qilish choralari ko‘rilmoqda, zarur hollarda esa davlat dasturi qabul qilinmoqda. Ayniqsa, ba'zi bir davlatlardagidek parlament safsatabozliklariga yo‘l qo‘yilmay, o‘z vaqtida qonunlar qabul qilish, zarur bo‘lganda zudlik bilan tuzatishlar kiritish, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilish orqali islohotlarning huquqiy asoslari takomillashtirib borilishi yutuqlarmiz asosi bo‘lmoqda.

Nazorat savollari

1. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni integratsiyalashuvidagi o‘rni nimadan iborat?

2. Investitsiya muhitini yaratish qanday amalga oshiriladi?

3. Investitsiyalar jalb etishdagi ustuvor yo‘nalishlar nimalardan iborat?

4. Eksport salmog‘ini o‘stirishdagi muammolar nimalardan iborat?

5. Tashqi savdo bo‘yicha O‘zbekistonning asosiy hamkorlari?

TESTLAR

1. Turli mamlakatlar iqtisodiyotlarini yagona iqtisodiy tizimga birlashtirish, global miqyosda moliyaviy, tovar va axborot oqimlarini birlashtirish - bu:

A. Geosiyosat B. Integratsiya C. Globallashuv D. Emigratsiya

2. Alohida qismlarni ixtiyoriy ravishda bir butunga birlashuvi - bu:

A. integratsiya B. markazlashtirish C. qo‘shilish D. sivilizatsiya

3. Aholining mamlakatdan chiqib ketishi - bu:

A. immigratsiya B. depopulyatsiya

C. migratsiya balansi D. emigratsiya

4. Aholining mamlakatga kirishi - bu:

A. immigratsiya B. emigratsiya

C. depopulyatsiya D. migratsiya balansi

5. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to‘g‘ri?

A. globallashuv alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi

B. Ukraina qonun darajasida anti-global harakatlar taqiqlangan

C. madaniy globallashuv-bu ijobiy va salbiy tomonlarga ega bo‘lgan qarama-qarshi jarayon

D. antiglobalistlar xalqaro tashkilotlarning faoliyatini to‘xtatishni talab qilmoqda

6. Mustaqillik e'lon qilingan paytda Ukraina qaysi xalqaro tashkilotga a’zo edi?

A. BMT B. JST C. Yevropa Ittifoqi D. YEXHT

7. Insoniyatning global muammolariga quyidagilar kiradi:

A. havoning ifloslanishi B. narxlarning oshishi

C. jamoat joylarida tamaki chekishni taqiqlash D. yolg'izlik

8. Bugungi kunda nechta davlat Yevropa Ittifoqiga a'zo?

A.27 B.18 C.56 D.38

9. Ko‘p millatli kompaniyalarning ta'sirini cheklash uchun kapitalizm mafkurasiga qarshi harakat qanday nomlanadi?

A. Antiglobalistlar B. Antifashistlar

C. Antikommunistlar D. Antikapitalistlar

10. JST faoliyati tamoyili nimadan iborat?

A. tashqi savdoni tartibga solish usullarini faqat JST qoidalari asosida qo‘llash

B. protektsionistik chora-tadbirlarni kuchaytirish va tashqi savdo aylanmasini qisqartirish

C. xalqaro savsoning pasayish

D. jahon savdosini liberallashtirishga qarshi chiqish

11. O‘zbekiston ishtirok etgan integratsiya birlashmasi?

A. BMT B. MERKOSUR C. ASEAN B. JST

12. Mamlakatlar o‘zaro ta'sirining integratsiyadan oldingi shakli?

A. imtiyozli kelishuv B. bojxona Ittifoqi

C. umumiy bozor D. erkin savdo zonasi

13. Shimoliy Amerika integratsiya modelining o‘ziga xos xususiyati?

A. rivojlanish darajasi har xil bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyasini ta’minlash

B. iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ko‘rsatkichlari o‘xshash bo‘lgan davlatlarni bir tizimga birlashtirish

C. iqtisodiy taraqqiyot darajasi o‘zaro mos bo‘lgan mamlakatlarning integratsiyalashuvi

D. sobiq sotsialistik mamlakatlarning birlashishi

14. Globallashuvning oqibatlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. xalqaro raqobat ta'siri ostida ixtisosliklar

B. yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni qisqartirish

C. TMK korxonalarida ishlab chiqarishning pasayishi

D. yangi texnologiyalarni qabul qilishni sekinlashtirish

15. Faqat iqtisodiy integratsiya quyidagilardan qaysi biri xarakterlanadi:

A. xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi;

B. o‘zaro savdo hajmlarining o‘sishi;

C. yagona mexanizmning mavjudligi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish;

D. ishlab chiqarishni xalqarolashtirish.

16.Jahon iqtisodiyotida savdo-iqtisodiy bloklarni shakllantirish yo‘lidagi birinchi qadam:

A. davlatlarning iqtisodiy ittifoqlari; B. erkin savdo zonasi;

C. bojxona uyushmalari; D. qo‘shma tadbirkorlik zonalari.

17. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan umumiy tashqi bojxona tarifini belgilash bilan erkin savdo to‘g'risida bitim tuzgan mustaqil davlatlarning birlashishi:

A. erkin savdo zonasi; B. erkin iqtisodiy zona;

C. bojxona Ittifoqi; D. integratsion guruhlash.

18. Ushbu davlatlardan qaysi biri MERCOSUR integratsiya guruhiga kiradi:

A. Argentina; B. Meksika; C. Daniya; D. Panama;

19. Qaysi davlat Yevropa valyuta tizimiga kirmagan:

A. Daniya; B. Gretsiya; C. Irlandiya; D. Ispaniya;

20. NAFTA integratsiya guruhiga qaysi mamlakat kiradi:

A. Kanada; B. Urugvay; C. Braziliya; D. Argentina;

21. Quyidagilardan qaysi biri xalqaro iqtisodiy integratsiya shakllariga taalluqli emas:

A. valyuta kursi rejimi; B. to‘liq iqtisodiy integratsiya;

C. iqtisodiy ittifoq; D. erkin savdo.

22. Qaysi mamlakatlar "katta yettilik"ga kirmaydi:

A. Shvetsiya; B. Kanada; C. Yaponiya; D. Frantsiya;

23. Quyidagi ro‘yxatdan Yevropa Ittifoqiga a'zo bo‘lmagan davlatni tanlang:

A. Buyuk Britaniya; B. Shvetsiya; C. Fransiya; D. Daniya;

24. Integratsion guruhlash doirasida yagona pul birligining joriy etilishi:

A. erkin savdo zonasi; B. to‘liq iqtisodiy integratsiya;

C. iqtisodiy ittifoq; D. bojxona Ittifoqi.

25.YeIH qaysi hujjatga muvofiq Yevropa Ittifoqiga aylantirildi?

A. yagona Yevropa akti bilan;

B. Maastrixt shartnomasi;

C. bojxona ittifoqini tuzish to‘g'risidagi shartnoma;

D. savdo ittifoqini tuzish to‘g'risidagi bitim.

26. Benilux-bu:

A. bojxona va iqtisodiy ittifoq; B. erkin savdo zonasi;

C. umumiy bozor; D. iqtisodiy ittifoq.

27. Rim shartnomasini imzolashning asosiy maqsadi nima edi?

A. umumiy bozorni yaratish; B. siyosiy kelishmovchiliklarni bartaraf etish;

C. soliq stavkalarini uyg'unlashtirish; D. Rim klubining tashkil etilishi.

28. Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasini tuzishga oid Parij bitimini nechta mamlakat imzolagan?

A. 6; B. 4; C.5; D.3.

29.Yevropa Ittifoqi kengayishning nechchi bosqichdan iborat?

A. 5; B. 2; C. 7; D. 10.

30. Yevropa Ittifoqiga a'zo nechta davlat o‘z milliy valyutasidan voz kechib, "yevro" ni muomalaga kiritdi va Valyuta Ittifoqiga a’zo bo‘ldi?

A. 20; B. 15; C.12; D. 10.

31.Ushbu mamlakatlardan qaysi biri APEC tarkibiga kirmaydi:

A. Germaniya; B. AQSh; C. Rossiya; D. Yaponiya.

32.Ushbu mamlakatlardan qaysi biri MDHga a’zo emas:

A. Litva; B. Belarus; C. Armaniston; D. Ozarbayjon.

33. Brix-tez rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bo‘lib, u quyidagi mamlakatlar birlashmasidan iborat:

A. Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi;

B. Braziliya, Rossiya, Indoneziya, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi;

C. Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Shimoliy Afrika Respublikasi;

D. Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Afrika Respublikasi;

E. Braziliya, Rossiya, Indoneziya, Xitoy, Shimoliy Afrika Respublikasi.

34. Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) quyidagi mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan tashkilot:

A. Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston;

B. Xitoy, Rossiya, Qozog'iston;

C. Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va O‘zbekiston;

D. Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va O‘zbekiston;

35. Guam-quyidagi davlatlar tomonidan tashkil etilgan mintaqaviy tashkilot:

A. Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova

B. Gruziya, Rossiya, Ozarbayjon va Moldova;

C. Gruziya, O‘zbekiston, Ozarbayjon va Moldova

D. Gruziya, O‘zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova.

36. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati tarkibidagi bojxona Ittifoqiga quyidagi mamlakatlar kiradi:

A. Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Armaniston;

B. Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Tojikiston va O‘zbekiston;

C. Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va O‘zbekiston;

D. Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Moldova;

37. MERCOSUR nima?

A Janubiy Amerika davlatlarini yagona bozor doirasida birlashtiruvchi ittifoq

B. Shimoliy Amerika mamlakatlari o‘rtasida tashkil etilgan yagona bozor hududi

C. Janubiy Afrika davlatlarining umumiy iqtisodiy bozori

D. Shimoliy Afrika mamlakatlarining umumiy bozori;

38. NAFTA-bu _____mamlakatlari o‘rtasidagi erkin savdo shartnomasi:

A. Shimoliy Amerika B. Janubi-Sharqiy Osiyo;

C. Yaqin Sharq; D. Janubiy Amerika;

39. Jahon integratsiya jarayonlaridagi asosiy modellarga quyidagilar kiradi:

A. barcha javoblar to‘g'ri. B. savdo-iqtisodiy hamkorlik modellari;

C. ilmiy va texnik hamkorlik modellari;D. siyosiy-iqtisodiy integratsiya modellari;

40. Yevropa Ittifoqi o‘zining moliyaviy faoliyatini qaysi qoidalarga asosan olib boradi?

A. 1957 yilgiYevropa Ittifoqi shartnomalari

B. Yevropa Ittifoqi va Yevratom shartnomalari 1957 yil

C. 1992 yildagi Maastrixt shartnomasi

D. shartnomalarning hech biri.

41. Yevropa Ittifoqi dastlab qaysi mamlakatlarni o‘z ichiga olgan?

A. Belgiya va Frantsiya B. Ispaniya va Portugaliya

C. Lyuksemburg va Germaniya D. Gollandiya va Italiya

42. Yevropa Ittifoqi nima?

A. xalqaro iqtisodiy-siyosiy-harbiy birlashma

B. xalqaro iqtisodiy va siyosiy birlashma

C. Evropaning iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha xalqaro tashkiloti

D. Evropa mudofaasi bo‘yicha xalqaro tashkilot

43. 1957 yilda Yevropa Ittifoqida nima sodir bo‘ldi?

A. mamlakatlar to‘rtta asosiy harakat erkinligining ustunligini ta'minlaydigan Maastrixt shartnomasini imzoladilar

B. mudofaa Ittifoqi tuzildi

C. Rim shartnomasi Evropa iqtisodiy jamiyatini yaratdi

D. ishtirokchilar soni ikki baravar ko‘paydi

44. Yevropa Ittifoqi tarkibiga qaysi davlat kirmagan?

A. Ruminiya B. Maltalar C.Xorvatiya D. Shveytsariya

45. Qaysi davlat yevrointegratsiya jarayonida?

A. Albaniya B. Armaniston C. Islandiya D. Shvetsiya

46. Qaysi davlat hali Yevropa Ittifoqi talablariga javob bermasada, ittifoqqa qo‘shilishni xohlaydi?

A. Bosniya Gersegovina B. Ukraina

C.Abxaziya Qishlog'I D. Armaniston

47. Yevropa Ittifoqining asosiy boshqaruv organi?

A. Yevropa komissiyasi B. Yevropa banki

C. Yevropa xazinasi D. inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi

48. Yevropa Ittifoqi byudjetini shakllantirishning eng katta manba nima?

A. ishtirokchi davlatlarning hissalari

B. AQShning yillik xayriyalari

C. Osiyoda Yevropa tovarlarini sotishdan komissiya

D. qurol sotishdan tushgan daromad

49. Yevropa Ittifoqining madhiyasi qanday?

A. Betxovenning "quvonchga ode" ning instrumental versiyasi

B."Yevropa Ittifoqiga Shon-Sharaf"

C. Motsartning ikkinchi simfoniyasi

D. Vangerning 12-Sonli Operasi

50. Yevropa Ittifoqining shiori to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping

A. birgalikda biz kuchmiz B. erkinlik, tenglik, Yevropa Ittifoqi

C. har biriga munosib D. xilma-xillikdagi birlik

51. Afrikaning siyosiy xaritasida nechta suveren, mustaqil davlat bor?

A. 54; B. 44; C. 64. D. 34

52. Afrika qit'asining aksariyat mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish uchun qaysi turga kiradi?

A. rivojlanayotgan; B. iqtisodiy rivojlangan davlatlar;

C. sanoat; D. postindustrial.

53. Afrika qit'asining eng katta mamlakati:

A. Jazoir; B. Janubiy Afrika; C. Sudan D. Misr.

54. Keyinchalik Afrika Ittifoqi deb nomlangan Afrika birligi tashkilotini yaratish maqsadini aniqlang?

A. qit'a mamlakatlari birligini mustahkamlash, ularning mustaqilligini saqlab qolish;

B. ichki chegaralarsiz makon yaratish,

C. AS a'zolariga harbiy va iqtisodiy yordam.

D. iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish;

55. Quyidagi javoblardan qaysi birida faqat monarxiya mamlakatlari keltirilgan?

A. Svazilend, Lesoto, Marokash; B. Lesoto, Jazoir, Efiopiya;

C. Efiopiya, Marokash, Lesoto. D. Jazoir, Svazilend, Lesoto

56. Afrika quyidagi foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha barcha qit'alar orasida birinchi o‘rinda turadi:

A. marganets rudalari, xromitlar, boksitlar; B. neft, temir rudalari, torf;

C. jigarrang va ko‘mir, polimetalik rudalar. D. temir rudalari, ko‘mir, torf;

57. Afrika qit'asining qaysi daryosi havzasi gidroenergetikaning yarmini tashkil qiladi?

A. Kongo; B. Zambezi; C. Nil D. Kongo

58. Afrikaning millioner shaharlari:

A. Lagos, Kinshasa, Yoxannesburg, Qohira; B. Dakar, Maputo, Banjul, Vindxuk;

C. Tripoli, Gaborone, Qohira, Nuakshot. D. Maputu, Banjul, Tripoli, Gaborone,

59. Aholisi eng ko‘p bo‘lgan mamlakatlar ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating:

A. Nigeriya, Efiopiya, Misr; B. Gabon, Lesoto, Botsvana;

C. Namibiya, Liberiya, Liviya. D. Maputu, Banjul, Tripoli

60. Qaysi Afrika mamlakatlarining gerblarida sher tasvirlangan?

A. Gambiya, Keniya, Marokash B. Tanzaniya, Misr, Ruanda;

C. Namibiya, Niger, Mavritaniya. D. Maputu, Banjul, Tripoli

61. Jahon okeaniga kirish imkoniga ega bo‘lgan mamlakatlarni ko‘rsating:

A. Sudan, Misr, Keniya; B. Chad, Niger. Uganda;

C. Angola, Zambiya, Botsvana. D. Maputu, Banjul, Tripoli

62. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto‘g'ri?

A. Afrika mamlakatlarining demografik siyosati tug'ilish darajasini oshirishga qaratilgan.

B. Afrika qit'asida keksa odamlarga qaraganda ko‘proq bolalar bor;

C. Afrikaning aksariyat mamlakatlarida o‘lim darajasi juda yuqori;

D. to‘g'ri javob yo‘q

63. Shimoliy Afrika mamlakatlarida hukmron dinni ko‘rsating:

A. Islom; B. sintoizm; C. xristianlik; D. buddizm.

64. Afrikaning xalqaro mehnat taqsimotida qaysi tarmoq ustunlik qiladi

A. tog ' - kon sanoati; B. kimyo sanoati;

C. transport muhandisligi; D. yengil va oziq-ovqat sanoati.

65. MDH tashkil etilgan sana:

A. 1991 yil 8 dekabr B. 1992 yil 1 yanvar

C. 1991 yil 5 sentabr D. 1993 yil 18 oktyabr

66. Qaysi davlat MDHga kirmaydi?

A. Litva B. Armaniston C. Moldova D. Belarus

67. MDH tarkibidan chiqib ketgan mamlakatni tanlang?

A. Gruziya B. Moldova C. Rossiya D. Qozog'iston

68. Yozuvchi Chingiz Aytmatov MDHga qaysi davlat vakili?

A. Qirg'iziston B. Qozog'iston C. Armaniston D. O‘zbekiston

69. MDH tashkilotining yuqori organ to‘g‘ri ko‘rastilgan javobni belgilang.

A. davlat rahbarlari Kengashi B. hukumat rahbarlari Kengashi

C. parlamentlararo Assambleya D. ijro etuvchi organ

70. MDH Ijroiya qo‘mitasining raisi kim?

A. Lebedev Sergey Nikolaevich B. Rushailo Vladimir Vladimirovich

C. Yarov Yuriy Fedorovich D.Yarov Yuriy Nikolaevich

71. 2025-yilda MDHga a’zo davlatlar davlat rahbarlarining majlisi qaysi shaharda bo‘lib o‘tadi?

A.Dushanbe B. Moskva C. Kishinyov D. Ashxobod

72. Atrof-muhit sifatining yomonlashuvi quyidagilarga salbiy ta'sir qiladi:

A. aholi sifatiga B. hayot sifatiga

C. salomatlik holatigaD. to‘g'ri javob yo‘q

73. Global muammolar ko‘proq qaysi davlatlarda uchraydi?

A. rivojlanayotgan davlatlarda B. rivojlangan davlatlarda

C. ikki turdagi davlatlarda ham D. to‘g'ri javob yo‘q

74. Global muammolar, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal qilish bilan bog'liq:

A. ijtimoiy va texnik muammolar B. iqtisodiy va texnik muammolar

C. ijtimoiy muammolar D. to‘g'ri javob yo‘q

75. Qaysi fikr noto‘g'ri?

A. dengiz shelfida neft qazib olish jahon okeanining ifloslanishini istisno qiladi.

B. yerning mineral resurslari kamayganligi sababli, odamlar turli xil kimyoviy elementlarni olish uchun dengiz suvidan tobora koʻproq foydalanadilar.

C. yomg'ir oʻrmonlari maydoni shu qadar tez kamayib bormoqdaki, milliy bog'lar va qoʻriqxonalar tashkil etilishi koʻplab oʻsimlik va hayvon turlarining yoʻq boʻlib ketishiga toʻsqinlik qila olmaydi.

D. XX asr oxirida iqtisodiy va demografik muammolar birinchi oʻringa chiqdi.

76. Toʻg'ri mulohazani tanlang:

A. yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlar yer aholisining soni va koʻpayishiga hal qiluvchi ta'sir koʻrsatadi.

B. rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining oʻsish sur'atlarining pasayishi insoniyatning yoʻq boʻlib ketishiga olib keladi.

C. rivojlanayotgan mamlakatlarda shahar aholisining oʻsishi shaharlarning haqiqiy rivojlanishidan ustun turadi.

D. doimiy oziq-ovqat tanqisligi mavjud boʻlgan mamlakatlarda aholining katta qismi sanoatda band.

77. Uchinchi ming yillikda insoniyat salomatligi muammosi global xarakterga ega boʻlishining isbotlovchi mulohazani tanlang.

A. Genetika injeneriyasining muvaffaqiyatli rivojlanishi dunyoning barcha mamlakatlarida yangi tur - "sog'lom odam" ni koʻpaytirish ishlari olib borilayotganiga olib keldi.

B. XX asr oxiriga kelib.vabo, chechak, poliomielit kabi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda butun dunyoda yutuqlarga erishildi.

C. OITS bilan kasallanganlar soni 30 millionga yaqinlashmoqda va o‘sishda davom etmoqda.
D. dunyoning ba'zi hududlari uchun haqiqiy ofat suv va oziq-ovqat tarkibidagi yod birikmalarining kamayishi bilan bog'liq bo‘lgan "guatr kasalligi" edi.

78. Hozirgi kunda global loyihalarning aksariyati _____ rivojlanishi bilan bog'liq:
A. Jahon okeani; B. Kosmos; C. Sahara; D. Antarktida.

79. Dengiz mikroorganizmlari va suv o‘tlarini yo‘q qilish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
A. baliq va dengiz hayvonlari soni kamayadi; B. okean suvlari kamayadi;
C. atmosferadagi kislorod miqdori kamayadi; D. kitlar soni ko‘payadi.

80. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dunyodagi eng zich joylashgan mintaqalardan biridir. Ushbu hududlarda o‘rmonlarning kesilishiga hissa qo‘shadigan aholining iqtisodiy faoliyat turlarini tanlang:
A. ekin maydonlarini ko‘paytirish uchun o‘rmonlarni kesish;
B. o‘tinni yoqilg'i sifatida ishlatish;
C. qimmatbaho yog'och turlarini eksport qilish;
D. A, B, C.

81. Inson salomatligi muammosi global ekanligini inkor etuvchi dalilni toping.

A. Insonning jismoniy salomatligi uning axloqiy va ruhiy salomatligidan alohida ko‘rib chiqilishi kerak.

B. Salomatlik har bir insonning to`laqonli hayoti va faoliyatining asosidir.

C. Tibbiyotdagi yutuqlarga qaramay, ko‘plab kasalliklar har yili millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lishda davom etmoqda.

D. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida umr ko‘rish davomiyligi pastligicha qolmoqda.

82. Ozon qatlamining yemirilishiga qanday oqibatlarga olib keladi?

A. ultrabinafsha nurlar oqimini oshirish B. tuproq pH ning pasayishiga

C. suv havzalarini kislotalash D. barcha javoblar to‘g‘ri.

83. Antarktida ustidagi ozon tuynugi qachon aniqlangan?

A.1984 B. 1980 yil C.1990 D.1995

84. Qaysi ishlab chiqarishlar "iflos" deb tasniflanadi?

A. ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga ifloslantiruvchi moddalarning eng yuqori rentabelligini beradigan ishlab chiqarish

B. resurslarni talab qiladigan ishlab chiqarish

C. resurslarni tejovchi ishlab chiqarish

D. ikkala ishlab chiqarish turi ham

85. Rivojlangan mamlakatlarda qaysi tabiiy resurslardan eng ko‘p foydalaniladi?

A. jahon okeanining resurslari, yer osti boyliklari, ikkilamchi resurslar

B. yer, o‘rmon, suv, mineral

C. geotermal, rekreatsion, tijorat

D. suv, yer, biologik

86. BMTga a'zo davlatlar soni?

A.193ta B.181ta C. 221ta D. 205ta

87.Integratsiyaning eng oddiy shaklini tanlang:

A. iqtisodiy hamkorlik B. umumiy bozor

C. iqtisodiy ittifoq D. bojxona Ittifoqi

88. Integrasiyaning eng chuqur shaklini tanlang:

A. iqtisodiy va valyuta ittifoqi B. bojxona ittifoqi;

C. iqtisodiy hamkorlik; D. umumiy bozor.

89. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YeIH) qaysi yilda tuzilganligini ko‘rsating?

A. 1957 yil B.1951 C.1959 D.1961

90. Xalqaro mehnat migratsiyasiga qaysi davlatlar ko‘proq muhtoj?

A. Rivojlangan davlatlar B. Rivojlanayotgan davlatlar

C. Iqlimi issiq davlatlar D. Yopiq iqtisodiyotga ega davlatlar

91. YeIHni Yevropa Ittifoqiga (EI) aylantirish to‘g‘risida qaror qaysi yilda qabul qilinganligini ko‘rsating:

A. 1991 yil B.1995 C.1999 D.1989

92. YeIHni Yevropa Ittifoqiga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi:

A. Maastrixt shartnomasi doirasida; B. Gaagadagi uchrashuvda;

C. Shengen shartnomasi doirasida; D. Yagona Yevropa akti doirasida.

93. Bir qator Yevropa davlatlari o‘rtasida odamlar, tovarlar, kapital va ma’lumotlarning erkin harakatlanishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi:

A. Yagona Yevropa akti doirasida. B. Gaagadagi uchrashuvda;

C. Maastrixt shartnomasi doirasida; D. Shengen shartnomasi doirasida;

94. Yevro valyutaning naqd pul muomalasi qaysi yilda kiritilganligini ko‘rsating?

A. 2002 yil B.2004 yil C.1995 yil D.1999 yil

95. Rivojlanayotgan mamlakatlar innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini qanday kengaytirishlari mumkin?

A. Xalqaro grantlar yordamida B. Mahalliy bozorlarni cheklash

C. Texnologiyalarni taqiqlash D. Faqat ichki resurslardan foydalanish orqali

96. Globallashuvning oqibatlari:

A. Xalqaro raqobat ta’sirida ixtisoslashuvlar

B. Bilim talab qiladigan ishlab chiqarishning qisqarishi

C. TMK korxonalarida ishlab chiqarishning pasayishi

D. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni sekinlashtirish

97. Globallashuvning ijtimoiy oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?

A. Ta’limni takomillashtirish va yangi imkoniyatlar yaratish

B. Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi

C. Madaniyatlarning o‘zaro izolyatsiyasi

D. Faqat iqtisodiy o‘sish

98. Milliy xo‘jaliklarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagilarni anglatadi:

A. bir mamlakatda daromadning o‘sishi boshqa mamlakatlarda daromadlar o‘sishini rag‘batlantiradi;

B. makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish muhim;

C. mamlakatlar bojxona ittifoqlarida ishtirok etishlari shart;

D. mamlakatlari davlat byudjeti parametrlarini kelishib olishlari talab etiladi.

99. Protektsionizm siyosatini oqlovchi mulohazani tanlang:

A. proteksionistik chora-tadbirlar import bilan raqobatlashuvchi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun doimo foydalidir;

B. tariflar va boshqa protektsionistik choralar savdo mamlakatlari farovonlik darajasini pasaytiradi, chunki ular barcha tovarlar narxining oshishiga olib keladi;

C. proteksionistik chora-tadbirlar milliy iqtisodiy tuzilmalar samaradorligini pasaytirishi mumkin, chunki ular samarasiz sanoatni saqlab qolishi mumkin;

D. bojxona to‘lovlari davlat byudjetining daromad manbai hisoblanadi.

100. Xalqaro valyuta jamg‘armasi qaysi qaror asosida tuzilgan?

A. Bretton-Vuds valyuta konferensiyasi;

B. Yamayka konferensiyasi;

C. BMT Xavfsizlik Kengashi;

D. GATT konferentsiyalari.

101. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy maqsadi nima?

A) Davlatlar o‘rtasida savdo va hamkorlikni rivojlantirish.

B) Harbiy ittifoqlar tuzish.

C) Mahalliy bozorni yopish.

D) Soliq yig‘imlarini oshirish.

102. Bojxona ittifoqi qanday amalga oshiriladi?

A) Umumiy tashqi bojxona tariflarini joriy etish orqali.

B) Mahalliy ishlab chiqarishni to‘xtatish orqali.

C) Ishchi kuchini cheklash orqali.

D) Eksportni taqiqlash orqali.

103. Integratsiyaning eng rivojlangan shakli qaysi?

A) To‘liq iqtisodiy integratsiya. B) Soliq islohoti.

C) Mahalliy bozorda subsidiyalar. D) Yagona moliya tizimi yo‘qligi.

104. NAFTA qaysi davlatlar orasidagi hamkorlikni anglatadi?

A) AQSh, Kanada va Meksika. B) Germaniya, Fransiya va Belgiya.

C) Xitoy, Hindiston va Rossiya. D) Braziliya, Argentina va Chili.

105. ASEAN tashkiloti qaysi mintaqada faoliyat yuritadi?

A) Janubi-Sharqiy Osiyo. B) Shimoliy Amerika.

C) Markaziy Yevropa. D) Afrika janubi.

106. Erkin savdo zonasining asosiy xususiyati nima?

A) Ichki savdo to‘siqlarini yo‘q qilish. B) Bojxona yig‘imlarini ko‘paytirish.

C) Milliy valyutani olib tashlash. D) Ishchi kuchini cheklash.

107. Yevropa Ittifoqi a’zolari qanday siyosatni yuritadilar?

A) Umumiy siyosiy va iqtisodiy ittifoq. B) Faqat bojxona hamkorligi.

C) Erkin savdo hududi yo‘qligi. D) Chegaralarni yopiq saqlash.

108. Janubi-Sharqiy Osiyodagi asosiy iqtisodiy tashkilot?

A) ASEAN. B) NAFTA.

C) Yevropa Ittifoqi. D) OPEK.

109. Bojxona ittifoqining asosiy foydasi nima?

A) Tashqi savdoni rivojlantirish va bojxona to‘siqlarini kamaytirish.

B) Soliq yig‘imlarini oshirish.

C) Ishlab chiqarishni qisqartirish.

D) Ichki siyosatni buzish.

110. Afrika iqtisodiy ittifoqi qaysi maqsadni ko‘zlaydi?

A) Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash.

B) Qishloq xo‘jaligini cheklash.

C) Tovar eksportini kamaytirish.

D) Ishsizlikni oshirish.

111. Rivojlanayotgan davlatlar integratsiyadan qanday foyda ko‘radi?

A) Resurslardan samarali foydalanish. B) Ishlab chiqarishni qisqartirish.

C) Soliqlarni oshirish. D) Xarajatlarni ko‘paytirish.

112. Globallashuvning innovatsion rivojlanishdagi asosiy roli nimada?

A) Texnologiyalar va resurslarning global almashinuvi

B) Mahalliy bozorlarda raqobatni kamaytirish

C) Faqat rivojlangan davlatlarga xizmat qilish

D) Mahsulot ishlab chiqarishni to‘xtatish

113. Quyidagilardan qaysi biri globallashuvning ijobiy natijasi?

A) Ilmiy hamkorlikni kuchaytirish

B) Mahalliy resurslardan foydalanishni to‘xtatish

C) Ishsizlikning ko‘payishi

D) Raqobatbardoshlikni kamaytirish

114. Qaysi texnologiya innovatsion rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi?

A) Sun’iy intellekt B) Ko‘mir qazib olish

C) Faqatgina an’anaviy qishloq xo‘jaligi D) Qadimiy texnikalardan foydalanish

115. Globallashuvning qaysi sohaga ta’siri kuchliroq?

A) Texnologiya va ilm-fan B) Faqatgina qishloq xo‘jaligi

C) Milliy bayramlar D) Mahalliy sport musobaqalari

116. Globallashuvning ijtimoiy ta’siri nimada namoyon bo‘ladi?

A) Ta’lim imkoniyatlarining kengayishi

B) Mahalliy madaniyatlarning yo‘qolishi

C) Ish o‘rinlarining qisqarishi

D) Mahalliy bozorlarning izdan chiqishi

117. Parij kelishuvi asosan nimaga qaratilgan?

A) Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga

B) Texnologiyalarni rivojlantirmaslikka

C) Global savdoni cheklashga

D) Energiya resurslarini kamaytirishga

118. Raqamli xavfsizlikni ta’minlash qaysi darajada muhim?

A) Milliy va xalqaro B) Faqat milliy

C) Faqat mahalliy D) Texnologiyalardan voz kechish

119. Globallashuv qaysi sohaga axborot almashinuvini tezlashtiradi?

A) Ilmiy tadqiqotlar B) Qadimiy an’analar

C) Faqat madaniyatni cheklash D) Qishloq xo‘jaligi

120. Globallashuv ta’lim tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

A) Masofaviy ta’lim imkoniyatlarini yaratdi

B) Mahalliy bilimlarni chekladi

C) Faqat rivojlangan davlatlarga xizmat qildi

D) Ta’lim sifatini pasaytirdi

121. Globallashuv jarayonida innovatsion rivojlanishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Raqobatbardoshlikni oshirish B) Mahalliy madaniyatni yo‘qotish

C) An'anaviy usullarni rivojlantirish D) Faqat iqtisodiy o‘sishni ta'minlash

122. Globallashuv sharoitida innovatsion rivojlanish qanday usulda amalga oshiriladi?

A) Hamkorlik va texnologiyalar almashinuvi orqali

B) Faqat import orqali

C) O‘z-o‘zidan avtomatik tarzda

D) Faqat ichki sarmoya orqali

123. Globallashuv jarayonida iqtisodiy barqarorlikni qanday ta’minlash mumkin?

A) Innovatsion rivojlanish orqali B) Faqat tabiiy resurslarga tayanib

C) Importni ko‘paytirish orqali D) An’anaviy usullardan foydalanib

124. Globallashuvda qaysi omil innovatsion taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

A) Texnologik nomutanosiblik B) Ta’lim tizimini kuchaytirish

C) Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish D) Innovatsion g‘oyalarning ko‘payishi

125. Innovatsion rivojlanishda bilim va mahoratning qaysi turi muhimroq?

A) Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mahorati

B) Faqat an’anaviy bilimlar

C) Mahalliy bilimlarni cheklash

D) Faqat xorijiy bilimlarni o‘zlashtirish

126. Innovatsion rivojlanish jarayonida muhim bo‘lgan global muammo nima?

A) Iqlim o‘zgarishi B) Faqat iqtisodiy masalalar

C) Madaniyatni saqlash muammosi D) Raqobatni kamaytirish

127. Globallashuv jarayonida xalqaro savdoning rivojlanishini qanday omillar belgilaydi?

A) Texnologik yutuqlar B) Mahsulotlar turlari

C) Davlatning iqtisodiy siyosati D) Faqat davlatlar o‘rtasidagi kelishuvlar

128.Xalqaro savdoning muhim xususiyatlaridan biri nima?

a) Mahsulotlar va xizmatlarning o‘zaro almashinishini kengaytirish

b) Bojxona to‘lovlarini kamaytirish

c) Mahsulotlarning yuqori sifatini ta’minlash

d) To‘siqlarning maksimal darajada oshirilishi

129.Xalqaro savdoni tartibga soluvchi asosiy shartnoma qaysi?

a) General Agreement on Tariffs and Trade (GATT)

b) Doha kelishuvlari

c) Paris shartnomasi

d) Maastricht kelishuvi

130.Xalqaro savdoda "tarif" nima?

a) Mahsulotlarga qo‘shimcha to‘lovlar qo‘llash

b) Mahsulotlarning eksportini taqiqlash

c) Mahsulotlar bozoriga davlatning aralashuvi

d) Davlatlar o‘rtasidagi erkin savdo kelishuvlari

131.Xalqaro savdoni rivojlantirishda internetning roli qanday?

a) Savdo sharoitlarini yomonlashtiradi

b) Mahsulotlar va xizmatlarni xalqaro bozorga chiqarish imkoniyatini kengaytiradi

c) Xalqaro bozorda cheklovlar yaratadi

d) Tashqi savdo bilan bog‘liq xatarlarni oshiradi

132.Xalqaro savdoda "kvota" deganda nimani anglatadi?

a) To‘lovlarni kamaytirish

b) Mahsulotning o‘rta bozor narxi

c) Ma’lum bir tovarning import yoki eksportiga belgilangan cheklov

d) Mahsulotning narxi

133.Dunyo bo‘ylab savdo aloqalarini mustahkamlash uchun qaysi tashkilotlar asosiy rolni o‘ynaydi?

a) Yevropa Ittifoqi va Jahon Banki

b) BMT va Jahon Savdo Tashkiloti

c) Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va OECD

d) Davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlar

134.Globalizatsiya jarayonida savdoning asosiy afzalliklaridan biri nima?

a) Bozorlarning yomonlashishi

b) Xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatining kengayishi

c) Mahalliy ishlab chiqarishni kamaytirish

d) Mahsulotlarni faqat ichki bozorda sotish

135.Xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiy ijtimoiy qanday o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi?

a) Barqaror rivojlanishni to‘xtatadi

b) Yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sish

c) Davlatlar o‘rtasidagi savdo to‘siqlari kuchayadi

d) Sanoat ishlab chiqarish kamayadi

136.Xalqaro savdoda bojxona to‘lovlarining kamayishi qanday ta'sir qiladi?

a) Tashqi savdoni rivojlantiradi b) Savdo to‘siqlarini oshiradi

c) Mahsulotlarni arzonlashtiradi d) Iqtisodiy o‘sishni to‘xtatadi

137.Savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda "territorial integratsiya" nima?

a) Iqtisodiy bozorlarni yanada ajratish

b) Biror hududdagi iqtisodiy aloqalar va integratsiyani kengaytirish

c) Cheklovlarni yo‘q qilish

d) Milliy hududda cheklovlarni kuchaytirish

138. Xalqaro mehnat migratsiyasi nima?

A) Ishchi kuchining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chib ishlashi jarayoni

B) Ichki migratsiya jarayoni

C) Faqat qishloq joylardan shaharlarga ko‘chish jarayoni

D) Xorijda o‘qish uchun ko‘chish

139. Migratsiya oqibatida ishchi kuchining qaysi turi kamayadi?

A) Malakali ishchi kuchi B) Norasmiy ishchilar

C) Talabalar D) Qishloq xo‘jaligi ishchilari

140. Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy kamchiligi nima?

A) Malakali kadrlar tanqisligi B) Valyuta tushumlari ko‘payishi

C) Ishsizlikni kamaytirishi D) Savdo hajmining oshishi

141. Xalqaro moliya bozorlari nimani ta'minlaydi?

A) Kapital oqimi B) Savdo inqirozi

C) Ichki iqtisodiy rivojlanish D) Kredit defitsiti

142. Qimmatli qog'ozlar bozori qaysi vositalarni o‘z ichiga oladi?

A) Aksiyalar va obligatsiyalar B) Derivativlar

C) Kredit shartnomalari D) Qimmatbaho metallar

143. Qimmatbaho metallar bozori qanday xizmat qiladi?

A) Inflyatsiyaga qarshi himoya sifatida

B) Kredit berish uchun

C) Korporatsiyalar uchun kredit ta'minlash

D) Qimmatli qog'ozlarni chiqarish

144. Derivativlar bozori qanday risklarni boshqaradi?

A) Aktiv narxlari o‘zgarishi B) Siyosiy barqarorlik

C) Qarz inqirozi D) Soliq stavkalari

145. Xalqaro moliya bozorlarining asosiy vazifasi nima?

A) Kapital oqimini ta'minlash B) Inflyatsiyani oshirish

C) Moliya tizimini yopish D) Risklarni kuchaytirish

146. Qaysi omil Forex bozoridagi kurs o‘zgarishiga ta'sir qiladi?

A) Iqtisodiy omillar B) Mahalliy infratuzilma

C) Ichki bozor siyosati D) Raqobatchilar narxlari

147. Tijorat banklari nima bilan shug'ullanadi?

A) Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish

B) Qimmatbaho metallarni saqlash

C) Soliq siyosatini boshqarish

D) Boshqa davlatlar banklarini nazorat qilish

148. Korporatsiyalar xalqaro bozorda nimadan foydalanadi?

A) Valyuta almashinuvi va derivativlar B) Soliq imtiyozlari

C) Faqat kredit mahsulotlari D) Ichki savdo tartiblari

149. Qaysi omil investorlar uchun asosiy xavf tug'diradi?

A) Valyuta kurslarining o‘zgarishi B) Raqobat narxlari

C) Mahalliy ishlab chiqarish D) Texnik infratuzilma

150. Moliyaviy vositachilar nima bilan shug'ullanadi?

A) Investorlar uchun risklarni boshqarish B) Kredit siyosatini nazorat qilish

C) Eksportni tartibga solish D) Davlat qarzlarini taqsimlash

151. Spekulyatorlar nimani boshqaradi?

A) Bozor likvidligi B) Ijtimoiy siyosat

C) Ichki savdo balansini D) Faqat davlat obligatsiyalarini

152. Markaziy banklar intervensiyani qachon amalga oshiradi?

A) Valyuta kurslarini boshqarish uchun

B) Soliq yig'imlarini oshirish uchun

C) Eksport hajmini kamaytirish uchun

D) Kredit stavkalarini tartibga solish uchun

153. Forex bozoridagi likvidlikning ahamiyati nima?

A) Tezkor operatsiyalarni ta'minlash B) Soliq tizimini o‘zgartirish

C) Yangi korporatsiyalarni jalb qilish D) Foyda olishni cheklash

154. Globallashuv jarayoni nima?

A) Xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi

B) Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishv

C) Davlatlararo urushlar

D) Madaniyatlarni o‘zaro izolyatsiya qilish

155. Ishchi kuchi bozoriga globallashuvning ta'siri qanday?

A) Ishchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi

B) Ishsizlik darajasini oshiradi

C) Ish haqlarini kamaytiradi

D) Mahalliy kompaniyalarni yo‘q qiladi

156. Globallashuv jarayonida qaysi faktor ish haqlarini belgilaydi?

A) Mahalliy iqtisodiyotning holati B) Xalqaro mehnat bozoridagi raqobat

C) Davlat siyosat D) O‘zgaruvchan iqlim

157. Ishchi kuchi bozorida raqobatning oshishi qanday natijalarga olib kelishi mumkin?

A) Ish haqlarini pasaytiradi B) Ishchilar o‘rtasida hamkorlikni oshiradi

C) Ish joylarini ko‘paytiradi D) Ishsizlikni kamaytiradi

159. Qaysi tashkilotlar globallashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi?

A) Xalqaro tashkilotlar (masalan, WTO) B) Mahalliy hukumatlar

C) Milliy banklar D) O‘zbekiston Respublikasi

160 Hozirgi global mehnat bozorida qanday asosiy yo‘nalishlar namoyon bo‘lmoqda?

A) Raqamlashtirish va texnologik taraqqiyotning kuchayishi

B) Ish o‘rinlari yetishmovchiligi va ishsizlik darajasining ortishi

C) Ichki bozorlarda bandlik imkoniyatlarining kengayishi

D) Iqlim o‘zgarishining mehnat bozori sharoitlariga ta’siri

161. Ish haqlaridagi farqlar qaysi omillarga bog'liq?

A) Davlat siyosati va iqtisodiy sharoitlar B) Faqat ishchilarning malakasi

C) Faqat ishlab chiqarish jarayoni D) Ijtimoiy tarmoqlar

162. Ishchilar o‘rtasidagi raqobat qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

A) Ish haqlarini pasaytiradi va sharoitlarni yomonlashtiradi

B) Ishchilar o‘rtasida hamkorlikni oshiradi

C) Ish joylarini ko‘paytiradi

D) Ijtimoiy barqarorlikni oshiradi

163. Ishch kuchining globalizatsiyasi natijasida qaysi ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi mumkin?

A) Migratsiya va ishchilar huquqlari masalalari

B) Ta'lim darajasining oshishi

C) Madaniy farqlarni kamaytirish

D) Iqtisodiy barqarorlik

164.Globalizatsiya natijasida qaysi mamlakatlarda ish kuchi miqdori oshmoqda?

A) Rivojlanayotgan mamlakatlar B) Rivojlangan mamlakatlar

C) O‘rta darajadagi mamlakatlar D) Faqat rivojlangan mamlakatlar

165. Ishchilar huquqlarini himoya qilishda qaysi tashkilotlar muhim rol o‘ynaydi?

A) Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) B) Milliy banklar

C) Xalqaro savdo tashkilotlari D) Davlat hukumatlari

166. Globallashuv jarayonining salbiy ta'siri nima?

A) Ishsizlik darajasining oshishi va mehnat sharoitlarining yomonlashuvi

B) Iqtisodiy o‘sishning oshishi

C) Ta'lim darajasining oshishi

D) Madaniyatlarning o‘zaro almashuvi

167. Ishsizlik darajasini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak?

A) Ta’lim tizimini rivojlantirish B) Iqtisodiy inqirozga qarshi choralar

C) Madaniy tadbirlar o‘tkazish D) Islab chiqarish joylarini ochish

168. Globallashuv jarayonining ijtimoiy ta'siri qanday bo‘lishi mumkin?

A) Ta’lim darajasining oshishi va yangi imkoniyatlar yaratishi

B) Ijtimoiy tengsizlikning oshishi

C) Madaniyatlarning o‘zaro izolyatsiyasi

D) Faqat iqtisodiy o‘sish

169. Resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi qaysi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi?

A) Resurs narxining oshishi va ekologik inqiroz

B) Narxlarning barqarorlashuvi

C) Iqtisodiy raqobatning kuchayishi

D) Soliq bazasining kengayishi

170. Uglerod soliqlari iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

A) Ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi

B) Eksport hajmini oshiradi

C) Atrof-muhitga zararli ta’sirni kuchaytiradi

D) Faqat rivojlanmagan davlatlarga ta’sir qiladi

171. Iqlim o‘zgarishi qaysi turdagi migratsiyaga sabab bo‘ladi?

A) Ekologik migrantlar oqimi

B) Ish kuchi migratsiyasi

C) Tabiiy resurslar savdosi migratsiyasi

D) Qishloq joylardan shahar joylarga ko‘chish

172. Ekologik inqirozning iqtisodiy zararini baholashda qaysi ko‘rsatkich muhim hisoblanadi?

A) Iqtisodiy yo‘qotishlar ko‘lami va mehnat unumdorligi

B) Atrof-muhitga sarmoya miqdori

C) Ishchi kuchining sifat darajasi

D) Tabiiy resurslarning eksport hajmi

173. Ekologik muammolarga qarshi xalqaro hamkorlikning iqtisodiy maqsadi nima?

A) Iqtisodiy yo‘qotishlarni minimallashtirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash

B) Xalqaro savdo hajmini oshirish

C) Tabiiy resurslarni bozor narxida sotish

D) Iqtisodiy raqobatni kuchaytirish

174. Xalqaro ekologik bitimlar davlatlarning iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

A) Yashil texnologiyalarni rivojlantirishga undaydi

B) Energiya tannarxini oshiradi

C) Xalqaro savdo cheklovlarini kuchaytiradi

D) Eksportni qisqartiradi

175. Kimyoviy ifloslanishning iqtisodiy zararini kamaytirish uchun qaysi chora ko‘riladi?

A) Filtrlash texnologiyalariga sarmoya kiritish

B)Faqat ishlab chiqarishni qisqartirish

C) Ish kuchini kamaytirish

D) Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni susaytirish

176. Atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun qaysi strategiya muhim?

A) Innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritish

B) Ishchi kuchini qisqartirish

C) Xalqaro savdo imkoniyatlarini kamaytirish

D) Xomashyo eksportini ko‘paytirish

177. Demografik tranzitning oxirgi bosqichida iqtisodiy integratsiyaga qanday ta’sir kuzatiladi?

A) Tug‘ilish ko‘rsatkichlarining keskin pasayishi va ishchi kuchi taqchilligi

B) Ishlab chiqarish hajmining oshishi va texnologik rivojlanish

C) Migratsiya jarayonlarining to‘xtashi

D) Soliq tizimining susayishi

178. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyada demografik tengsizlik qaysi asosiy muammoni keltirib chiqaradi?

A) Ish kuchi migratsiyasining notekis taqsimlanishi

B) Savdo balansining uzilishi

C) Mahsulotlar narxining oshishi

D) Ekologik inqiroz

179. Demografik o‘zgarishlar iqtisodiy integratsiya jarayonlariga qanday ta’sir qiladi?

A) Ishchi kuchi yetishmovchiligi va immigratsiya oqimlarini kamaytiradi

B) Yalpi ichki mahsulot (YIM) ni oshiradi

C)Resurslar taqsimlanishini yaxshilaydi

D) Ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshiradi

180. Demografik dividendni iqtisodiy integratsiyada maksimal darajada foydali qilish uchun qanday sharoit zarur?

A) Ta’lim tizimining rivojlanishi va mehnat bozorining moslashuvi

B) Ijtimoiy siyosatning kuchaytirilishi

C) Yashash sharoitlarining yaxshilanishi

D) Migratsiya oqimlarini cheklash

181. MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) tashkil topgan yil:

A) 1990 B) 1991 C) 1993 D) 1995

182. MDHning asosiy maqsadi nima?

A) Yagona valyuta joriy etish

B) Siyosiy integratsiya

C) Iqtisodiy, gumanitar va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish

D) Harbiy blok tuzish

183. Quyidagi davlatlardan qaysi biri MDHdan chiqqan?

A) Armaniston B) Moldova C) Gruziya D) Belarus

184.EES deganda nimani tushunasiz?

A) Yevroosiyo avtonom iqtisodiy ittifoqi

B) Yevroosiyo davlatlari iqtisodiy alyansi

C) Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi

D) Yagona Osiyo iqtisodiy jamiyati

185. MDH asosan qanday davlatlarni birlashtiradi?

A) Osiyo davlatlari B) Yevropa davlatlari

C) Afrika davlatlari D) Mustaqillikka erishgan sobiq SSSR davlatlari

186.Quyidagi loyihalardan qaysi biri MDH doirasiga kirmaydi?

A) Bojxona ittifoqi B) SHHT

C) MDH D) Erkin savdo hududi bo‘yicha kelishuv

187. MDH o‘zining 30 yilligini qachon nishonladi?

A) 2019 B) 2020 C) 2021 D) 2022

189. O‘zbekiston BMTga qachon a’zo bo‘lgan?

A) 1990 B) 1991 C) 1992 D) 1993

190. Ta’lim sohasida O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilot bilan faol hamkorlik qiladi?

A) YuNESKO B) OPEK C) NATO D) XMT

191. Osiyo taraqqiyot bankidagi asosiy hamkori:

A) Hindiston B) Xitoy C) Yaponiya D) AQSh

192.Qaysi fond O‘zbekistonga gumanitar yordam ko‘rsatadi?

A) XMF B) BB C) YuNISEF D) OPEK

193. Energetika sohasidagi asosiy investor:

A) Koreya B) Rossiya C) Turkiya D) Xitoy

194. “Investitsiyalar va investitsion faoliyat to‘g‘risida”gi yangi qonun qachon qabul qilindi?

A) 2018 B) 2019 C) 2020 D) 2021

195. Investorlarni rag‘batlantirish vositasi:

A) Kvotalar B) Davlat kreditlari

C) Soliq imtiyozlari D) Tanlovlar

196. Xalqaro investitsiya markazi qayerda joylashgan?

A) Samarqand B) Toshkent C) Andijon D) Urganch

197. JST (Jahon savdo tashkiloti) ning bosh qarorgohi qayerda joylashgan?

A) Bryussel B) Jeneva C) Parij D) Nyu-York

198. O‘zbekiston JST(Jahon savdo tashkiloti) ga kirish jarayonini qayta qachon tiklagan?

A) 2015 B) 2016 C) 2017 D) 2019

199. JST(Jahon savdo tashkiloti) O‘zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

A) Eksportni cheklaydi B) Investitsiyalarni kamaytiradi

C) Raqobat va bozorlarga kirishni oshiradi D) Nazoratni kuchaytiradi

200. O‘zbekiston JST(Jahon savdo tashkiloti) ga kirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qachon qabul qildi?

A) 2020 B) 2021 C) 2022 D) 2023

201.Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi deganda nimani tushunasiz?

A) Ichki siyosatni kuchaytirish

B) Global bozorlarga chiqish va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish

C) Harbiy bloklar tuzish

D) Tashqi qarzlarni oshirish

202. Quyidagilardan qaysi biri Markaziy Osiyodagi iqtisodiy integratsiyaga to‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi?

A) Resurslarning ko‘pligi

B) Transport infratuzilmasining yetarli darajada emasligi

C) Turizm sohasining rivojlanishi

D) Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik

203. Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng ko‘p eksport qilinadigan mahsulot:

A) Elektronika B) Neft va gaz C) To‘qimachilik D) Avtomobillar

204. Qaysi tashkilot Markaziy Osiyo integratsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi?

A) NATO B) Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi

C) ASEAN D) OPEC

205. “Bir makon – bir yo‘l” loyihasi qaysi davlat tashabbusi bilan ilgari surilgan?

A) AQSh B) Rossiya C) Xitoy D) Hindiston

206. Markaziy Osiyo davlatlari qaysi sektor orqali jahon iqtisodiyotiga kirib bormoqda?

A) Qishloq xo‘jaligi B) Savdo va logistika

C) Ta’lim D) Turizm

207. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy afzalligi nima?

A) Milliy daromadning kamayishi B) Raqobatbardoshlikning oshishi

C) Importning to‘xtashi D) Tashqi investitsiyaning kamayishi

208. Markaziy Osiyo davlatlarining jahon iqtisodiyoti bilan bog‘lanishida eng muhim rol o‘ynovchi omil:

A) Ijtimoiy siyosat B) Geosiyosiy joylashuvi

C) Aholi soni D) Madaniy meros

209. UNICEF O‘zbekistonda asosan nima bilan shug‘ullanadi?

A) Davlat boshqaruvi B) Bolalar huquqlari va salomatligi

C) Soliq siyosati D) Transport tarmoqlari

210. UNESCO tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan O‘zbekistondagi yirik shahar:

A) Qarshi B) Termiz C) Samarqand D) Nukus

211. O‘zbekistonning eng yirik moliyaviy hamkori:

A) JST B) Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

C) IHT D) OPEK

212. Jahon Savdo Tashkiloti (JST) qachon tashkil etilgan?

A) 1995-yilda B) 2000-yilda C) 1985-yilda D) 1975-yilda

213. Savdo urushlari nima?

A) Savdo tariflari va cheklovlari orqali iqtisodiy qarama-qarshilik

B) Foydali qazilma boyliklar uchun urushlar

C) Harbiy kuch ishlatiladigan urushlar

D) Dunyo savdo tashkilotining yillik yig‘ilishi

214. Savdo urushlarining asosiy sababi nima?

A) Savdo balansini himoya qilish va milliy iqtisodiyot manfaatlarini saqlash

B) Raqib davlatlarning harbiy kuchini kamaytirish

C) Raqobatbardoshlikni oshirish

D) Geografik chegaralarni kengaytirish

215. Qaysi tashkilot savdo urushlarini nazorat qilishga harakat qiladi?

A) Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) B) Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)

C) NATO D) Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF)

216. 2018-yilda AQSh va Xitoy o‘rtasidagi savdo urushi nimadan boshlandi?

A) AQShning Xitoy mahsulotlariga tariflarni oshirishi

B) Xitoyning texnologik firmalari ustidan nazorat o‘rnatish

C) Harbiy mojaro tufayli

D) AQShning energetika sohasidagi siyosati

217. Savdo urushlari global iqtisodiyotga qanday ta’sir qiladi?

A) Iqtisodiy inqiroz xavfini oshiradi B) Xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi

C) Bozor o‘sishini tezlashtiradi D) Resurslar iste’molini kamaytiradi

218. "Savdo urushi" atamasini birinchi marta kim ishlatgan?

A) Jurnalistlar B) Deyvid Rikardo

C) Adam Smit D) Karl Marks

219. Savdo urushlarida yirik davlatlarning roli qanday?

A) Geopolitik kuch sifatida pozitsiyani mustahkamlash

B) Iqtisodiy yordam ko‘rsatish

C) Kichik davlatlarning iqtisodiyotini rivojlantirish

D) Faqat texnologik rivojlanishga e’tibor qaratish

220. Xitoyning iqtisodiy strategiyasida savdo urushlari qanday ahamiyatga ega?

A) Bozorlarni kengaytirish uchun imkoniyat

B) Mahsulotlar sifatini pasaytirish

C) Ichki ishlab chiqarishni cheklash

D) Savdo balansi yomonlashuvi

221. Tariflarning oshirilishi qanday iqtisodiy vaziyatga olib kelishi mumkin?

A)Inflyatsiya va narxlarning oshishi B) Iqtisodiy o‘sish

C) Ishsizlikning pasayishi D) Iqtisodiy turg‘unlik

222. Savdo urushlarini tugatish uchun qanday chora ko‘riladi?

A)Xalqaro muzokaralar va bitimlar imzolanadi

B) Harbiy kuch ishlatiladi

C) Tariflarni yanada oshirish

D) Chegaralarni yopish

223. Jahon moliya bozorlari qanday ta’riflanadi?

A) Moliyaviy vositalar orqali kapital taqsimlanadigan global tizim

B) Milliy darajada kapitalni boshqarish tizimi

C) Xalqaro kapital oqimlarini boshqaruvchi tizim

D) Faqat moliyaviy tashkilotlarning faoliyati

224. Jahon moliya bozorlarining globallashuviga nima sabab bo‘lgan?

A) Iqtisodiy integratsiya va texnologik rivojlanish

B) Banklarning yopilishi

C) Foyda daromadining pasayishi

D) Milliy valyutalarning barqarorligi

225. Jahon moliya bozorlari qanday xususiyatlarga ega?

A) Sutkalik uzluksiz operatsiyalar B) Geografik cheklovlarning mavjudligi

C) Cheklangan ishtirokchilar D) Barcha savdo milliy valyutada olib boriladi

226. Jahon moliya bozorlarida qanday asosiy xavf mavjud?

A) Likvidlikning yetishmasligi B) Davlatning qonunchilik siyosati

C) Pul birligining qadrsizlanishi D) Bozor ishtirokchilarining raqobati

227. Valyuta bozori qanday xizmat ko‘rsatadi?

A) Xalqaro valyutalar almashinuvini ta’minlash uchun

B) Faqat banklar o‘rtasida konvertatsiya qilish uchun

C) Faoliyatini faqat davlat tartibga soladi

D) Kichik biznes uchun maxsus xizmatlar ko‘rsatadi

228. Obligatsiyalar bozori nima uchun jahon moliya bozorining asosiy qismi hisoblanadi?

A) Xalqaro kreditorlar uchun asosiy manba hisoblanadi

B) Faqat davlatlar foydalanadi

C) Faqat xususiy kompaniyalarga xizmat ko‘rsatadi

D) Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlaydi

229. Yevrobozor qaysi davrda faol rivojlangan?

A) 1960-yillar B) 1980-yillar C) 2000-yillar D) 2010-yillar

230. Birinchi birjalar qachon tashkil topgan?

A) XV asrda B) XVI asrda C) XVIII asrda D) XX asrda

231. Jahon moliya bozorlarida tez-tez kuzatiladigan moliyaviy krizislarning asosiy sababi nima?

A) Bozor ishtirokchilarining noto‘g‘ri xatti-harakatlari

B) Valyutalar kursining bir xil bo‘lmasligi

C) Xalqaro savdoning kamayishi

D) Davlatlarning moliyaviy siyosatini boshqarishdagi kamchiliklar

232. Kredit bozori qanday xizmatlarni taqdim etadi?

A) Tijorat operatsiyalarini moliyalashtirish

B) Faqat jismoniy shaxslar uchun qarz berish

C) Valyuta operatsiyalarini tartibga solish

D) Xalqaro kreditlar faqat davlatga taqdim etiladi

233. Xalqaro moliya institutlariga misol bo‘la oladigan tashkilot qaysi?

A) Jahon banki B) BMT C) JST D) Xalqaro Energiya Agentligi

234. Moliya bozorlarini boshqarish va nazorat qilishda qaysi subyektlar asosiy rol o‘ynaydi?

A) Markaziy banklar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar asosiy regulyator sifatida faoliyat yuritadi

B) Xalqaro miqyosda ishlovchi tijorat banklari moliya bozorini boshqaradi

C) Moliya sohasini faqat xalqaro sug‘urta kompaniyalari nazorat qiladi

D) Mahalliy kompaniyalar

235. Anglosakson moliya bozori modelining asosiy xususiyati nima?

A) Qimmatli qog‘ozlar bozori asosiy rol o‘ynaydi

B) Bank krediti ustunlik qiladi

C) Davlat boshqaruvi ustuvor

D) Xususiy sektorning past ishtiroki

236. Xalqaro valyuta bozorida “float” tizimi nimani anglatadi?

A) Bozor mexanizmlariga asoslangan erkin valyuta kursi

B) Valyuta kursini davlat tomonidan qat’iy belgilash

C) Valyuta kursini davlat va xalqaro institutlar nazorat qiladi

D) Mahalliy banklar tomonidan boshqariladigan kurs

237. Moliya bozorlarining kelajakdagi rivojlanishi qaysi yo‘nalishda bo‘lishi kutilmoqda?

A) Faoliyatning to‘liq raqamlashtirilishi

B) Milliy moliya bozorlarining mustaqilligi

C) Davlatlarning xalqaro moliyaviy jarayonlardan chiqishi

D) Moliyaviy vositalarning turli-tumanligi kamayishi

238.O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilot bilan ekologik loyihalar olib bormoqda?

A) WHO B) WTO C) UNDP D) NATO

239. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi qanday maqsadni ko‘zlaydi?

A) Ichki nizolarni kuchaytirish B) Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish

C) Hukumatni zaiflashtirish D) Ichki siyosatni yopish

240. O‘zbekiston ishtirok etayotgan YUNESKO dasturlarining asosiy yo‘nalishi:

A) Qurol-yarog‘ yetkazib berish B) Madaniy merosni asrash

C) Transport siyosati D) Sanoatni rivojlantirish

241.“Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotida O‘zbekiston kim sifatida qatnashadi

A) Tomoshabin sifatida B) Hamkor sifatida

C) Gumanitar tashkilot sifatida D) A’zo bo‘lmagan kuzatuvchi

242. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti qisqarmasini toping:

A) UN B) IMF C) OECD D) ADB

243. O‘zbekiston qaysi tashkilot doirasida “yashil energetika” loyihalarini olib bormoqda?

A) IMF B) UNDP C) SCO D) ASEAN

244. IHT (Islom hamkorlik tashkiloti)dagi O‘zbekistonning roli:

A) Rivojlanayotgan a’zo B) Bosh kotib

C) Ta’sischi davlat D) Kredit beruvchi

245. Jahon savdo tashkilotining asosiy maqsadi nima?

A) Iqtisodiy sovrinlarni taqsimlash

B) Xalqaro savdo to‘siqlarini kamaytirish

C) Mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy tenglikni ta’minlash

D) O‘zaro harbiy ittifoqlarni tuzish

246. O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishi uchun qaysi hujjat muhim hisoblanadi?

A) Savdo kelishuvlari B) Investitsiya strategiyasi

C) G‘arbiy mamlakatlar bilan aloqalar D) Savdo-transport yo‘llarini qurish

247. Jahon savdo tashkiloti tashkil etilgan yilni belgilang

A) 1991 B) 1995 C) 2000 D) 2003

248. O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonida qanday muammo yuzaga kelmoqda?

A) Valyuta kursi barqarorsizligi

B) Tashqi savdoni nazorat qilish qiyinchiliklari

C) Raqobatbardoshlikni oshirishdagi cheklovlar

D) Mahalliy ishlab chiqarishning yuksalishi

249. Jahon Savdo Tashkilotining tashkil etilishiga sabab bo‘lgan asosiy shartnoma:

A) Bretton Woods shartnomasi

B) GATT (General Agreement on Tariffs and Trade)

C) OECD shartnomasi

D) Maastricht shartnomasi

250. O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishi natijasida qanday foydalar kutilmoqda?

A) Xalqaro moliyaviy yordam olish

B) O‘zaro savdo va investitsiyalarni ko‘paytirish

C) O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotining yomonlashishi

D) Yangi to‘siqlar yaratish

GLOSSARIY

Aksiz - ishlab chiqarish vaqtida mamlakat ichidagi ommaviy iste'mol tovarlariga (benzin, tamaki, alkogolli ichimliklar va boshqalar) solinadigan bilvosita soliq.

Asosiy kapital - kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari (mashina, as-bob-uskuna, ishlab chiqarish binolari va uskunalari)ni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi.

Atrof- muhit psixologiyasi (**ekologik psixologiya**) — inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning psixologik jihatlarini, moddiy voqelik omillarining insonga ta’sirini o‘rganadigan fan.

Bank o‘tkazmalari - o‘tkazuvchi (to‘lovchi) talabiga muvofiq uning hisobidan oluvchi (benifitsiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka to‘lov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob ko‘rinishi.

Barter - bu bevosita tovar almashinuvini anglatadi, ya’ni pul ishtirokisiz tovar, xizmat yoki qimmatbaxo narsalarni boshqa tovar, xizmat yoki qimmatbaho narsalarga almashtirish.

Baynalmilalchilik - jahondagi turli millat va irqlarga mansub kishilarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birlarini tushunishlari va o‘zaro ishonchining , madaniyatlar, qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o‘zaro singib borishining asosi; millatchilikning ziddi.

Bojxona - chegara orqali o‘tadigan jami yuklarni, jumladan, bagaj va pochta jo‘natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi; o‘tkazilayogan yuklarni tekshirish, tartibga solish va rasmiylashtirish, ulardan boj va yig‘imlar undirish bilan shug‘ullanadi.

Bojxona to‘lovlari - mamlakat chegarasi orqali o‘tkaziladigan (olib kiriladigan va chiqariladigan) tovarmoddiy boyliklar uchun to‘lanadigan haq.

Bojxona boji - bu tovarlar davlat chegarasini kesib o‘tganda undiriladigan maxsus pul yig‘imi bo‘lib, u import, eksport yoki tranzit operatsiyalari uchun qo‘llaniladi.

Bojxona ittifoqi - ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘rtasida o‘zaro bojxona chegaralarini bekor qilish, boshqa mamlakatlar uchun yagona boj tariflarini joriy etish to‘g‘risidagi bitim.

Bojxona tarifi - bu mamlakatga import qilinadigan yoki undan eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladigan bojxona bojlarining tizimlashtirilgan ro‘yxati (yoki stavkalar majmui) bo‘lib, u tashqi savdoni tartibga solish va milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida qo‘llaniladi. Bojxona tariflari odatda tovarlar klassifikatsiyasiga asoslangan bo‘lib, har bir tovar kodi uchun alohida boj stavkasi belgilanadi. Bu tariflar milliy qonunchilik yoki xalqaro kelishuvlar asosida belgilanadi. davlat chegarasi orqali o‘tadigan tovarlardan undiriladigan bojlar stavkalari majmui.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish - an’anaviy va rejali buyruqbozlik tuzumidagi iqtisodiy munosabatlardan bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni

Bozor islohotlari instituti, Bozor islohotlarini chuqurlashtirish ilmiy tadqiqot instituti - ilmiy muassasa.

Valyuta - mamlakatning pul birligi va uning turi (milliy valyuta) (oltin, kumush, qog‘oz), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning xalqaro muomalada qo‘llanuvchi pullar.

Valyuta bozorlari - milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta‘sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy valyutalarni oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

Valyuta intervensiyasi - bu mamlakatning markaziy banki tomonidan valyuta bozoriga aralashuv, ya’ni valyuta kursi yoki milliy valyutaning miqyosini manipulyatsiya qilish maqsadida valyuta kursini sozlash.

Valyuta kotirovkasi - bir valyuta bahosini boshqa valyutalarda ifodalanishining sonli yozuvi.

Valyuta kursi - milliy valyutalar o‘rtasidagi nisbat, bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi.

Valyuta konvertatsiyasi - valyuta almashinuvi — mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyutalarga yoki xalqaro to‘lov vositasi sifatida amal qiluvchi valyutaga erkin almashtirilishi.

Valyuta siyosati - davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursita, valyuta operatsiyalariga ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari.

Valyuta xatari - valyuta kursi o‘zgarishi oqibatida eksportyor va importyorning zarar ko‘rishi lozim bo‘lgan holati.

Valyutaning konvertirlanganligi - milliy valyutani xorijiy valyutalarga rezidentlar uchun ham, rezident bo‘lmaganlar uchun ham to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha almashtirish imkoniyati.

Valyuta cheklovlari - bu xorijiy valyuta hamda boshqa qimmatbaho aktivlar (masalan, oltin) bilan bog‘liq operatsiyalarni cheklash maqsadida o‘rnatilgan ma’muriy va huquqiy qoidalar to‘plamidir.

Valyuta pozitsiyasi — bu bankning xorijiy valyutaga nisbatan bo‘lgan talab va majburiyatlarining farqi hisoblanadi.

Veksel - ko‘rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to‘lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat, qimmatli qog‘oz.

Globallashuv – bu butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir.

Global muammolar - umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog‘liq hozirgi zamon muammolari.

Davlat buyurtmasi - davlat tomomnidan muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste‘molchiga yetkazib berish, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ma‘lum ishni bajarish bo‘yicha korxona va xo‘jaliklarga beriladigan topshiriq. U birinchi navbatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni kafolatlaydi.

Davlat byudjeti - davlat daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalanadigan yillik majmui.

Davlat qarzi - davlatning o‘z fuqarolari, banklar, korxona va tashkilotlar, shuningdek, xorij mamlakatlaridan qarzi.

"Demografik portlash" - jahonning kam rivojlangan va kambag‘al mamlakatlarida nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada aholi sonini o‘sishi.

Devalvatsiya - milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon - revalvatsiya).

Demping - tovarlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon bahoda sotish. Tashqi bozorni egallash uchun mamlakatlar o‘z tovarini

ba‘zan ishlab chiqarish xarajatlaridan ham past (arzon) baholarda chetga chiqarishi mumkin.

Demokratiya - barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum.

Dollar - Amerika Qo‘shma Shtatlari pul birligi, 1786 yilda kumush dollar, 1965 yilda esa oltin, kumush, mis-nikelli dollar zarb qilingan. AQSH dollari xalqaro valyuta hisob-kitoblarida keng qo‘llanadi.

Diskriminatsiya - davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash yoki kamsitish.

Hisob stavkasi - hisob foizi stavkasi, qayta moliyalashtirish stavkasi — markaziy banklarning tijorat banklari rezervlarini to‘ldirish va ularning o‘z mijozlariga bank xizmatlari ko‘rsatish uchun beradigan kreditlariga belgilaydigan foiz stavkasi; tijorat banklari Markaziy bankdan olgan kredit resurslari uchun to‘laydigan haq.

Yevro - yevropa mamlakatlari uchun hisob-kitob-to‘lov birligi bo‘lib, YIga a‘zo mamlakatlar hududida EKYU o‘rniga joriy etilgan.

Yevropa tiklash va taraqqiyot banki - (YeTTB) 1991 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning a’zolari 34 mamlakatdan iborat. Bankning asosiy vazifalari — loyihalarni moliyalashtirish va kreditlash, xususiy investitsiyalar uchun kafolatlar taqdim etish hamda iqtisodiyotni qayta qurish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jahon bahosi - talab va taklif egri chiziqlari ta‘sirini hisobga olgan holda milliy narx ko‘rsatkichlari ta‘sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo‘ladi.

Jahon bozori - moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi XIMlarning subyektlarini o‘zaro iqtisodiy ta‘sirlanishidagi global muhitidir.

Jahon puli - xalqaro miqyosda hamma uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to‘lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynalminal qiymat ifodasi bo‘lgan puldir.

Jahon xo‘jaligi – turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlari zamirida bir-birini taqozo etgani holda umumjahon yaxlitligini tashkil etishi; jahondagi o‘zaro aloqador milliy xo‘jaliklar va xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti - xalqaro tibbiy tashkiloti bo‘lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning ixtisoslashgan maxsus muassasasi hisoblanadi.

Jami ijtimoiy mahsulot — ma’lum bir davrda jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan barcha iste’mol qiymatlarining umumiy yig‘indisidir. Bu ko‘rsatkichni yil davomida alohida shaxslar, korxonalar yoki tarmoqlar tomonidan yaratilgan mahsulotlar majmui sifatida ham tushunish mumkin.

Identifikatsiya - bu biror narsaning nima ekanligini yoki kimligini aniqlash jarayoni.

Ijtimoiy integratsiya - bu yangi kelganlar yoki ozchiliklarning mavjud jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga qo‘shilish jarayoni.

Import - ichki bozorda sotish uchun mamlakatga xorijiy tovarlar kiritish va xizmat keltirish.

Import kvotasi - boshqa mamlakatlardan tovarlarni olib kirishga miqdoriy limit.

Immigrant - bir davlatdan boshqa bir davlat hududiga doimiy yoki uzoq vaqt istiqomat qilish uchun koʻchib kelgan fuqaro.

Immigratsion kvota - Import kvotalari - boshqa mamlakatlardan tovarlarni olib kirishga miqdoriy limit.

Inson huquqlari – shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, kamolot topishi, uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur boʻlgan xususiyatlari.

Investor - oʻz nomidan va oʻz hisobidan mijozlarning topshirigʻiga binoan iqtisodiy faoliyatning turli sohalariga oʻz kapitalini qoʻyuvchi yuridik va jismoniy shaxs.

Investitsiya siyosati - bu davlat tomonidan mamlakatga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish, ularni himoya qilish va samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Integratsiya - biror-bir elementlarni bir butunga birlashtirish. bu suveren davlatlar oʻrtasida tovarlar, xizmatlar,moliya, investitsiya,ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni.

Iqtisodiy integratsiya – turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular oʻrtasida uzviy iqtisodiy aloqalar oʻrnatilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xoʻjalikning shakllanishi jarayoni.

Iqtisodiy o‘sish - mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko‘paygan miqdorda takrorlanishi.

Iqtisodiy islohotlar - xo‘jalik yuritish tizimida, iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo‘llari va usullarida yirik qayta qurishlar, o‘zgartirishlar samaradorligi past muayyan iqtisodiy tizimni takomillashtirish yoki eski tizimdan yangisiga o‘tish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy siyosat - iqtisodiyotni boshqarish, mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy jarayonlarga muayyan yo‘nalish berish sohasida davlat, hukumat faoliyatining bosh yo‘nalishi, tadbirlari tizimi; iqtisodiyot fani sohalaridan biri.

Inflyasiya - pulning qadrsizlanishi. Muomaladagi pul massasini tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan to‘liq ta‘minlanmasligidan kelib chiqadi.

Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli.

Infratuzilma – ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan me’yoriy sharoitni ta’minlashga xizmat kiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxona va muassasa) majmui; nomoddiy ishlab chiqarish sektori.

Iste’mol savati - muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ta‘minlashga yetarli bo‘lgan miqdori.

Ishlab chiqarish omillari – tabiiy resurslar, ishchi kuchi, sarmoya va ilg‘or texnologiyalarning davlatlararo erkin harakati.

Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash - ishlab chiqarishni tashkil qilish shakli, ma’lum bir mahsulotni hamkorlikda tayyorlash uchun korxonalar o‘rtasida maxsus ishlab chiqarish aloqalari.

Iste’mol savati - bu ma’lum bir davrda oilaning asosiy oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan miqdor. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar oshishi va baholarning o‘zgarishi aholi hayotiga ta’sir qiladi. Shuning uchun hukumat iste’mol savatidagi mahsulotlar narxining o‘zgarishini nazorat qilib, ularning narx indekslarini tuzadi va shu asosda aholining daromadlarini indekslashtiradi, ya’ni mos ravishda oshiradi.

Iqtisodiy ittifoq - iqtisodiy integratsiyaning oliy ko‘rinishi bo‘lib, u umumiy huquqiy me‘yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o‘tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) - 1961 yilda AQShning tashabbusi bilan mamlakatlar o‘rtasida yagona iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uning bajarilishini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan. Tashkilotga AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, YeIga a’zo 15 mamlakat, shuningdek, Islandiya, Norvegiya, Shveysariya va Turkiya kiradi. IHTT jahon iqtisodiyoti holati va uning rivojlanish yo‘llarini, xalqaro savdoni erkinlashtirish va tartibga solish masalalarini, shuningdek, sanoati rivojlangan davlatlar bilan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan yangi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi va hal qiladi.

Kapital - o‘z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o‘zini o‘zi ko‘paytiruvchi qiymat.

Kapitalning xalqaro miqyosda harakatlanishi - ya’ni xorijiy sarmoyalarning tashqi savdo va ishlab chiqarish sohasidagi ulushining tez o‘sishi, fond bozorlarining rivojlanib borishi;

Korporatsiya - rivojlangan yirik aksiyadorlar jamiyati, biron bir faoliyat uchun uyushgan huquqiy va jismoniy shaxslar majmui.

Konsalting - bu konsalting kompaniyasi tomonidan mijozlarga turli sohalarda keng qamrovli maslahat va ko‘mak ko‘rsatish xizmatidir.

Kvotalash - davlat tomonidan eksport va importning qiymat va jismoniy hajmini to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash siyosati.

Kredit kartochkasi - elektron bank tizimlari yordamida tovarlar va xizmatlar uchun naqd pul ishlatmasdan to‘lov amalga oshirish vositasi.

Liberalizatsiya - qonunlar, tizimlar yoki fikrlarni unchalik jiddiy bo‘lmagan holga keltirish amaliyotiga ishora qiladi

Markazii Osiyo hamkorligi tashkiloti - davlatlararo mintaqaviy iqtisodiy tashkilot.

Maxsus qarz olish huquqi — bu Xalqaro Valyuta Fondining maxsus hisobida qayd etiladigan kredit yozuvlari shaklida mavjud bo‘lgan xalqaro rezerv aktivlari bo‘lib, har bir a'zo davlatning egalik qilish miqdori uning XVFdagi kvotasiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Modernizatsiya - bu biror narsani yangilash, zamonaviy holatga keltirish, zamonaviy talablarga moslashtirishdir.

Monetar siyosat - Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan va foiz stavkalari va pul massasini tartibga solish orqali yalpi talabni boshqarishdan iborat chora-tadbirlar majmuidir.

Monitoring (xo‘jalik) — iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib borish, ma'lumot to‘plash va tahlil qilish jarayoni.

Moliya - markazlashgan va markazlashmagan maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

Moliya bozori - oldi-sotdi obyekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog‘oz bilan bog‘liq bo‘lgan bozor.

Moliya tizimi - iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti.

Milliy valyuta — muayyan davlat (davlat markaziy banki) tomonidan chiqariladigan valyuta. Birinchi navbatda mamlakat hududida, quvvati va holatiga qarab tashqi savdo va xalqaro hisob-kitob ishlarida qo‘llanadi

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan.

Mehnat unumdorligi - ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi;

Nodavlat notijorat tashkilot – bu rasmiy davlat muassasalardan mustaqil tarzda faoliyat yurituvchi, o‘zlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va ekologik maqsadlariga mos ravishda lobbichilik, ishontirish orqali ish olib boruvchi va o‘z sohasi uchun kerakli xodimlarni jalb qiluvchi nodavlat notijorat tashkilot sanaladi.

Noqonuniy migratsiya – bu mamlakatning migratsiya qonunchiligini buzgan holda migratsiya qilishdir.

Oziq-ovqat xavfsizligi - milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash imkoniyati.

Offshor hududlar - bu imtiyozli soliqqa tortish tartibi amal qiladigan hududlar (butun bir davlat yoki uning alohida qismlari). Soliq stavkalari juda past yoki mavjud bo‘lmagan, shuningdek, xorijiy investorlar uchun soddalashtirilgan huquqiy va moliyaviy sharoitlar yaratilgan davlat yoki maxsus hudud bo‘lib, ko‘pincha soliqdan qochish yoki biznesni maxfiy yuritish maqsadida qo‘llaniladi.

Oltin-valyuta zaxiralari - mamlakatning markaziy emissiya banki yoki xazinasida quyma va tanga shaklida to‘plangan markazlashgan oltin rezerv fondi.

Ommaviy tashkilot – ma’lum bir ijtimoiy tabaqadan yoki jamiyatning turli qatlamlaridan bo‘lgan, bir xil kasb yoki jamiyatning ayrim elementlaridan bo‘lgan odamlarni o‘z ichiga olgan, bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan va jamiyatning iqtisodiy-demokratik huquq va manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotlarga berilgan nom, ularni ifodalovchi tizimdir.

Ochiq bozor - tovarlarning boshqa yerdan erkin keltirilib va chegaralanmagan miqsorda oldi-sotdi qilinishi.

Osiyo - Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti - 1989-yilda barpo etilgan xalqaro iqtisodiy birlashma. Tashkilotga Xitoy, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Gonkong hamda ASEAN a'zosi oltita davlat (Indoneziya, Malayziya,

Singapur, Tailand, Filippin, Bruney) kiradi va jami 17 mamlakatni qamrab oladi.

Osiyo rivojlanish banki (ORB) — BMTning ESKATO komissiyasi tashabbusi bilan 1966-yilda yaratilgan va 1968-yildan faoliyat boshlagan xalqaro moliya instituti. Aksionerlik tamoyilida ishlaydi va 45dan ziyod a'zo davlatni birlashtiradi. Asosiy maqsadi mintaqadagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslar va texnik ekspertiza taqdim etish, savdo aloqalarini kengaytirish hamda hududiy integratsiyani mustahkamlashdir. Markaziy ofisi Filippin poytaxti Manilada joylashgan.

Raqobat – bu ikki kishi yoki guruhning doimiy raqobatbardosh munosabatlardagi holati. Raqobat – bu raqobatlashayotgan ikki tomon o‘rtasidagi „bir-biriga qarshi“ munosabati.

Portfel investitsiyalar - xo‘jalik obyektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital qo‘yilmalari.

Protektsionizm - xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning bevosita va bilvosita usullar orqali faol aralashuvini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

Plyuralizm - borliqning bir necha mustaqil ibtidosi yoki bilimning bir qancha asosi mavjud deb hisoblovchi falsafiy qarash.

Ratifikatsiya qilish - bu vakolatli vakili tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomani oliy davlat hokimiyati organi tomonidan ma’qullanishi, har bir tomonning tegishli organi tomonidan ma’qullangan holda hujjatga (masalan, shartnomaga) yuridik kuch berish jarayoni.

Raqobat - bu ikki kishi yoki guruhning doimiy raqobatbardosh munosabatlardagi holati.

Revalvatsiya — milliy valyuta – pul birligi kursini boshqa mamlakatlar yoki xalqaro valyuta-pul birliklariga nisbatan rasmiy oshirish.

Rezident - fuqaroligi va pasport statusidan qat‘iy nazar davlat hududida bir yildan oshiq yashagan jismoniy va huquqiy shaxs tushuniladi (bu mamlakatda shtab-kvartiraga ega bo‘lgan diplomatik missiya ishchilari, harbiy personal va xalqaro tashkilotlar xodimlaridan tashqari).

Sog‘liqni saqlash sohasi - aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi.

Subsidiya - bu davlat tomonidan ma'lum bir maqsadlar uchun fuqarolar yoki tashkilotlarga beriladigan moliyaviy yordamdir.

Sharqiy Yevropa uchun rekonstruksiya va taraqqiyot Yevropa banki — 1990-yil yanvar oyida yaratilgan xalqaro moliyaviy institut bo‘lib, Sharqiy Yevropa davlatlari va Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy resurslar taqdim etadi. Bankni 12 davlat hamkorlikda tashkil etgan va u demokratik o‘zgarishlar hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tishni rag'batlantiradi.

Shimoliy Amerika mamlakatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (NAFTA) — 1989-yilda barpo etilgan mintaqaviy savdo bloki bo‘lib, AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasida erkin savdo hududini yaratish orqali iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida

tuzilgan. Ushbu ittifoq orqali a'zo davlatlar o‘rtasida bojxona to‘siqlarini kamaytirish va savdo aylanmasini oshirish ko‘zda tutilgan.

Tashqi savdo siyosati - davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, tashqi savdoga iqtisodiy va ma’muriy dastaklar – soliqlar, subsidiyalar, import va eksportni to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash, kreditlash va boshqalar orqali ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Tashqi savdo - bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi.

To‘lov balansi - bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga to‘lovlar ko‘rinishidagi pul mablag‘lari harakatini aks ettiradigan jadval, ro‘yxat.

Trest — 20-asr boshlarida shakllangan monopolistik birlashmaning yuqori darajali shakli bo‘lib, unda ishtirokchi korxonalar ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy faoliyatini to‘liq birlashtiradi. Trest tarkibidagi kompaniyalar o‘zlarining huquqiy va iqtisodiy mustaqilligini yo‘qotib, yagona boshqaruv ostida faoliyat yuritadilar. Bunday tashkiliy tuzilma kapital aylanishini jadallashtirib, foyda olish samaradorligini oshiradi. Trestlar birinchi marta 19-asr oxirlarida AQShda paydo bo‘lgan va asosan Amerika bozorida keng rivojlangan.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) - chet el aktivlariga ega bo‘lgan yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirishning ko‘rinishi.

Transaksion tahlil - psixologik model bo‘lib, insonning individual va guruhlardagi xatti-harakatlarini tavsiflash va tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

Tarifsiz to‘siqlar - litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo‘yish yoki oddiy ma’muriy taqiqlashlar tushuniladi;

Umumiy bozor — Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati. 1955-yilda G‘arbiy Yevropaning 6 ta davlati tomonidan tuzilgan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar - mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimidagi munosabatlar tushuniladi.

Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi - mamlakatlar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti ko‘rinishi bo‘lib, unda o‘zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.

Xalqaro kredit - valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinch to‘lov shartlarida berishlikdir.

Xalqaro savdo - milliy xo‘jaliklar o‘rtasida to‘lanadigan jami tovar aylanmasi ko‘rinishidagi mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o‘ziga xos shaklidir.

Xalqaro moliyaviy operatsiyalar - beg‘araz yordam va moliyaviy ko‘mak, kredit va qarz ajratish, qimmatli qog‘ozlar bozori, shuningdek maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi.

Xalqaro hisob-kitoblar - turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chiquvchi pul talablari va majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlami tashkil etish va tartibga solish jarayoni.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim ko‘rinishlaridan biri.

Xalqaro mehnat taqsimoti - ayrim mamlakatlarning muayyan mahsulotlarini ishchi kuchiga ixtisoslashuvi va mahsulotlarni ayirboshlashi.

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir.

Xususiylashtirish — davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy subyektlarga o‘tishi jarayoni, xilma-xil mulkchilikni shakllantirish, iqtisodiyotni davlatlashtirishdan qaytish yo‘llaridan biri.

Yagona iqtisodiy makon — iqtisodiy ittifoqqa birlashgan bir necha davlatlar tomonidan tashkil etiladigan yaxlit iqtisodiy hudud.

Faktoring — moliyaviy tashkilot tomonidan yetkazuvchining xaridordan bo‘lgan qarzini oldindan to‘lab, keyinchalik bu qarzni bevosita debitordan undirish asosidagi vositachilik xizmati. Ushbu operatsiya orqali sotuvchi o‘z mahsulotini yetkazib berishdan darhol keyin pul mablag'ini olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, xaridor esa to‘lovni muddatli amalga oshiradi.

Fiskal siyosat - bu davlat tomonidan soliqlar va davlat xarajatlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish, maqsadga muvofiq boshqarish uchun amalga oshiriladigan siyosat.

Franchayzing — katta korxonaning o‘z brendini, tijorat nishonini va biznes modelini boshqa tadbirkorlarga muayyan shartlar asosida foydalanishga berish tizimi. Bu tizimda franchisor o‘z tajribasini va taniqli markasini taqdim etsa, franchizi esa belgilangan standartlar bo‘yicha faoliyat yuritib, royalti to‘laydi.

Eksport - tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Eksport kvotasi - ma'lum bir mamlakat yoki mintaqadan eksport qilinadigan ma'lum bir mahsulot yoki mahsulotlar qatorining hajmini belgilangan davr mobaynida cheklashdir.

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya‘ni - bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan o‘ziga xos imtiyozlar va rag‘batlantirishlar tizimidan keng foydalaniladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni 1998-yil 30-iyun

2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 2019-yil 25-dekabr

3. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni 2021-yil 22-iyul

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Farmoni 2022-yil 28-yanvar

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2016.

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: “O‘zbekiston”, 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: “O‘zbekiston”, 2017.

8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.

9. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения: Учебник. — М.: Юристъ, 1999. — 368 с.

10. Alimov A.M. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. -T.: «Fan va tcxnologiya», 2016, 276 bet.

11. Булатова А.С. Страны и регионы мира. Экономический справочник, 3-е издание-М.: Проспект, 2009.-С.704

12. Булатов А.С. Мировая экономика и международные экономические отношения.Учебник 2017. 361 с.

13. Gereffi G. Global Value Chains and Development: Redefining the Contours of 21st-Century Capitalism. Ilmiy asar. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 238 p.

14.Vaxabov A. V. Xajibakiev Sh. X., Muminov N. G. Xorijiy investitsiyalar. Ukuvkullanma. — T.: «Moliya».

15. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik / - Toshkent: Baktria-press, 2015.

16. Ergashev I.I., Raximova N.A. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Uslubiy qollanma. Samarqand 2020 y. 211 b.

17.Isxakova S.A. va boshqalar. Jahon mintaqalari iqtisodiyoti [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 352 bet.

18. Икромов Д.З. Международная экономическая интеграция. Ўқув қўлланма. – М.: Юрайт, 2020. – 284 с.

19. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег — М.: ЗАО «Бизнеском», 2013. — 408 с

20. Ломакин В. Мировая экономика. Учебник. 2004.-735 с.

21. Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник 2004. 512 с.

22.Майкл Портер. Международная конкуренсия. Конкурентные преимущества стран. Издателство-Алпина Паблишер, 2017 г. 947 с.

23. Milanovic B. Capitalism, Alone: The Future of the System That Rules the World. Monografiya. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2019. – 287 p. 17.

23.Миклашевская Н. Международная экономика. Учебник. 3-е издание. 2004.

24. Nazarova G.G., Iminov Z.M., Xalilov X.X., Xamidov O.B.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. -T.: TDIU, 2011. 314

24. Островская Е.Н. и другие. Мировая экономика и международные отношения: учебное пособие. – СПб.:РГГМУ, 2020. – 202 с.

25.Платонова И. Н. Международные экономические отношения в глобальной экономике. Учебник. Москва 2019. 528 с.

26.Paul A. Samuelson and o. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.

27. Слепова В.А, Звоновой Е.А. Международный финансовый рынок. М.: Магистр, 2009. - С.34.

28. Sattorqulov O.T., Shoyev A.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: “Ziyo nashr-matbaa” 2024 y. 392 b.

29. Спиридонов И.А. Мировая экономика. Учебное пособие Инфра-М. 2004.315 с.

30. Фролова Е.Д. Мировая экономика и международные экономические отношения: современное состояние, проблемы и основные тенденции развития. Учебное пособие. Екатеринбург, 2016. - 184 с.

31. Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2014. –Б. 480.

32. Хейфец В.Л. Международная интеграция: учеб. пособие. СПб.: ГУАП, 2022.

33. Юрова Н.В. Мировая экономика и международные экономические отношения : учеб. пособие. 2021.